

2022

XALQARO FORUM TO'PLAMI

2-KITOB



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**TARJIMASHUNOSLAR
FORUMI - 2022**

**ФОРУМ
ПЕРЕВОДОВЕДОВ - 2022**

**TRANSLATION
FORUM - 2022**

XALQARO FORUM TO'PLAMI

**О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

TARJIMASHUNOSLAR FORUMI – 2022

(Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari)

2022-yil 10-12- dekabr, Toshkent

ФОРУМ ПЕРЕВОДОВЕДОВ – 2022

(Материалы международной научно-практической конференции)

Ташкент, 10-12 декабря 2022 г.

TRANSLATION FORUM – 2022

Proceedings of the international scientific conference

December 10-12, 2022. Tashkent

2-KITOB

“TARJIMASHUNOSLARI FORUMI – 2022” (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). 2-KITOB. –Toshkent: TDSHU, 2022. – 450 b.

Ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-sonli Farmoyishining 1-ilovasiga muvofiq 2022-yilning 10-12 dekabr kunlari Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Tarjimashunoslar Forumi – 2022” **Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman** ishtirokchilari, ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan respublika OTMLarining professor-o‘qituvchilari, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid mavzular yoritilgan maqolalari o‘rin olgan.

Tuzuvchi va mas’ul muharrir: filol.f.d., dotsent **Xayrulla Hamidov**

Konferensiya tashkilotchilari:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti

Tashkiliy qo‘mita:

Prof. G.Rixsiyeva - rais

dots. X.Hamidov

dots. N.Xodjayeva

dots. R.Sharipov

dots. M.Saliyeva

dots. v.b. N.Ismatullayeva

Taqrizchilar:

dots. Ergash Ochilov

dots. Nilufar Xodjayeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022-yil 03-noyabrda 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

© TDSHU huzuridagi Konfutsiy nomidagi o‘zbek-xitoy instituti

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori
Gulchehra Shavkatovna RIXSIYEVAning
KIRISH SO‘ZI**

Hurmatli O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi vakillari!

Muhtaram O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi vakillari!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Avvalambor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasi nomidan “Tarjimashunoslar forumi-2022” xalqaro ilmiy anjumanining barcha mehmonlariga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalar qatorida ilm-fan taraqqiyoti sohasida ham qator islohatlar olib borilmoqda.

“2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ta’lim, madaniyat, fan, adabiyot, san’at va sportni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-son qaroriga muvofiq o‘tkazilayotgan “Tarjimashunoslar forumi-2022” xalqaro ilmiy anjumani, O‘zbekistonda tarjimashunoslik sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda mahalliy va xorijlik olimlar, Turkiya, Hindiston, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlardan kelgan xorijiy olimlarning ilmiy g‘oyalari va tajribasini birlashtiradi.

2012 yildan buyon respublika miqyosida o‘tkazib kelingan va bugunga kelib xalqaro ilmiy-amaliy anjuman darajaiga ko‘tarilgan ushbi forum o‘zbek tarjimashunoslida o‘ziga xos brend bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘tgan 11 yil mobaynida forum tarjimashunoslik masalalari, tarixi va nazariyasi, tarjima amaliyoti va tanqidi muammolari, tarjimashunoslik fanlarini o‘qitish va boshqa masalalarni qamrab olgan xalqaro maqomga ega bo‘ldi. O‘zbekiston tarjimashunos olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy maqolalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilib, tarjimashunoslik fanining rivojiga katta hissa qo‘shmoqda.

Tarjima asarlari milliy adabiyotimizning muhim bir bo‘lagini tashkil etayotgan bugungi kunda ana shu ma’naviy boylikni asrash, uni e’zozlab, kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, adabiyotimiz orqali xalqaro

aloqalarimizni yanada kuchaytirish universitetimiz oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Jahon adabiyoti namunalarining tarjima orqali madaniy hayotimizga kirib kelishi tarjimashunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik sohalarining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yuz yillar davomida dunyo xalqlarning milliy madaniyati, an'analari, urf-odatlarini, dunyoqarashi, hayotni anglash falsafasi, badiiy tafakkuri, qolaversa, yashash tarzi haqida tasavvur hosil qilishda tarjima muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Millatimizning badiiy tafakkuri oynasi bo'lmish adabiyotimiz durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish ishini keng miqyosda amalga oshirish esa bugungi kunda yanada dolzarb masalaga aylanganligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, tarixiy hujjatlar tasdiqlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680 sonli qaroriga ko'ra ta'lim muassasamizga universitet maqomi berildi. Sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish maqsadida bir qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ular orasida yangi ta'lim yo'nalishlari va magistratura ma' faoliyati bilan bog'liq yangi gid hamrohlik va tarjimmutaxassisliklarini ochish masalasi ham bo'lib, bu o'quv yilidan aynan tarjionlik, xalqaro jurnalistika, sinxron tarjima bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ishlari boshlandi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasini ham yo'nalishlari kengayib, Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika deb nomlandi, talabalar kontingenti keskin ko'paydi. Bularning barchasi xalqaro munosabatlar kengayib borayotgan bugungi kunda sharq tillari bo'yicha tarjimon mutaxassislariga bo'lgan katta ehtiyojdan tashqari, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, ularning soni va sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar bilan bog'liq, albatta.

Ushbu forum universitet oldiga qo'yilgan vazifalar doirasida faoliyatimizni tanishtirish, ayniqsa, tarjimashunoslikning barcha yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashning muhim jihatlarini muhokama qilish, o'zbek adabiyoti namunalarini sharq tillariga va jahon adabiyotining yetuk

asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish masalalari yuzasidan mutaxassislar va olimlar bilan fikr almashish uchun katta bir ilmiy maydon bo‘lishi shubhasiz.

“Tarjimashunoslar Forumi – 2022” to‘plamining ushbu soni taniqli adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, professor, ijodkor, mudarris va murabbiy, O‘zbekistonda tarjimashunoslik faniga asos solib, o‘ziga xos maktab ham yaratgan ustoz **G‘aybulla Salomov tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib**, undan bugungi anuman ishtirokchilari hisoblangan taniqli tarjimonlar va sohaning eng ko‘zga ko‘ringan olimlari hamda TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrasida ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid dolzarb mavzular yoritilgan ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Respublikamiz va undan tashqarida tanilgan adabiyotshunos, tilshunos va tarjimashunos olimlarning ushbu Forumga ishtirok etish uchun ma‘ruza mavzulari va maqolalarini tashkiliy qo‘mitaga yuborganliklari anjumanning nufuzi va saviyasini ko‘rsatmoqda. TDSHU professorlari, dotsentlarining forum tashkiliy qo‘mitasiga yuborgan ilmiy maqolalari ham shular jumlasidandir.

Bugungi anjumanga ishtirok etayotgan muhtaram mehmonlar, aziz ustozlar va o‘zbek tarjimashunosligining jonkuyarlari bo‘lgan taniqli olimlar va tadqiqotchilarga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rahbariyati va jamoasi nomidan minnatdochilik bildirgan holda, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Fursatdan foydalanib, barcha ishtirokchilarga va hamkor tashkilotlarimizga samarali va konstruktiv hamkorlik uchun, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasi jamoasiga ushbu anjumanni tashkil etish va o‘tkazishdagi mehnatlari uchun o‘zimning samimiy minnatdorligimni bildirmoqchiman.

O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATGAN FAN ARBOBI, XALQARO BOBUR MUKOFOTI SOVRINDORI, FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR G‘AYBULLA SALOMOV TAVALLUDINING 90-YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN MAQOLALAR

O‘ZBEKISTONDA ILK TARJIMA NAMOYONDALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7455035>

Gulnoza SAYDALIYEVA,

TDSHU o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +99893 5680202;

E-mail: saydaliyeva140174@gmail.com

Annotatsiya. *Badiiy Tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san‘at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili – alohida «badiiy voqelik» unsuridir. Obraz va portretni qayta yaratadi. Tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etishi, bu tarjimonning mahorati hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, portret, obraz, tarjimonlik an‘analari, tarjimada qayta yaratish konsepsiyasi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности художественного перевода, исходящие из художественной функции языка. Язык в художественном произведении превращается в эстетическое явление, воссоздаёт образ и портрет. Умение переводчика по-новому воспринять художественный мыслительный процесс событий в произведении есть мастерство переводчика.*

Ключевые слова: *художественный перевод, портрет, образ, традиции перевода, концепция воссоздания в переводе.*

Abstract. *The main feature of artistic translation comes from the artistic function of language. Language becomes an aesthetic phenomenon, a fact of art in a work of art. The language of a literary work is a separate element of "artistic reality". Recreates image and portrait. Therefore, the translator's ability to perceive the artistic thought process of the events in the work anew is the translator's skill.*

Key words: *artistic translation, portrait, image, traditions of translation, the concept of recreation in translation.*

Tarjimashunoslik bizning o‘lkamizda anchadan beri ilg‘or rivojlanib kelayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Birgina, Ma‘mun akademiyasi

Dor ul-Hikmatda Sharq tarjimonlik maktabi faoliyat ko'rsatgan. Unda markaziy osiyolik olimlar bilan arab, fors, hind, yahudiy, turk, yunon olimlari birgalikda faoliyat ko'rsatib, shu jumladan, tarjimonlik ishlariga ham rahbarlik qilganlar. Mazkur tarjimonlik maktabi sa'y-harakatlari tufayli antik madaniyat namunalari arab tiliga o'girilib, butun Sharqda keng yoyilgan. Xususan, Aristotel va Aflotun asarlari Ibn Sino, Farg'oniy tarjimalari orqali bizgacha yetib kelgan. Bundan ming yillar ilgari Ibn Rushd, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Abu Rayhon Beruniy va shu kabi ulug' olimlarimiz dunyoga mashhur asarlarini yaratish bilan birga, tarjima ishlari bilan ham shug'ullanishgan. Beqiyos poliglot bo'lgan vatandoshimiz Beruniy bir qancha kitoblarni hind tilidan arab tiliga tarjima qilgan. Uning maqsadi o'z xalqini ilmga, madaniyatga, ma'rifatga chorlash, boshqa xalqlar durdona asarlari bilan tanishtirish edi. Beruniy asl nusxani buzib tarjima qilganlarni tanqid qiladi va uni o'zining «Hindiston» nomli kitobida bir necha bor uqtirib o'tadi¹.

XIX-XX asrda tarjima asarlarni yaratish borasida ilk qadamlarni o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali kabi adib va shoirlarimiz boshlab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular nafaqat badiiy tarjima balki o'zlarining badiiy asarlarini ham samarali ijod qilganlar. Shuningdek badiiy tarjima sohasida M.Osim, N.Alimuhamedov, Sh.Shomuhamedov, K.Qaxxorova, O.Sharopov, Sh.Tolipov, V.Ro'zimatov, Q.Mirmuhamedov, A.Rashidov, M.Hakimov, I.G'afurov, M.Mirzoidov, G'.To'rabekov va b. professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimachiligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R.Abduraxmonov, V.Rahimov, Sh. Shomahmudov, Z.Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta².

Badiiy Tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — aloxida «badiiy voqealik» unsuridir. Obraz va portretni qayta yaratadi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jaraenini yangidan idrok etish bu tarjimonning mahorati hisoblanadi.

1 Фанишер Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: 2016, 23, бет.

2 <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarjima-uz/>

Zamonaviy Tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini kayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saklashi lozim. Tarjimon o'z ona tilini rivojlanishiga, tarjimachilik an'alarini davom ettirishga, shuningdek, o'zga tildan qilingan tarjimadagi milliy o'ziga xoslik, madaniy yaxlitlikni ona tiliga olib kirib uni boyishiga kitobxonda o'zga madaniyat vakillariga bo'lgan qiziqishni ortishiga katta xizmat ko'rsatadi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'tgan asrimizning 50 yillarida tarjima ravnaq topgan davrlar desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekistonda faoliyat olib borgan tarjima maktablari bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari orasida Rossiyada yaratilgan ishlardan Ye. O. Semenes va A. N. Panaevning «Istoriya perevoda [Srednevekovaya Aziya, Vostochnaya Yevropa (XV–XVIII veka)]» (1991), N. K. Garbovskiyning «Teoriya perevoda» (2004), I.S.Alekseyevaning «Vvedenie v perevodovedenie» (2004), S.B. Veledinskayaning «Kurs obshchey teorii perevoda» (2010), O'zbekistonda yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlardan O. Mo'minovning «History of translation» (2005), Yevropa olimlari tomonidan yaratilgan Savory T. «The Art of Translation» (1968), Nida A. «Towards a science of translating» (1964), Johnston D. «Stages of Translation» (1996), Newmark P. «About translation» (1991) kabi tarjima tarixiga bag'ishlangan kitoblar tarjimonlik faoliyati rivojlanishining bosqichlarini, ushbu faoliyatning insoniyat rivojlanishida tutgan o'rnini yaqqol ko'rsatib beradi³.

1950-1963 yillarda tilimizda ko'plab ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasini nashr etildi. Bizda mafkuraviy jihatdan qat'iy nazar, rus tilidan o'zbek tiliga ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasini bo'yicha katta tajriba to'plandi. Istiqloq yillarida, aksincha, o'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish kuchaydi. Milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi asosida yaratilgan asarlar tarjimalarini ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq qilish bugungi kun tarjimashunoslik fanining dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. O'zbek tarjimashunosligida ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasini masalasi bir qator ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Jumladan, bu sohada o'zbek tarjimashunoslik maktabining asoschisi G'.Salomovning

³ Фанишер Рахимов. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: 2016, 34, бет.

“Matn, tarjima va istiloh” 4 kitobini, maqolalarini misol qilib keltirish mumkin. Bularning barchasi ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimalari muammolari bizda ozmi-ko‘pmi tadqiq etilganidan dalolat beradi. G‘.Salomov o‘zining “Matn, tarjima va istiloh” kitobida tarjima jarayoni va tarjima san‘atini tadqiq etishning tipologik, mantiqiy va lisoniy aspektlarini tahlil qilib bergan 5. Bu asarda narsa va hodisalarning hamjinsligi, mushtarakligi, monandligi, farqi va tafovuti, sog‘lom va nosog‘lom ma‘no xususidagi ilmiy tushunchalar tarjima nazariyasi va amaliyotiga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, qo‘llanmada tarjima, usul, uslub va tahrir texnikasi hamda mahorati va uni egallash yo‘llari, ilmiy istilohlarni tahlil etish va saralash masalalari muxtasar holda yoritilgan. F. Saidovning “Matn va tarjima” mavzuidagi dissertatsiyasi vorisiylik va istilohot, tarjimada lisoniy me‘yor, soddalik va murakkablik mayllari, matn talqini va tarjima, ekvivalentlik va g‘ayrimuqobillik, in‘ikos va asliyat qonunining tarjimaga dahldorlik jihatlari, muallif va mutarjim, asliyat bilan tarjimaning o‘zaro nisbati va munosabati, badiiy tarjimadan farqli o‘laroq, ilmiy va ilmiy-publitsistik tarjimaning o‘ziga xosligi, aniqlik va erkinlik, shuningdek, hijjalab o‘girishning zarari, tahlil va tadqiqotda mantiq va tarjima, qayta yaratish san‘atida turli lisoniy qatlamlardan foydalanish zarurati hamda shu singari bir talay masalalarni yoritishga bag‘ishlangan.

Tarjima nusxa ko‘chirish kabi bir ish bo‘lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa asl matnni tarjima matnga o‘zgartirish jarayonidagi mohir yozuvchi bo‘lishi kerakligini barcha tarjimonlarga oydindir. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o‘ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an‘analari bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab millat vakillari tilidan o‘z ona tiliga ilm-fan va madaniyatning o‘nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she‘rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va b.) tarjimalari amalga oshib kelmoqda.

Tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, asl matnda hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon

4 Саломов Ф. Матн, таржима ва истилох. Т. : 1989.

5 Саломов Ф. Матн, таржима ва истилох. Т. : 1989. 15

asliyat matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida Tarjimaning ta'siri katta bo'ladi, zero tarjima o'z tarixiga egadir. O'zbek adabiyotida ham tarjima qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy kabi yozuvchilarimiz ijodida tarjima katta o'rin egallaydi⁶.

Qisqa qilib aytganda, unda tarjima nazariyasi va qayta yaratish san'atini tadqiq etishning qiyosiy-tipologik, mantiqiy-lisoniy talqinlarini ko'ramiz. Bu borada tadqiqotimizda shunday fikrlarni biz ham qo'llab-quvvatladik. «Ijtimoiy-siyosiy adabiyot mutarjimi badiiy asarlarni o'giruvchi tarjimon singari erkinlikka ega bo'lmaydi. Badiiy tarjimadan asosiy muddao kontekstning ta'sir kuchini boshqa tilda tiklash bo'lsa, falsafiy asarlar tarjimasida falsafiy ma'noni to'la aks ettirish – bosh maqsaddir.

REFERENCES

1. Жаббор М. 20-30 йилларда Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий адабиёт таржимаси. Таржима муаммолари, /мақолалар тўплами/ -Т.: 1991.
2. Саломов Ғ. Матн, таржима ва истилоҳ. Т.: 1989.
3. Рашидова Д. К. Маркс ва Ф. Энгельс асарларидаги фалсафий терминология (улар асарларининг русча ва ўзбекча таржималарини немисча аслияти билан қиёсий ўрганиш асосида). Дисс. Т.: 1972
4. Саидов Ф. Матн ва таржима. Дисс. Т.: 1991.
5. Ғанишер Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: 2016, 34, бет.
6. Махаматдиров, А. В. Q. (2021). Hozirgi xitoy tili qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya munosabati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 90-102.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC

⁶ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarjima-uz/>

WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.

9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.

10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).

11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

HINDISTON TARJIMASHUNOSLIGI TARAQQIYOTIGA DOIR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7455039>

Gulnoza NAZRULLAYEVA,

TDSHU tayanch doktoranti. Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +99899 828 53 46; E-mail: gulnoza90@list.ru

Annotatsiya. *Ko‘p asrlik bosqinchilik, migratsiya va madaniy integratsiya tufayli ajoyib til xilma-xilligi va til aloqasi holati bilan Janubiy Osiyo tarjimashunoslari uchun ajoyib imkoniyat yaratdi. O‘z mahoratini ishga solib, o‘rnatilgan nazariy lingvistik da‘volarga qarshi turish uchun hozirgi vaqtda tilni saqlab qolish kerak. Mazkur maqola Hindistonda tarjimashunoslik taraqqiyotiga bag‘ishlanadi. Uning qanday taraqqiy etgani va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Hindiston tarjimashunosligi, ko‘p tilli, bhakti, navjagaron, svachhandatavad, riti.*

Аннотация. *Столетия вторжений, миграций и культурной интеграции создали прекрасную возможность для переводчиков из Южной Азии с ее замечательным языковым разнообразием и состоянием языковых контактов. Необходимо сохранить язык в настоящем, чтобы проявит свое мастерство и бросит вызов установленным теоретическим лингвистическим утверждениям. Данная статья посвящена развитию переводоведения в Индии. В нем рассказывается о том, как он развивался и о его уникальных особенностях.*

Ключевые слова: *индийское переводоведение, многоязычие, бхакти, навджагаран, свачхандатавад, рити.*

Abstract. *Centuries of invasion, migration, and cultural integration have created a great opportunity for South Asian translators, with its remarkable linguistic diversity and state of linguistic contact. It is necessary to preserve the language in the present in order to exercise one's skill and challenge established theoretical linguistic claims. This article is devoted to the development of translation studies in India. It talks about how it developed and its unique features.*

Key words: *Indian translation studies, multilingualism, bhakti, navjagaran, svachhandatavad, riti.*

Tarjima faqat so‘z bilan bog‘liq emas:
bu butun madaniyatni tushunarli qilish masalasidir.

Anthony Burgess

Asosiy qism: “Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning

ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo‘lib qoldi. Ya’ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo‘lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o‘zaro aloqasi, o‘zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo‘lmaydi. “Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo‘lmaslik, g‘ofillik milliy mahdudlikka olib keladi” [6, 18]. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog‘lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko‘prik deb qaraladi” [4, 4].

Hindiston Respublikasi – katta ko‘p millatli mamlakatdir. Uning aholisi turli til va shevalarda muloqot qilishadi. 2001-yil aholini ro‘yhatga olishda 1652 til qayd etilgan. O‘n mingdan ortiq ona tilida so‘zlashuvchilar 216 ta til mavjud. Hindistonda rasmiy tillar soni 22 ta hisoblanadi. Ammo bu til boyligi boshidanoq hind jamiyatiga xos xususiyat bo‘lib kelgan. Shuning uchun tarjima Hindistonda turli tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida uzoq tarixga ega. Tarjimashunoslar nuqtai nazaridan Hindiston turli sabablarga ko‘ra noyobdir.

XVIII-XIX-asr oxirlarida Hindiston g‘arb bilan to‘qnashuv natijasida murakkab, ikki tomonlama, madaniy-intellektual munosabatlar yuzaga keldi. Fan, muhandislik sohalarida va siyosat va iqtisod kabi yangi fanlarda ingliz tili hind tillariga tarjimalar uchun donor tilga aylandi. Falsafa, din, tilshunoslik va adabiyot nazariyasi sohalarida sanskrit tili ingliz va boshqa yevropa tillariga tarjimalar uchun donor tili sifatidagi rolini yangiladi. Aslida, XIX-asrda Yevropa Hindistonni kashf etgani kabi Hindiston Yevropani kash etdi va o‘zaro ta’sir ehtimoli teng edi. 1820-yilga kelib Yevropaning barcha yirik universitetlarida sanskrit fanlari kafedralari mavjud edi va sanskritshunoslik katta obro‘ga ega bo‘ldi. Asr o‘tgan sari sanskritshunoslik Yevropa ongini shakllantirdi.

“Hindiy tilida tarjima tushunchasining ma’nosi juda keng. Hindiy tilida tarjima so‘zi bir qancha so‘zlar bilan ifodalanib keladi. Hozirgi eng ommalashgani “अनुवाद” (tarjima) so‘zidir. Undan tashqari boshqa so‘zlar ham ishlatilib kelinadi. Ular quyidagilar: भाषांतर, परकाया प्रवेश, स्वीकरण, पालतूकरण, रूपांतर, तर्जुमा, छायानुवाद, ट्रांसलेट, दुहराव, दुभाषिया, उल्था. Bular quyidagi ma’nolarni o‘z ichiga oladi: til uzatish, ruhning bir tanadan

boshqasiga o‘tishi yoki transformatsiya, o‘zgani o‘zinikidek qabul qilish, xonakilashtirish. Yuqorida keltirilgan atamalar hindiy tilidagi “अनुवाद” deb tarjima qilinadi. So‘zma-so‘z va etimologik jihatdan “अनुवाद” “keyingi” nutqni anglatadi. “अनु” – ergashish, “वाद” – nutq deganidir” [1, 101].

Hindiston tarjimashunosligi rivojida quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

1. Hind lingvistik voqeliklari va erta davr tarjimasi (erta davrdan 1100 yilgacha);
2. Bhakti (भक्ती 1100-1700) va Riti (रीती 1700-1800) davrlari tarjimasi;
3. Navjagaron (नवजागरण) davridagi tarjima;
4. Svachhandatavad (स्वच्छन्दतावाद) davridagi tarjima;
5. Zamonaviy (आधुनिक) davrdagi tarjima (1950-1980);
6. O‘ta zamonaviy (आधुनिकोत्तर) davrdagi tarjima (1980dan boshlab);

Shundan kelib chiqqan holda, Hindistondagi tarjimashunoslik taraqqiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. Mustamlakachilikdan oldingi davr tarjimachiligi;
2. Mustamlakachilik davri;
3. Mustamlakachilikdan keying davr;

Birinchi davrni ikkiga bo‘lish mumkin: 1) ilk davrlardan 1100 yilgacha va 2) 1100 yildan 1757 yilgacha bo‘lgan davr. Hindistonda tarjima amaliyoti haqida gapirilganda, ko‘ptilli ekanligi unutilmasligi kerak. Tarjima jarayonida ular nazariyaga va metodologiyaga e‘tibor bermasdan tarjima qilganlar. Bir vaqtning o‘zida bir necha tillarga ega hindlar bir til tizimidan ikkinchisiga osonlik bilan o‘tishi mumkin edi. Hindistondagi turli xil tillar bir biriga raqib bo‘lmagan.

XIX-asrning ikkinchi yarimida Hindistonda ko‘p tililik rivojlandi. Misol uchun, gujaratlik shoir. Dayaram gujarat va hindiy tillarida ijod qilgan.

Bhakti va riti tarjima davrlarida shoirlar tarjima qilishga intilganlar. Ular hind xalqining yashash tarzini, madaniyatini, an‘analarini tarjima orqali targ‘ib qilganlar. Aynan Nanak, Kabir, Sur, Tulsi, Narsinh, Mira, Gyaneshvar shoirlar sanskrit tilidagi bilimlarni ommalashtirib, ularni

dialektlarga va lokhbhashalarga (xalq tili) tarjima qilganlar.

Tarjimachilik faoliyatiga haqiqiy turtki aynan 1757 yildan 1857 yilgacha Sharqiy Hindiston kompaniyasi ostida va 1857 yildan 1947 yilgacha mustamlaka hukmronligi davrida. Shu davrda hindiy tilidan ingliz tiliga tarjimalar ommalashib ketdi. Barcha davlat tadbirlari hindiy tilidan ingliz tiliga tarjima qilinish boshlangan edi.

Hind tarjimashunosi professor G.N.Devy hind kontekstida adabiy tarjimalarni uch turga bo‘ladi:

1. Qadimiy adabiy merosni saqlashga qiziquvchilar;
2. “G‘arblashuvchi” hind tillari va adabiyoti bilan qiziquvchilar;
3. Zamonaviy hind tillarida "milliylashtirish" adabiyotiga qiziquvchilar;

Hindistonning eng mashhur tarjimonlaridan biri faylasuf, shoir – Shri Aurobindo tarjimashunoslikda psixo-ma’naviy nazariyalarni ishlab chiqdi. U o‘zining tarjimalaridan nazariy asos ishlab chiqdi. U ushbu nazariy asoslarini Kalidasa tarjimasida, Bhagavad Gitani tarjimasida, Upanishadlarni tarjima qilishda, nasrning she’rga talqini va bengal tilidagi tarjimalariga oid mulohazalar kabi maqolalarida qayd etgan. Bir qancha asarlarni tarjima qilgandan so‘ng, u Hindistonning kognitiv falsafasi va an’analari, xususan, buddizmga bo‘lgan va buddistlik davrining ta’siri ostida falsafa va psixologiya bilimi bilan ushbu nazariyalarni ishlab chiqdi [2, 340].

Shri Aurobindoning aytishicha muqaddas bitiklarni tarjima qilishning 3 ta standarti bor. Ular quyidagilar: biluvchi, bilim va muqaddas kitoblarni tarjima qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish. Shri Aurobindo ikkita asosiy qurilmadan foydalangan holda ko‘plab matnlarni tarjima qilgan: tasvirni o‘zgartirish va neologizm. U boshqalarga tarjima qilishda xuddi shunday qabul qilishni taklif qiladi. Uning aytishicha, estetik jihatdan muhim matnni tarjima qilishda "so‘zning yaqinligi" "ma’no yaqinligi" dan muhimroqdir. Uning fikricha, tarjimon o‘zining ijodiy aql-zakovatidan obrazni o‘zgartirish orqali foydalanishi, ya’ni asl tasvirning estetik va madaniy qiymati haqida qayg‘urishi kerak [2, 340].

Bugungi kunda hind adabiyoti ingliz tiliga tarjimasini va hind-ingliz adabiyoti Hindiston universitetlarida ingliz adabiyoti o‘quv dasturlariga kiritilgan. Shu ishlarga katta hissa qo‘shgan tarjimonlardan biri

Haydorobod universiteti professori Minakshi Mukerji edi. U ingliz tilidan tashqari bengal va Marathi tillariga ham tarjima qilgan. Ammo u Hindistonda ingliz adabiyotining an'anaviy tarzda o'qitilishini tanqid qilardi. U ingliz tili kurslarida hind tilidagi matnlarni tarjima qilish jarayonida madaniyatni yaxshiroq o'rganish mumkinligini aniqladi. Ko'proq matnlarni tarjima qilishni avzalloq ko'rdi. Mukerji tarjimashunoslar uchun meros qoldirdi [7, 157].

Hindiston tarjimashunosligining taraqqiyotiga hissa qo'shgan tarjimonlardan yana biri Dehli universiteti professori Harish Trivedi. U turli xalqaro uyushmalarda ko'plab nufuzli lavozimlarni egallagan. U 1993-1999-yillarda Hindiston hamdo'stlik adabiyoti va tilshunoslik assotsiatsiyasining kotibi va vitse-prezidenti hamda 2002-2004-yillarda shu assotsiatsiyasi raisi o'rinbosari bo'lgan. 2002-yilda AQSHning Chikago universiteti va London universiteti professori bo'lgan. Shuningdek, Afinadagi Jorjiya universiteti, Oklaxoma universiteti va turli nufuzli universitetlarda turli tarjimashunoslikka oid ma'ruzalar o'qidi.

Professor Harish Trivedi tarjima bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirgan., ammo mustamlakachilikdan keying yozuvchi sifatida uning eng muhim ishlaridan biri postcolonial tarjima bo'lib, u Syuzan Bassnett bilan hamkorlikda tahrir qilgan. Shuning uchun tarjima sohasida bir nechta maqolalar nashr etgan. Shuningdek, u "Hindistonda tarjima" deb nomlangan kitob ustida ishlamoqda. Uning asosiy maqsadi – tarjimashunoslarni qiynaydigan nazariy savollarga javob topishdir [3].

Hozirgi zamonaviy hind tarjimonlaridan biri Santosh Aleks. U ikki tilli shoir va ko'p tilli tarjimonidir. Tarjima sohasida 23 yildan beri ishlaydi. Santosh mustamlaka davridan keying adabiyotlarni ingliz, hindiy, Malayalam, tamil va telugu tillariga tarjima qiladi. U mamlakatning 100 ga yaqin adiblarini turli tillarga tarjima qilgan. U so'ngi 24 yil davomida tarjima va yozuv san'ati orqali hind adabiyotini boyitib kelmoqda. U she'riyat, tanqid va tarjimaga oid 42 kitob muallifi hisoblanadi. She'rlari 18 tilga tarjima qilingan. Santosh Aleks tarjima borasida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Tarjima – bu san'at. Unda malakaga ega bo'lish uchun ko'p yillik amaliyot kerak. Tarjimani davom ettirish, shuningdek, boshqa tarjima qilingan asarlarni o'qish kerak" [8, 103].

Xulosa: Hindistondagi zamonaviy davrda hind yozuvchilari tarjimashunoslari orasida raqobat kuchaydi. Hind mintaqaviy til

yoʻzuvchilari va hind-ingliz yoʻzuvchilari. Baʼzi yoʻzuvchilar oʻz asarlarini oʻzlari tarjima qiladilar. Masalan, Rabindranat Tagor – bengal tilidan ingliz tiliga, Girish Karnad – Kannada tilidan ingliz tiliga tarjima qilganlar. Hindistonda bir qator ikki tilli yoʻzuvchilar bor. Ular Kamala Das, Jayant Mahapatra va boshqalar. Olimlar shu kunlarda tarjimashunoslik sohasida izlanishlar olib bormoqdalar.

REFERENCES

1. History of Translation in India/Avadhesh Kumar Singh “Translation in/and Hindi Literature”. National Translation Mission, CIIL, Mysuru, 2017.
2. Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR)/Dr.Anisha “Translation in India: Then and Now”. Volume5, Issue 6, 2018.
3. Madhu Shree Dwivedi “Harish Trivedi and his work”. Translation and interpreting, New Delhi, India. Modlingua – 2022.
4. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (oʻquv qoʻllanma). – T., 2012.
5. Revista Brasileira de Tradutores/Santosh K.Sareen “Translation in India: history and politics”. Ananguera Educacional S.A. Alamedo Maria Terra, 2000.
6. Salomov Gʻ. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1978.
7. Sujit Mukherjee “Translation as Recovery”. Pencraft International, Delhi-2004.
8. संतोष अलेक्स। अनुवाद प्रक्रिया एवं व्यवहारिकता। Authors press, New Delhi, India – 2016.
9. Fatxutdinova, I. A. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 140-149.
10. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
11. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
12. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
13. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).

-
14. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

YAXSHIDAN BOG‘ QOLUR

(Miad Hakimovni Aziz Nesin hikoyalarini turk tildan o‘zbek tiliga qilgan tarjimalari misolida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7455051>

Shoxrullo QURBONMURATOV,

TDSHU 2-kurs magistranti.

Toshkent, O‘zbekiston. Tel: +99890 326 69 26;

E-mail: shoxrulloqurbonmurodov@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada turk yozuvchisi Aziz Nesinning “Şimdiki Çocuklar Harika”, “Bay duduk” asarlarini Miad Hakimov tomonidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasidagi tarjimon uslubi ko‘rib chiqildi. Maqolada asar tarjimasida tarjimon va muallif uslubini berilishi va bu borada nazariy fikrlar bilan tasdiqlashga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima, uslub, tasviriy vositalar, ifodaviy vositalar, personaj.*

Аннотация: *В статье рассматривается стиль перевода на узбекский язык произведений турецкого писателя Азиза Несина “Şimdiki Çocuklar Harika”, “Bay duduk” Миада Хакимова. В статье была сделана попытка сравнить стили автора и переводчика, выражены теоретические взгляды по некоторым вопросам перевода.*

Ключевые слова: *translation, стиль, изобразительные средства, выразительные средства, персонаж.*

Abstract: *The Article considered the works of the Turkish writer Aziz Nesin, “Şimdiki Çocuklar Harika”, “Bay duduk”, translator in translation by Miad Hakimov into Uzbek. In the article an attempt was made to give the style of the translator and author in the translation of the work and to confirm it with theoretical ideas in this regard.*

Key words: *перевод, style, pictorial means, expressive means, character.*

Yaxshidan bog‘ qolur, deydi xalqimiz. Yaxshi tarjimondan-chi? Albatta, avvalambor, ko‘z nuri va qalb qo‘rini, aqlu zakovatini, ta’bir joiz bo‘lsa, butun umrini sarflab yaratgan o‘ziga xos ilmiy maktabi qoladi. Tarjimon Miad Hakimov ham o‘z tarjimalari bilan ayni shunday maktab qoldirgan tarjimonlardandir.

Tarjima, xalqlar orasidagi madaniy va adabiy ko‘prik sanalغان badiiy tarjimaning qadimiy va yuksak san’at darajasiga yuksalishida tarjimonning iste’dodi va tarjimaning saviyasi muhim o‘rin tutadi. Bir so‘z bilan

aytganda tarjimashunoslik, tarjimonlik faoliyati juda muhim kasb sanaladi desak xato bo‘lmaydi, chunki bir tildan boshqa tilga o‘girib kitobxonga asl matndagi ma’noni, tassavurni yetkazib bera olish bu juda katta maxorat va masuliyat talab etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mustaqillik davrida ilm-fan sohasida salmoqli islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, tarjima sohasida ham amaliy ishlar qilingan. Ko‘p adiblarimizning asarlari chet tillarga, chet el adiblarining asarlari ona tilimizga tarjima qilindi. Tarjimaning juda ko‘p usullari amaliyotda qo‘llanila boshlandi.

Ushbu maqolamizda o‘zbek kitobxonlariga turk tilidan o‘zbek tiliga qilgan tarjimalari orqali tanilgan tarjimon Miad Hakimovni bir qancha tarjimalarini misollar orqali tarjimonning maxoratini ochib beramiz. Ya’ni mashhur turk yozuvchisi Aziz Nesin hikoya va asarlarini o‘zbekchaga tarjima qilgan taniqli tarjimon Miad Hakimov tarjimalaridagi uslub haqida so‘z yuritamiz.

Babam, ağızı alışmış, her sözün başında Ulan, Ulan be..., Vay anasını! Diye konuşur. Yani dili biraz argoya kaçır. Fatoşda, kimden ne duyarsa papağan gibi tekrarlıyor, ne görürse öyle yapıyor, Fatoş'un babamı taklit ederek peltek peltek Ulan be... Vay anasını! Gibi sözler söylemesine bizim evde her kes bayılıyor. (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika.). [1, 74].

Tarjimasi: *Dadamning qiziq odati bor har ikki gapning birida “ho‘v”, “voy zang‘aryey!” degan bo‘lmag‘ur so‘zlarni ishlatib turadi. Fatoş bo‘lsa naq to‘tining o‘zi, kimdan nimani eshitsa, darrov shuni qaytaradi. U “ho‘v falonchi”, “voy zang‘aryey!” deb chuldirab qolsa, uydagilar o‘zlarida yo‘q suyunib ketishadi. (M. Hakimov tarjimasi. G‘aroyib bolalar). [2,157]*

Turkcha matnda: *“Ulan, Ulan be..., Vay anasını! Diye konuşur.”*

Tarjimada esa, tarjimon o‘z uslubini qo‘llagan xolda shunday beradi. Tarjima: (“ho‘v”, “voy zang‘aryey!” degan bo‘lmag‘ur so‘zlarni ishlatib turadi.) Bundan tarjimon uslubi ko‘rinib turibdiki, “Ulan, Ulan be... Vay anasını” kabi jumlaning tarjimada, “ho‘v”, “voy zang‘aryey!” diya aks ettirib kitobxonga juda tushunarli va tassavurga boy qilib tarjimada aks ettirganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu kabi misollardan yana biri Aziz Nesin “Bay duduk hikoyasi”.

“Sazlar, şarkılar başladı. Biz de kafaları çekiyoruz. Garsonlar etrafımızda pervane olmuşlar. Derken arkada bir güürültü koptu. Sarhoşlar

bir birlerine girdiler. Onlar bıçakları fora ederken bizim Musa da düdüğe asıldı. O aslant kesilmiş kavgacılar, düdüğün bir furt etmesiyle uyuz it gibi kuyrukların kısıp oturdular” (Aziz Nesin. Bay duduk). [3, 3]

Aziz Nesinning “Bay duduk” hajviy hikoyasi 1969-yilda Miad Hakimov tomonidan “Hushtak afandim” nomi bilan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, unda tarjimon yozuvchi uslubi juda keng va yorqin ochib berilgan va hikoyadagi voqia kechinmalar to‘la to‘kis aks etirilgan. Tarjima: *“Bir payt o‘yin-kulgi boshlanib ketdi. Rohat qilib o‘tiribmiz. Ofitsantlar atrofimizda parvona. To‘satdan orqa tomonda shovqin ko‘tarildi. Mast-alast odamlar yoqa bo‘g‘ishib ketishdi. Ish pichoqqa borib taqalay deganida, Musa hushtak chalib yubordi. Hozirgina bir-biri bilan sherday olishishib turgan azamatlar churillagan ovozni eshitiboq, dumlarini qisib qolishdi”* (Miad Hakimov tarjimasi. Hushtak afandim). [4, 11-12]

Tarjimada, tarjimon uslubi naqadar kitobxon uchun tushunarli va soda ekanligini bu kabi jummalarda ko‘rishimiz mumkun “turkcha-Sazlar, şarkılar başladı” o‘zbekchada esa, *“Bir payt o‘yin-kulgi boshlanib ketdi”* albatta kitobxon bir o‘qishdanoq qo‘shiq kuylanib o‘yin kulgu ma’nosini berayotganini agnlaydi va o‘zida tasavvur qilishga ham ulguradi.

Geçen mektubumu postaya verdiğimin ertesi günü, Tabiat Bilgisi dersindeyken, okul müdürüyle birisi daha dershaneye girdi. Müfettişmiş, öğretmenimizle bir sure konuştuktan sonra, Oğuz'u derse kaldırdı. Sen Oğuz'u tanımazsın. Bizim okula bu yıl, dersler başladıktan sonar geldi; sen buradan gittikten sonra. Taşrada bir okuldaymış. Sonra İstanbul'a taşınmışlar. Daha okula ilk geldiği gün hepimizi şaşırttı. Neden, biliyormusun? Kedi gibi çevik bir çocuk daondan... (Aziz Nesin.Şimdiki Çocuklar Harika). [1, 53] Tarjimasi: *Anatomiya darsida o‘tirgan edik, direktor bir odamni boshlab sinfga kirib keldi. Bilsak, inspektor ekan. Inspektor o‘qituvchimiz bilan allanimalarni gaplashib olgach, O‘g‘iz degan bolani o‘rnidan turg‘izdi. O‘g‘izni sen tanimaysan. Sendan keyin kelgan. Ilgari Tashrada turisharkan, shu yili Istambulga ko‘chib kelishibdi. Maktabga birinchi kelgan kuniyoq bu bolaga qoyil qoldik. Nimasiga qoyil qoldik, bilasanmi? O‘lgudek chaqqon bola ekan. Xuddi maymunning o‘zi-ya...* (M.Hakimov tarjimasi. G‘aroyib bolalar). [2, 138-139]

Yuqorida keltirilgan asliyat parchasida O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligi “*mushuk*” ka yani «*kedi*» ga muqoyasa etilsa, o‘zbekcha tarjimada «maymun» ga qiyos etilgan. Chunki “*mushuk*” o‘zbek tilida chaqqonlik, abjirlik obrazini jonlantiruvchi jonivor emas. Aksincha, o‘zbek tilida sakrab, irg‘ishlab abjir harakatlar qiladigan odamni “*maymun*” ga o‘xshatish keng tarqalgan. Demak, tarjimon M.Hakimovning O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligini aks ettirishda “*mushuk*” o‘rniga “maymun” so‘zidan foydalanishi uslubining naqadar kuchli va tasirchanligi namoyon bo‘ladi.

Başka bir çocuk horoz gibi atıldı:

Asıl yalancı senin gibisine derler. Benim babam, bi kez bile sınıfının ikincisi olmamış. Hep sınıfının birincisiymiş. Anladın mı sen?

(Aziz Nesin.Şimdiki Çocuklar Harika). [1, 53]

Tarjima: *O‘zing ham aldoqchi ekansan. Mening dadam sinfda hecham qolmaganlar. Nuqul a‘lo o‘qiganlar. Tushundingmi? – dedi boshqa bir bola bo‘ynini cho‘zib.*

(M. Hakimov tarjiması. G‘aroyib bolalar). [2,101]

Bu jumlada ham tarjimon moxironalik bilan tarjima qilganiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni jumlanig boshida berilgan “*Başka bir çocuk horoz gibi atıldı*” ushbu so‘zni tarjimon jumlanı oxirida “*Tushundingmi? –dedi boshqa bir bola bo‘ynini cho‘zib*”. Ko‘rib turganimizdek turkcha jumlada “horoz gibi atıldı” jumlasini “*bo‘ynini cho‘zib*” shaklida bergan va tarjima o‘z aksini topib tarjimon uslubi yaqqol ko‘zga tashlangan. Shu o‘rında shuni aytib o‘tishimiz kerakki, tarjimon har-bir tarjima qilayotgan asar va hikoyani kitobxonga asliyatdagi voqia va xodisalarni to‘la-to‘kis ochib bera olishdek mahorat, bilim va ma’suliyat kasb etadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu kabi voqea va xodisalarni ochib bera olishi bu tarjimadan har tomonlama yuqqori bilim ko‘nikma, keng fikirlashni talab qiladi.

REFERENCES

1. Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika.–İstanbul: NesinYayınevi, 2005.
2. Aziz Nesin, “Ona tarbiyasi”. “Yangi asr avlodi”. T., 2017yil
3. Aziz Nesin. Bay duduk.–İstanbul: NesinYayınevi, 2005.
4. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/aziz-nesin/aziz-nesin-xushtak-afandim-hikoya/>
5. TDSHU. “Yoshtarjımashunoslar maqolalar to‘plami”.T., 2017. 3-kitob 2-b

6. Mubarakova, D. (2022). Media matn tarjimasida lingvomadaniy va sotsiolingvistik aspektlar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 411-414.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

TARJIMANI ILMIY-IJODIY JARAYON SIFATIDA TADQIQ ETISH USULLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7455059>

Maxliyo XABIBULLAEVA,

TDSHU katta o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998909719403;

E-mail: khabibullaevam777@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nafaqat zamonaviy o'zbek adabiyotining buguni va kelajagi haqida so'z yuritildi, balki milliy adabiyotimiz namunalarini dunyoning turli tillariga tarjima qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, ayni paytda jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish, nashriyot-matbaa ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratildi.*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy o'zbek adabiyoti, tarjima, jahon adabiyoti, nashriyot-matbaa ishlari, chet el yozuvchilari.*

Аннотация. *В данной статье не только говорилось о настоящем и будущем современной узбекской литературы, но и уделялось особое внимание вопросу перевода образцов нашей национальной литературы на разные языки мира. Кроме того, при этом особое внимание уделялось переводу на узбекский язык лучших образцов мировой литературы, а также издательско-полиграфическим работам.*

Ключевые слова: *Современная узбекская литература, перевод, мировая литература, полиграфические работы, иностранные писатели.*

Abstract. *In this article, was not only talked about the present and future of modern Uzbek literature, but also was focused on the issue of translating examples of our national literature into different languages of the world. Besides that there was emphasized at the same time translating the best samples of world literature into Uzbek, and carrying out publishing and printing works.*

Key words: *Modern Uzbek literature, translation, world literature, publishing and printing works, foreign writers.*

Zamonaviy o'zbek adabiyotining buguni va ertasi haqida so'z yuritganimizda albatta, milliy adabiyotimiz namunalarini dunyoning turli tillariga tarjima qilish va shu bilan birga jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish, chop etish, o'rganish bilan bog'liq tajribalar, chet el yozuvchilari bilan aloqalarni yanada

rivojlantirish masalasiga e'tiborni kuchaytirish zarurligini alohida ta'kidlash kerak. Biz ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon o'z qobig'imizga o'ralashib qolmasligimiz kerak. Turli millatlar, o'rtasidagi adabiy mushtaraklik, adabiy aloqalarda badiiy tarjimaning o'rni naqadar yuksak ekanligi ham hech kimga sir emas.

Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, tarjimani alohida faoliyat turi sifatida qabul qilish qadimgi Rimda vujudga kelgan desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. O'sha davr olimlari va yozuvchilari tarjimaga ilmiy-ijodiy jarayon sifatida qiziqish ko'rsatgan va ularning bunday yondashuvlari, albatta, keyingi avlod tarjimonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu ma'noda, Sitseron va Goratsiy tarjimani millatning tili va adabiyotini boyitishga xizmat qiladigan vosita sifatida qaragan va tarjimaga ilmiy-ijodiy jarayon sifatida yondashib asl til so'zlarini o'zlashtirishga chaqirgan. Aynan ular o'z asarlarida birinchi bo'lib ma'noning ko'chirilishi va matn shakli o'rtasidagi azaliy qarama-qarshilikni (so'z/ma'no dixotomiyasi) ko'rsatdilar. Ularning fikricha, tarjima asl nusxaning so'zma-so'z ko'rsatilishi emas, balki ilmiy-ijodiy talqini bo'lishi kerak [1.49].

XVII asr tarjimonlari tarjimon va asl matn muallifi bir xil darajada yaratuvchidir, ammo ular turli xil ijtimoiy va vaqtinchalik kontekstlarda harakat qilishadi, demak tarjimaga ijodiy jarayonning muhim bir qismi deb hisoblashgan. Shu bois tarjimonning faoliyati ijodiy jarayonning mahsuli bo'lib, tarjimonning asl maqsadi tarjima asarining asosiy mazmunini aniqlashga qaratilishi kerak. O'sha paytdagi tarjimonning ishi ko'pincha rassomning ishi bilan taqqoslangan, u portretida tasvirlangan shaxsga o'xshashlikni aks ettirishi shart edi. Asl nusxaga nisbatan erkin ishlov berish uning uslubiy xususiyatlarini qisman tiklash bilan qoplanadi, degan qarash ustuvor bo'lgan [2.87].

XVIII asr oxirida tarjima texnikasi va usullariga oid birinchi tizimli tadqiqot - shotland yozuvchisi, tarjimon va olimi A.F.Taytlarning "Tarjima tamoyillari haqidagi esse" nashr etildi. Taytler o'z ishida tarjimaning asosiy tamoyillarini shakllantiradi va tarjima asl nusxaning g'oyaviy mazmunini, uning uslubini yetkazishi va taqdim etishning qulayligi va qulayligi bo'yicha originalga mos kelishi kerak, ya'ni tarjimani o'quvchiga

tarjima qilish uchun barcha sharoitlarni yaratishi kerak. Asl o‘quvchi bilan bir xil his-tuyg‘ularni boshdan kechirish kerak. Bundan tashqari, tarjimon, iloji bo‘lsa, asl nusxadagi barcha tushunarsiz jihatlarni aniqlab berishi kerak. Bu esa tarjimonga tarjimaga ijodiy yondashish talab etiladi [3.4].

Ma’lum bir vaqt o‘tishi bilan bir necha asrlar ilgari yaratilgan adabiy asarlarni tarjima qilish zarurati keskinlashdi va bu adabiy doiralarda keskin tortishuvlarga sabab bo‘ldi. Bu borada nemis ilohiyotchisi va faylasufi F.Shleermaxer faqat tarjima maqsadlarida maxsus til yaratish tarafdori edi. Uning taklifini XIX asrning F.V.Nyoman, T.Karlayl, V.Morris kabi ko‘plab yetakchi tarjimonlar qo‘llab-quvvatladilar, ular tarjimaga ijodiy yondashib turli ilmiy usullardan ham foydalanganlar hamda tarjimada arxaik va nihoyatda murakkab tildan foydalanganlar [4.146]. Qizig‘i shundaki, mazkur tarjimon-tadqiqotchilar tarjimalarining muhim xususiyati, qo‘shimcha ravishda, ularda asl tilning milliy xususiyatlarining takrorlanishi edi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotchilar tarjimada asl nusxaning mazmunini yetkazish bilan birga, badiiy xususiyatlarini ham saqlab qoladigan ijodiy yodashuv bunday tarjimaning afzalliklarini namoyon etishga xizmat qiladi, degan qarashga ega bo‘lganlar.

Jaynendra Kumar asarlarida erkak va ayol munosabatlaridan yuzaga keluvchi psixologik muammolar falsafa, tavba-tazarru va chuqur afsus-nadomat nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Inson tuygʻularini u yoki bu xarakter fazilatlarini ochib berishda yozuvchi realist sifatida namoyon boʻladi. Uning asarlaridagi xalqchilik ona diyor manzaralari va maishiy turmush voqeliklarining tasvirlanishida aks etadi. Maʼlumki, asarlardagi aynan shu fazilatlar tufayli ular qayta-qayta nashr etildi. Lekin shu bilan bir qatorda insonning yolgʻizliqdan xalos boʻlish yoʻlidagi izlanishlarida u ekzistensializm falsafasining va u bilan bogʻliq boʻlgan insonning jamiyatdan ajralib qolish kayfiyatini, azob chekish gʻoyalarini, haqiqiy hayotdan qochishga urinishni targʻib qilganligi uchun Jaynendra Kumar koʻpgina tanqidlarga ham uchraydi.

J.Kumar hikoyalarda asar asosiga qoʻyilgan barcha eng muhim voqealar inson psixikasidan oʻtkazilgan: uning koʻzlari, qarashlari orqali voqealar yoritilgan va qahramon tuygʻulari ochib berilgan.

Obraz yaratishda, uning hulq-atvor belgilarini tasvirlashda baʼzan yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi, yaʼni portret chizgilaridan ham foydalanadi. Maʼlumki, portret tasviri orqali personajlarning tashqi qiyofasi, hayotiy qarashlari, tabiati-yu, odob-axloqi, yoshi va boshqa xususiyatlari ham oydinlashadi. Ammo, kuzatishlarimizdan maʼlum boʻldiki, Jaynendra Kumarning aksariyat hikoyalarda qahramonning tashqi qiyofasi – portreti, kiyinishi va yurish-turishiga eʼtibor qaratavermaydi, koʻproq uning gap-soʻzi, atrofdagilar bilan munosabat-muomalasi, oʻy-fikrlarini tasvirlash orqali xarakter yaratadi.

Maʼlumki, psixologik tahlilda turli usullardan foydalaniladi. U muallifning bevosita mulohaza-mushoxadalari tarzida yoki qahramonlarning ichki kechinmalari yoxud bilvosita — ularning muallif tomonidan oldindan «tayyorlab» borilgan kitobxon tahliliy tadqiq eta biladigan hatti-harakatlari, qiliqlari orqali yuzaga keladi. Bu kabi barcha tahlil usullari orasida personajlarning tashqi va ichki nutqi (*dialog va monologi*) alohida oʻrin tutadi. Yozuvchining maqsadi uning portretini chizish bilan faqatgina uni tasvirlash emas, balki uning taʼrifi vositasida boshqa obrazni ochib berishdir. Tahlildan koʻrinib turibdiki, muallif ushbu

hikoya bosh qahramonning psixologiyasini sintetik prinsip orqali; yuqorida ko‘rgan epizodik qahramonning psixologiyasini esa dinamik prinsip asosida ochib beradi. To‘laqonli badiiy asar yaratish uchun qobiliyat shubhasiz zarurligini e‘tirof etgan mutafakkir yozuvchi 3 ta shartni ko‘rsatib o‘tadi.

1) muallif predmetga axloq nuqtai nazardan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi kerak;

2) bayon tushunarli yoki shaklan go‘zal bo‘lishi muhim, aslida, bularning ikkisi ham bir xil ma‘noni anglatadi;

3) samimiyat, ya‘ni san‘tkor o‘zi tasvirlanayotgan narsani yolg‘ondakam emas, balki chin dildan yaxshi ko‘rishi yoki undan nafratlanishi lozim [3, 117].

Umuman olganda, tarjima inson fe‘l-atvoriga doir jamiki xususiyatlarni badiiy aks ettirishi mumkin. Fe‘l-atvor haqida so‘z borganda sa har qanday hayotiy qadriyat axloqiy qadriyatga aylanadi. Binobarin, adabiyot bilan axloq o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik bor.

Jaynendra Kumarning “Hurmatli boshliq” hikoyasining o‘ziga xos hususiyatlaridan biri kichik bir davlat idorasidagi bir lavxa orqali jamiyatdagi katta va muhim muammolar ya‘ni, hurmat, izzat, burch, insoflilik, hamdardlik munosabatlarning muhim ekanligi, insoniy tuyg‘ularning har narsadan ustun bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan. Bu bilan muallif inson hayotidagi samimiy munosabatlar uni yuqori cho‘qqilarga olib chiqishi haqida so‘zlaydi. Asar yakunida mana shu masalaning nozik, psixologik muamolarning yechimini ochiq qoldirgan. Demak, bu bilan muallif: munosabatlar qanday bo‘lishi kerak? degan savolni ko‘ndalang qo‘yish bilan cheklangan xolos. Unga javob topishni kitobxonga qoldirgan.

“Hurmatli boshliq” nomli hikoyasi sodda, o‘quvchiga tushunarli tilda yozilgan. Umuman olganda bu hikoyada muallif nutqiga nisbatan diolog ko‘p ishlatilgan bo‘lib, shuningdek, muallif asar tilining ta‘sirchanligini oshirishda solishtirish, qiyoslash, iboralardan ham keng foydalanadi:

1. उषा बत बनी अपनी जगह खड़ी रह गई। [4, 9] “*Usha sanamdek joyida turib qoldi*”

2. उषा चित्र लिखी- सी महामहिम को देखती रही। [4, 11] “*Usha surat chizayotgandek boshliqqa tikilib qoldi*”

Bu jumlar orqali yozuvchi portret yaratishda badiiy vosita va oʻxshatishlar-dan unumli va oʻz oʻrnida foydalangan. Hikoya badiiyati kuchli boʻlib, oddiy oʻxshatish vositalari butun bir voqea va ijtimoiy vaziyatni, insoniy his tuygʻu va ularning xususiyatlarini ochib bera olgan.

Jaynendra Kumarning “Ogʻriq” (कष्ट) nomli ikkinchi hikoyasi tili sof hindiy tilida yozilgan boʻlib, kitobxon uni toʻgʻridan-toʻgʻri tushuna olmaydi va lugʻat yordamisiz uni erkin tarjima qila olmaydi. Negaki muallif tanlagan deyarli har bir soʻzning kamida 3-4 ta alohida maʼnosi mavjud. Hikoyadagi avtor tilida asosan juft birikmalarni uchratishimiz mumkin.

3. देखते-देखते, सोते-सोते, हक्क-बक्का [5, 62] (*koʻrib-koʻrib, uxlab-uxlab, hang-mang*)

4. फिकर-फिकर में जाने क्या-क्या देख जाते हो? [5, 75] *Xavotirda kim bilsin koʻzga nimalar koʻrinmaydi?*

Takroriy soʻzlarda aynan bir soʻzning takror holda qoʻllanilishi natijasida gramatik maʼno anglatilib, u asardagi qahramon psixologiyasini mana shu birikmalar yordamida aks ettirishga xizmat qiladi [6, 15].

Jaynendra Kumar hikoyalarining alohida ajralib turadigan hislati shundaki, u insonlar ruhiyati, ichki dunyosi, dardu-alamlarini psixologik tahlil elementlari ichki monolog, nutqiy xarakteristika, takror soʻzlar, koʻp nuqta, fraziologik birikmalar va boshqa tasviriy ifodaviy vositalar yordamida aks ettirib, inson psixologiyasini mohirona tasvirlash bilan uygʻunlashtiradi.

Hind psixologik roman va hikoyalari oʻz rivojida gʻarb va rus tajribasini olgan, biroq, bu Hindiston tarixiy, madaniy muhitda va hind estetikasiga mos boʻlgan oʻz qonunlari boʻyicha rivojlanayotgan mustaqil yoʻnalishi hisoblanadi. Hindiy hikoyanavislari zamonamizning muhim masalalarini yechish uchun, inson ichki dunyosini, har gal yanada chuqurroq ochib berish maqsadidan, uning hayot mezonini aniqlashda oʻz uslublarini tanlaganlar. Bu uslub orqali ular hayotning tugunlariga adabiy yechim topishga intiladilar.

Jaynendra Kumar insonlar ruhiyati, ichki dunyosi, dardu-alamlarini psixologik tahlil elementlari ichki monolog, nutqiy xarakteristika, takror soʻzlar, koʻp nuqta, fraziologik birikmalar va boshqa vositalar yordamida aks ettirib, ularning psixologiyasini mohirona tasvirlaydi. U hech bir qahramonining portretini yaratmaydi, yoshiga ham toʻxtalib oʻtmaydi. U

inson qalbini, ichki dunyosini chizadi. Qalbning esa yoshu qarisi bo'lmaydi. Bu yo'l qahramonlarning asl maqsadiga yetishish uchun, ularning psixologik xis tuyg'ularini tushunishda, o'zining hayotga bo'lgan shaxsiy qarashlarini, boshqacha aytganda, bu mujmal, qiyin hayot haqiqatini tushunish yozuvchining o'ziga xos qurolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Шодиев Н. “Рухият рассоми”.-Т., 1977. –56б.
2. Современная индийская проза. -М.: ИВА.1962.
3. Основные направления в индийской литературе XX в.-М.,1977.
4. Эминова.С.П. Психологический роман хинди. Традиции и современность в новом романе хинди.– М.,1983.
5. Гинзбург. Л.Я. О психологической прозе//Л.Художественная литература. 1977.
6. Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность// Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. –М., 1978.–115 с.
7. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. –М.: Международные отношения, 1973. – 216 с.
8. Художественные направления в индийской литературе XX в.-М., 1977.
9. Чернышев.В. Роман об индийской деревне. Иностранная литература.- М.,1958.
10. Эминова С.П. Психологический роман хинди. Традиции и современность в новом романе хинди.– М.,1983.
11. Чельшев Е.П. Индийская литература вчера и сегодня.- М., 1989.
12. Серебриков И.Д. Литературы народов Индии.-М., 1985.
13. जैनेन्द्र कुमार. जैनेन्द्र की कहानियाँ. दिल्ली, १९७८
14. जैनेन्द्र कुमार. जैनेन्द्र के विचार. दिल्ली १९६७
15. भारतीय कहानी. दिल्ली १९७६
16. नाम्बर सिंह -दूसरी परम्परा की खोज १९८९
17. नाम्बर सिंह -अस्वीकार का खोज १९८९
18. Ochilov, E. (2014). Translation theory. Tashkent: Institute of Oriental Studies.
19. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
20. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.

-
21. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
 22. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
 23. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.
 24. www.wikipedia.com
 25. www.kniga.uz
 26. www.hindwi.org/poets/sarveshwar-dayal-saxena/ebooks

ABDULLA QAHHOR “DAHSHAT” HIKOYASINING KOREYS TILIGA TARJIMASIDA MILLIY XOS SO‘ZLAR IFODASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460618>

Dilrabo TO‘RAQULOVA,

Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti.

Samarqand, O‘zbekiston.

Tel: [+998 90 966 88 91](tel:+998909668891);

E-mail: dilrabortoraqulova@gmail.com.

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilingan asarlar, xususan, ulardagi o‘zbek milliy xos xususiyatlarini koreys tiliga qilingan tarjimasi misolidai tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *realiya, xos so‘z, transformatsiya, transkripsiya, transletiratsiya, generalizatsiya.*

Аннотация: *В статье анализируются произведения, переведенные с узбекского языка на корейский, в частности, выражение в них узбекских национальных особенностей в корейском переводе.*

Ключевые слова: *реалия, национальные слова, трансформация, транскрипсия, транслетирация, генерализация.*

Abstract: *The article analyzes works translated from Uzbek into Korean, in particular, the expression of Uzbek national features in them in Korean translation.*

Keywords: *reality, national words, transformation, transcription, transletration, generalization.*

Dunyo xalqlari tarjima orqali bir-birining milliy adabiyotini boyitadi va shu bilan birga, biri ikkinchisining tarixi, o‘ziga xos milliy koloriti, turmush tarzi, dini, madaniyati singari qator masalalar bilan yaqindan tanishadi. Badiiy asarda xos so‘zlar asarning ma’lum bir milliy adabiyotga mansubligi, badiiy voqelikni esa ma’lum bir etnik gruppada sodir bo‘layotganligidan dalolat beradi. Realিয়া–xos so‘zlar, ko‘pincha, tarjimaga bo‘ysunmaydigan ekzotik leksikadir. Bundan, albatta, milliy koloritni, davr ruhini berish uchun kelsa–kelmasa original so‘zlarni tarjima qilmay qoldiraverish mumkin ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Aksincha, tarjima asarida hadeb asl nusxa tilidagi so‘zlar uchrayversa, unda tarjima ko‘proq yutqazadi, kitobxonni o‘zidan itaradi. Tarjimon milliy xos so‘zlarni tarjima qilish jarayonida asliyat bilan mutanosib holda bermog‘i lozim. Aks holda kitobxon muallif yoritmoqchi

bo‘lgan manzaralarni noto‘g‘ri yoki qisman tushunishi, hatto, muallifning fikrlarini to‘liqroq anglab yetmasligi ham mumkin. Shu sababli, bir tildagi leksik birliklarni ikkinchi tilga o‘girayotgan paytda transformatsiya usullaridan foydalanib tarjima qilinadi. Professor A.V.Fedorov realiyalarni tarjimada aynan o‘zidek qilib berishni quyidagilarda ko‘rsatadi:

1. To‘la yoki qisman transliteratsiya, ya’ni milliy xususiyatni aks ettiradigan so‘zni fonetik moslashtirish yoki so‘z negiziga o‘z tilining qo‘shimchalarini qo‘shib berish yo‘li;

2. Predmetni ifodalash uchun tilda mavjud bo‘lgan unsurlardan foydalanib va morfologik biriktirish yo‘li bilan yangi so‘zlar yoki so‘z birikmalarini hosil qilish.

3. Boshqa tildagi realiyalarni ifoda etuvchi so‘zlarni ma’nosi va bajargan vazifasi jihatidan o‘sha realiyaga yaqin (garchi aynan bo‘lmasada) so‘z yordamida tarjima qilish [1,98].

O‘zbekiston xalq yozuvchisi A.Qahorning “Dahshat” hikoyasining koreys tiliga tarjimasida uchragan milliy xos so‘zlar tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak:

Ushbu tahlil jarayonida biz

- Joy nomlari
- Ism sharflar
- Unvon nomlari
- Kundalik turmushda qo‘llaniladigan jihozlar nomlari
- Kiyim – kechak nomlariga oid so‘zlar tarjimasini tahlilga tortdik.

Hikoyaning koreys tiliga qilingan tarjima matnida muallif qo‘llagan milliy xos so‘zlarni o‘girish jarayonida tarjimon transkripsiya, transliteratsiya va generalizatsiya usullariga murojaat qilganini kuzatdik. Bunda asardan olingan ayrim parchalar misolida milliy xos so‘zlar tarjimasini muammosini ko‘rsatib berishga, transletiratsiya, transkripsiya, generalizatsiya usullari o‘zini qanchalik oqlaganini, tarjimon so‘zlarni bu usullar orqali qanchalik mahorat bilan o‘giranini izohlashga harakat qilamiz.

Asliyatda: “Olimbek **dodxon**ing sakkiz xotini, katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig‘ilib, **sandal** atrofida o‘tirishar edi” [2,78].

Koreyscha tarjimada:

“올림벙이라는 관리의 여덟 부인 중 나이가 가장 많은 노드르모흐베김 방에는 탁자 밑에 화로를 넣고 그 주변에 부인들이 모여 앉아 있었다”[2,86].

Mutarjim ushbu parchani koreys tiliga tarjima qilish jarayonida, O‘zbek tilining izohli lug‘atida “adolat istovchi shaxs. Buxoro xonligida xonning oldiga kiruvchilarni qabul qilivchi shaxs” [3,1-jild] deya ta‘rif berilgan **dodxo** so‘zi, amaldor ma‘nosini beruvchi **관리[kvalli]** so‘zi bilan tarjima qilingan. Tarjimon **dodxo** so‘ziga yaqin bo‘lgan **관리** – **amaldor** tarjimasiga ega bo‘lgan so‘zini qo‘llash bilan, koreys kitobxonini uchun tushunarli bo‘lgan tarjimani berishga harakat qilgan. Mazkur so‘zlarning manosi yaqin va tarjimada bir birini qoplay oladi.

Sandal so‘zi koreys tiliga **탁자 밑에 화로[takcha mite xvaro]** ya‘ni (stol tagidagi o‘choq), deb tarjima qilingan. Agar tarjimon transkripsiya usuliga murojaat qilgan holda “**산달[sandal]** tarzida tarjima qilib, havolada “O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari va Yaponiyada ma‘lum bir joyni isitish uchun mo‘ljallangan manqal; xonanning o‘rtasiga yoki chekkaroq yeriga chorburchak chuqurchaga o‘rnatilgan, ustiga ko‘rpa yopilib, atrofiga ko‘rpachalar to‘shalgan xontaxtdan iborat bo‘lib, ichiga saksovul yoki ko‘mir cho‘g‘i solinadi; tancha (qish sovug‘ida sandalga oyoq – qo‘lni tiqib isiniladi, ayni paytda ustiga dasturxon yozib, undan stol sifatida foydalaniladi)”[3,438] deb, sandal so‘ziga izoh berganida edi, koreys kitobxonini uchun **sandal** to‘g‘risida tasavvur uyg‘onishiga ko‘mak bergan bo‘lar edi.

Asliyatda:

“Xotinlardan biri uning **sallasini** oldi, biri **chakmoniga** qo‘l uzatdi, biri **mahsisini** tortgani chog‘landi,...”[2,78].

Koreyscha tarjimasi: “부인들 중 하나는 관리의 모자를 받고, 다른 부인은 상의를 바드려고 손을 뻗었고, 다른 부인은 신발을 벗기려고 준비하였다”[2,438].

Yuqoridagi parchada kuzatib turganimizdek, asliyat matndagi milliy liboslarning nomini anglatuvchi **salla**, **chakmon**, **mahsi** so‘zlari koreyscha tarjimada o‘z aksini topmagan va ushbu so‘zlari tahlilga tortish jarayonida biz ba‘zi kamchiliklarni uchardik. **Salla** “uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha

bo‘ladigan, do‘ppi, kuloh, telpak ustidan o‘raladigan sidirg‘a mato, doka; musulmon erkaklarning bosh kiyimi.”[3,438]. Tarjimon tomonidan ushbu so‘zni tarjima qilishda 모자 [moja] bosh kiyim, shlyapa tarjimasiga ega bo‘lgan so‘z qollanilgan. Tarjima variantida asliyatdagi ma’no saqlanib qolgan, lekin, tarjimon salla so‘ziga yuqorida berilgani kabi havolada ta’rif berib o‘tganida edi, o‘quvchida **salla** haqida tasavvur uyg‘otib asliyatdagi milliy ruhni saqlab qolgan bo‘lar edi. **Chakmon** “odatda jun matodan tikiladigan erkaklarning uzun, qishki, ustki kiyimi”[3,428]. hisoblanadi, lekin tarjimon chakmon so‘zini hozirgi kunda urf bo‘lgan, zamonaviy, pidjak tarjimasiga ega bo‘lgan kalta turdagi ustki kiyim ma’nosini beruvchi 상의 [sangi] so‘zi bilan tarjima qilgan va so‘z tanlashda xatolikka yo‘l qo‘yilgan [3,575]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha **Mahsi** “qo‘y yoki echki terisidan tayyorlanadigan, uzun qo‘nqli poshnasiz, tagcharmi yumshoq, kovush yoki kalish bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyim” bed ta’riflanadigan ushbu so‘z tarjimon tomonidan qismni butun bilan anglatishga harakat qilingan. Ya’ni tarjimon mazmun mohiyatiga ta’sir qilmagan holatda kitobxonga yetqazishga harakat qilgan. Lekin tarjimon muallif tomonidan yaratilgan milliy ruhni saqlab qolishga harakat qilib havolada milliy oyoq kiyim ekanligi haqida izohlab o‘tganida edi maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lar edi. Koreys tiliga qilingan tarjimada tarjimon salla so‘zini 모자 (moja), mahsi so‘zini 신발 (shinbal) shaklida tarjima qilib, generalizatsiya usuliga murojaat qilganini guvohi bo‘ldik. “Tarjimon tarjimada shunday lisoniy vositalardan foydalanishi kerakki, xosil bo‘lgan matn kitobxonga yaxshi tushunarli bo‘lsin va shu bilan birga asar yaratilgan davr uning ko‘z oldida jonlanib tursin. Buning ma’nosi shuki, tarjimada tilning arxaik va tarixiy qatlamlariga murojaat qilishda suistemollikka yo‘l qo‘ymasdan, ulardan kitobxonda asar yaratilgan davr to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘lgan darajada foydalanish zarur”[4,60].

Tarjimashunos olim Z. Isomiddinov shunday deydi, “Adabiyot – san’atdir, har qanday san’at, jumladan, badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati, joni – milliylik, milliy bo‘lmagan san’at, milliylik yo‘g‘rilmagan so‘z san’ati yo‘q. Shunday ekan, badiiy tarjimada milliylikni saqlab qolish, boshqacha aytganda, uni qayta tiklash muvoffaqiyatning ko‘rsatkichi, bosh omilidir”. Darhaqiqat A.Qahorning milliylikka yo‘g‘rilgan asarlarini boshqa tilga tarjima qilishda asarlarning joni bo‘lgan ana shu milliylik xususiyatini saqlashga alohida e’tibor

qaratish kerak bo‘ladi. Buning uchun tarjimon turli yo‘llardan borishga majbur bo‘ladi. Shunday ekan, xos so‘zlar tarjimasini jiddiy muammo sifatida baholash lozimdir.

REFERENCES

1. Исоқова Ш. Бадиий таржимада миллийлик ва тарихийликни акс эттирилиши. (Ойбекнинг “Навоий” романининг французча таржимаси мисолида): Ф. ф. н. дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2004.
2. Kim Hyon Yong, B.Shermatova Abdulla Qahhor hikoyalari (압둘라 카허르 단편 소설 집), 2015.
3. E.Begmatov, A.Madvaliyev “O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent.”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat milliy nashriyoti. 2006.
4. Ходжаева.Н. Ўзбек адабиёти намуналари хинд тилида.(Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси,Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёти институти.):Ўзбек тили ва адабиёти журнали 2015/6 Тошкент – 2015.
5. Xasanova, S. A. Q., & Abdurahimova, D. X. Q. (2022). Liao Zhai Zhiyi asarini yapon tiliga qilingan tarjimalari xususida. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 22), 229-235.
6. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
7. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
8. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
9. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
10. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

HINDIY VA O‘ZBEK TILLARIDAGI RASMIY USLUB MATNLARIDA FE’LLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan 2022-yil 1-sentabrda so‘zlagan nutqi hamda Hindiston Respublikasi Prezidenti Ram Nath Kovindning Hindiston mustaqilligining 75 yilligi munosabati bilan 2021-yil 14-avgustda so‘zlagan nutqi misolida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460628>

Nurxon DADASHOVA,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent. O‘zbekiston.
Tel: +998919420997;
E-mail: nurkhonyokubova@gmail.com

Annotatsiya. *Fe’l so‘z turkumidan foydalanish uslubga qarab o‘zgaradigan hodisadir. Xususan, rasmiy uslubda fe’llar asosan uchinchi shaxsda va majhul nisbatda, buyruq maylida beriladi. Yuqori doiradagi shaxslar tomonidan so‘zlanadigan nutqlar ham rasmiy uslubga xos bo‘lib, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda turli morfologik va sintaktik o‘zgarishlar yuz beradi. Ushbu maqoladi hindiy va o‘zbek tillarida olingan rasmiy nutqlar misolida fe’l so‘z turkumining rasmiy matnlarda qo‘llanilishi, ularning tarjimada berilishi va o‘zgarishlari borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Fe’l so‘z turkumi, rasmiy uslub, tarjima, tarjima uslubi, tahlil, morfologik o‘zgarish, hindiy tili, o‘zbek tili, majhul nisbat.*

Abstract. *The use of the verb phrase is a phenomenon that changes depending on the style. In particular, in the formal style, verbs are mainly given in the third person and in the passive voice, in the imperative mood. Speeches given by high-ranking persons are also characteristic of the official style, and various morphological and syntactic changes occur when translating them from one language to another. This article talks about the use of verbs in official texts, their translation and changes, on the example of official speeches taken in Hindi and Uzbek languages.*

Key words: *Verb phraseology, formal style, translation, translation style, analysis, morphological change, Hindi language, Uzbek language, passive voice.*

Аннотация. *Употребление глагольной фразы — явление, меняющееся в зависимости от стиля. В частности, в формальном стиле глаголы в основном даются в третьем лице и в страдательном залоге, в повелительном наклонении. Речи высокопоставленных лиц также характерны для*

официального стиля, и при их переводе с одного языка на другой происходят различные морфологические и синтаксические изменения. В данной статье рассказывается об употреблении глаголов в официальных текстах, их переводе и изменениях, на примере официальных выступлений на хинди и узбекском языках.

Ключевые слова: Глагол, формальный стиль, перевод, переводческий стиль, анализ, морфологическое изменение, язык хинди, узбекский язык, страдательный залог.

Hindiy va o‘zbek tillaridagi rasmiy uslubga xos matnlarda fe’llarni tahlil etish uchun manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan 2022-yil 1-sentabrda so‘zlagan nutqi hamda Hindiston Respublikasi Prezidenti Ram Nath Kovindning Hindiston mustaqilligining 75 yilligi munosabati bilan 2021-yil 14-avgustda so‘zlagan nutqlari matni olindi va ulardagi qo‘shma fe’llar chog‘ishtirma tahlil qilindi.

Matnlardagi fe’llarni o‘zaro taqqoslaganda, shunga amin bo‘lamizki, fe’l tarjima jarayonida morfologik o‘zgarishga uchrashi mumkin, ya’ni doim ham fe’l so‘z turkumiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin:

“Avvalo, mana shu muazzam “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida turib, siz, azizlarni, butun xalqimizni ulug‘ ayyom – Mustaqillik kuni bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman. Barchangizga o‘zinning yuksak hurmat va ehtiromimni, eng ezgu va olijanob tilaklarimni izhor etaman.” [1]

“देश-विदेश में रहने वाले सभी भारतीयों को स्वाधीनता दिवस की हार्दिक शुभकामनाएं! यह दिन हम सभी के लिए अत्यंत हर्ष और उल्लास का दिन है। ... इस ऐतिहासिक अवसर पर आप सभी को बहुत-बहुत बधाई!” [3]

Birinchi matnda “tabriklayman” hamda “izhor etaman” fe’llari ishtirok etgan bo‘lsa, ikkinchi matnda fe’l umuman mavjud emas. Lekin ikkala matnda ham tabriklash ma’nosi mavjud. Bu esa tarjima jarayonida ma’lum so‘z turkumi tarjima matnida ham o‘z holati saqlab qolmasligini anglatadi. O‘zbek tilidagi “tabrikلامoq” fe’li, hindi tilida “शुभकामनाएं” hamda “बधाई” so‘zlariga to‘g‘ri kelmoqda. Demak, bunday hollarda tarjima jarayonida morfologik o‘zgarishlar kuzatiladi, ya’ni o‘zbek tilidagi “tabrikلامoq” fe’li hindi tiliga ot bo‘lib (tabrik) tarjima qilinadi yoki aksincha.

Sintaktik jihatdan olib qaralsa, Sh.Mirziyoyev nutqida birinchi shaxs, ko‘plik shaklida ishlatilgan fe‘llar miqdori R.N.Kovindning nutqida shunday fe‘llar sonidan ancha ko‘p. (1-jadval)

1-jadval.

Sh.Mirziyoyev nutqidan	Shaxs va son	Nisbat	R.N.Kovind nutqidan	Shaxs va son	Nisbat
E‘tibor beramiz	Birinchi shaxs, ko‘plik	Aniq nisbat	बल दिया जा रहा है (e‘tibor qaratilmoqda)	Uchinchi shaxs, birlik	Majhul nisbat
Ahamiyat qaratmoqdamiz	Birinchi shaxs, ko‘plik	Aniq nisbat	ज़ोर दिया जा रहा है (ahamiyat berilmoqda)	Uchinchi shaxs, birlik	Majhul nisbat
Oldinga qarab boramiz	Birinchi shaxs, ko‘plik	Aniq nisbat	आगे बढ़ा गया है (olg‘a qadam bosildi)	Uchinchi shaxs, birlik	Majhul nisbat

1-jadvalda ko‘rib turganingizdek, ikkala matnda ham bir xil ma‘noli fe‘llarni uchratish mumkin, faqat sintaktik jihatdan bir-biridan farq qilmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ikki matnda ham ma‘no jihatdan ham, sintaktik jihatdan ham farqli bo‘lmagan fe‘llarni topish qiyin emas. (2-jadval)

2-jadval.

Sh.Mirziyoyev nutqidan	Shaxs va son	Nisbat	R.N. Kovind nutqidan	Shaxs va son	Nisbat
G‘urur bag‘ishlaydi	Uchinchi shaxs, birlik	Aniq nisbat	गर्व होता है (g‘urur bo‘ladi)	Uchinchi shaxs, birlik	Aniq nisbat

Harakat qilmoqda	Uchinchi shaxs, birlik	Aniq nisbat	प्रयास किये (harakat qilishdi)	Uchinchi shaxs, ko'plik	Aniq nisbat
Ta'zim qilaman	Birinchi shaxs, birlik	Aniq nisbat	नमन करता हूँ (ta'zim qilaman)	Birinchi shaxs, birlik	Aniq nisbat
Olg'a bormoqda	Uchinchi shaxs, birlik	Aniq nisbat	कदम उठाते थे (oldinga siljir edi, olg'a borar edilar)	Uchinchi shaxs, ko'plik	Aniq nisbat

Ahamiyatlisi, ikkala matnda ham ma'no jihatdan bir-biriga o'xshash fe'llarni ko'rish mumkin va ularning ko'pchiligi qo'shma fe'llar hisoblanadi.

O'zbek hamda hindi tili o'rtasidagi o'xshashlikni ta'minlab turuvchi eng asosiy omil bu – ikkala til ham arab-fors tillaridan so'z o'zlashtirganligidir. O'zbek tili kabi hindi tilida ham arab-fors o'zlashmalari faol qo'llaniladi va hindi tilining ajralmas bo'lagiga aylangan. Shu tufayli ham rasmiy uslubga xos bo'lgan matnlarda ham ularni uchratish tabiiy hol. (3-jadval)

3-jadval. Sh.Mirziyoyev hamda R.N.Kovind nutqidagi o'zlashma fe'llardan yasalgan qo'shma fe'llar. [1] [3]

Sh.Mirziyoyev nutqidagi o'zlashma fe'llardan yasalgan qo'shma fe'llar	R.N.Kovind nutqidagi o'zlashma fe'llardan yasalgan qo'shma fe'llar
Paydo bo'lmoq	नज़र डालना
Xizmat qilmoq	कदम बढ़ाना

	Ahamiyat qaratmoq		हासिल करना
	G'urur bag'ishlamoq		कमी आना
	Omad tilamoq		तैयार करना
	Davom ettirmoq		मज़बूत बनाना
	Hissa qo'shmoq		ज़रूरत होना
	Amalga oshirmoq		खर्च करना
	Tashakkur bildirmoq		खुशी होना
0	Mavjud bo'lmoq	0	बल देना
1	Harakat qilmoq	1	ज़ोर देना
2	Imkon bermoq	2	आसान होना
3	Tashkil etmoq	3	परवाह करना
4	Sharoit yaratmoq	4	कदम उठाना
5	Tatbiq etmoq		
6	Qaror qilmoq		
7	Hosil qilmoq		
8	Jalb qilmoq		
9	Talab qilmoq		
0	Ta'zim qilmoq		
1	E'tibor bermoq		

O‘zbek tilidagi matnda jami 21 ta, hindi tilidagi matnda esa 14 ta o‘zlashma so‘z bilan yasalgan qo‘shma fe‘l topildi. Shulardan faqat bittasi hosil qilmoq (हासिल करना) fe‘li ikkala matnda ham mavjud. Topilgan qo‘shma fe‘llarning barchasi arab-fors tillaridan o‘zlashgan fe‘llar orqali yasalgan. Hindi tilidagi matnda कदम बढ़ाना hamda कदम उठाना qo‘shma fe‘llari va बल देना hamda जोर देना sinonim bo‘lib kelmoqda. Hindiy tilidagi qo‘shma fe‘llar orasida o‘zbek tilida ham faol ishlatiladiganlar mavjud, ya’ni aynan shu so‘zlar orqali yasalgan qo‘shma fe‘llar o‘zbek tilida ham bor: नज़र डालना (nazar solmoq), तैयार करना (tayyor qilmoq), परवाह करना (parvo qilmoq), आसान होना (oson bo‘lmoq), ज़रूरत होना (zarur bo‘lmoq, zarurat bo‘lmoq). O‘zbek tilida topilgan qo‘shma fe‘llar orasida ham shundaylari mavjud: harakat qilmoq (हरकत करना), xizmat qilmoq (खिदमत करना), paydo bo‘lmoq (पैदा होना).

Davlat boshlig‘i nutqini tahlil qilganda, fe‘llar o‘rtasidagi sinonimlik munosabatini hisobga olmaslikning iloji yo‘q. Sh.Mirziyoyev nutqida ham, R.N.Kovind tabrigida ham fe‘llar o‘rtasidagi sinonimik munosabatlarni ko‘rish mumkin. Xususan, Sh.Mirziyoyev nutqida quyidagi sinonimik qatorlar aniqlandi[1]:

Tabriklamoq – qutlamoq

Bo‘lib qolmoq – aylanmoq

Davom ettirmoq – olg‘a bormoq – oldinga qarab bormoq

Barpo etmoq – yaratmoq

Ahamiyat qaratmoq – e’tibor bermoq

Saqlamoq – asramoq

G‘olib bo‘lmoq – o‘rin egallamoq

Yuksalmoq – rivojlanmoq – yangi bosqichga ko‘tarilmoq

Erkin bo‘lmoq – mustaqil bo‘lmoq

Matnda jami 9 ta sinonimik qator aniqlandi, bulardan ikkitasi uchta fe‘llik, qolganlari ikki fe‘llik qatorlar hisoblanadi. 20 ta fe‘l qo‘shma fe‘l, 8 tasi sodda fe‘l. ikki o‘rinda sodda fe‘l va qo‘shma fe‘l o‘zaro sinonimlik hosil qilgan.

Hindiston Prezidenti R.N.Kovind tabrik nutqida esa quyidagi sinonimik qatorlar topildi[3]:

नज़र डालना - देखना

गर्व होना - गौरव बढ़ाना

तय करना - निर्णय करना

कदम बढ़ाना - आगे बढ़ना - बढ़ा देना - बढ़ावा देना - आगे जाना

परिवर्तन होना - बदलना

शुरू करना - शुभारम्भ करना

पाना - प्राप्त करना - हासिल करना

मज़बूत बनाना - सशक्त हो जाना - सुदृढ़ करना

भागीदार होना - साझा करना

सुगम बनाना - सरल बनाना

कमी आना - काम हो जाना

बल देना - जोर देना

सुधर देना - विकसित देना

Matnda jami 13 ta sinonimik qator topildi. Bulardan bittasi beshta, ikkitasi uchta, qolganlari ikkita fe’ldan tashkil topgan sinonimik qatorlar hisoblanadi. Uchta fe’l sodda, qolgan 28 ta fe’l qo’shma fe’ldir. Uch o’rinda sodda hamda qo’shma fe’l o’zaro sinonimlik hosil qilganini ko’rish mumkin.

Topilgan sinonimik qatorlar tarkibida shunday fe’llar borki, ular aynan mana shu matnlarda sinonimlik hosil qilgan bo’lib, matndan tashqari holatda sinonimlik munosabati kuzatilmasligi mumkin.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston mustaqilligining 31 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 1-sentabr 2022-yil, www.daryo.uz sayti.
2. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: “Fan va texnologiyalar”, 2009.

3. भारत के राष्ट्रपति श्री राम नाथ कोविन्द का 75वें स्वाधीनता दिवस की पूर्व संध्या पर राष्ट्र के नाम संदेश, 14 august 2021.
4. Хинди-русский словарь. Сост. В.М.Бескровный. Под ред. Акад.А.П.Баранникова. –М.: ГИС, 1959.
5. Fatxutdinova, I. A. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 140-149.
6. www.mea.gov.in
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

ABDURAHMON ASH-SHARQAVIYNING “YER” ROMANIDA QISHLOQ HAYOTINING TIMSOLI VA UNING TARJIMADA IFODALANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460642>

Shahnoza RAHMONOVA,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998 90 349 00 18;
E-mail: sahnozarahmonova300@gmail.com

Annotatsiya: “Yer”-misrlik yozuvchi Abdurahmon ash-Sharqaviy tomonidan yozilgan roman. Roman 1930-yillarning boshlarida bo‘lib, zolim tuzum zulmi ostida azob chekayotgan Misr qishlog‘i hikoyasini tasvirlaydi. Romanda muhokama qilingan siyosiy va ijtimoiy mavzular bilan bir qatorda, matnda korrupsiyalashgan hukumat amaliyoti natijasida kelib chiqadigan ekologik zarar va uning qishloq aholisiga ta’siri ta’kidlangan. Romanni ekologik tanqidiy o‘qish matnning ekologik imkoniyatlarini ochib beradi. Roman inson va tabiatning dualistik kontseptsiyasini shubha ostiga qo‘yadi, bu yerda inson va inson bo‘lmagan tabiiy dunyo madaniy jihatlar bilan o‘zaro ta’sir qiladigan uyg‘un ekotizimni ifodalaydi. Bundan tashqari, u tabiatning hukmronligi va ayollarning ekspluatatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi ekofeministik muammoni hal qiladi.

Kalit so‘zlar: “Yer”, Sharqaviy, qishloq hayoti, inson va tabiat, tarjima, tarjima uslubi.

Аннотация. «Земля» — это роман, написанный плодовитым египетским писателем Абдель Рахманом аль-Шаркави. Действие романа происходит в начале 1930-х годов и рассказывает историю египетской деревни, страдающей от гнета тиранического режима. Помимо политических и социальных тем, затронутых в романе, в тексте подчеркивается экологический ущерб, возникающий в результате коррумпированных действий правительства, и его влияние на жителей деревни. Экокритическое прочтение романа выявляет экологический потенциал текста. Роман бросает вызов дуалистической концепции человека и природы, представляя гармоничную экосистему, в которой мир природы, как человеческий, так и нечеловеческий, взаимодействует с культурными аспектами. Более того, он затрагивает экоефеминистский вопрос о связи между господством над природой и эксплуатацией женщин.

Ключевые слова: «Земля», Шаркави, деревенская жизнь, человек и природа, перевод, метод перевода.

Abstract. *“The Earth” is a novel written by the prolific Egyptian writer Abdel Rahman al- Sharqawi. The novel is set in the early 1930s and depicts the story of an Egyptian village that suffers under the oppression of a tyrannical regime. Beside the political and social themes tackled in the novel, the text emphasizes the ecological damage arising from corrupt governmental practices and its effect on the inhabitants of the village. An ecocritical reading of the novel brings to light the text’s environmental potentials. The novel challenges the dualistic concept of man versus nature by representing a harmonious ecosystem where the natural world, both human and non-human, interacts with the cultural aspects. Moreover, it tackles the ecofeminist issue of the connection between the domination of nature and the exploitation of women.*

Key words: *“Earth”, Sharkavi, village life, man and nature, translation, translation method.*

Abdurahmon ash-Sharqaviyning “Yer” asari birinchi marta “Ozod zobitlar inqilobi” sodir bo‘lgan 1952-yilda “Al-Masri” gazetasida seriyali ko‘rinishda nashr etilgan; roman keyinchalik 1954-yilda kitob holida nashr etildi. Roman katta tanqidiy olqishlarga sazovor bo‘ldi va “kambag‘al va mazlumlar ishiga” sodiq sotsialistik realizm fantastikasining yorqin namunasi sifatida o‘qildi. 1969- yilda taniqli rejissyor Yusuf Chaxine romanni filmga aylantirdi, u bir qancha mukofotlarga sazovor bo‘ldi va 1970 yilda Kann kinofestivalida qatnashdi [2]. Roman 1990 yilda Desmond Styuart tomonidan ingliz tiliga “Misr Yeri” deb tarjima qilingan.

Roman 1952 yilgi inqilobdan ikki yil o‘tib, 1954 yilda nashr etilgan bo‘lsa-da, uning voqealari 1930-yillarda inqilob tomonidan ag‘darilgan monarxiya hukmronligi davrida sodir bo‘ladi. O‘sha paytda Misr Usmonlilar hukmronligi va misrliklar ustidan imtiyozli sinflarni joylashtirgan ingliz imperializmi qoldiqlari ostida azob chekayotgan edi. Roman Ismoil Sedki Posho hukmronligi davrida Delta qishlog‘ida bo‘lib o‘tadi. Bu maktab o‘qish uchun Qohiraga jo‘nab ketgan va yozning bir kuni o‘z qishlog‘iga qaytib kelgan yosh bolaning hikoyasi sifatida boshlanadi. Roman o‘rtasida hikoyachi matndan yo‘qolib, Omda (rais), Mahmud bek va Posho vakili bo‘lgan qishloq ahlining zolim hukumatga qarshi kurashi hikoyasi markaziy syujet sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasvir jihatidan e‘tibor qaratsak, romandagi asosiy voqealar talqinida Nil doimo ishtirok etadi. “Yer” romani suv tasvirlari bilan to‘la. Romandagi erkak va ayol qahramonlar o‘quvchilarga tanishtiriladi, fonda

esa suv aniq ko‘rinadi. Vasifa o‘quvchilarga qishloq bolalari bilan o‘rdak va g‘ozlar orasida loyda va suvda o‘ynab, qanotlarini qoqib bolalarni olqishlagan:

كنا قبل ان نذهب إلى المدرسة الابتدائية بعام واحد نستحم في ترعة صغيرة إلى جوار دور القرية، وكنا نحن الصغار من أولاد وبنات نمرغ أجسادنا على التراب ونكسو وجوهنا ورءوسنا بالطين لنصبح شكل العفاريث . ثم نقفز إلى الترعة الصغيرة، ونغطس في الماء المتل بالطيني، وز عيقنا يختلط بصياح الأوز والبط الذي يسبح إلى جوارنا ويستقبلنا مصفقا بأجنحته. (٨)

“Bu voqea boshlang‘ich maktabga o‘qishga kirmasimdan bir yil chamasi ilgari bo‘lib o‘tgan edi. Qishloq chetida ariq bor edi. Biz unda har kuni zerikkunimizcha cho‘milganimiz cho‘milgan edi. O‘zimizni jinga o‘xshatamiz, deb badanlarimizni tuproqqa belardik, bosh va yuzlarimizga loy chaplardik, so‘ng kichikkina ariqqa sakrab, suvga sho‘ng‘irdik. Qiy-chuvimiz yaqinimizda qanotlarini qoqib g‘ag‘alashayotgan g‘oz va o‘rdaklarning shovqin-suroniga qo‘shilib ketardi.” [1, 7]

Ushbu parchada ash-Sharqaviy sodda qishloq hayotining sodda bolalari odatlarini oddiy tilda jonlantirganki, o‘quvchining ko‘z oldida o‘zining bolaligi gavdalanib ketgandek bo‘ladi. Ushbu ruhni tarjimon tarjimaga ham yuklay olgan. Takroriy fe‘ldan foydalanish (*cho‘milganimiz cho‘milgan*), taqlid so‘zlarni samarali ishlatish (*qiy-chuv, g‘ag‘alashayotgan*) tarjimani yana-da boyitgan va uning tasviriyiligini oshirgan. O‘quvchi mutolaa jarayonida bolalarning shovqin-suronini g‘ozlarning g‘ag‘alagan ovozigacha mushtarak bo‘lib ketganini yaqqol his qiladi.

Bundan tashqari, shuni ta‘kidlash lozimki, suv obrazi romanda yetakchi tasvirlardan biridir. Romandagi turli bolalik xotiralari suv bo‘yida (Nil daryosida) sodir bo‘ladi, roman qahramoni hamda Vasifaning ilk uchrashuvi ham aynan suv bo‘yida sodir bo‘ladi:

“U kulib, joyidan qo‘zg‘aldi va menga yondoshibroq o‘tirdi. Keyin somon yuklab kelayotgan kema tomonga muloyim nazar tashladi. Nayning tiniq ovozi yurakni to‘lqinlantirardi.” [1, 39]

Roman ochiq epizodik tuzilma shaklida yozilgan. U bir xil qahramonlar tomonidan bir-biriga bog‘langan bir qator epizodlardan iborat. Bu tuzilma qishloq muhitini diqqat markaziga olib borishga ham yordam beradi. Qolaversa, u syujetni aniq bir xulosa bilan birlashgan voqealar turkumidagi qahramonlar hikoyasini hikoya qilishdan ko‘ra, qishloqning

o‘zi nuqtai nazaridan taqdim etadi. Nihoyat, ushbu epizodik tuzilma matnga qishloq madaniy nutqini, jumladan e‘tiqodlar, urf-odatlar va an‘analarni qishloqning tabiiy dunyosi kontekstida birlashtirish imkoniyatini beradi.

Masalan, romanda xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan kuy-qo‘shiqlar ham keng o‘rin egallagan. Tarjimon ushbu misralarni Misr ohangidan uzoqlashmagan holda, ayni damda, o‘zbek o‘quvchilariga ham begona bo‘lmagan bir usulda tarjima qilishga harakat qilgan:

*“Kuyla, nay,
Tengsiz malakni sevganim dunyoga yoy!
Oq bilak yo ‘lida jon tikdim, u parvo qilmagay,
Boshqa jononlarni ko ‘nglim istamas hech, na qilay?”* [1, 39]

M. M. Badaviy o‘zining “Zamonaviy arab adabiyotining qisqacha tarixi” kitobida “Yer” romani shunchaki qishloq fonida sodir bo‘ladigan voqealar emas, balki Misr qishlog‘ining o‘zi roman qahramoni bo‘lgan bir asardir” deydi.

Roman tarjimasida ba‘zi atamalar o‘z holicha qoldirilishi holatlari kuzatiladi, bu esa aynan o‘sha qishloq hayotini yaqindan his qilishga yordam beradi. Masalan, Umda – qishloq oqsoqoli, ma‘mur - qamoqxona boshlig‘i va shu kabilar.

Romanni o‘qish jarayonida qishloqdagi odamlar hayoti boricha, hatyo kundalik maishiy tashvishlari bilan yoritilganining guvohi bo‘lamiz: *“Dadam o‘ylab qoldi. Yangi kostyum masalasi hozirgi kunda ko‘pchilik otalarning boshini qotirardi. Ular, ko‘pincha kostyum, pulning zavoli ekanligini o‘z o‘g‘illaridan yashirish uchun kostyum kiyish xalq oldida durust emas deb bahona qilishardi...”* [1, 42]

Yuzaki qaraganda oddiy tuyuladi, ammo bu o‘quvchini zeriktirmaydi. Negaki, ushbu muammo faqatgina Misr qishloqlarida emas, dunyoning boshqa joylarida ham mavjud. Buni bilgan kitobxon ushbu holatga oddiy qaramaydi, balki bu narsani his qilishi ham mumkin. Bu borada tarjimonning yengil, sodda tarjimasini ham ahamiyatga ega.

Abdurahmon ash-Sharqaviyning “Yer” romani muhim siyosiy masalalarni oddiy bir qishloq hayoti jarayoni bilan ochib berishga harakat qilgani bilan ahaiyatga molikdir. Ushbu asarning o‘zbek tiliga tarjimasida romanning ruhi ham ko‘chib o‘tganligi tahsinga loyiq.

REFERENCES

1. Abdurahmon ash-Sharqaviy, Yer. – G'afur G'ulom nomidagi baddiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1968.
2. G'aybulla Salomov, Tarjima nazariyasi asoslari. – O'qituvchi, Toshkent. – 1984.
3. Nashwa Muhammad Elshamy, - Reading Egyptian Environmentalism: The Representation of Rural Life in Abdel Rahman al-Sharqawi's Novel Al-Ard (1954).
4. Mubarakova, D. (2022). Media matn tarjimasida lingvomadaniy va sotsiolingvistik aspektlar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 26), 411-414.
5. <https://readbks.ru/book-author/abd-ar-raxman-ash-sharkavi>
6. <https://litvek.com/avtor/72517-avtor-abd-ar-rahman-ash-sharkavi>
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

TOXIR VATTORNING “OLOVLI SO‘QMOQLAR” ROMANI TARJIMASIDA EKVIVALENTLIKNING AKS ETISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460652>

Gulnoza G‘OFFOROVA,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent. O‘zbekiston. Tel: +99897 4076119; E-mail:
gulnozagofforova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jazoir yozuvchisi At-Toxir Vattorning “Olovli so‘qmoqlar” romanining arab tilidan o‘zbek tiliga tarjimasida ekvivalentlik masalasi, romanning iste‘dodli tarjimon Muhammad Yusupov va arabshunos Baxtiyor Ibrohimov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar misolida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjimashunoslik, badiiy asar, tarjimon, arab, o‘zbek, tarjima, milliy o‘ziga xoslik, ekvivalentlik, adekvatlik*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос эквивалентности в переводе романа “Огненные тропы” Алжирского писателя Ат-Тахир Ваттора с арабского языка на узбекский, которая была переведён талантливого переводчика романа Мухаммада Юсупова и арабиста Бахтиёра Ибрахимова.*

Ключевые слова: *переводоведение, литературное произведение, переводчик, арабо-узбекский перевод, национальная идентичность, эквивалентность, адекватность*

Abstract: *In this article, the issue of equivalence in the translation of novel “Fiery Trails” by the Algerian writer At-Takhir Wattor from Arabic to Uzbek is considered, using the example of the translations of the novel by the talented translator Muhammad Yusupov and the Arabic scholar Bakhtiyor Ibrohimov*

Key words: *translation studies, literary work, Arabic-uzbek translator, national identify of translation, equivalence, adequacy*

Badiiy tarjimaning sifati va saviyasini belgilashda ekvivalentlik, muqobillik va adekvatlik masalalari muhim masalalari muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilidan arab tiliga qilingan tarjimalarda ekvivalentlik va adekvatlik masalasi ko‘rib chiqilayotganda tillarning o‘zaro yaqinligi, bir oilaga mansubligi hisobga olinadiki, bu yuzaga keladigan ayrim muammolarning asl sababini aniqlashga ko‘mak beradi. Zero, bu jarayonda tarjimon oldida turgan eng katta muammolardan biri ekvivalentlikdir”.

Fransuz tilida XIX asrning 60-yillarida aynan tilshunoslik bilan bogʻliq tushuncha sifatida qabul qilingan “ekvivalent” (equivalent) termini rus tarjimashunosligiga XX asr oʻrtalarida A.D.Shveyser tomonidan kiritilgan boʻlib, birmuncha murakkab termin sifatida qaraladi. Bu asliyat va tarjima matni mazmunining birligiga erishishda tarjimon eʼtibori doirasida boʻlgan masalalardan biridir [1,60]. Ammo, tarjimashunoslikda ekvivalentlik darajalariga oid ishlarda tadqiqotchilarning qarashlari turlicha. Masalan, V.N.Komissarovga koʻra, ekvivalent – bir nutq birligi bajariladigan funksiyani bajara oladigan boshqa nutq birligidir. “Ekvivalentlik tushunchasi, - deb yozadi olim, - tarjimaning muhim xususiyatlarini ochib beradi va hozirgi tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi”. Ammo, V.Vinogradov, A.D.Shveyser, Y.Retsker, N.K.Garbovskiy, A.O.Ivanov va boshqa olimlarning ekvivalentlikka yondashuvlari bir-biridan sal boʻlsa-da farq qiladi.

Ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida tillararo xoslashuvning eng samarali variantlarini izlab topish va tarjima faoliyatiga tadbqiq etish asosini shakllantiradi. Asliyat tili bilan tarjima tili oʻrtasida oʻrnatilgan munosabatlarning aksi ekvivalent munosabatlarda namoyon boʻladi. Ekvivalentlik xususida yana shuni taʼkidlash kerakki, agar hozirgi tarjima nazariyasi haqiqatdan ham XX asr oʻrtalarida paydo boʻlgan boʻlsa, uning asosiy kategoriyasi sanalgan “ekvivalentlik” ning ham u bilan bir paytda yuzaga kelganligi oʻz-oʻzidan anglashiladi.

Tarjimashunoslikda ekvivalentlik tenglik, muqobillik, muvofiqlik yoki muvozanat, oʻxshashlik hamda adekvatlik ekvivalentlikning sinonimlaridir. Fanda ekvivalentlik haqidagi tasavvurlar bir xil boʻlmagan. Baʼzi hollarda esa bu borada tamoman qarama-qarshi tasavvurlar ham yuzaga kelgan. Masalan, S.Vkaxov “ekvivalentlik” deganda mazmun doirasida ikki tilning tegishli birliklari semantika, konnotatsiya, fon oʻrtasida toʻliq oʻxshashlikni nazarda tutgan boʻlsa, A.O.Ivanov tarjima tilida manba til birlamchi birliklarining shu kontekst doirasida barcha maʼno-mazmun komponentlari yoki mazmunga tegishli variantlardan birining funksional mutanosibligini koʻzda tutgan [1, 61].

Umuman, ekvivalentlik tarjimaning asliyatga har jihatdan muvofiqligidir. Baʼzida kontekst ichidagina bir-biriga mos keladigan, bir-birining oʻrnini qoplaydigan soʻz va birikmalar ham shartli ravishda

ekvivalentlik maqomida bo‘ladi. Ikki tilda kontekstsiz ham ma’nolari bir-biriga o‘xshash bo‘lgan maqol, matal va iboralar ham ekvivalent birikmalar hisoblanadi.

Asliyat: - لكن من يخسر؟ أنا... أوف أية خسارة؟ غيره كثيرون. انهم يقولون في لغتهم:

[1, 2]. النخالة تجلب الكلاب... ننتدب واحدا من الجنود لخدمتي و كفي

Tarjimada: - Lekin bunda kim yutqizadi? Men !...Nima yutkizaman? Boshqasi to‘lib yotibdi. Avomda: “It vazifasini it bajarar”, degan gap bor. Uning ishini soldatlardan biriga buyuraman qo‘yaman [2, 57].

Yuqoridagi “It vazifasini it bajarar” maqolining aslida “Ziqnalikni it qiladi” degan tarjima chiqadi. Tarjimon o‘zbek tilidagi muqobil ekvivalentini tanlashni ma’qul ko‘rib uni “It vazifasini it qilar” deb tarjima qilgan. Bunday tarjima albatta kontekstga bog‘liq bo‘lgan holat. Ammo mazmunan bir xil ma’no anglatadi.

Tarjima ishonchli, hech bir so‘z, ibora e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu bilan birga, ijodkor tarjima matniga o‘z iboralarini ham kiritishi mumkin. Yuqoridagi misolda biz bunga guvoh bo‘ldik. Shunday fe’llar ishlatishi mumkinki, asliyatdagi ma’no bo‘rttirib ko‘rsatilishi mumkin. Toxir Vattorning “Olovli so‘qmoqlar” asarining tarjimasida ham ijodkorlarimiz ishlariga ijodiy yondashishgan. Asardagi asosiy qahramon sanalgan Al-Lazning jasoratini bo‘rttirib ko‘rsatib, asarning ta’sirchanligini oshirishgan.

Tarjima: “Serjant shosha-pisha stol oldiga borib, qo‘liga qog‘oz, qalam oldi va Al-lazning og‘zini poylay boshladi. Ayni vaqtda Al-Lazning uzoq chidolmasligini boshidayoq sezganini hayolidan o‘tkazdi: “U kaltak zarbiga imkoni boricha chidashga urinib ko‘rdi, xolos. Men uning o‘rnida bo‘lsam, buncha ishonchli dalillar qarshisida hech ikkilanmay bor gapni bo‘yninga olgan bo‘lardim. Yo‘q unda sportchilarga xos jasorat bor”.

“Tarjima amaliyotida hanuzgacha yo‘l qo‘yib kelinayotgan xato va kamchiliklarning ko‘pchiligi tarjimada milliy xususiyatni tiklash bilan bog‘liq, bu masala hanuzgacha ham nazariy, ham amaliy jihatdan qoniqarli darajada hal qilingan emas. Badiiy tarjimada, xususan, o‘zaro yaqin tillar orasida tarjima amalga oshirilayotganda xos so‘zlarning soxta ekvivalent bo‘lib chiqmasligiga alohida e’tibor berish kerak”[4, 74].

“Tarjimada uchraydigan bunday holatlar xususida so‘z yuritgan E.Ochilov yaqin tillardan tarjimaga ko‘p hollarda ijodiy ish deb qaralmayotganligi, balki unga tabdil darajasida munosabatda bo‘linib, shunchaki u tildan bu tilga o‘tkazib qo‘ya qolish va ba‘zi bir tushunarsiz so‘zlarni tushunarlisi bilan almashtirish deb qaralishi tufayli bunday tarjimalarga ortiqcha tayyorgarliksiz kirishilishi va buning natijasida uzoq tillardan tarjimaga ko‘ra yaqin tillardan tarjimada xato ko‘proq uchrashini ta‘kidlaydi. Zero, tili va hayot tarzi yaqin bo‘lgan xalqlarning tillaridan tarjimaning qulayligi, turli til guruhlariga kiradigan mutlaqo begona, dini va urf-odatleri bir-biriga yot xalqlar tilidan tarjimaga nisbatan osonligini ta‘kidlar ekan, tarjimashunoslikda “uzoq tillardan tarjimaga ko‘ra, yaqin tillardan tarjima qiyinroq” degan notog‘ri bir qarash keng tarqalgan va bunga ham asliyat, ham tarjima tili lug‘atida mavjud, shaklan bir xil bo‘lsa-da, mazmunan bir-biridan uzoq so‘zlar – “soxta ekvivalentlar” vaj qilib ko‘rsatiladi”[3, 9].

Milliy xarakter ma‘lum moddiy asosda yaratilib, muayyan hayot sharoitining in‘ikosi hisoblanadi. Shuning uchun ham obrazning milliy xarakterini o‘sha millatning hayotini, milliy tarixini, o‘ziga xosligini, milliy, madaniy va adabiy an‘analarini o‘rganish orqali to‘g‘ri tushunish mumkin. “Olovli so‘qmoqlar” romanida **درهم** “**dirham**” so‘zi kelgan. Dirham arablarning milliy pul birligi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda **درا** “**doro**” so‘zi ham kelgan. U “**chaqa, mayda pul**” degan ma‘noni anglatadi. Arablar chaqa pulni doro deb atashadi. Tarjimon bu so‘zlarni ekvivalentini topa olmagan va bu so‘zlar faqatgina arab xalqlariga tegishli bo‘lgan so‘zlar bo‘lganli sababli ularni o‘z shaklida qoldirishni ma‘qul ko‘rgan[2,37].

Ma‘lumki, ba‘zan asliyatda erkin iboralar bilan berilgan gaplar tarjimon tomonidan turg‘un birikmalar bilan tarjima qilish holatlari uchrab turadi. Bu holatning afzallik tomoni shundaki, maqol, metal yoki frazeologik iboralar erkin iboralarga qaraganda obrazliroq, ta‘sircharoq bo‘ladi, lekin, har qanday holatlarda ham to‘g‘ri ma‘no anglatuvchi erkin birikmalarni nuqul idiomatik iboralar bilan almashtirishga ruju‘ qilish asarning baddiy qiyofasini o‘zgartirishga olib kelishi mumkin” [4, 12].

Haqqoniylik – ekvivalentlikning asosiy xossasi hisoblanadi, ya‘ni tarjima matni asliyatniki kabi haqqoniy bo‘lsa, ekvivalentlik ham

mukammal bo‘ladi. Bu yerda gap asliyat matnining obyektiv voqelikka nisbatan haqqoniyliги haqida emas, har qanday matn insonni o‘rab turgan voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash usuli ekanligi haqida bormoqda. Matn har qanday moddiy obyekt singari o‘zining moddiy obyektivligi bilan haqqoniydir. Aynan ana shu haqqoniylik tarjima ekvivalentligini baholashda e‘tiborga olinmog‘i kerak” [1, 65].

Tarjima qilinayotgan asar tili me‘yorlariga qat‘iy amal qilingan holda asosiy mazmuni berish ekvivalent tarjima hisoblanadi. Demak , asliyat matni parchasi ustida ishlash jarayonida tarjmaning bir necha variantlaridan eng muqobilini tanlay olishi lozim. Bunda tarjimon matnning alohida elementlaridan muhimlik darajasiga ko‘ra grammatik va semantik jihatdan eng maqbulini tanlashi lozim.

REFERENCES

1. Hamidov X. O‘zbek qissa va romanlari turk tilida, monografiya. – T., 2017.- B.276
2. Ibrohimov B. Yusupov M. Olovli so‘qmoqlar.-T., 1986.-B.195
3. Ochilov E. Yaqin tillardan tarjima muammolari. Tarjima masalalari//ilmiy maqolalalar to‘plami.-T., 2012.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. –Т., 2006-2008. –В. 569
5. Исматуллаева, Н. (2022). Хитой лингвомаданиятида “оила” концепти билан боғлиқ стереотип тил бирликларининг таҳлили. *Sharq ma'shali/Vostochnый факел*, 14(1), 82-86.
6. Hamidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, 4(4), 100-112.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).

-
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

ARAB TILIDA POLISEMIYA VA SINONIMIYA HODISASI HAQIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460658>

Sabina ISLOMOVA,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998335769679;
E-mail: Islomova_sabi@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada barcha tillarda mavjud bo‘lgan, xususan arab tilidagi polisemantik va sinonim so‘zlar, ularning tarkibi, yasalishi va ishlatilish o‘rni haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *polisemantik, monosemantik, arab tili, tilshunoslik, sinonim, omonim, birliklar, kategoriya*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются многозначные и синонимичные слова, присутствующие во всех языках, в частности арабском, их состав, образование и роль в употреблении.*

Ключевые слова: *многозначный, моносемантический, арабский, лингвистический, синоним, омоним, единицы, категория*

Annotation: *this article will consider polysemantic and synonymous words that exist in all languages, especially Arabic, their role in composition, formation and use.*

Keywords: *polysemantic, monosemantic, Arabic language, linguistics, synonym, homonym, units, category*

Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar bilangina emas, so‘zlarning leksik ma‘nolari bilan ham o‘lchanadi. Demak, so‘zlarniig ko‘p ma‘noliligi — polisemiya til boyishida o‘z o‘rniga ega.

Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar diqqatini o‘ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o‘rganishdi. Tilshunoslarning qayd etishicha, bu masala bilan xitoy va hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug‘ullanishgan ekan. O‘rta Osiyoning buyuk leksikografi Mahmud Qoshg‘ariy ham o‘zining mashhur «Devonu lug‘atit turk» kitobida turkiy polisemantik so‘zlarni qayd etadi.

Polisemiya inson bilimining xarakteri bilan bog‘liq ekan, turli xalqlardagi bilim xarakterining turliligi ham o‘sha xalq tilidagi

polisemiyalarda o‘z aksini topadi. Aniqroq qilib aytganda, polisemiya milliy xarakterga ega bo‘ladi. Leksik ma’nolarning, tilshunoslikda tan olinganidek, milliy xarakterga ega bo‘lishi polisemantik so‘zlarda o‘z aksini topmasdan iloji ham yo‘q. Chunki polisemantik so‘zlar leksik ma’nolar hisobigagina tarkib topadi. Masalan, “tutilmagan” degan leksik ma’no turli tillarda turli so‘zlarining semantik strukturasi o‘id holatda hosil bo‘lgan. O‘zbek tilida u “yangi” so‘zining semantik strukturasi kiradi: yangi daftar. Rus tilida esa “чистый” so‘zining semantik strukturasi kiradi: “чистая тетрадь”. Vaholanki, “чистый” so‘zi o‘zbek tiliga genetik ma’nosi asosida tarjima qilinsa, “toza” so‘ziga tengdir. O‘zbek tilida esa mazkur leksik ma’noni “toza” so‘zi orqali ifoda etib bo‘lmaydi. Agar “toza daftar” birikmasini tuzsak, u “yangi daftar” birikmasi kabi ma’no ifoda etmaydi. Chunki o‘zbek tilida nihoyatda ozodalik bilan yozib to‘ldirilgan daftar ham toza daftar deb atalaveradi. Demak, o‘zbek tilida toza so‘zi “kirlanish” ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’noni ifoda eta olar, ammo tutilmagan leksik ma’nosini ifodalay olmas ekan. [4,21].

Arab tilida ham “tutilmagan” leksik ma’nosi o‘zbek tilidagi “toza” so‘ziga teng ekvivalent ma’noli نَظِيفٌ so‘zi orqali ifoda etiladi. Misol tariqasida دَفْتَرُ الطَّالِبَةِ نَظِيفٌ

Ma’lum tilda polisemantik so‘zlar vujudga kelish imkoniyatlarining ko‘p bo‘lishi va tilda polisemiyaning nihoyatda, taraqqiy etganligi fikr ayirboshlash uchun hech mahal qiyinchilik tug‘dirmaydi. Uning taraqqiyoti ob’yektiv mavjudotni o‘zaro bog‘liq holda anglash, ularni qiyosiy o‘rganish, taraqqiyotlarning tilda aks etib turishi kabilar natijasi bo‘ladi. Ya’ni polisemiya sivilizatsiya belgisidir. Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san’at, taraqqiy etgan bo‘lsa, o‘sha xalq obyektiv borliqning o‘zaro aloqasini shuncha ko‘proq ko‘radi, ularni bir-biriga ko‘proq qiyos etadi va bular tilida ko‘proq o‘z aksini topadi. So‘z ma’nolarini o‘zgartirib turuvchi taraqqiyotlar ketma-ket sodir bo‘lib turadi. Bu esa polisemantik so‘zlar taraqqiyoti uchun sabab bo‘ladi, ya’ni insonning o‘z atrofini o‘rab turgan borliqni umumlashtira olishi bilan bog‘liq holatda polisemiya mavjud va taraqqiy etadi.[1,38].

Har qanday tilda til tizimini rivojlantirish uchun boy imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ular tizim va jarayon, kod va u orqali uzatiladigan xabar

sifatida o'zaro bog'liq bo'lgan til va nutqning o'zaro ta'sirining xususiyatlari bilan bog'liq. Til "tabiiy ravishda (insoniyat jamiyati rivojlanishining ma'lum bir bosqichida) paydo bo'lgan va tabiiy ravishda rivojlanayotgan semiotik (ikonik) tizim bo'lib, u ijtimoiy maqsad xususiyatiga ega bo'lib, birinchi navbatda individual shaxs uchun emas, balki ma'lum bir jamiyat uchun mavjud bo'lgan tizimdir". Til birliklari odamlar uchun keng tarqalgan aloqa vositasidir. Ular ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar tomonidan turli xil nutqiy vaziyatlarda, turli xil sharoitlarda, odamdan odamga va avloddan avlodga o'tib ko'paytiriladi. Nutq, tildan farqli o'laroq, ma'ruzachining faoliyati va bu faoliyatning natijasidir. Nutq odamlar bilan muloqot qilish jarayonida, gapirish jarayonida yaratiladi. Bu, birinchi navbatda, ma'lum bir til vositalaridan (masalan, ma'lum so'zlar, so'z shakllari, sintaktik tuzilmalar va boshqalar) ushbu nutq holatiga qarab, har bir holatda ushbu til vositalaridan foydalangan holda ma'lum bir tarkibni, ma'lum bir fikrni etkazishga intiladigan ma'ruzachining niyatidan foydalanadi. R. Jakobsonning so'zlariga ko'ra, nutq "ma'lum til birliklarini tanlash va ularni birlashtirish"dir.

Kattaroq ko'lamda omonimiya bir xil bo'lgan so'z sifatida tavsiflanadi shakl yoki boshqa so'z bilan tovushda (gomofon sifatida) yoki imloda, yoki ikkalasi ham, lekin undan ma'no jihatidan farq qiladi. Omonimiyani yuzaga keltiruvchi hodisalardan biri polisemiyaning taraqqiyoti natijasidir. Demak, olisemiyaning taraqqiyoti ba'zan omonimiyaga o'tish hisoblanadi. Mana shu ba'zi o'tishi ma'lum tilde belgilab chiqish bir biriga mos bo'lmagan fikrlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. V.I. Abayev "Bu ikki hodisa ma'nolari o'rtasida hech qanday yiroqlashish bo'lmaydi va omonimlarning polisemantik so'zlardan kelib chiqishi uchun ham asos emas.

Polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi omonimlarning vujudga kelishi uchun asos bo'la oladi. Agar polisemantik so'z ma'nolari quyidagi yo'llar bilan taraqqiy etsa, uning ma'nolari o'rtasidagi aloqa uziladi, ya'ni u birdan ortiq so'zga differentsatsiya bo'lib, omonim vujudga keladi.

Leksik ma'nolarning tobelilik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'z ma'nolari o'rtasidagi aloqaning uzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Polisemantik so'z ma'nolari faqat bosh ma'no taraqqiyotidagina iborat bo'lmay, balki bosh ma'nodan hosil bo'lgan ko'chma ma'nodan ham hosil

bo'ladi. So'z ma'nolarinng bunday hosil bo'lishi jarayonida oraliqdagi biror ma'no vazifadoshlikning natijasi bo'lib qoladi. Vazifadoshlik yo'li bilan ko'chma ma'no hayotda eskirib qolgan nomdoshlanuvchining nomdoshlovchini siqib chiqarib yuborishi natijasida hosil bo'ladi. Natijada, nomdoshlovchini ifoda etuvchi ko'chma ma'no yo'qolib, uning o'rniga nomdoshlanuvchini ifoda etuvchi boshqa ko'chma ma'no qoladi. Bu esa avvalgi ko'chma ma'nolar bilan siqib chiqarib yuborilgan ko'chma ma'nodan keyingi vazifadoshlik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'no o'rtasida aloqa, ya'ni bog'liqlikning uzilishiga sabab bo'ladi. Polisemantik so'z vazifadoshlik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'no oldidan differentsatsiyaga uchrab, omonim vujudga keladi. [2,43].

Ma'lumki, so'z har qanday tilning leksik boyligini tashkil etadi, bir-biri bilan o'zaro muloqotda bo'ladi, turli qadriyat hamda vazifalarni bajaradi. So'zlashuv nutqida so'zlar ma'no jihatdan bir-biriga yaqin yoki aksincha, zid ma'noga ega bo'ladi. Ba'zi so'zlar ma'no jihatdan yaqin bo'lmasa ham, ko'rinishi, shakli, imlo, talaffuzi bilan bir-biriga o'xshaydi. Bunday so'zlar guruhi tilning umumiy sistemasida omonimlar deyiladi. Omonim – grek tilidan olingan murakkab so'z, homos “bir xil” va onoma “ism” degan ma'nolarni bildiradi. Shu bilan birga, omonimlar bir xil nomlar deb tarjima qilinadi. Omonimlar qadimdan to hozirgi kunga qadar olimlarning diqqat markazida turuvchi murakkab hodisadir. Tilshunoslikning ilk va o'rta bosqichlarida omonimiya hodisasining paydo bo'lishi, taraqqiyoti va yondosh hodisalarga munosabatlari o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada uning korpusda berilishi masalasi kun tartibiga qo'yilgan. Korpus lingvistikasida omonimlik muammosini yechish, omonim birliklarni teglash va matnni avtomatik o'qish jarayonida omonimiyani bartaraf etish masalasiga oid qator tadqiqotlar mavjud.

Omonimlar til va nutq jarayonida yuzaga keladigan hodisadir. Shu jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Leksemalar orasidagi omonimlik
2. Morfemalar orasidagi omonimlik
3. Frazologik birliklar orasidagi omonimlik

Omonimlikning bu uch turi nutq jarayoniga qadar ongimizda mavjud bo'lgan so'zlar o'rtasida kuzatiladi hamda nutqqacha tayyor holda bo'ladi.

1. Leksemalar o'rtasidagi omonimlik hodisasi omoleksemya deb, bunday

leksemalar esa omoleksemalar deb yuritiladi. Masalan, 1. Tut – mevali daraxt (ot) 2. Sana – ot Tut – tutmoq (fe‘l) Son+a=sana – fe‘l

Birinchi turdagi omonimlik tub leksemalar o‘rtasida sodir bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi turdagi omonimlik esa tub va yasama leksemalar o‘rtasida yuzaga kelgan. Har ikki turi ham leksik omonimlar turiga mansub. Chunki yasalgan har bir yangi so‘z alohida bitta leksema deb qaraladi. Masalan, son, sana, sanoq (uchta leksema). Bularning barchasi yasovchi morfema yordamida yasalib, har bir so‘z alohida leksema deb qaraladi va uchta leksemani tashkil qiladi. Sana, sanani, sanadan...(bitta leksema, uchta so‘z shakli). Leksemalar orasida sodir bo‘ladigan omonimiya hodisasida so‘zlar tub ham, yasama ham bo‘lishi mumkin.

2. Morfemalar orasidagi omonimlikka: turtki, ichki, pastki, guldon, bilimdon, ukaxon, kitobxon, boring, kitobing va hokazo kabilar kiradi. Bunda qo‘shimchalar bir xil, lekin har xil so‘z turkumidagi so‘zlarni yoki so‘z shakllarini hosil qiladi va bunda ma‘no ham har xil bo‘ladi. 3. Frazologik omonimlar iboralar o‘rtasidagi omonimlikdir. Masalan, Boshga ko‘tarmoq – e‘zozlamoq Boshga ko‘tarmoq – to‘polon qilmoq II. Nutq bosqichida: 1. So‘zformalar (so‘z shakllar) orasidagi omonimlik 2. Birikmalar orasidagi omonimlik So‘z shakllar va birikmalar orasidagi omonimiya hodisasi nutq jarayonida yuzaga keladi va aralash holda uchraydi. Masalan, tanga I (pul) va tan+ga II (badanga) leksema va so‘z shakl o‘rtasidagi omonimlik. Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi I (bo‘shashdi) – ibora; Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi II (rostdan tarvuzi tushmoq) – so‘z birikmasi. So‘zformalar orasidagi omonimlik grammatik omonimlik deb ataladi. “Grammatik omonim” atamasi birinchi marta tatar tili tadqiqotchisi X.R.Kurbatov tomonidan qo‘llanilgan[5]. U grammatik omonimiya juda jiddiy va murakkab muammo deb hisoblaydi. Turkiy tillarda omonimlarga oid bir qator tadqiqotlar bo‘lishiga qaramay, grammatik omonimlar to‘g‘ri hisobga olinmagan. Olim M.Mirtojiyev: “Grammatik omonimlar – gapda so‘zlar imlosi mos kelgan turli grammatik shakllar”,- deb ta‘kidlaydi. [4,73] Grammatik omonimlar nutq jarayonida hosil bo‘lsa, leksik omonimlar nutqqacha tayyor holda bo‘lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Grammatik omonimlik nutq jarayonida so‘z yasovchi yoki shakl yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilganda yuzaga keladi. Ammo ular morfemik qismlarga ajratilganda omonimlik saqlanib qoladi yoki ular

oʻrtasidagi bu xususiyat yoʻqoladi. Biz tilimiz tabiati va xususiyatini inobatga olib, ulardan foydalanamiz. Grammatik omonimlarni matn ichida qaysi maʼnoda kelayotganligini aniqlash uchun bigramm, trigramm va n-grammlardan foydalanish yaxshi samara beradi[9]. Chunki grammatik shakllar bir xilligi ularning qaysi soʻz turkumida kelayotganligini aniqlashda qiyinchilik tugʻdiradi. Shuning uchun oʻzidan oldin yoki keyin kelayotgan soʻz orqali hamda butun kontekst orqali grammatik omonimlarni toʻgʻri aniqlash mumkin. Oʻzbek tilida grammatik omonimlar faqat nutq jarayonida sodir boʻlganligi va bu vaqtinchalik hodisa ekanligi sababli hali toʻliq oʻrganilmagan va maʼlum bir lugʻat shaklida shakllanmagan. Bu esa matnni avtomatik tahlil qilishda, ayniqsa, lemmatayzer jarayonida grammatik omonimlarni aniqlab, ularni ajratishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tilimizda mavjud boʻlgan grammatik omonimlarni korpusda berish uchun bunday soʻzlarni farqlash, ularning lugʻat fondini tashkil etish va grammatik omonimlarni modellashtirish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Arab tilining toʻliq omonimlari oʻz navbatida: toʻliq sodda (oʻxshash), farqlanadi masalan: toʻliq omonimlar soat الساعة

(Qiyomat) va soat الساعة vaqt davri, oʻxshash omonimlar بِمَرَّةٍ (koʻrish qobilyati) va (bilim) البصار. Toʻliq oʻxshash omonimlar ham mavjud boʻlib المستوفي :soʻzi يحيى (atoqli ot) va حيا (feʼl soʻz turkumida hozirgi zamon-yashamoq).

Dunyodagi barcha tillarning asosini soʻz tashkil etadi. Shuningdek insonlarning nutqi ham aynan shu soʻzlarning qoʻllanilishiga bogʻliq. Nutqimizning ravon boʻlishi va soʻzlagan soʻzlarimizning takrorlanmasligi uchun soʻz boyligimiz koʻp boʻlishi va sinonim soʻzlarni qoʻllashimizga bogʻliq desak mubolagʻa boʻlmaydi va til birliklarining bir xil maʼnoga ega boʻlish hodisasasi sinonimiya deb ataladi. Sinonimiyaning birligi bir umumiy maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar deyiladi yaʼni, sinonimlardir. sinonim soʻzlar shunchaki hashamdorlik emas, balki tilning chinakam boyligidir [4,52]. Sinonimlar soʻzning maʼnoli shakllaridan biri boʻlib, talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi maʼnosi bir xil boʻlgan qoʻshimcha maʼno nozikligi, emotsion maʼnosi qoʻllanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan oʻzaro farqlanadigan soʻzlar deyiladi. Sinonim soʻzlar xaqida soʻz borar ekan, biz sinonimlarni tilshunoslikda asosan ideografik va stilistik turlarga boʻlamiz. Ideografik sinonimlar masalan: لِحْنٌ، زَكِيٌّ -فَهْمٌ -tushunmoq, anglab yetmoq, kutmoq, bir xil maʼnoni anglatadi va bir xil

neytral stilistik turga tegishli bo`ladi. Stilistik sinonimlar ularni ba`zida emotsional ekspressiv deb ham atashadi. Stilistik sinonimlar stilistik xususiyatiga ko`ra turli hil ma`noni anglatadi. Masalan: غَاثٌ - سَاعَفَ - سَاعَدَ yordamlashmoq ma`nosini anglatadi. Yuqoridagi ta`riflarga ko`ra, sinonimiya asosan semantik ko`rinish har qanday xolatda ham sinonimlarni belgilash stilistik me`zonlar, boshqa me`zonlar va birikadigan sof semantik me`zonlar asosida amalga oshiriladi. Sinonimlar doim kutilmagan birliklarni yoki mantiqiy ma`nolarni beradi, shuning uchun sinonimik so`zlarni qo`llash asarni stilistik jihatdan bezaydi. Ideografik sinonim tarjimon eng to`n xolatda til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag`alligi, rangsizligidan qochish uchun foydalanadi. Sinonimlar qator bir necha so`zdan iborat bo`lishidan qat`iy nazar unda bir so`z asosiy shu sinonimik qatorning harakterini belgilovchi so`z bo`ladi. Bu so`z dominanta deb yuritiladi. Sinonimlik qatorining chegarasini belgilashda shuningdek undagi har bir so`zning o`ziga xos xususiyatini ochishda shu qutordagi asosiy so`zni to`g`ri belgilash muhim rol o`ynaydi. Sinonimik qatorda ma`no xajmi boshqalrnikiga nisbatan keng bo`lgan so`z asosiy so`z xisoblanadi. Sinonimik qatorning chegarasini belgilashda asosiy so`z xisobga olinadi, boshqa so`zlar birbiriga qiyoslanmaydi, balki asosiy so`zga qiyoslanadi. Sinonimlarni marfologik jihatdan uch turga bo`lib o`rganamiz. Arab tilida ko`plab olimlar tilda sinonimiyaning mavjudligi va yo`qligi haqida bahs yuritadilar. Olimlarning o`rtasidagi ikkala bahsli yo`nalishi munozaralarni ham xuddi shu davr olimlari, hatto ilk hamda zamonaviy tilshunoslar aks ettiradi. Tildagi sinonimiyani inkor etib bo`lmaydi, sinonimlarni qo`llash bunday matnning uslubi va tuzilishini qanday boyitganiga e`tibor bersak, sinonimiya himoyachilari sinonim so`zlar bir xil ma`noga ega bo`lishi va bo`lishi mumkinligini ta`minlaydi barcha kontekstlarda almashtiriladi.

Tarjimaning vazifasi so`z va gapning ma`nosini bera bilishgina emas balki muallif uslubining ichki energiyasidan kelib chiqadigan eng nozik va nafis xususiyatlarini, chunonchi badiiy ohang so`z va so`zlar tizmasining zamirida yashirinib yotgan semantik hodisani har bir muallifning o`ziga xos yumor yaratish xususiyatini uning so`z tanlash va so`z biriktirish borasidagi yangiligini badiiy asarni eng muhim xossasi bo`lgan. Shu kabi ko`plab sinonim so`z va birikmalar har birini o`z o`rnida ishlatish ma`qul, basharti noo`rin qo`llanilsa, shunda qo`pol xato kelib chiqishi mumkin

Xulosalaydigan bo`lsak, sinonim so`zlar shunchaki xashamdorlik emas, balki tilning chinakam boyligidir. Sinonimlar so`zning ma`noli shakllaridan biri bo`lib, talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma`nosi bir xil bo`lgan qo`shimcha ma`no nozikligi, emotsion ma`nosi qo`llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o`zaro farqlanadigan so`zlardir. Sinonim so`zlar haqida so`z borar ekan, biz sinonimlarni tilshunoslikda asosan ideografik va stilistik turlarga bo`lamiz. Yuqoridagi ta`riflarga ko`ra, sinonimiya asosan semantik ko`rinish har qanday xolatda ham sinonimlarni belgilash stilistik me`zonlar, boshqa me`zonlar va birikadigan sof semantik me`zonlar asosida amalga oshiriladi. Leksik ma`no hamma vaqt muayyan so`zning semantik tarkibiga kiradi. So`zda grammatik ma`no ham, so`zlovchining o`z nutqiga bo`lgan munosabatini bildiruvchi ma`no ham bor. Biroq bularning o`zi leksik ma`no bo`la olmaydi, Leksik ma`noli so`z gap bo`lagi vazifasini bajaradi, shuningdek, morfologik kategoriyalar ma`nosi, emotsional-ekspressiv va uslubiy ma`no ifodasini beradi.

REFERENCES

1. И. В. Арнольд, Лексикология современного английского языка, М.: Флинта: Наука, 2012. – 376 с.
2. M.Mirtojiev. O`zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent:Mumtoz so`z, 2010. – 288 b.
3. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 536 с.
4. M.Mirtojiev. O`zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1984. – 136 b.
5. HAMIDOV, X., & grammatikasi, t. T. Kitobni kuyida kursatilgan mudдатдан жечикгярмай цайт&ринг.
6. Shoir, U. (2018). The use of modern educational technologies in teaching foreign languages (on the example of English). Образовательный процесс, (1 (3)), 29-32.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.

-
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
 10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
 11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

SA'DIY SHEROZIY VA UNING IJOD MAHSULI "GULISTON" VA "BO'STON"



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460662>

Nodira RIXSIBOYEVA,
TDSHU, 2-kurs magistranti,
Toshkent. O'zbekiston.
Tel: +99890 0414034;
E-mail: nrixsiboyeva@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada buyuk fors-tojik adabiyotining namoyondasi, badiiy mahorat va iste'dod egasi bo'lgan Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning Guliston asari va uning o'zbekcha tarjimasi borasida fikr-mulohazalar keltirilgan bo'lib, uning tarjimasidagi o'ziga xoslik va asl mazmuniga oid bazi masalalarga ham alohida to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Sa'diy Sheroziy, Guliston, o'zbekcha tarjima, Bo'ston.*

АННОТАЦИЯ: *В статье рассматривается книга Муслихиддина Саади Шерози под названием «Гулистон», проявление великой арабо-таджикской литературы, художественного мастерства и талантов, а также некоторые вопросы, связанные с уникальностью и оригинальным содержанием его перевода.*

Ключевые слова: *Саади Шерозий, Гулистан, узбекский перевод, Бостон.*

Abstract: *The article discusses of the book which is named "Guliston" written by Muslihiddin Sa'di Sherazi, a manifestation of great Arabic-Tajik literature, artistic skills and talents, and some issues related to the uniqueness and original content of his translation.*

Keywords: *Sa'di Sheroziy, Guliston, Uzbek translation, Boston.*

Markaziy Osiyodagi xayrli o'zgarishlar, jumladan, o'zbek va tojik xalqlarini bir-biriga bog'lab turgan azaliy do'stlik rishtalarining jadallik bilan tiklanib borayotgani ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy, jumladan, adabiy hamkorlikni kengaytirishga yangi imkoniyatlar yaratayotir. Bu borada Prezidentimiz tomonidan barchamizga saboq bo'lishga arzirli yangi-yangi tashabbuslar ko'rsatilmoqda. Jumladan, 2018 yil 9-10 mart kunlari davlatimiz rahbarining qardosh Tojikistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi chog'ida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi mustahkam do'stlikning ramziy ifodasi sifatida ikki buyuk adibning bir-biri haqidagi qimmatli fikrlarini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek, tojik

va rus tillaridagi “Jomiy va Navoiy” kitobining qo‘shni mamlakat rahbari Imomali Rahmonga taqdim etilgani ham o‘zbekistonlik, ham tojikistonlik tadqiqotchilar uchun ibrat bo‘ldi.[1, 310]

Umumbashariy sivilizatsiya zarvaraqlaridan o‘rin olgan, ulkan adabiy meros qoldirgan allomalar fors-tojik adabiyotida ko‘plab topiladi. Fors-tojik adabiyoti umuminsoniy qimmatga molik madaniy-ma’naviy xazinaga benazir hissa qo‘shgan Sa’diy Sheroziy jahon adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan shunday buyuk mutafakkirlardandir.

Umumbashariy sivilizatsiyaga qo‘shgan benazir hissasining e’tirofi sifatida 21 aprel YUNESKO tomonidan “Buyuk fors shoiri va gumanisti Shayx Sa’diy Sheroziyni xotirlash kuni” deb e’lon qilingani bejiz emas. Zero, adib ijodini boshidan oxirigacha bir shodaga aylantirgan mavzu – inson, uning quvonchu tashvishlari, baxtu saodatiyu dardu alamlari, kamolotiyu tubanligi sabablari bo‘lib, ularning barchasi, so‘zsiz, tunganmas va doimo barhayot mavzulardir.

Shoirning bizga malum va mashhur asarlaridan biri bu Guliston va Bo‘stondir. Ushbu ikki asarning o‘zbekcha tarjimasi XX asrning 70-yillarida ilk bor nashr etilgan bo‘lib, bugun ularni topishda nafaqat oddiy o‘quvchi, balki mutaxassislar ham katta qiyinchilik sezayotgandi.

Sa’diy Sheroziy ijodining mahsuli dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingani uning ahamiyati nechog‘li yuqoriligidan dalolat beradi. Mutafakkir asarlari tarjimasi haqida so‘z ketganda, Shoislom Shomuhamedovning Sa’diyga xos betakror ruhiyatni saqlab qolgan, ya’ni barchaga ma’lum haqiqatni shoirforschada bayon etganidek yuksak nazokat va fusunkor shaklda o‘zbek tilida ifodalay olganini alohida ta’kidlash joiz. [2, 73-77]

Darhaqiqat, Sh.Shomuhamedov o‘zbek ilm-fani va adabiyotida chuqur iz qoldirgan serqirra mutafakkirlardan edi. Ushbu fikrning isboti sifatida Shoislom Shomuhamedov qalami ostidan chiqqan ilmiy tadqiqotlar, tarjima va badiiy asarlarning jami adadi olti yuzdan ortiqligi hamda forschadan qilingan tarjimalar nashrining umumiy soni bir milliondan oshganini eslatish mumkin. Bu borada gap ketganda, shubhasiz, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari tarjimasini alohida ta’kidlash joiz.

“Guliston” didaktik asarlarga qayta-qayta murojaat qilish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Biroq, ushbu ikki asarning o‘zbekcha tarjimasi XX asrning 70-yillarida ilk bor nashr etilib, bugun ularni topish amrimahol bo‘lib qolgani ham sir emas. Hatto mazkur nodir asarlarning o‘zbekcha tarjimasini topishda nafaqat oddiy o‘quvchi, balki mutaxassislar ham katta qiyinchilik sezmoqda.

Endi bu muammolarga hojat qolmadi. Gap shundaki, Sa’diy Sheroziy ijodining gultojlaridan sanalmish “Guliston” asarining o‘zbekcha tarjimasi hamda "Sa’diy fenomeni" kitobi Moskvada nashr etildi. “Guliston” she’rlarni forschadan G‘afur G‘ulom bilan Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilov tarjima qilgan. Sheroziy she’riyatidan – “Bo‘ston”ni forsiydan Xalqaro Firdavsiy mukofotining laureati Shoislom Shomuhamedov o‘zbek tiliga o‘giran. Ushbu xayrli ishni Alisher Shomuhamedov, Zohidullo Munavvarov hamda Sardor Mirzajonov amalga oshirdilar.

Ushbu nodir asarlar o‘zbekcha tarjimasining yangi nashrlari kitob javoningizdagi sara asarlar qatoridan o‘rin olishiga shubha yo‘q.

Fors tojik adabiyotida Sa’diyning maqomi juda yuksak. Xususan, boy hayotiy tajriba asosida yaratgan «Bo‘ston» (1257) va «Guliston» (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi.

«Guliston» asari sakkiz bobdan iborat bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob — podshohlar siyrati zikrida; ikkinchi bob — darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob — qanoat fazilati zikrida; to‘rtinchi bob sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob — ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob — qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob — tarbiyat ta’siri zikrida; sakkizinchi bob — suhbat odobi zikrida [3, 42].

Sa’diyning g‘azal janrining kashshofi va ustodi sifatida ham ulug‘lashadi, chunki ungacha forsiy sheriyaatning yetakchi janrlari qasida, doston, masnaviy, qit‘a va ruboiy edi. Rudakiy, Sanoiy, Xoqoniy, Jamodiddin va Kamoliddin Isfahoniylar ko‘plab g‘azallar yozgan bo‘lsalar-da, ular qasida va qit‘a xarakteriga ega bo‘lib, o‘zaro mustaqil alohida baytlardan g‘azal yaratish an‘anasini Sa’diy boshlab berdi. U g‘azalchilikdagi o‘zigacha olib borilgan izlanish va tajribalarni rivojlantirib, g‘azalni takomilga yetkazdi, keyin Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Xoju Kirmoniy kabi zabardast shoirlar uni yanada taraqqiy

ettirib, Hofiz Sheroziyga yetkazdilar, Hofiz esa uni yuksak cho‘qqiga olib chiqdi. Sa‘diy g‘azallari 4 devondan iborat bo‘lib, ular «Tayyibot» («Latif g‘azallar»). «Badoe’» («Yangi g‘azallar»), «Xavotim» («Xotima g‘azallar») va «G‘azaliyoti qadim») («Eski g‘azallar»)dan iborat.

«Guliston»ga ergashib ko‘plab asarlar yozilgan, lekin ulardan faqat 3 tasi: Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston»i, Majiddin Xofiyping «Xoriston»i, Habib Qooniyning «Parishon»i shuhrat qozongan.

«Guliston» XVII asrning birinchi yarmidayoq Yevropa tillariga tarjima qilinib, tarqala boshlagan. U ilk bor frantsuz diplomati Andre Ris tomonidan frantsuz tiliga o‘girilib, 1634 yili Parijda nashr etilgan. Bu tarjima juda erkin bajarilgan va mukammal bo‘lmasa-da, ko‘pchilikning e‘tiborini tortadi. 1635 yili asar frantsuzchadan nemis tiliga tarjima qilingan. Shundan keyin boshqa g‘arb tillari, shuningdek, rus tiliga ham o‘girilgan. Rus tilida «Guliston» (1957. 1959) va «Bo‘ston» (1963) asarlarining mukammal tarjimalari bosilib chiqqan.

«Sa‘diy yolg‘iz Eron emas, balki Osiyoning, Afriqoning hamma yerida hurmatli bir faylasufdir. Uning tarzi bayonining tarovatini va ifodasining qimmatini Ovrupo ilmu adab ahli ham ko‘pdan beri tan olganlar», — deb yozadi mashhur major olimi Xerman Vamberi. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri I. V. Hyote Sa‘diyini «juda mahsuldor va fayzli», «hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir» deb hisoblagan.

Mashhur frantsuz faylasufi va adibi Volter «Guliston»dan xabardor bo‘lgan va ba‘zi she‘rlarida undan foydalangan. Taniqli frantsuz masalchisi Lafonten ham «Guliston»dagi hikoyat va naqllardan o‘z masallarida istifoda etgan. Ulug‘ rus shoiri A. S. Pushkin: «Sa‘diy va Hofiz asarlarining pinhoni asroriga yetgunimcha she‘rlarimda quvonchbaxsh jihatlar va hayotdo‘stlik kam uchrardi», — degan edi.

Sa‘diy asarlari qadimdan o‘zbek xalqi orasida ham mashhur. «Bo‘ston» va «Guliston» asarlari madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o‘qitilib kelgan. Mumtoz shoirlarimiz bu ulug‘ so‘z sanatkorigan o‘rganganlar, ta‘sirlanganlar. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Xojaning «Gulzor», Abdulla Avloniyning «Turkiy «Guliston» yoxud axloq» asarlari bevosita Sa‘diy «Guliston»i ta‘sirida yaratilgan. «Devoni Foni»da Sa‘diy g‘azaliga 22 ga tatabbu‘, uning tavrda 4 ta g‘azal mavjud.

Bu asarni birinchi marta 1390—1391 yillarda XIV asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalardan biri Sayfi Saroyi «Guliston bit-turkiy» nomi bilan Misrda tarjima qilgan [4 , 11-15].

XIX asrda «Guliston» Xiva xoni Muhammad Rahimxon II — Feruz topshirig‘i bilan zabardast shoir va mohir mugarjim Muhammadrizo Ogahiy tomonidan ikkinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. «Guliston»ning uchinchi tarjimasi toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li qalamiga mansub bo‘lib, u «Shavqi Guliston» deb atalgan. «Murodxo‘ja madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so‘z va iboratlarini sharhlagan va forsiy originalini ham qo‘shib, «G‘ulomiya» matbaasida nashr ettiradi» (1909).

1968 yili «Guliston»ning to‘rtinchi tarjimasi bosilib chiqdi. Asardagi she’rlarni G‘afur G‘ulom va Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilovlar o‘zbekchallashtirishgan.

Bir so‘z bilan aytganda Sa‘diyning Guliston asari o‘zining nozik badiiy vazni va mazmuniy qiymati bilan alohida vaznga egadir. Uni o‘rganish va tahlil qilish borasidagi urinishlar borasida yuqorida fikr yiritib o‘tdik. Shu narsa ayonki, asarning tarjima ishlari muvaffaqiyatli amalga oshgan bo‘lib asl mohiyat va talqin borasida anchagina badiiy va ilmiy yutuqlarga erishilgan. Albatta asarni tushunish uchun fors va arab tillaridan ham boxabar bo‘lish talab qilinadi. Chunki arab tili tasiri va leksik zaxirasi ushbu asarning yaratilishida muhim rol o‘ynagan.

REFERENCES

1. Xayrullaev M.M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O‘zbekiston, 1971. - 310 b.
2. K. B. Murotmusaev, M.Z. Dzhelyalov, M.J. Boltaeva. Psychological Aspects Of Human Health And The Power Of Love. The American Journal of Applied sciences. February 25, 2021 p 73-77.
3. Hayitmetova A. “Bo‘ston” va o‘zbek adabiyoti // Shayx Sa‘diy va o‘zbek adabiyoti. – Tehron-Toshkent, 2004. 42-b.
4. Bunyod Nasirov. “Catering In Uzbekistan From The History Of The System”. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. February 26, 2021 | Pages: 11-15.
5. Shayx Sa‘diy Sheroziy. Guliston. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 1993. – 247 b.

6. Салиева, М. К. (2020). Принципы информационно-правовой связи и школы государственного управления. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (4), 10-18.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: *Historiography of Translation. History of Translation in India*, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

СРАВНЕНИЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК В КОРЕЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460671>

Мохигул МЕЛИСОВА,
ТГУВ 2ой курс Политология,
Ташкент Узбекистан.

Тел: +998977452463; E-mail: mellicimmi@gmail.com,

Аннотация. В статье рассматривается разница и схожесть пословиц и поговорок между собой, в том числе анализируется корейские и русские фразеологизмы с разных точек зрения.

Ключевые слова: пословицы, поговорки, метафоры, фразеологизм.

Annotation: The article discusses the difference and similarity of proverbs and sayings among themselves, including the analysis of Korean and Russian phraseological units from different points of view.

Key words: proverbs, sayings, metaphors, phraseological units.

Annotatsiya: Maqolada maqol va matallarning o'zaro farqi va o'xshashligi, shu jumladan koreys va rus frazeologik birliklarini turli nuqtai nazardan tahlil qilish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: maqol, matal, metafora, frazeologik birliklar.

Пословицы и поговорки появились и развивались уже с давних времен. С этого момента человек начал стремительно осознавать окружающую его среду, природные явления, катастрофы, создавал что-то новое в природе, в себе. Все это –вера, иллюзия и наблюдения человека всеми этими воплощениями и являются пословицы и поговорки. Между тем пословицы и поговорки путают друг с другом.

Ниже показана таблица где мы провели анализ между пословицами и поговорками.

	Сходство	Различие
Пословица	1. Жанр устного народного творчества 2. Автора нет	1. Маленькая притча 2. Включает в себя две части 3. Небольшое высказывание со смыслом
Поговорка		1. Переносная речь, без

		притчи, половина пословицы 2. Образное выражение, незаконченного высказывания 3. Содержит намек и пояснение
--	--	---

Так мы выяснили, что важной отличающейся чертой пословицы от поговорки, это то, что пословица бывает целым предложением, а поговорки – выражением или сочетанием слов. Пословица — это наставление, нравоучение, а поговорка — это такое выражение, которое можно заменить другими словами.

Если сравнить пословицы в русском и корейском языках, то можно пояснить культурно-национальное понимание этих народов, общие мировоззрения. В каждой из наций объясняется важность значения речи, недопустимость вернуть сказанных слов, предостерегать опасность или сказать правду прямо. В этом помогают пословицы и поговорки, показывающие обыденную мудрость, смягченно выражаться, для того чтобы предостеречь вероятные конфликты.

В русских и корейских пословицах используются различные метафоры для пояснение сказанного.

Например, метафоры «пустая бочка, глупая собака» в русских пословицах, «пустая тележка, утренняя собака» в корейских пословицах означает слово «болтун». Стоит упомянуть, что в пословицах и поговорках не раз используются слова, связанные с культурой и бытом – то есть в русских пословицах и поговорках – дрожжи, мельница, мука, а в корейском Например: 떡-рисовой торт, 장-корейский соус, 되질-мерить зерновую муку.

Помимо этого, можно пометить, в пословицах, выражающие количества, в русских используются числительные 3 и 7, а в корейских – 100 и 1000

Например: 백 냥, 천 냥. Следует признать, что в русских пословицах больше критикуются болтуны, чем в корейских. В русских пословицах, болтун – это бедствие, наказание, а в корейских наоборот – люди должны говорить активно, когда это нужно и важно, несмотря на то, что эта ложь. От этого следует, что

народ, даже если хочет, не сможет говорить, ему остается только терпеть и молчать.

Подобный факт, говорить более энергично, рекомендованные в корейских пословицах, не разрешает согласиться с рассуждениями исследователей Фишера и Ёшды¹², которые выяснили, что пословицы или поговорки, речь в которой является положительной, а молчание отрицательным, есть в тех странах, у которых численность населения низкая (Россия, Малайзия, Индия и так далее.)

Здесь стоит упомянуть один момент, такой как количество населения, не может определять умственность народа. В любой стране есть такие разные пословицы и поговорки, которые даже противоположные друг другу: и их исходя из ситуации можно использовать.

Как говорит Чженг Линг: «Надо серьезно относиться к переводу фразеологизмов, потому что они занимают довольно важное место в языках»¹³. Именно они являются результатом человеческого ума из жизненного опыта. Фразеологизмы могут ярко и разумно показывать идеи человека и глубокий смысл жизни.

Следовательно, пословицы и поговорки больше всего полно, тонко и красноречиво выражают индивидуальность мышления, свойства познания окружающего мира и реальность материальной и духовной культуры народа. Много чего было в истории народов. Много забудется, а поговорки и пословицы останутся навечно.

REFERENCES

1. <https://www.kci.go.kr/kciportal/ci/sereArticleSearch/ciSereArtiView.kci?sereArticleSearchBean.artiId=ART001422152>
2. <https://koryo-saram.site/vladimir-kim-korejskie-poslovitsy-i-pogovorki/>
3. <https://e-koncept.ru/2016/96320.htm>
4. Akhmedova, D. R. (2016). Some stylistic features of persian adjectives in a metaphorical meaning in newspaper texts. *Paradigmata poznani*, (4), 27-29.

¹² [한글문화연구](#) | 2010, vol.15, no.1, pp. 45-60 (16 pages)

¹³ RUSSIAN PROVERBS MORAL ISSUES IN INTERCULTURAL LEARNING SPACE FOREIGN STUDENTS., modern problems of science and education. – 2014. – № 2 – P. 264-264

5. Насирова, С. А. (2022). Неологизмы–идеологемы в качестве проводников межкультурной коммуникации (на примере общественно-политической терминологии современного китайского языка. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 27), 6-15.
6. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
7. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
8. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
9. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
10. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА БОШ ҚИСМИДАГИ СОМАТИЗМЛАРДА ЛАКУНАРЛИКНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ ХУСУСИДА



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460681>

Абдулазиз АБДУШУКУРОВ,
ТДШУ 2-курс магистранти,
Тошкент, Ўзбекистон.
Тел: +998974465969;
E-mail: d.anna@mail.ru

Аннотация. *Маданият ва маданиятлараро мулоқот, миллий анъаналар ва дунё миллий тилларидаги ўзига хос хусусиятларини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Тилишунослик соҳасидаги антропоцентрик қарашларга асосланган, тил этник гуруҳ менталитети ва маданияти билан узвий бирликда ўрганиладиган янги назарий ишлар асосини ташиқил қилиш ҳамда дунёни идрок этиши хусусиятларини аниқ белгилаб берувчи тилнинг лексик тизими устида кўплаб ишлар олиб борилмоқда.*

Калит сўзлар: *маданиятлараро мулоқот, лакуна, соматик лакуна, умумлаштирувчи, конкретлаштирувчи ва умумлаштирувчи-конкретлаштирувчи лакуналар.*

Аннотация. *Особое внимание уделяется изучению культуры и межкультурной коммуникации, национальных традиций и особенностей национальных языков мира. Ведется большая работа над лексической системой языка, в основе которой лежат антропоцентрические взгляды в области языкознания, что закладывает основу новых теоретических работ, в которых изучается язык в гармонии с менталитетом и культурой русского языка. этнической группы, и которая четко определяет особенности мировосприятия.*

Ключевые слова: *межкультурная коммуникация, лакуна, соматическая лакуна, обобщающая, конкретизирующая и обобщающе-конкретизирующая лакуны.*

Abstract. *Particular attention is paid to the study of culture and intercultural communication, national traditions and the peculiarities of national languages of the world. A lot of work is being carried out on the lexical system of the language, which is based on anthropocentric views in the field of linguistics, which establishes the basis of new theoretical works in which the language is studied in harmony with the mentality and culture of the ethnic group, and which clearly defines the characteristics of the perception of the world.*

Key words: *intercultural communication, lacuna, somatic lacuna, generalizing, concretizing and generalizing-concreting lacunae.*

Лакуналар (лотинча *lacuna* – “бўшлик”) - фикирлашдаги “бўшлиқлар”, “бўш жойлар” бўлиб, матндаги қарама-қаршиликлар ва тушунарсиз ҳолатлардир. Кундалик ҳаётда, этник гуруҳлар орасида, турли конференцияларда шунингдек, жамоаларнинг ўзаро муносабатида лакуналар доимий равишда “тушунмовчилик ҳолатлари”ни, “нотўғри таржима” каби муаммоларни келтириб чиқаради [1, 368].

Лакуналар ҳар қандай тилнинг миллий ўзига хослигининг муҳим қисмини ташкил қилади. Халқнинг ижтимоий-сиёсий, социал-иқтисодий, маданий ҳаёти ва турмуш шароити, дунёқараши, психологияси, анъаналарининг ўзига хослиги бошқа тилларда сўзлашувчиларда мавжуд бўлмаган образ ва тушунчаларнинг пайдо бўлишини белгилайди. Шунга кўра, бошқа тилларда уларни узатиш учун бир сўзли луғат эквивалентлари бўлмайди. Шунинг учун кўпинча таржимоннинг у ёки бу лексемани таржима қилиш учун етарли луғат бойлиги йўқ деган таассурот пайдо бўлади. Бу эса ҳар доим ҳам ҳақиқатга мос келмайди [2, 26].

Лакунани вужудга келишига нима сабаб бўлади? Бир қатор олимлар буни дунёқараш, маданият ва тилдаги бир - биридан фарқ қилувчи жихатлар сабаб бўлган деб ҳисоблашади. Инсон маданиятни, унинг қадриятларини ягона этник бир бутун сифатида ўзлаштиради. Бу нутқ алоқасининг этник-маданий ёки миллий-маданий ўзига хос хусусиятлари ҳақида билишга ёрдам беради. Когнитив лингвистикада ва бошқа баъзи соҳаларда лакуналарнинг мавжудлиги кўпинча дунёқарашларнинг бир-бирига мос келмаслигида кўришимиз мумкин. Г.Г.Почепцовнинг сўзларига кўра, бу ҳолда дунёқарашларнинг акс этиши алоҳида принципларга асосланади. Чунки фарқлар алоқа қилувчи маданиятларнинг лингвистик дунёқарашини ўзида намаён этади.

Маданият ва маданиятлараро мулоқот, миллий анъаналар ва дунё миллий тилларидаги ўзига хос хусусиятларини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Тилшунослик соҳасидаги антропоцентриқ қарашларга асосланган, тил этник гуруҳ менталитети ва маданияти

билан узвий бирликда ўрганиладиган янги назарий ишлар асосини ташкил қилиш ҳамда дунёни идрок этиш хусусиятларини аниқ белгилаб берувчи тилнинг лексик тизими устида кўплаб ишлар олиб борилмоқда.

А.М.Кочеваткиннинг қайд этишича, “Эгоцентрик йўналишда семантика ва тушунча категорияларини таҳлил қилишга мурожаатни тақозо қилувчи антропоцентрик парадигма замонавий тилшунослик тадқиқотларида етакчи аҳамият касб этаётганлигини кўрсатади”. Шу боис айнан “инсон” концептига алоқадор лексикани икки тил орасида чоғиштириб ўрганиш тил соҳиблари бўлган халқнинг дунёқараши ва етакчи қадрият тушунчаларини англашга ёрдам беради [3, 60].

Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, бош инсоннинг асосий органларидан бири бўлиб, ҳаётнинг рамзи ҳисобланади. Ўйлаш, фикрлаш, фикр юритиш, идрок қилиш, режа тузишда бош миянинг роли жуда каттадир. Бош билан боғлиқ бўлган соматизмлар инсоннинг ақл ва салоҳиятини намоён этади.. Бош сўзи ўзбек тилида “*бош, калла*”, хитой тилида деб 头 *tóu*, 脑袋 *nǎodài* деб қўлланади.

1985 йили Пекинда чоп этилган “Хитой тили изоҳли луғатида” бош сўзига қуйидагича таъриф берилган: 头 *tóu*, 脑袋 *nǎo dài*, 头发 *tóu fā*, 山头 *shān tóu*, 话头 *huà tóu*, 头号 *tóu hào*, 头年 *tóu nián*, 头目 *tóu mù*, 头头儿 *tóu tóu ér*, 头子 *tóu zǐ*, 头人 *tóu rén*, 甜头 *tián tóu*, 不定数量 *bù dìng shù liáng*, 量词等 *liáng cí děng* [4].

头 *tóu* — бош, калла, соч, тоғ чўққи, гапнинг боши, биринчи номер, ўтган йил, бошлиқ, катта бош, атаман (камситиш маъносида), бошчи, биринчи, таъм, дастлабки, аввал, илгари, тахмин сон ва ҳисоб сўз каби маъноларни англатади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида эса “*бош*” сўзига қуйидагича таъриф берилган: бош, калла, бош косаси, мия. Ўзбек тилида бош сўзи кўп ҳолларда одам маъносига тенг келиб, бадий асарларни таржима қилиш жараёнида бу сўз асосан турмуш қуриш маъносида қўлланилганлигининг гувоҳи бўлдиқ [5, 33]: *бошларини қовуштирмақ, бошларини бириктирмақ, бошларини қўшмоқ, бир бошни икки қилмоқ, бир ёстиққа бош қўймоқ* ва бошқалар. Хитой тилида эса турмуш қуриш маъносида “头 *tóu*” *бош*

компоненти биргина иборада “白头到老 *bái tóu dào lǎo*”, “白头偕老 *bái tóu xié lǎo*”- биргаликда қаримоқ маъноларида қўлланилган.

Ўзбек ва хитой тилида шу жумладан бошқа тилларда тана аъзоларини ифодаловчи лексемалар деярли бир-бирига мос келади. Баъзи ҳолларда улар орасида фарқларга ёки ўхшаш жиҳатларига дуч келамиз. Баъзида турли тиллар орасида мос келадиган сўзни топишга тўри келса, баъзида эса муқобил яъни эквивалентини топиш озгина қийинчилик туғдиради. Бу каби ҳолатлар таржимонларни ўйлантириб қўйиши табиий албатта. Шундай вазиятларга соматик лукуна воқеаланишига дуч келамиз. Бундай вазиятларда асосан мазмунан тасвирлаш орқали ифодалаш мақсадга мувофиқдир. Қуйида ўзбек ва хитой тиллари соматик лексикасини ўзаро солиштиришда соматик лакуна воқеаланишини таҳлили қилиб чиқамиз. Тана аъзоларини қисмларга бўлиб таҳлил қиламиз.

Бош қисмидаги соматизмларда воқеланувчи лакунарлик

	Ўзбек тилида	Изоҳ	Хитой тилида
1.	соч		头发 <i>tóufa</i>
2.	бош		头 <i>tóu</i> , (脑袋 <i>nǎodài</i>)
3.	энса		后脑 <i>hòunǎo</i>
4.	тери		皮肤 <i>pífū</i>
5.	пешона(манглай)		前额 <i>qián'é</i>
6.	бет (лунж, юз)		脸颊 <i>liǎnjiá</i>
7.	қош		眉毛 <i>méimáo</i>
8.	∅	қошнинг тугаш қисми	眉梢 <i>méi shāo</i>
9.	кўз		眼睛 <i>yǎnjīng</i>
10.	қовоқ	гипероним	眼皮 <i>yǎnpí</i>
11.	∅	якка қовоқ	单眼皮 <i>dānyǎnpí</i>
12.	∅	кўш қовоқ	双眼皮 <i>shuāngyǎnpí</i>

13.	киприк		睫毛 <i>jiemaο</i>
14.	бурун		鼻子 <i>bízi</i>
15.	∅	бурун тешиги	鼻孔 <i>bíkong</i>
16.	кулоқ		耳朵 <i>ěrduo</i>
17.	∅	кулоқнинг пастки қисми	耳垂 <i>erchui</i> ,
18.	лаб (дудоқ)		嘴唇 <i>zuǐchún</i>
19.	мўйлов	小胡子 <i>xiǎohúzi</i> – кичик соқол	∅
20.	соқол		胡子 <i>húzi</i>
21.	оғиз		嘴 <i>zuǐ</i>
22.	тил		舌头 <i>shétou</i>
23.	жағ		颌[骨] <i>hé[gǔ]</i>
24.	ияк (энсак)		下巴 <i>xiàba</i>
25.	танглай		腭 <i>è</i>
26.	тиш		牙齿 <i>yáchǐ</i>
27.	томоқ,		咽喉 <i>yānhóu</i>
28.	чакка		太阳穴 <i>tàiyángxué</i>
29.	яноқ		面颊 <i>mianjia</i>
30.	соқоқ	бақбақа, юзни пастки қисми	∅

Хитой ва ўзбек тилларида бош қисмида жойлашган тана аъзолари соматик лексемалар жами 53 тани ташкил этди. Шулардан 25 таси ўзбек тилига ва 28 таси хитой тилига тегишлидир. Ушбу икки тил орасида бош қисмида жойлашган соматик лексемаларни солиштириш натижасида 7 та соматик лакуналик ходисаси кузатилди. Шулардан 5 таси ўзбек тилида ва 2 таси хитой тилида воқеланганлигига гувоҳ бўлдик.

Ш.Усмоновнинг қайд этишича, “ўзбек тилида *бош* сомасининг ҳолат феъллари (гангимоқ, оғримоқ), *кўз* сомасининг нигоҳ феъллари (қарамок, кўрмоқ), *оёқ* сомасининг ҳаракат феъллари (юрмоқ, бормоқ, босмоқ, тортмоқ) билан кўпроқ бирикиши кузатилади. Булардан

ташқари бош сўзи чайқамоқ, иргитмоқ, тебратмоқ, силкитмоқ, қўл кўтармоқ, силкимоқ, қовуштирмоқ каби имо-ишора феъллари билан биргаликда келиб, қатор фразеологик бирликларни ҳосил қилади ва бу иборалар ҳаракат-ҳолатни тавсифлашга хизмат қилади” [6].

Таъкидлаш жоизки, ўзбек шоири, етук мутафаккир, буюк маҳорат эгаси Э. Воҳидов шеъриятида қўлланилган сўз бирикмалар асарларига мукамал даражада сайқал бера олган. Шоир асарлари тили шу даражада содда ва тушунарлики, уни илм аҳлидан бошлаб оддий халқ ҳам муаммосиз тушунади. Аммо айтиш жоизки, бизнинг бу айтганларимиз денгиздан қатрадир, зеро Э. Воҳидов шеъриятида қўлланилган форсча бирикмаларини алоҳида тарзда тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

REFERENCES

1. Э.Бегматов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.:Фан, 1985. – Б.103.
2. Э.Бегматов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.:Фан, 1985. – Б.105.
3. Л.С. Пейсиков. Очерки по словообразованию персидского языка. – М., 1973. – С. 158-168.
4. В.Н. Ярцева. Языковые контакты в условиях близких и далеких языковых культур // Литература, язык, культура. – М.: Наука, 1986. –С. 244.
5. Э.Бегматов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.:Фан, 1985. – Б.109.
6. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. – Б. 97.
7. Н.Нуриддинов диссертацияси Б. 69
8. С.Э. Талыбова. Копулятивные словосочетания в персидском языке. – М., 2002. С. 52.

9. Hamidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, 4(4), 100-112.
10. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
11. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
12. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
13. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
14. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

BRENDLAR NOMINATSIYASINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460790>

Madina MADIYEVA,
Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti,
Termiz, O‘zbekiston.
Tel: +998937945000;
E-mail: madinayusupovna@mail.ru

Annotatsiya. *Ma'lumki, har bir xalq o'zining mustaqil, betakror, behad noyob madaniyatiga egaki bu albatta tilda o'z aksini topmasdan qolmaydi. Xalqlar hayotining mintaqaviy o'ziga xosligi har bir xalq madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yaratib beradi, va predmet va tushuncha nomlanishiga imkon tug'diradi. Shu tarzda brend nomi shakllanadi, unda insonlarning ijtimoiy ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, milliy brend nomlari shakllanadi va uning amaliy faoliyat yo'nalishi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *milliy madaniy, urf odat, leksema, milliy brend, nominatsiya.*

Аннотация. *Известно, что каждый народ имеет свою самостоятельную, неповторимую культуру, что непременно находит отражение в языке. Региональная специфика жизни народа создает условия для развития культуры каждого народа, дает возможность называть предметы и понятия. Таким образом формируется бренд, воздействует на социальную психику людей, формируются национальные бренды, выявляется его практическая направленность.*

Ключевые слова: *национально-культурный, обычай, лексема, национальный бренд, номинация.*

Abstract: *It is known that every nation has its own independent, unique and unique culture, which is certainly reflected in the language. The regional specificity of the people's life creates conditions for the development of each people's culture, and makes it possible to name objects and concepts. In this way, a brand name is formed, it affects the social psyche of people, national brand names are formed, and its practical direction is revealed.*

Key words: *national cultural, custom, lexeme, national brand, nomination.*

Brendlarga nom berishda birinchi mezon bu – har bir yangi nominatsiya jarayonida omma uchun tanish bo‘lgan va ijobiy ma’noga ega bo‘lgan leksik birlik tanlanishida va bu birlik brend mahsuli va belgisiga mos ravishda tanlashidadir. Anglashiladiki, brendlarning nominatsiya

jarayonida semantik jihatdan ularni ma'no kasb etishi – lingvomadaniy nuqtai nazardan madaniy xoslangan milliy ma'noli birlikka aylanadi. Ayniqsa, bir tilda mavjud bo'lib, ikkinchi tilda muqobiliga ega bo'lmagan til birligi milliy-madaniy o'ziga xosligi yorqin namoyon bo'ladi. Shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo'lgan muqobilini qo'llamay xalqaro maydonga chiqqan brendlar ham milliy-madaniy belgiga ega bo'ladi. Bu holat o'zbek, ingliz hamda rus tillarida ham kuzatiladi. Masalan, o'zbek milliy til birliklari orqali brendlarni nomlash ularni milliy madaniy tarzida shakllanishi, milliy semantik aloqador birliklardan tashkil topishi, til egalari tomonidan maxsus hosil qilinishi ularning milliy-madaniy xoslanishini ko'rsatadi. Bu xildagi nomlar ma'lum semantik vazifalarni bajarish bilan birga munosabatlarini aniqlash imkonini beradi. Yana shunga o'xshash leksema ishtirokida brendning nomlanishiga “Xon” so'zini misol qilish mumkin. Masalan, “KHAN CHAPAN”; “XON”; *Kafe “Xon”*; “*Xon (To`yxonasi)*”; “*Xonpalace Hotel*”; “*Khan Orda Hotel*”; “*Temurkhan Hotel*”; “*ABBOS KHAN house*”; “*KHAN HOTEL OFFICIAL*”; “*KHAN ROOMS*”-(buxoro); “*Khan Academy O`zbek*”-*Некоммерческая организация*; va h.k.

“KHAN CHAPAN” milliy brendi ostida restoran faoliyat yuritadi. Ushub so'z birikmasi reali sifatida keltirilgan bo'lib, “KHAN” singari “CHAPAN” leksemasi ingliz tilida realiya sifatida ingliz yozuvi asosida shakllantirilgan. O'zbek tili izohli lug'atiga murojaat qilamiz. Unda “xon” so'ziga quyidagicha izoh keltirilgan: Xon. Turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni. Qo'qon xoni. Xon saroyi. 2. Xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo'shilib, unvon ifodalaydi. Bahodirxon – Xivada, Xudoyorxon – Qo'qonda xonlik qilgan[1, 410]. “ChOPON” – Kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim; to'n. Beqasam chopon. Paxtali chopon. Zarbof chopon. Chopon kiygizmoq[2, 506]. Bu ikki leksemasini qo'llash orqali brend nomiga milliy tus berilgan.

Ma'lumki, chopon o'zbek milliy urf odatlarida muhim atribut hisoblanadi. Bu o'zbek milliy kiyimlari qatorida hozirgacha o'z o'rniga ega. Brend nomlarini tahlili natijasida juda ko'p brendlar qadimiy unvon bilan nomlanishi aniqlandi. Shunday leksema qatoriga “BEK”so'zini kiritish mumkin. Ma'lumki, turkiy xalqlarda *bek* leksemasi unvon yoki ism

sifatida qoʻllanilgan. Tarixda “Bek” leksemasi «;Shahzoda»; «;boy»; degan maʼnoni anglatgan. Turkiy tilli xalqlar orasida beklar xon, hukmdor xizmatida boʻlgan sarkardalarga berilgan unvon boʻlgan. Oʻrta Osiyo xonliklarida beklar oliy zodagonlar, xonlar boʻlib, ularni alohida viloyatlarga hokimlar tayinlaganlar. “Bek” unvon boʻlib xizmat qilishiga qaramay asta-sekin tarkibiy qismlar bek va bey nafaqat unvon, balki shunchaki hurmat darajasi, muloyim manzil sifatida qoʻllanilgan. Keyinchalik ism, nom sifatida kela boshlagan.

Zamonaviy olamda “Bek” leksemasi kafe, restoran, mehmonxona, korxon va h.k. brend nomi sifatida qoʻllanilmoqda. Oʻzbekistonda “BEK” leksemasi ishtirokidagi brendlari soni salmoqliligi aniqlandi. Masalan, “BEK BREND”; “Bek brend korxonasi”; “FAYZ-BEK”; “bek shok brend ooo”; “Ibroxim Bek”; “Restoran Bek”; “Bistro-Bek”; “Semya restoranov BEK”; “Bek restoran”; “Bek kafe”; “Bek Saroy”; “bek osiyo”; “bek bistro”; “OOO Bek corp” (oziq ovqat maxsulotlari); va h.k.

Ingliz brend nomlarida ham shu kabi leksemalardan keng koʻlamda foydalanilishi kuzatildi. Mn: “King” yaʼni qiroli- inglizcha “qiroli atamasi anglo-sakson tilidagi “cyning” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib bu turli kontekstlar va tarixiy manbalarda erkak monarxga berilgan unvon. Ayol ekvivalenti “Queen” (qirolicha), bu unvon ham qirolning turmush oʻrtogʻiga beriladi: “King”; “Princes”; “Lady”; “Mr.”; “Aristocrat” va h.k.

Oʻzbek brend nomlarining ushbu koʻriniga “Malika” leksemasi misol boʻla oladi. Maʼlumki, Malika (Qirolicha); podshohning avlodiga mansub ulugʻ martabali ayol boʻlib, Shohbonu, goʻzallar goʻzali, mahvashlar mahvashi, zakovatli sohiba sifatida taʼrif berilgan. Malika ismi Malikalardek obroʻ-eʼtiborli boʻlsin maʼnosida ham qoʻyiladi. Ushbu ism sohibalaridan biri Amir Temurning xotini, katta malika – Saroymulkxonim, Qozonxonning qizidir. Ushbu nom bilan quyidagi milliy brendlarni misol qilib koʻrsatish mumkin: “Malika” restoran tarmogʻi Toshkent, Samarqand, Xiva, Jizzax va Termizda ochilgan va ijobiy nomga ega. Shuningdek, “Kafe MALIKA”; “Malika Prime Hotel”; “ГОСТИНИЦА МАЛИКА БУХАРА”; “Hotel Malika Bukhara”; “Malika Hotel Tashkent”; “Malika Hotel Khiva”; “Гостиница Малика Хейвак”; “Malika Classic Hotel” va h.k. brendlari mavjud. Brendlarni

nominatsiyasining lingvomadaniy xususiyatlari, ayniqsa, ayniqsa mehmonhona nomlarida yorqin aks etadi. O‘zbek tilida mehmonhonalarning nomlari milliy bend sifatida milliy-madaniy komponent vazifasini bajaradi. Ma’lumki, O‘zbekistonda hozirda sayyohlik bozori turli-tuman bilan bog‘liq brend mehmonhonalari bilan to‘lib toshdi. Bugun ko‘p sonli mehmonhonalari o‘z xizmatlarini ichki va tashqi sayyohlar uchun taklif qilishmoqda. Ularning orasida milliy mehmonhona brendlari o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Masalan, “*NUR MEHMONXONA*”; “*GRAND Nur*”; “*USMON NUR TEKSTIL*”; “*TOSH NUR TEKSTIL*”; “*NUR-AZIZ VA AL-AZIZ*”; “*NUR HOTEL*”; “*Hostel Nur*” va h.k. *Nur* so‘ziga lug‘atda [a. — yorug‘lik, yog‘du] 1. Yorug‘lik manбайдan taralgan va ingichka tola ko‘rinishida tasavvur etiladigan ziyo, yog‘du ma’nosida keladi [3, 66].

Ma’lumki, *nur* leksemasi o‘zbek tilida kamalak yorug‘lik, ezgulik ma’nolari bilan yaqin turadi. Bejiz qariyalarni nuroniy so‘zi bilan atamaydilar. Shuningdek, o‘zbek milliy brendlari orasida “*NUR*” leksemasi bilan nafaqat mehmonxona balki restoran va xususiy shifoxonalar nomlanishi kuzatildi. «*Nur*»; so‘zining ma’nosi islomda ma’lum va mashhurligi uni juda ko‘p milliy brendlarni nomlarida kuzatish imkonini berdi. Masalan, restoran; shifoxona, kiyim kechak, milliy matolar ishlab chiqarish va h.k.: “*NUR*”; “*Shifo NUR*”; “*Yangi Nur Afsonasi*”; “*Nur so‘zana*”; “*NUR Restoran*”; “*Nur kafe*”; “*Nur hayot cosmetics*”; “*Nur Restaurant*”; “*Nur choyxona*”; “*AN NUR restaurant*”; “*Bek-Nur restoran*”; “*Nur*”; “*Uchtepa Nur Tekstil*”; “*Nurxayot tekstil*” va h.k.

O‘zbek milliy brendlari nomida tayanch milliy komponent vazifasida keladigan so‘zlar ko‘p kuzatildi. Masalan, “*Anor*” leksemasi. Ma’lumki, turkiy xalqlarda qadimdan to‘qchilik va to‘kin sochinlikni ifodalagan. O‘zbek tilining izoxli lug‘atida Anor: 1 Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o‘simlik. 2 Shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liqto‘la. Yumaloq mevasi. Achchiq anor. Chuchuk anor. Anor suvi [4, 87].

Anor ko‘rinishidagi islomiy naqsh turlari mavjud bo‘lib, uni kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilikda keng qo‘llaniladi. O‘zbek tilida to‘kinlik, to‘qchilik ma’nosida ijobiy xarakterga ega anor nomi ostida yaratilgan “*ANOR*”; “*ART ANOR HOSTEL*” “*ANOR*” kafesi; “*Anor*

Atelier”; “*Supermarket Anor*”; “*Anorbank*”; “*ANOR MEBEL*”; “*Art Anor*”; “*Anor*” modalar uyi; “*Anor Restoran*”; “*Anor Mali*”; “*ART ANOR HOSTEL*”; “*ANOR LAGER*”; “*Anor Camp*”; “*Anor Wellness Spa mehmonxonasi*”; “*ANOR JEWELRY*”; va h.k. brendlar ro‘yhatdan o‘tganligi aniqlandi.

Hozirda ham anorning naqshi bezak sifatida brend logotipi sifatida yaratilganligini kuzatish mumkin:

Albatta, bunday obraz va ramzlar xayvon va o‘simlik dunyosi bilan taqoss qilish va ana shu negizida brendlarni nomlash ham milliy manzarani namoyon qiladi.

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, brend nomlarini hosil qilinishida “obraz”, “mif”, “simvol” kabi fenomenlarga ham tayaniladi. Albatta, brend nominatsiyasida fitonimlar “obraz” hamda “simvol” fenomenlarga tayangan holda yaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, “**Rayhon**” va “**Anjir**” fitonimi orqali yaratilgan milliy brend nomlari:

“Rayhon” leksemasi: “*Rayhon milliy taomlari (Toshkent)*”; “*Rayhon milliy taomlari (Farg‘ona)*”; “*Rayhon milliy taomlari (Samarqand)*”; “*Kafe Rayhon*”; “*Rayhon tekstil*”; “*Xushbo‘y rayhon savdo*”; va h.k. “Anjir” leksemasi: “*Anjir Milliy taomlar (Toshkent)*”; “*Anjir*”; “*Anjir (restoran)*”; “*Anjir kafe*”; “*Kafe “Anjir*”; “*Restoran Anjir*”; “*Xk Anjir*”; “*Anjir (bolish, yastiqalar)*”; “*Al Anjir Restaurant*”; “*Shirin Anjir Export*”; “*Milliy taomlar “Anjir” (Samarqand)*”; va h.k.

Rayhon [xushbo‘y o‘simlik turi] 1 bot. Labguldoshlarga mansub, osh - ko‘k uchun ekiladigan bir yillik xushbo‘y o‘simlik. 2 Rayhon (xotin-qizlar ismi) bo‘lsa, **Anjir** 1. Tutdoshlar oilasiga mansub, sutsimon shirador, shapaloq bargli o‘simlik. 2. Shu daraxtning serurug‘, yeyishli mevasi [5, 285].

So‘fi Olloyorning “Sobit ul ojizin”[6, 302] nomli kitobining “Ravoqiy rayhon” deb o‘zgartilishiga sabab rayhondagi fazilatlardir deb ishora beriladi. Xususan, so‘zning inson ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishini yoki boshqacha qilib aytganda, ushbu so‘zni idrok etishda ko‘pchilikda qanday fikr shakllanganligini aniqlashga imkon beradigan quyidagi taxlil usulidan foydalanish mumkin.

O‘zbek lingvomadaniyatida **Asl** leksemasi ishtirokidagi brend nomlari kuzatildi masalan: “*Kafe Asl Milliy Taomlar (Toshkent)*”; “*Asl*

taomlar”; “Asl Milliy Taomlar (Andijon)”; “Asl Milliy Taomlar (Termiz)”; “Asl Kamolon Milliy va Ug‘ur Taomlar”; “Asl Osh”; “Asl Besh Panja”; “Asl Burger”; Asl lag‘mon”; “Asl Norin”; “Hotel ASL (b)”; “Asl HOSTEL (t)”; “Asl Textile”; “ASL SAMIYA TEXTILE”; va h.k. Asl lesemasi 1. kelib chiqish, kelib chiqish e‘tibori bilan qarashliligi; nasli, tagi; 2 Kelib chiqqan (asos) joyi; 3 Yaratilishdagi, bosh, dastlabki; 4 Chin, chinakam, haqiqiy manolarini beradi[6, 106]. O‘zbek brendlarini nomlanishida asosan mahsulot sifatini oshirib ko‘rsatishga urg‘u beriladi.

Kuzatishlarimiz, milliylik xususiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi brend nomlarini ko‘p qismi umumiste‘moldagi so‘zlar hamda kasbiy leksikadan olinganini ko‘rsatdi. Aynan bunday nomlash ehtiyoji bilan hosil qilinarkan, hosil bo‘lish jarayonidayoq lingvomadaniy xususiyatga ega bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi **OROM** leksemasi ishtirokida: “OROM MEHMONXONA TOSHKENT”; “Orom kafe”; “Otel Orom” va h.k. **ORZU** leksemasi ishtirokida; “ORZU MEHMONXONA”, “ORZU kafe”, Restoran Bar “ORZU” va h.k. **SAFAR** leksemasi: “Gostinitsa Safar”; “Safari- ArtCafe”; “SAFAR HOTEL” va h.k.

Chinor leksemasi ishtirokidagi brend nomlariga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin. **Chinor**– f. 1 Po‘sti ko‘kish, panjasimon shapaloq bargli, uzoq umrli sersoya katta daraxt. 2 *ko‘chma* Turmush o‘rtog‘i yoki o‘g‘il, farzand (ayolga nisbatan). 3 *ko‘chma* Suyanchiq, qo‘llab quvvatlovchi shaxs[7, 489]. Ushbu leksema ishtirokidagi milliy brendlarga quyidagilar misol bo‘la oladi: “Art Chinor”; “Ming Shinor”; “Chinara”; “Al- chinor”; “cafe Chinor”; “Chinor Buxoro Taomlari Choponcha”; “Bog‘i Chinor”; “ChINOR KAFE”; “BESH CHINOR KAFE”; “Chinor Kafe – Buxara”; “Chayxana Chinor”; “CHINOR KAFE (Qashqadaryo)”; “Chinor Kafe- Jizzax”; va h.k.

Yana bir milliy xususiyatga ega “**TULPOR IMKON**” brendi so‘z birikmasi sifatida berilgan. Ushbu brend ostida qurilish kompaniyasi faoliyat yuritadi. O‘zbek milliy manzarasida tulpor leksemasi ijobiy ma‘noda keladi. Tulporga O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha izoh berilgan. 1. Nasldor, chopqir uchqur ot; arg‘umoq. 2. Qanotlari bo‘lgan afsonaviy uchar ot. Bunga, nazarimizda, qadimgi ajdodlarimizning tulpor obrazida chopqir, uchqurligi haqidagi

tasavvurlari sabab bo‘lgan. *Imkon* so‘zi mumkin, qodir hamda qudrat ma’nosini anglatadi.

O‘zbekistonda taniqli bo‘lgan “Tandir” brendi ostida restoran nomi atalgan. Ushbu restoran “**TANDOOR OILAVIY RESTORAN**” brendi ostida faoliya yuritadi. “TANDOOR” nom jarandorligini oshirish orqali ekspressilikka yo‘g‘rilgan. Tandir o‘zbek xalqida non, somsa yopib pishirish uchun loydan yasalgan qurilma bo‘lib, yaqin yaqingacha xar bir o‘zbek xonadonida ushbu qurilma mavjud bo‘lgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham [*a.*— non yopiladigan o‘choq, qurilma] bo‘lib, non, somsa, kabob kabilarni yopib pishirish, tayyorlash uchun loydan yasalgan qurilma [8, 662] sifatida izohlangan. Tandir o‘zbek madaniyatida o‘z qadriyatiga ega. Yaqin yaqinlarda ham har bir honadonda tandir qurilmasi mavjud bo‘lib, deyarli barcha oilalarda non, somsa yopilgan va bu ko‘p hollarda mehmon kutish bilan bog‘liq hodisa hisoblangan. Hozirda ham viloyat va tumanlarda bu odat saqlanib kelinadi.

Xulosa: O‘zbek, ingliz va rus tillaridagi brend nomlari lingvomadaniy xususiyatlari ularning hududiy farqli belgilarida ham kuzatiladi. Har uchchala tilda ham brendlarning milliy madaniyat xususiyatlarini ozmi-ko‘pmi o‘zida mujassam etadi. Ya’ni, ko‘p brend nomlarini shakllantirishda muayyan hudud, muayyan tilda gapiruvchi hamjamiyatga xos tasavvur va bilimlar, qadriyatlar, xulq qoidalari tizimi, kishilar dunyoqarashi hisobga olinishi kerak. Lekin, o‘zbek milily brenlaridan xalqaro miqyosda o‘zga til vakillariga tushunarli bo‘lishi uchun xam internatsional brend nomlaridan foylalanish xolati mavjudligi kuzatildi.

REFERENCES

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 3-жилд. – Б. 66.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 4-жилд. – Б. 410.
3. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (xvi-xix аср ярми) ўқув қўллан. “Фан” нашриёти 2006.
4. Shamsieva, B. (2022). The term of transfer in the field translation studies. In развитие науки, технологий, образования в хxi веке: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 99-102).

5. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). Issues on translation of character speech (on the example of korean-uzbek literature). *Международный журнал искусство слова*, 3(4).
6. Fatxutdinova, I. A. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 140-149.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDaan IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

XITOIY VA O‘ZBEK TILLARIDA FE’L FRAZEOLOGIZMLARINING ANTONOMIYA HODISASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460802>

Shahzoda XASANOVA,

TDSHU o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +998978447818;

E-mail: shaxzoda_xasanova@tsuos.uz

Annotatsiya. Tildagi tizimli munosabatlarning eng muhim ko‘rinishlaridan biri uning qarama-qarshiligidir. Tillar orasida o‘ziga xoslikni tahlil qilish birligining o‘zgaruvchanligi jarayonida, talafuzzida, mazmun doirasida xususiyatni ochib berish maqolamizning asosi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, fe’l frazeologizmlar va iboralarning o‘ziga xoslik tushunchalarining birlashtiruvchi xususiyati lingvistik ob’ektlarga lisoniy tuzilmaning yaxlitligi, hamda, shakl va mazmun birligi nuqtai nazaridan yondashiladi.

Kalit so‘zlar: fe’l frazeologizmlari, 成语 chéngyǔ, 歇后语 xiēhòuyǔ, 惯用语 guànyòng, frazeologik antonimlar.

Аннотация: Одним из важнейших проявлений систематических отношений в языке является его противопоставление. В основе нашей статьи лежит выявление особенности в процессе варьирования единицы анализа уникальности между языками, в произношении, в содержании. Стоит отметить, что объединяющим признаком понятий уникальности глагольной фразеологии и словосочетаний является подход к языковым объектам с точки зрения целостности языковой структуры, а также единства формы и содержания.

Ключевые слова: глагольная фразеология, 成语 chéngyǔ, 歇后语 xiēhòuyǔ, 惯用语 guànyòng, фразеологические антонимы.

Abstract: One of the most important manifestations of systematic relations in the language is its opposition. The basis of our article is to reveal the feature in the process of variation of the unit of analysis of uniqueness among languages, in pronunciation, within the content. The unifying feature of the concepts of the uniqueness of verb phraseology and phrases is that we approached linguistic objects from the point of view of the integrity of the linguistic structure, as well as the unity of form and content.

Keywords: verb phraseology, 成语 chéngyǔ, 歇后语 xiēhòuyǔ, 惯用语 guànyòng, phraseological antonyms.

Tildagi tizimli munosabatlarning eng muhim ko‘rinishlaridan biri uning qarama-qarshiligidir. Abdug‘afur Mamatov hammualliflikda yozgan monografiyasida quyidagi so‘zlarni zikr qilib o‘tadi: “Taniqli tilshunos L.V.Sherba “kontrastlar o‘ziga diqqatimizni kuchli jalb qiladi” [1] deya ta’kidlagan edi. “Antonimning zamirida bir jinsli narsalar, hodisalar, harakatlar, sifatlar, belgilardagi sezilarli farqlarni aks ettiruvchi qarama-qarshi assotsiatsiya yotadi. Antonim eng muhim lingvistik universallardan biri, turli tillarning leksik-semantik tizimining muhim o‘lchovlaridan biridir” [2,6] Haqiqatdan ham frazemik antonimlar bir tomondan uslubiy vosita sifatida o‘zaro zid tasvir, taqqoslash, keskin qarama-qarshilikni ifodalasa, ikkinchi tomondan dunyodagi real qarama-qarshilikni aks ettiradi. 他这人腰缠万贯，出手大方，一掷千金，不会亏待您的。 *Tā zhè rén yāochánwànguàn, chūshǒu dàfāng, yīzhìqiānjīn, bù huì kuīdài nín de*[3,138].

Uning puli achib yotibdi, saxiylik bilan hammaga ulashadi, xovuch-xovuch ulashadi va sizni albatta xursand qiladi [4,181].

U va puli oshib toshib yotgan sahiy inson bo‘lib, juda ko‘p pul sarflaydi va sizni xafa qilmaydi. (T)

Keltirilgan misolda 腰缠万贯 *yāochánwànguàn* – *puli achib yotibdi, puli oshib toshgan* deb tarjima qilinadi ya’ni *boy, badavlat* ma’no kelib chiqadi. Ushbu fe’l frazeoloik birlikka quyidagi frazeologik birikma antonim bo‘la oladi: 赤贫如洗[5,73] *chì pín rú xǐ* – *bir tiyinsiz qolish, qashshoq bo‘lish* ma’nolarini anglatadi

Frazeologik antonimlar inson fikr almashinuvi jarayonida keng qo‘llanilib, insonning individual va ijtimoiy faoliyati va sifatleri, his-hayajoni, borliqni anglashi hamda uning ma’naviy hayotga u yoki bu tarzdagi munosabati asosida shakllanadi. Qarama-qarshilik tushuncha sifatida inson ongining xarakterli ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, kundalik hayotdagi turli g‘oyalar, ilmiy bilimlar asosida yotadi. Antonimiya inson tafakkurining umumiy qonuniyatlari bilan belgilanadi, chunki bu mantiqiy muammodir. Til vositalari yordamida ko‘pgina murakkab hodisalarning qarama-qarshi mohiyatini moslashuvchan tushunchalarda aks ettirish mumkin. 她的话看起来击中了学员们的要害，他们重新聚精会神，一手拿笔，一手按本子，双眼望着我的岳母。 *Tā dehuà kàn qǐlái jǐ*

zhòng le xuéyuánmen de yāo hài, tāmen chóngxīn jùjīnghuìshén, yīshǒu nà bǐ, yīshǒu àn běnzi, shuāngyǎn wàngzhe wǒ de yuè mù[3,191].

Aftidan, uning so‘zlari nishonga tegdi, chunki talabalar yana diqqatlarini bir joyga to‘playdilar, ruchkalarini oldilar, qo‘llari bilan daftarni changallaydilar va nigohlarini qaynonamga qadaydilar [4,250].

Ko‘rinishidan uning so‘zlari talabalarning e‘tiborini o‘ziga tortdi, ular diqqatlarini bir joyga jamlab, qo‘llariga ruchka va daftarni olib, nigohlarini qaynonamga qaratdilar. (T)

聚精会神 jùjīnghuìshén fikrini jamlamoq, diqqatini bir joyga jamlamoq kabi ma‘nolarni anglatadi. Bu frazeologik birlikka antonim so‘z esa quyidagicha: 心不在焉 xīnbùzàiyān – fikri tarqoq, hayoli joyda emas deb tarjima qilinadi.

Semantika nuqtai nazaridan mantiqiy va lingvistik antonimlar o‘z mohiyatiga ko‘ra baholovchi kategoriyalardir. 勢如破竹 shìrúpòzhú biron-bir ishni osonlik bilan amalga oshirish; anov-manov ish unga cho‘t emas deya tarjima qilinadi bunga antonim sifatida 游移不定 yóuyí bùdìng biron bir ishni osonlik bilan amalga oshira olmaslik. Ushbu misollarni gapda berilishini ko‘ramiz:

我们是一群蠢材尚能如此，何况鱼鳞少年天生其奇才，又加上心怀深仇大恨，为了复仇练技，岂能不事半功倍，勢如破竹[3,137].
Wǒmen shì yīqún chǔncái shàng néng rúcǐ, hékuàng yú lín shàonián tiānshēng qí qícai, yòu jiā shàng xīnhuái shēnchóudàhèn, wèile fùchóu liàn jì, qǐ néng bù shìbàngōngbèi, shìrúpòzhú.

Kasd olish uchun u o‘z mahoratini charxlayapti, shu boisdan barakali harakat qilyapti, qariyb kuch sarflayapti, shu boisdan u bu ishni qiynalmasdan bajaryapti, anov-manov ish unga cho‘t emas[4,178].

Biz bir guruh bo‘lib buni qila olamiz, qolaversa, endi tug‘ilgan go‘dakning ham istedodi bo‘ladi, chuqur nafrat va nafrat bilan, qasd olish ko‘nikmalarini mashq qilish uchun, qanday qilib yarmi kuch bilan ikki barobar natijaga erisha olmaysiz, bambuklarni sindirgandek osonlik bilan amalga oshiring. (T)

老人默默地站着，脸上那两点绿光游移不定，好像两只精疲力竭的萤火虫[3,109](Mo Yan 109). Lǎorén mò mò de zhàn zhe, liǎn shàng nà

liǎng diǎn lǜ guāng yóuyí bùdìng, hǎoxiàng liǎng zhī jīngpílijié de yíng huǒchóng.

Chol uning ro‘parasida churq etmay turar, holdan toygan tillaqo ‘ng‘izlarga o‘hshab, ko‘zlari alang-jalang qilardi [4,178].

Chol indamay turardi, nima qilishini bilmaydigan xuddi tillaqo ‘ng‘izlar kabi ko‘zlari miltillardi (T).

Antonimlar asosan biror bir ish harakatni maqtash, baholash yoki taqqoslashda keng qo‘llaniladi. L.A.Novikov ham o‘zining “Rus tili antonimi: qarama-qarshiliklarni semantik tahlil qilish” nomli qo‘llanmasida ushbu fikrlarni ilgari surgan: “Baholash tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: a) baholash predmeti, baholashni ifodalash orqali aniqlanayotgan ob‘ektga qiymat beruvchi; b) ma‘lum bir qiymat berilgan baholash predmeti; s) baholashning o‘zi: mutlaq (yaxshi, yomon) va qiyosiy (yaxshiroq, yomonroq); d) asoslar - baho beriladigan nuqtai nazardan” [6, 36].

Antonimlar badiiy mantda qarama-qarshiliklarni hosil qilishga xizmat qilib, nutqning ifodaliligini kuchaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Frazeologik antonimlar vositasida esda qolarli, yorqin obrazlar yaratiladi. Tilshunos olim X.Hamidov o‘z monografiyasida quyidagi fikrlarni ilg‘or surgan: “Iboralarning shakllanishi, ma‘no xususiyatlarini tashkil etuvchi komponentlar orasidagi ma‘no munosabatlari, frazeologik ma‘no kasb etuvchi elementlarning bog‘lanish turlari tashqi frazeologik munosabatlar bilan bir qatorda frazeologik antonomiya, frazeologik omonomiy, frazeologik sinonomiy va iboralarda variantlashish hodisalari ustida alohida to‘xtalish kerak bo‘ladi”[7,112].

Antonimlarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati shundaki, ular barcha so‘zlarning inkori bilan bog‘lanishidir, lekin keltirilgan antonim umumiy gapni butun qolgan qismi inkor qilsa, bu ularning farqlovchi xususiyati bo‘lib xizmat qiladi. Antonimlarning xususiyati ularning barcha antonimlarga xos bo‘lgan inkor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishidir, lekin bu antonim bilan nomlanmagan umumiy to‘plamning butun qolgan qismi inkor qilinsa, bu ularning farqlovchi xususiyati bo‘lib xizmat qiladi. Antonimik inkor qarama-qarshilikning iboralar mazmunida salbiy va ijobiy xususiyatlarini birga qo‘llaniladi, uning ma‘nosini inkor etadi.

Butun mazmuni bilan bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan antonimik maʼnolar faqat bitta xususiyatga koʻra paradigmatic jihatdan farqlanadi. Antonimiya leksik birliklarning semantik tarkibiy qismi boʻlib, qarama-qarshiliklardan birini uning juftligisiz tushunish mumkin emas. Har bir antonim oʻziga xos qarama-qarshilikni oʻz ichiga oladi. Antonimlarning paradigmatic munosabatlari nuqtai nazaridan semantik yaqinligi sintaksisda – sintagmatikada – boshqa soʻzlar bilan sintaktik va leksik jihatdan mos kelishining katta oʻxshashligida ham namoyon boʻladi. Antonimlar leksik moslik sohalarining deyarli toʻliq mos kelishi bilan tavsiflanadi, bu ularning qarama-qarshilikni ifodalovchi kontekstlarda birga qoʻllanilishini talab qiladi. 心狠手辣 *xīnhěnhǒulà* – yuragi tosh qoʻli qaltiramaydigan (shafqatsiz), 赤子之心 *chìzǐ zhī xīn* – yangi tugʻilgan goʻdakdek yuragi pok; 形正影直 *xíng zhèng yǐng zhí* – tanasi toʻgʻrining soyasi ham toʻgʻri, 放冷箭 *fànglěngjiàn* – sovuq oʻqni otish.

Yu.A. Gvozdev frazeologik birliklarning bir jixatlarini sanab oʻtgan: 1) frazeologik birliklarning grammatik maʼnolarining umumiyliigi; 2) frazeologik maʼnolarning umumiyliigi; 3) frazeologik birliklarning kontekstga mos kelishi[8,352].

A.F.Axatovna oʻzining nomzodlik dissertatsiyasida frazeologik antonimlarni 4 ga boʻlib izohlaganini shohidi boʻldik: “Frazeologik antonimlardan foydalanish shakllari va usullari har xil, ammo ularni shakllantirishning toʻrt turi eng keng tarqalgan:

1. Leksik antonimlar asosida tuzilgan frazeologik antonimlar. Bunda frazeologik birliklar mazmunining qarama-qarshiligi ogʻzaki antonimiya tufayli yuzaga keladi.

2. Idiomaning integral maʼnosi asosida tuzilgan frazeologik antonimlar

3. Tasdiq va inkor feʼl shakllari asosida tuzilgan frazeologik antonimlar.

4. Mantiqiy va semantik qarama-qarshilik asosida tuzilgan frazeologik antonimlar. Bunda frazeologik birliklar oʻz tarkibidagi soʻzlarga maʼno jihatdan oʻxshamaydi”[9, 164].

Ushbu fikrlarga misollarni keltiramiz: 三心二意 *sānxīn'èryì* bir fikrli bo‘lmaslik; 一心一意 *yīxīnyīyì* bir fikrli bo‘lish; 处事不疑 *chǔshì bù yí* shakshubxasiz biron bir ishni amalga oshirish...

Bu borada turlicha fikrlar ilg‘or surilgan masalan Yu.A.Gvozdarev, “...frazeologiyada antonimik munosabatlar majburiydir, chunki frazeologik birliklar ongda juft bo‘lib ifodalangan mavhum tushunchalarni bildiradi”[10,352], – deya o‘z fikrini bildirgan.

Yuqorida keltirilgan misollar hamda fikrlardan ma‘lm bo‘ladiki frazeologizmlar ma‘noning umumiy yoki qarama-qarshi ma‘nolariga ega bo‘lsa, shuningdek, atonim mazmunida qo‘llanilsa, leksik jixatdan bir xil bo‘lsa, antonim hisoblanadi. Frazeologik antonimlar, birinchidan, frazeologik ma‘noning individual xususiyati, kelib chiqishi obrazlarning bir-biridan farq qilishi nuqtai nazaridan ko‘p qo‘llanilmaydi, shuningdek keng tarqalmagan deb ham fikr bildirishimiz mumkin. Shuningdek, Emirova A.Z. ham o‘z frazeologik antonimlar haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Frazeologik antonimiya, shubhasiz, leksikadan ko‘ra murakkabroq hodisaligi bilan izohlanadi. Frazeologik birliklar. ma‘nosining o‘ziga xos xususiyatiga ega turg‘un so‘z birikmasi sifatida tilning yuqori darajadagi birligidir”[11,171]. Frazeologizmlar ma‘no jihatdan qarama-qarshi bo‘lishi mumkin, ammo antonim bo‘lolmaydi, chunki ularning antonimlik tasvirlari bir-biriga bog‘liq emas. Frazeologizmlar, agar ularning qarama-qarshiligi barcha ma‘no elementlariga taalluqli bo‘lsa, antonim frazeologizmlar qatoriga kiritishimiz mumkin deb hisoblaymiz. 充耳不闻 *chōng'ěrbùwén* – *quloqlarini yopmoq, eshitmaslik* ushbu so‘zga mos antonomik feel frazeologik birlik 洗耳恭听 *xǐ'ěrgōngtīng* – *quloqlarini yuvib eshitmoq* so‘zma-so‘z tarjima qilinganda diqqat bilan tinglamoq deb ham tarjima qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi; 笨嘴拙舌 *bèn zuǐ zhuō shé* – *tili boshini yeydi (ahmoq og‘iz bidirlar)* deb tarjima qilinsa unga antonim frazeologik birlik sifatida 伶牙俐齿 *língyálichǐ* – *tili o‘tkir (xitoy tilida tishga nisbatan tishi o‘tkir)* olindi. Xitoy tilining frazeologik lug‘atida ushbu turdagi frazeologik antonimlardan tashqari boshqa turdagi frazeologik antonimlar ham mavjud. Unda antonimlar o‘zaro semantik mazmun bo‘lib

birikadi[12,108]³⁰. 洗心革面 *xǐ xīn gé miàn* – *qalbini poklab o‘zini o‘zgartirish ya’ni tavba qilish*; 死不悔改 *sǐ bù huǐgǎi* – *o‘lganda ham o‘zgarmaslik tavbasiga tayanmagan*

Ayrim frazeologik birliklarning bir necha ma’nolari bor masalan *qo‘l ostida* frazeologik birligining 3 xil ma’nosi bor 1) *qo‘liga* yaqin ya’ni *qo‘li* yetadigan darajada yaqin; 2) *qo‘l ostida* bo‘lmoq kimgadir kimningdir nazoratida bo‘lmoq, tobe bo‘lmoq; 3) *qo‘l ostidagi* sirini saqlamoq bundan ko‘rinadiki har bir ma’nosiga xitoy tilida alohida antonimlari mavjud. Birinchi ma’nosi juda yaqin so‘zining antonimi juda uzoq *qo‘li yetmaslik* iborasini keltiramiz 天涯海角 *tiānyáhǎijiǎo* *dunyoning narigi burchagi*; ikkinchi ma’nosi kimgadir tobe bo‘lmoq ma’nosiga antonim ibora *o‘ziga-o‘zi bosh bo‘lish*, *hech kimga qaram bo‘lmaslik* 特立独行 *tè lì dúxíng* *hech kimga qaram bo‘lmaslik*; uchinchi ma’nosi *qo‘l ostida (sir saqlamoq)* iborasiga antonim frazeologik birlik sifatida *hammaning ko‘z oldida* frazeologik birlik olindi 众目睽睽 *zhòngmùkuīkuī*. Bundan ko‘rinadiki o‘zbek tilida ko‘p ma’noli fe‘l frazeologik birliklar soni ko‘proq.

A.A.Reformadskiy o‘zining “Tilshunoslikka karish”[13,95] asarida antonimlar bir yoki bir nechta umumiy komponentlarga ega bo‘lishi mumkin. Tuzilishiga ko‘ra 2 turga bo‘ladi, ya’ni butunlay sodda tuzilgan frazeologik birliklarning antonimlari ular *emas*, *yo‘q* kabi inkorlarlar xitoy tilida 没, 不 so‘zlari bilan yasaladi, tadqiqotlarimiz nuqtai nazaridan fe‘l frazeologik birliklarni yuqorida keltirilgan so‘zlar bilan ifodalanishi antonim frazeologik birligini yoqotadi va bu guruh xitoy tiliga xos emasligi yuzaga chiqadi. Ikkinchi turi esa, tuzilishi jihatdan bir turdagi struktur frazeologik antonimlar: 恒眉怒目 *héng méi nù mù* – (*qoshlar chimirilgan qovog‘i solingan*) *qovoq tumshuq qilmoq, jaxli chiqmoq* aynan shu so‘zning antonimi 慈眉善目 *címéishàn mù* – (*qosh va qarashlari muloyim*) *ko‘ngli ochiq*; 一心一意 *yīxīnyīyì* – (*bir yurak bir qalb*) *tili dili bir bo‘lmoq*, 三心二意 *sānxīn’èryì* – (*uchta yurak, ikki qalb*) *ikkiyuzlamachi bo‘lmoq, chin qalb egasi bo‘lmaslik*. Ushbu keltirilgan misollarda tuzilish jihatdan bir xil fe‘l frazeologik birliklarda faqatgina

³⁰Сидоренко М.И. Парадигматические отношения фразеологических единиц в современном русском языке. Ленинград, 1982. 108 с.

birinchi va uchinchi qism o‘zgarishi bilan yasalgan bo‘lib, 恒 *héng* va 怒 *nù* so‘zlariga antonim qilib 慈 *cí* 善 *shàn* so‘zlari olingan, keyingi misolda esa 一 *yī* bir soni va 三 *sān* 二 *èr* ikki va uch sonlari qo‘llanilgan. Bir soni domiy o‘zgarish yagona degan ma‘noni anglatadi, ikki va uch sonlari frazeologik birlikda doimiy emasligi o‘zgarishi mumkunligini bildirib kelgan.

她又拉开了夹层的拉链，摸出了那个女人的照片。她说：快来看呀！红色小姐们聚到一起，七嘴八舌议论。他的愤怒到了顶点，用一连串的脏话咒骂她们，但她们浑然不觉。Tā yòu lā kāile jiācéng de lāliàn, mō chūle nàgè nǚrén de zhàopiàn. Tā shuō: Kuài lái kàn ya! Hóngsè xiǎojiěmen jù dào yīqǐ, qī zuǐ bā shé yìlùn. Tā de fènnù dào le dǐngdiǎn, yòng yīliánchuàn de zānghuà zhòumà tāmen, dàn tāmen húnrán bù jué[3,76]。

Qizaloq to‘pponchani qayta joyladi va ichki cho‘ntagidagi shirildoqni surib ochib, xaligi xotinning fotosuratini chiqardi.

– Xoy, bu yoqqa qaranglar, nima bor ekan! – dedi qiz.

Ofitsiant qizlar uni o‘rab olishdi va biri olib-biri qo‘yib, har kim ko‘nglidagini ayta boshladi.

Azbaroyi g‘azabdan u qizlarni changitib so‘ka ketdi, ammo qani endi ularni eshitgani qulog‘i bo‘lsa[4,98].

U(ayol kishi) yana hamyonidan o‘sha ayolning suratini chiqardi. – “Tezroq kela qolinglar! Ofitsiant qizlar yig‘ilib, biri olib biri qo‘yib har nima deya ketishdi. Uning g‘azabi chiqib, ularni bir qator bo‘ralab so‘kdi, lekin ular buni sezishmadi. (T)

Ushbu 七嘴八舌 *qī zuǐ bā shé* – biri olib biri qo‘yib har nima deya ketishdi fe‘l frazeologik birlikka antonim frazeologik birlik sifatida 异口同声 *yìkǒutóngshēng* – ko‘plam odamlar bir narsa haqida gapirishi, hamma bir yoqadan bosh chiqarmoq, hamma bir ovozdan mos bo‘la oladi. Keltirilgan frazeologik birliklar tuzilishi jihatdan bir-biridan farq qiladi lekin ma‘no jihatdan ular aynan fe‘l frazeologik antonimlar hisoblanadi. Yana bir misol keltiramiz: o‘zbek tilida (biron bir narsani) *kaftidek biladi* qilmoqchi bo‘lgan ishini yaxshi biladi, qiladigan ishi tayin; bu frazeologik birlikka qarama-qarshi frazeologik birlik esa u *qo‘lini bu qo‘liga urib o‘tirish* hech narsa qilmaslik, erinchoqlik qilmoq. Xitoy tilida 口是心非

kōushìxīnfēi – dili boshqa tili boshqa (ikkiyuzlamachi); 心口如一 xīnkǒu rúyī – qalbi tili bir bo'lmoq (sofdil).

O'zbek va xitoy tillarida fe'l frazeologik antonimlarning tahlili jarayonida, ma'no jihatdan bir biriga antonim bo'lgan frazeologik birliklar o'ziga xosdir. Shuningdek, tillar o'rtasida antonim ekvivalentlik topish bir muncha mushkullikni keltirib chiqardi. Fe'l frazeologizmlarning antonimlari analoglarni keltirib chiqaradi va buning asosiy sababi o'zbek va xitoy xalqlarining milliy madaniyatlaridagi tafovutlar, shu tillarda so'zlashuvchilarning tushunchalari va mentalitetidagi bir mavzu, hodisaga oid turli tushunchalarning mavjudligi bilan bog'liqdir.

REFERENCES

1. Щербань Л.В. Избранные работы по русскому языку. –М., 1957.
2. Львов, М.Р. Словарь антонимов русского языка - М.: Русский язык, 1985. - 384 с.
3. 莫言。酒国。页 72。
4. Амир Файзулла, Севара Алижанова (таржимаси) МоЯн. Мусаллас мамлакат. –Тошкент: Ўзбекистон 2018, 185 б
5. Готлиб О. М., Му Хуаин. Китайско-русский фразеологический словарь. – Иркутск, ул. Лермонтова Издательство “ИГУ” 2019, 73 с. (596).
6. Новиков, Л.А. Антонимия в русском языке: семантический анализ противоположности в лексике - М.: МГУ, 1973. -36 с. -290 с.
7. Ҳамидов Х.Х. Турк фразеологияси масалалари./Монография.–Тошкент: Bayoz, 2019. 112 б
8. Xasanova, S. (2021). Rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi: rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(7).
9. [9] – Гвоздарёв, Ю.А. Современный русский язык. Лексика и фразеология. - Ростов-на-Дону: 2009. - 352 с. -С 248
10. Ахмедова Ф.А. Глагольные фразеологизмы, обозначающие чувства, в русском, английском и таджикском языках//дис// –М.: 2013. -164 с.
11. Гвоздарёв, Ю.А. Современный русский язык. Лексика и фразеология. - Ростов-на-Дону: 2009. - 352 с. -С 247
12. Эмирова А.М. Об антонимических противопоставлениях в сфере фразеологии//Вопросы семантики фразеологических единиц (на материале русского языка): Тезисы докл. и сообщений. Новгород, 1971. –с 171-175.
13. Сидоренко М.И. Парадигматические отношения фразеологических единиц в современном русском языке. Ленинград, 1982. 108 с.
14. Реформатский А.А. Введение в языковедение. –М.: 1967. 542 с.

15. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
16. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
17. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
18. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
19. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

TURK TILIDA INSON OBRAZINI IFODALOVCHI ZOOFRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASIGA DOIR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460833>

Zebo SALIMOVA,
TDSHU o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998 90 936-83-63;
E-mail: zebosalimova1990@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqola turk tilida inson obrazini ifodalashda zoonim va zookomponentli iboralar va ularning tarjimasini masalalariga bag‘ishlanadi. Ijobiy va salbiy xususiyatlarni ifodalashda qo‘llanilgan birliklar tahlil qilinadi. Zoonim orqali inson qiyofasini ifodalashda til imkoniyatlarining kengligi ko‘rib chiqiladi. Turk tilida inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda tilning so‘z boyligiga e‘tibor qaratiladi. Zoofrazeologizmlar va ularning tarjimasidagi o‘xshash va farqli tomonlar o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Til, inson qiyofasi, xarakter, zoonim, portret, o‘xshatish, ekvivalent, til doirasi, ma‘no ko‘chishi.*

Аннотация. *Данная научная статья посвящена зоонимическим и зоокомпонентным выражениям и их переводу на турецкий язык. Анализируются единицы, используемые для выражения положительных и отрицательных характеристик. Zoonim исследует широту языковых возможностей в выражении человеческого образа. В турецком языке внимание уделяется лексике языка при отражении образа людей и раскрытии их характеров. Исследуются сходства и различия зоофразаологизмов и их перевода.*

Ключевые слова. *Язык, человеческий образ, характер, зооним, портрет, аналогия, эквивалент, объем языка, передача значения.*

Abstract. *This scientific article is devoted to zoonym and zoocomponent expressions and their translation in Turkish. The units used to express positive and negative characteristics are analyzed. Zoonim explores the breadth of language possibilities in expressing the human image. In the Turkish language, attention is paid to the vocabulary of the language when reflecting the image of people and revealing their characters. Similarities and differences in zoophraseologisms and their translation are studied.*

Keywords: *Language, human image, character, zoonym, portrait, analogy, equivalent, volume of language, transfer of meaning.*

Olamda hamma narsa bir-biriga bog'liq yaratilganidek, Insoniyat ham tabiat bilan chambarchas yashaydi. Kishining xatti-harakatlari, xarakteri va tashqi ko'rinishini hayvon yoki o'simlik nomlari bilan atash yoki o'xshatish buning yaqqol isbotidir. Tarixdan hozirgi kunga qadar yomon xulqli odamlar yovvoyi yirtqich hayvonlarga, yaxshi fazilatli insonlar uy hayvonlariga, sezgir, harakatchanlar ba'zi qushlarga o'xshatilishi an'anaga aylanib qolgan.

Hayvonot dunyosi haqiqatining nomlari bo'lgan zoonim ko'pgina tillarning leksik tarkibidagieng qadimgi semantik guruhlardan birini tashkil qiladi. Ma'juziy ma'nolarning rivojlanishi tufayli zooleksemalar insonning fazilatlarini va harakatlarini tavsiflash uchun faol ishlatiladi.

Muayyan madaniyatga tegishli bo'lish ma'lum bir jamiyatda shaxsni sotsializatsiya jarayonida takrorlanadigan bilimlarning asosiy stereotipik yadrosining mavjudligi bilan belgilanadi, shuning uchun stereotiplar madaniyatdagi nomuvofiq nomlar hisoblanadi.

Zoofrazeologizmlar tarkibida hayvon nomlari qatnashgan va aksariyat holatda ularning xatti-harakatlarini ifodalaydigan iboralardir. Ilmiy adabiyotlarda tarkibida hayvon nomlari kelgan iboralarni ifodalash uchun zoofrazeologizmlar, zoonim komponentli frazeologizmlar, shuningdek, animalistik frazeologizmlar singari terminlardan foydalaniladi. Tarkibida zoonim komponent ishtirok etgan frazeologik birliklarning rivojlanishi inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlariga borib taqaladi. Mazkur munosabatlar ko'p qirrali bo'lib, ular turfa shakllarda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo'jaligi, sanoat, sport, ilm va h.k. hayvonlar bilan bog'liqdir. Tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanayotgan "inson – hayvonot dunyosi" munosabati o'z navbatida tilga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tilning leksik fondidagi qator guruhlarning ichida faqat antroponimlar va zoonimlarga jonli mavjudotni ifodalashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, zoonim komponentli iboralarga ham antroposentrik xususiyat xos deyish mumkin. Binobarin, ular zoonimlarning o'zidagi lingvistik xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda zoonim komponentli iboralarni o'rganish o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Zoofrazeologizmlar tarkibida uy hayvonlari: it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq; yovvoyi

hayvonlar: tulki, quyon, yo‘lbars, ayiq, bo‘ri, sher, to‘ng‘iz; sudralib yuruvchilar: ilon, toshbaqa; kemiruvchilar: sichqon, olmaxon; qushlar: chumchuq, qarg‘a, bulbul, bedana, mayna, g‘oz, o‘rdak, tovus; suvda yashovchilar: baliq, qurbaqa; hasharotlar: pashsha, chivin, bit, burga, ari va h.k. zoonimlar ishtirok etadi. Turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko‘rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi”³¹.

Majoziy asosda paydo bo‘lgan tirik tabiat ob‘ektlari bilan insonning birlashmalari chuqur bilim asoslariga ega, chunki ular murakkab aqliy operatsiyalar natijalarini yozadilar, chunki inson o‘simlik yoki hayvonot dunyosining turli xil vakillarini o‘ziga xos fazilatlar bilan ta‘minlab, keyin o‘ziga xos xususiyatlarni beradi. o‘ziga xos xususiyatlarini, uning fikri belgisidagi har qanday umumiylikni asos qilib oladi.

Taniqli turk yozuvchisi Emine Şenlikoğluning asariga murojaat qilamiz. Asarning bosh qahramoni Mariya:

“Sevinçle oradan ayrıldım. Arabama binip eve doğru giderken aklıma geldi. Gidip bu soruyu Abdulvahhab’a sormalıydım. Böylece hem bir taşla iki kuş vurmuş olur, hem de etkisini anlardım”.(E.Ş.63s.)³²

“*Bir taşla iki kuş vurmuş*” iborasi o‘zbek tilidagi “bir o‘q bilan ikki quyonni o‘ldirish” ma‘nosini beruvchi iboradir.

Tarjima tilida asliyatda qo‘llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko‘p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma‘no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o‘zaro muqobil munosabatida bo‘ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo‘lishi va iste‘foda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta‘sirchan tarzda ifoda etishda o‘z turmush tushunchalari, urf-odatlarini, milliy-falsafiy qarashlari va o‘ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi.³³

³¹ Исмоилов Ф. Зоокомпонентли фразеологик birliklarнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. – Тошкент, 2013. - 98 б.

³² Emine Şenlikoğlu. Maria. – İstanbul: Eylül, 2019. - 63 s.

³³ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. - 195-196 б.

Masalan Aziz Nesinning “Şimdiki Çocuklar Harika” asaridan parchani ko’raylik: Başka bir çocuk horoz gibi atıldı: -Asıl yalancı senin gibisine derler. Benim babam, bikez bile sınıfının ikincisi olmamış. Hep sınıfının birincisiymiş. Anladın mı sen? ³⁴ Parchadagi horoz gibi frazeologik birligi “o’dag’aylamoq” ma’nosini berish uchun qo’llanilgan. Tarjimada mazkur ma’noni ifodalashda xo’rozning bo’ynini cho’zish harakatiga muqoyasalangan bo’ynini cho’zmoq iborasidan foydalanilgan. Qiyoslang: - O’zing ham aldoqchi ekansan. Mening dadam sinfda hecham qolmaganlar. Nuqul a’lo o’qiganlar. Tushundingmi? – dedi boshqa bir bola bo’ynini cho’zib ³⁵. Turk va o’zbek tillaridagi aslan gibi / arslonday o’xshatishi kuchli, mard, azamat kishilarga nisbatan qo’llaniladi. Biroq turk tilida aslan gibi iborasining o’zbek tilidan farqli o’laroq, “sog’lom” ma’nosi ham mavjud. Mazkur iboradan quyidagi parchada aynan shu ma’noda foydalanilgan: Ben, gözlerimde bir türlü durmayan yaşlar, tıkanan kuşyavruları gibi açık ağzımda boğuk hıçkırıklarla titrerken ihtiyar arkadaşım, pencereye döndü, karanlıkta ta uzaklara yumruğunu saklayarak: - Allah belanı versin, aslan gibi çocuğu berbat ettin, dedi ³⁶. Tarjimon bu o’rinda aslan gibi iborasini “sog’lom” ma’nosini ochib berish uchun o’zbekcha oyday qiz iborasini qo’llagan. Odatda, sharq badiiy muqoyasa an’analarini tabiiy ravishda o’zida mujassamlashtirgan o’zbek tilida go’zal qizlarni «oy»ga o’xshatish me’yoriy hol hisoblanadi. Biroq o’zbek lafzida oyday o’xshatishi “sog’lom” ma’nosida ham qo’llaniladi. Agar tarjimon xuddi asliyatdagidek arslonday bola deb tarjima qilganda, birinchidan, iboraning ma’nosi ochilmay qolgan bo’lard. Ikkinchidan, asar qahramoni qiz, binobarin, o’zbek lingvomadaniyatida arslonday o’xshatishi faqat erkaklarga nisbatan ishlatiladi. Demak, tarjima muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Yana bir o’rinda: Ko’zlarimdan yoshlar quyilar, ovqat tiqilib qolgan qush bolalari singari og’zimni katta ochib hiqillar, titrar ekanman, qari do’stim derazaga o’girildi, qorong’ida uzoqlarga musht do’laytirib: Xudo jazoingni bersin! Oyday qizni xarob qilding, - dedi ³⁷

³⁴ Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika. – İstanbul: Nesin Yayınevi, 2005. -53 b.

³⁵ M. Hakimov tarjiması. G’aroyib bolalar. – Toshkent: Sharq, 2006. -101 b.

³⁶ Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu. Roman. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1995. - 370-371 s.

³⁷ Раход Нури Гунтекин. Чоликуши. Туркчадан М. Исмоилий таржимаси. – Тошкент: Шарк, 2002. - 379 б.

Har ikki tilning izohli lug'ati vositasida fitonim ifodalagan qiyofalar orqali o'zbek va turk tillari orasidagi o'xshash va farqli tomonlar ham ko'rib chiqiladi.

O'zbek va turk tillarining leksikografik manbalari materiallarini qiyosiy tahlil qilish zoonimni idrok etishda umumiy va o'ziga xos xususiyatlarning mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi. Umumiy bo'lgan narsa bu – zoonimning ikkala til tizimida mavjudligi, shu jumladan hayvonning biologik xususiyatlari va zoomorfizm. Har ikki tilda ham odamni salbiy va ijobiy tomondan tavsiflash uchun zoometaforalardan foydalaniladi.

Insoniyat azal-azaldan borliqdagi hayvonlar va jonivorlar bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan. Buning muayyan sabablari bor: birinchidan, hayvonot olami insonlar uchun asosiy ozuqa manбайдan biri bo'lsa, ikkinchidan, ular kundalik hayotda yordamchi ish kuchi vazifasini bajargan va uchinchidan, ov qilishda asosiy vosita hisoblangan. Ayni holat insonlarning hayvonot olami sir-asrorlarini azaldan yaxshi bilib olishga, uy hayvonlarini o'zlariga yaqin tutishiga, ularning ko'magidan samarali foydalanishga yoki yovvoyi hayvonlarga nisbatan jiddiy mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, umuman, ularga alohida e'tibor bilan qarashga olib kelgan. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, ularning har biri matnda muayyan uslubiy vosita vazifasini bajargan. Ma'lumki, insonlarning o'xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o'sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalarning vujudga kelishida avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinot olamini bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi ojizliklar tufayli ularga nisbatan sirli va ilohiy kuch sifatida baho berish, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e'tiqod xilma-xilliklari hayvonot, nabotot va koinot olamidagi mavjud narsalarga, jonzotlarga nisbatan totemistik munosabatlar tufayli sher, arslon, yo'lbars, qoplon va burgut, lochin, qirg'iyilarni - mard, jasur, botir, dovyurak kishilarga; qarg'a, quzg'unlarni - qonxo'r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullarni - go'zal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, g'uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarini go'zal va suluv qizlarga; yantoq, saksovul kabilarni xunuk kishilarga nisbatat tashbeh etilishi

ogʻzaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir.³⁸ Bularning barchasi insoniyat oʻzini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bogʻlashi, yaʼni, qiyoslashi, oʻxshatishi, sifatlashi kabilar bilan bogʻliq boʻlib, ular tilimizdagi koʻplab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos boʻladi.

Koyun - qoʻy oʻzbek tilida ham, turk tilida ham buyruqlarni soʻzsiz bajaradigan, oʻz “men” iga ega boʻlmagan odamga qiyos qilinadi. Hayron qolib, dovdirab qaraydigan maʼnosida “koyun bakisli” birikmasi ishlatiladi. “Kedi gibi” –mushuk kabi oʻxshatishi ham boʻsinuvchan maʼnosida keladi. Shu oʻrinda “Kedi gibi drt ayak stne dmek” iborasi juda qiyin vaziyatlardan ham oson chiqa olgan odamga nisbatan ishlatilishi, “kedi ile harara (veya uvala) girmek”-chorasiz qolgan kishi bilan hamkorlik qilgan kishiga, “kedi ile kpek gibi” iborasi bir-biri bilan kelisha olmagan kishilarga nisbatan qoʻllanilishi, “kedi cigʻere bakar gibi” iborasi esa havas bilan, ishtaha bilan, qoʻlga kiritishni istab qaragan koʻzlarni ifodalashini taʼkidlash joizdir.

“Chumolidek mehnatkash” metaforasi oʻzbek tilida juda koʻp qoʻllanilgani kabi turk tilida ham ishlatiladi, “karınca yuvasi gibi” tarzida, yaʼni tiqilinch, odam gavjum joy maʼnosida qoʻllaniladi.

Birovning ortidan qolmaydigan kimsalarni “kanadek yopishqoq” iborasi bilan taʼriflaymiz. Turk tilida ham aynan “kene gibi yapışmak” birikmasi shu maʼnoda keladi.

Har bir yozuvchining badiiy mahoratini belgilashda uning qahramon portretini yaratishdagi oʻziga xosligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yozuvchi yaratgan portret adabiy qahramon toʻgʻrisida tasavvur hosil qilish uchun dastlabki tayanch asos sanaladi. Asarda qalamga olinayotgan voqe-hodisalarda kimlar ishtirok etayotgani, ular qanaqa koʻrinish, qiyofa va qanday feʼl-atvorga ega ekanligi, avvalo, ularning portreti orqali namoyon boʻladi.

Asardagi voqealarning kundalik hayotdagidan koʻra taʼsirchanroq, jozibaliroq boʻlishining asosiy sababi, avvalo, qalamga olinayotgan voqealarni markazida turgan qahramonlar bilan bogʻliqdir.

³⁸ I. Jumanazarova G.Fozil Yoʻldosh oʻgʻli dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil). – Toshkent, 2012. – B.15-16.

Tarkibida zoonim komponent ishtirok etgan frazeologik birliklarning rivojlanishi inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlariga borib taqaladi. Mazkur munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular turfa shakllarda namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, sport, ilm va h.k. hayvonlar bilan bog‘liqdir. Tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar ta‘sirida rivojlanayotgan “inson – hayvonot dunyosi” munosabati o‘z navbatida tilga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Shuni ta‘kidlash kerakki, tilning leksik fondidagi qator guruhlarining ichida faqat antroponimlar va fitonimgina jonli mavjudotni ifodalashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, zoonim komponentli iboralarga ham antroposentrik xususiyat xos deyish mumkin. Binobarin, ular fitonimning o‘zidagi lingvistik xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda zoonim komponentli iboralarni o‘rganish o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

REFERENCES

1. Исмоилов Ф. Зоокомпонентли фразеологик birliklarнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013.
2. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши // Таржима масалалари. № 2. –Тошкент: ТошДШИ, 2014.
3. Jumanazarova G.Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil). – Toshkent, 2012.
4. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005.
5. Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika. – İstanbul: Nesin Yayınevi, 2005/
6. M. Hakimov tarjiması. G‘aroyib bolalar. – Toshkent: Sharq, 2006.
7. USMANOVA, S. Altay dillerindeki bazı ev gereç adları üzerine. Manas Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 10(19), 123-128.
8. Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu. Roman. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1995
9. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
10. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
11. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.

-
12. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
13. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

Internet saytlari

14. <http://www.ziyonet.com>
15. <http://tdk.gov.tr>
16. <http://kitob.uz>
17. <http://www.biblus.ru>

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGISMS INVOLVING CLOTHES NAMES IN ENGLISH AND UZBEK



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460841>

Dinora Sodiqova,

Lecturer of the Department of Western Languages,

Tashkent, Uzbekistan.

Tel: +998974126779;

E-mail: dinorasodikova1990@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola leksikologiyaning bir bo‘limi frazeologiya sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosan ingliz va o‘zbek tillarida kiyim –kechak nomlari ishtirokidagi frazeologizmlarning lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlil qilinib, ma‘lum bir millatning mentaliteti, madaniyati, urf-odatlar va an‘analarini o‘zida aks ettirgan frazeologik birliklar haqida qimmatli ma‘lumotlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *fraza, kiyim-kechak nomlari, frazeologizm, komparativ iboralar, lingvomadaniyat.*

Аннотация. *Данная статья является частью лексикологии, посвященной области фразеологии, в которой фразеология с названиями одежды на английском и узбекском языках в основном анализируется с лингвокультурологической точки зрения, а также менталитет, культура, обычаи и традиции определенного анализируются нации, даются ценные сведения о фразеологизмах, отражающих их мать.*

Ключевые слова: *словосочетание, названия одежды, фразеологизм, компаративные выражения, лингвокультура.*

Abstract. *This article is devoted to the field of phraseology, a section of lexicology, which mainly includes names of clothes in English and Uzbek languages. Phraseologisms are comparatively analyzed from a linguistic and cultural point of view, and valuable information is given about phraseological units that reflect the mentality, culture, customs and traditions of a certain nation.*

Key words: *phrase, names of clothing, phraseologism, comparative expressions, linguistic culture.*

INTRODUCTION

Linguistics is a general science that arose between the sciences of cultural studies and linguistics, and studies such phenomena as the interaction and connection of language and culture, the formation of this connection and its reflection outside language as a whole system is

engaged in learning. On the one hand, linguocultural science studies the place of humanity in the cultural language factor, and on the other hand, the place of man in the language factor. Each language is closely related to the history of its speakers and contains some special aspects of their traditional daily life, geography, and culture that have not been written about shows.

Every language undoubtedly affects the culture of its speakers. Our students studying a foreign language face difficulties in understanding the essence of the original meanings hidden in the expressions of other nations until they learn the culture and ways of thinking of that nation. A lot has been written about phraseological units, they are grammatical, semantically and syntactically analyzed, but linguistically and culturally insufficiently researched.

The relationship between language and culture was expressed for the first time by the German scientist V. von Humboldt in his works as follows: A person's language conveys information about the subject in such a way that it lives. Any language expresses the people to which a person belongs, his way of life.

M.M.Pokrovsky, G.V.Stepanov, A.A.Potebnya, D.S.Likhachev and Y.M.Lotman, F.I.Busayev, as a result of their research, scientifically based linguistic and cultural studies as a science.

In Uzbek linguistics, the first studies devoted to linguistic and cultural studies were conducted by Sh. Safarov, D. Khudoyberganov, N. Mahmudov and Sh.Usmanova. In recent years, great importance has been attached to the study of Uzbek phraseology in comparison with other languages from a linguocultural, cognitive scientific point of view. Among them, B.Safaraliyev, G.Bakiyeva, N.Nasrullayeva semantically define expressions as religious, legendary, historical, related to literature, geographical and national researched into conceptual areas. Professor A. Mamatov points out that expressions are formed in different ways from a historical etymological point of view. In the scientist's opinion, he emphasizes that phraseological units are formed on the basis of Uzbek reality, and secondly, phraseologisms that have entered from related and non-related languages through appropriation and imitation.

Shavkat Rahmatullayev in the book “Annotated Phraseological Dictionary of the Uzbek Language” mentions that the main part of phrases in Uzbek linguistics is made up of verb phraseological units, as well as phrases with a noun component, adjective and adverbial component.

Main Part. The names of clothes and shoes are often found in English idioms. Such expressions are hundreds of years old, their original connection with clothing has already been erased, so they are difficult to understand and remember. We have selected idioms for clothes, pants, shirt, shoes and other items of clothing. To make them easier to remember, we talk about their origin, literal meaning, interesting facts and ways of using them in speech.

Literally means “**eat your hat**”. This is how they express confidence in the success of a business: “**I’ll eat my hat if it’s not so**”. The first time the expression occurs in the work of Thomas Bridges. And Charles Dickens, in The Posthumous Papers of the Pickwick Club, added to the idiom:

I’d eat my hat and swallow the buckle whole. “I’ll eat my hat and swallow the clasp. **Below the belt** - unfair, dishonest.

Literally – “**below the belt.**” The origin of the phrase is not difficult to guess. This idiom is similar to the Russian expression “low blow”, so it’s easy to remember. In this case, the English expression does not need to use the word “strike”, for example:

Your attitude to my wedding is below the belt. “Your treatment of my wedding is unfair. Old hat - an outdated, unfashionable thing.

“**Old hat**” - this is what they say not only about clothes, but also about other things: appliances, furniture, jewelry. This can also be said about people - for example, the elderly or those with outdated views.

Old hat is synonymous with out of fashion. A phrase with this meaning appeared in English at the beginning of the 20th century. Interestingly, in the old version of English, the phrase old hat had a much more vulgar meaning: this was the name of the female organs, which are literally “**below the belt**”.

Your TV is an old hat, why don't you buy a flat screen TV? Your TV is outdated, why don't you buy a flat screen TV?

Wear the trousers, wear the pants - to be in charge.

So they say about the headship in the family, in the house, especially if this role is performed by a woman. The expression has already lost its original meaning of “**wearing trousers**”, but is still in use in the colloquial language. Note that Americans say wear the trousers, and English say wear the pants.

It is Mary who actually wears trousers in their relationship. - In fact, Mary is the main one in their relationship.

Cut from the same cloth - the same, similar. In English, there are two idioms with a similar meaning, but they are related to food: “the apple does not fall far from the tree” or “made from the same dough. And for native English speakers, similar people or things evoke a different association - as if cut from the same fabric. In the old days, English families bought one piece of fabric for everyone, from which clothes were sewn for all family members. It turned out to be similar, and relatives could be identified by the pattern or texture of the fabric.

Alan and his friend are cut from the same cloth. Alan and his friend are very similar. A wolf in sheep's clothing - pretend to be kind.

Literally means “**a wolf in sheep's clothing**”, the same expression is in Russian. According to the Bible, this is what Jesus said in his sermon: “Beware of false prophets, which come to you in sheep's clothing, but inwardly they are ravening wolves.” This expression is found in modern English and refers to conniving people who pretend to be good-natured.

Emily looks charming, but she is a wolf in sheep's clothing. Emily looks charming, but she's faking it.

Birthday suit - naked, naked.

Literally, the expression means “**birthday suit**”. You can guess the meaning of the idiom if you think about the first birthday and remember the Russian proverb “**in what the mother gave birth.**”

In a few minutes we were all in our birthday suits and in the water. “After a few minutes, we completely undressed and climbed into the water. (Charles D. Kipp, Linda Sykes, “Because We Are Canadians”)

With hat in hand - humbly, servilely, obsequiously.

The expression “**With a hat in hand**” refers to the times when the British wore hats. The hat was removed from the head and held in the hands as a sign of respect. Now this gesture is no longer used, but the

phrase has been preserved in the language. So often they say about asking people. In the sentence, the phrase **with hat in hand** serves as an introductory construction.

With hat in hand, he asked for salary raise.- He humbly asked for a raise.

Keep your shirt on / keep your pants on - keep calm. When unflappable English people ask you not to lose your temper, they literally say “do not take off your shirt or trousers”. This idiom is often used to calm nervous, agitated people.

The origin of the expression is not entirely clear. Perhaps this was said about people who got so angry that they got into a fight, taking off their shirt as they went. Clothing constrains movement, so before fights and fights it was removed. And angry people, ready to rush into battle, were so calmed, urging them not to take off their shirts.

Mark didn't mean anything bad, keep your shirt on. Mark didn't mean anything bad, calm down.

CONCLUSION

Studying phrases in both languages, revealing their semantic-grammatical and functional stylistic features determines the relevance of this work. However, expressions with adjective components are an unexplored field within these languages. It is known that expressions are inextricably linked with the spirituality, culture, customs, lifestyle and history of the people who own the language. Based on this point of view in the article about 10 expressions containing clothes were studied, and the manifestation of the culture of the two nations in the language, their mutual influence and connection were considered. The opinions of linguists were studied and general conclusions were given to them.

In the course of the research, phraseological units with a clothing component in English and Uzbek languages were separated and analyzed morphologically, semantically and linguistically. The analysis shows that despite the fact that English and Uzbek nationalities are different from each other, the meaning of expressions composed of adjectives is very close to each other. Most of them are human qualities or defects in both languages serves to describe. The linguistic and cultural content of

selected idiomatic expressions from the English and Uzbek languages was explained.

REFERENCES

1. Sayidrahimova N., Qabulova U. Lingvokulturology - a special field of linguistics // Uzbek language and literature, 2015. - №4. –p . 87-91.
2. Humboldt V. Background. Culture of language and philosophy. M-1985
3. Safarov Sh. Semantics. - Tashkent: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2013;
4. Khudoyberganova D.S. Anthropocentric interpretation of artistic texts in the Uzbek language: Philol. science. dr. ... diss. - Tashkent, 2015;
5. Mahmudov N. Linguistic landscape of the world and word acquisition // Uzbek language and literature. – Tashkent, 2015. - #3. –p. 3-12;
6. Usmanova Sh. Linguistic aspects of translation. - Tashkent: ToshDS'HI, 2017. –p. 254.
7. Abdugaffor Mamatov, professor. “Analysis of phraseological units: linguocultural approach.” 2013.
8. You Wang "A Contrastive Research on the Definitions and Categories of Chinese and English Idioms." Advances in Social Science, Educational and Humanities Research, volume 554.
9. Yoldoshev B. On the relationship of phraseologisms to the literary language norm. -T.: EXTREMELY. 1992. No. 3-4. –p.37-42.
10. Mamatov A., Almamatova Sh. About phraseological transposition and its study. Actual problems of stylistics and phraseology. Materials of the scientific-theoretical conference. - Samarkand. 2007. –p . 68-70.
11. Ismatullayeva, N. R. Translation of phraseological units in Chinese and Uzbek languages. In Scientific research of the SCO countries: synergy and integration (International conference). Beijing, PRC, June (Vol. 24, pp. 45-50).
12. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
13. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
14. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
15. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).

-
16. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

MO YANNING “QURBAQA” ROMANIDAGI BA’ZI PERSONAJLAR ISMLARIGA OID



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460855>

Durdona QULIYEVA,

SamDCHTI o‘qituvchisi,

Samarqand, O‘zbekiston.

Tel: +998979252927;

E-mail: doshkanoshka@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola zamonaviy Xitoy adabiyotining yorqin vakili Mo Yanning 2009-yil dekabr oyida birinchi marotaba nashrdan chiqqan mashhur “Qurbaqa” romanidagi personajlarning g‘ayrioddiy ismlariga bag‘ishlanadi. Mazkur romanda hikoyachi tilidan mashhur bir yozuvchiga maktub shaklida yozgan, boshidan kechirgan voqealari aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mo Yan, Qurbaqa romani, doya xola, murojaat ismlari, tana qismlari, ichki organlar.*

Аннотация. *Данная статья посвящена необычным именам персонажей известного романа, впервые опубликованного в декабре 2009 года «Лягушка» Мо Яня, яркого представителя современной китайской литературы. В этом романе рассказчик написал в виде письма известному писателю, отражая его переживания.*

Ключевые слова: *Мо Янь, роман «Лягушка», тетья-акушерка, слова обращения, части тела, внутренние органы.*

Abstract. *This article is devoted to the unusual names of the characters in the famous novel, first published in December 2009 "The Frog" by Mo Yan, a prominent representative of modern Chinese literature. In this novel, the narrator wrote in the form of a letter to a famous writer, reflecting his experiences.*

Key words: *Mo Yan, novel "The Frog", aunt-midwife, words of address, body parts, internal organs.*

Mo Yan zamonaviy Xitoy adabiyotining eng yorqin adiblaridan biri bo‘lib, yozgan romanlari orqali butun dunyoni zabt etgan Nobel mukofoti sovrindori hisoblanadi. Taniqli adib 2012-yilda adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofotini “Xalq ertaklari, tarix va zamonaviylikni gallyutsinatsion realik bilan uyg‘unlashtirgan yozuvchi” sifatida qo‘lga kiritgan. O‘rta asr Xitoy adabiyotini Li Bo (李白) va Du Fu (杜甫) siz

tasavvur etib bo'lmaganidek, zamonaviy Xitoy adabiyotini ham Mo Yan (莫言)siz tasavvur etib bo'lmaydi.

Mo Yan juda ham ko'plab mashhur hikoya va romanlar muallifi hisoblanadi. Mo Yanning “Qurbaqa” (蛙) nomli romani kitobxonlar orasida juda katta shuhrat qozongan. 2011-yilda ushbu roman Xitoyda har 4 yilda bir marotaba taqdim etiladigan eng nufuzli adabiy mukofoti hisoblangan Mao Dun mukofotiga loyiq topilgan.[3,2] Romanda qishloq shifokori hayoti hamda juda murakkab mavzu - qishloqlarda bola tug'ish siyosatining 60 yillik tarixi haqida hikoya qilinadi. Mo Yanning fikriga ko'ra, bu asar “inson ruhiyati laboratoriyasi”ga o'xshaydi, u insoniyat mohiyatini aniqlash uchun o'z qahramonlarini ataylab eng ekstremal sharoitlarda turlicha vaziyatlarda aks ettiradi.

Kitobxon romanni mutolaa qilar ekan, kitobxon ham yozuvchi kabi inson qalbining nomuvofiqligi va fojeasini kashf etadi. Bosh qahramon qishloq doyasi, yozuvchining o'ziga ham, minglab boshqa bolalarning dunyoga kelishiga ham yordam bergan va keyin davlat siyosatini amalga oshirishga majbur bo'lgan ayol-Mo Yanning xolasi-Van Sin (yoshlikdagi ismi Duan Yan) hisoblanadi.

“Qurbaqa” romanining tuzilishi murakkab: hikoyachi, havaskor dramaturg qaysidir mashhur yozuvchiga xat yozadi. Xatida u mashhur yozuvchidan uning yozgan ishi bilan tanishishni so'raydi. Izlanuvchan dramaturg bu asari syujetini juda muhim deb hisoblaydi: u o'sha vaqtda qishloqda tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan yagona doya bo'lgan xolasi haqida so'zlab bermoqchi. Xola 11 000 nafar bolaning dunyoga kelishiga doyalik qilgan va tom ma'noda o'sha davr afsonasiga aylangan. Lekin muammo shundaki, u bu ishni hali yozib tugatmagan, hozir esa hurmatli yozuvchiga o'zi va xolasi haqida gapirib bermoqchi. Mazkur roman mana shu syujet bilan boshlanadi.

Yozuvchining boshqa romanlari singari, kitobda ham juda ko'p personajlar mavjud. Mo Yan nafaqat oddiy romanlar, balki satirik romanlar ham yozgani uchun uning qahramonlari g'alati ismlarga ega. Romanni mutolaa qilib shuni anglash mumkinki, roman voqealari syujeti aks ettirilgan qishloqda dunyoga kelgan bolalarga tana qismlari va inson ichki a'zolari nomi bo'yicha ism qo'yish odati bor edi.

Xitoy tarixiy madaniyatiga nazar soladigan bo'lsak, bolalarga ism tanlashdagi g'ayritabiiy holatlarni, g'alati ismlar qo'yilganligining guvohi bo'lamiz. Xitoy buyuk adibi Mo Yan taxallasining ma'nosining o'zidan ham fikrimizning isboti tariqasida qarashimiz mumkin. Adibning asl ismi Guan Mo Ye bo'lib, Mo Yan uning taxallusi hisoblanadi. Shoir bolaligi tarixiy-madaniy inqilob davrlariga to'g'ri kelganligi sabab, davr talabidan kelib chiqqan holda uydagilari yosh adibga uydan tashqariga chiqqanida bo'lar-bo'lmas gaplarni aytishni man etgan holfa faqat og'zingni yum, tilingni tiy, jim yur degan gaplarni ko'p marotaba uqtirishgan, shu sabab ham adib ota-onasidan esdalik, o'sha davrdan yodgorlik ma'nosida “莫言” “Sukut saqla” nomini o'ziga taxallus sifatida tanlagan.

Mazkur romanda bolalarga aynan mana shunday g'alati ismlar qo'yilishi haqida ham jumlar keltirilgan.

“先生，我们那地方曾有一个古老的风气生下孩子好以身体部位和人体器官命名。譬如陈鼻，赵眼，吴大肠，孙肩。这风气因何而生，我没有研究，大约是那种以为，“贱名者长生”的心理使然。或者是母亲认为孩子是自己升上一块肉的心理演变……” [1,6]

Mo Yanning “蛙”-“Qurbaqa” romani 2012-yilda xitoy tilidan rus tiliga xitoyshunos, tarjimashunos adibi Igor Yegorov Aleksandrovich tomonidan tarjima qilingan. Shu jumlani rus tilidagi tarjimasiga qaraymiz. “В наших краях, сенсей, издавна повелось нарекать ребенка при рождении какой-нибудь частью тела или органом. Например, Чэнь Би (Нос), Чжао Янь (Глаз), У Дачан (Толстая Кишка), Сунь Цзянь (Плечо)... Отчего так повелось, я не разобрался, наверное, склад ума такой, когда считают, что чем дряннее имя, тем дольше жизнь, или матери так головой подвигаются, что, мол, ребенок – кусочек плоти ее...”. [2,8]

“...Bizning tomonlarda, sensey, qadimdan yangi tug'ilgan chaqaloqlarga tana a'zosi yoki ichki organlar nomi bilan atash mavjud bo'lgan. Misol uchun, Chen Bi 陈鼻 (burun), Jao Yen 赵眼 (Ko'z), Vu Dachan 午大肠 (Ichak), Sun Dyen 孙肩 (yelka) va boshqalar. Nega bunday ekanligini aniq aytolmayman, o'zim ham tushunmayman, aytishlaricha, ism qanchalik xunuk bo'lsa, bolaning umri shunchalik uzoqroq bo'ladi yoki onalar farzand ularning bir bo'lagi bo'lganligi, yuragining tagidan chiqayotganligi uchun shunaqa ismlar qo'yilishiga rozi bo'lishgan, ehtimol. Hozirgi kunda yosh ota-onalar farzandlarini bunday

g'alati ismlar bilan chaqirishni xohlamaydilar. Bugungi kunda biz ko'pincha Gankong, Tayvan va Janubiy Koreya teleseriallaridagi mashhur va yorqin qahramonlar nomlarni tanlaymiz.”

Mo Yanning “Qurbaqa” romanida personajlarning quyidagicha g'ayritabiiy ismlarini uchratish mumkin:

陈鼻 Burun
赵眼 Ko'z
大肠 Ichak
孙肩 Yelka
陈耳 Quloq
陈眉 Qosh
万脚 Oyoq
万肝 Jigar
万胆 O't pufagi
员腮 Yonoq
员脸 Yuz
小下唇 Pastki lab
小上唇 Yuqorigi lab
李手 Qo'l
陈额 Peshana
禄牙 Tish
杜脖子 Bo'yin
万口 Og'iz
万足 Oyoq

Asar qahramonlari tug'ilganlarida qo'yilgan ismlarini yoshlari katta bo'lgandan keyin ko'p hollarda o'zgartirishgan holatlariga ham duch kelamiz. Bu haqida ham aynan asarda hikoyachi tomonidan shunday deyiladi: “...Bir vaqtlar tana a'zosi bilan atalgan bolalar, keyinchalik boshqacha jarangdor ismlar bilan ismlarini o'zgartirishgan, ba'zilar esa o'sha nomlar bilan qolishgan, masalan, Chen Ar 陈耳(Quloq), Chen Mey 陈眉(Qosh).....”

Asarda hikoya qilinayotgan vaqtda ham ba'zi bunday ismlar qo'yilishiga qarshi yokida farzandini bunday deb atashni o'ziga eb ko'rmaydigan personajlarga ham duch kelamiz. Misol uchun mana bu misralarga e'tibor beramiz: 伙夫老王涛这两汤水遥遥摆摆得走过来。他的女儿王仁美

也是我们的同学，后来成为我的妻子。他是当时少有的没有器官命名的孩子，因为伙夫老王是个有文化的人...” [1,8]

Mana shu jummalarning Igor Yegorov tomonidan qilingan tarjimasiga qaraumiz: “Мимо, с двумя ведрами воды враскачку, проходил повар, почтенный Ван. Его дочь Ван Жэньмэй тоже училась вместе с нами, а впоследствии стала моей женой. Ее – большая редкость в то время – не называли какой-нибудь частью организма, потому что повар Ван – человек образованный...” [2,11]

Mana shu jummalarni o'zbek tiliga tarjima qilamiz: “...Ikki chelak suvni ko'targan holda oshpaz-hurmatli Van yurib keldi. Uning qizi Van Jenmey ham biz bilan birga bitta sinfdagi o'qigan, keyinchalik esa aynan u mening rafiqam bo'lgan. O'sha davrda uning boshqalardan yagona farqi shunda ediki, uni qaysidir tana a'zosi nomi bilan hech kim chaqirmas edi, chunki oshpaz Van ilmi odam edi.... ”. Guvohi bo'lishimiz mumkinki, o'sha davrda ham bolalarga bunday ism qo'yish xunuk holat ekanligini ko'pchilik ziyoli qatlam bilgan va farzandlariga bunday ismlarni qo'yishdan bosh tortishgan.

Asar bosh qahramoni, hikoyachi xolasi hisoblangan Van Sin doyaning ham yoshlikdagi ismi Duan Yen (眼-ko'z) bo'lib, keyinchalik Van Singa o'zgartirgani ham o'qimishli qishloq doyasining ilmidan, ziyoli ekanligidan dalolat beradi. Asarda ba'zi personajlarning ismini o'zgartirishiga undan uyalishi emas balki ba'zi bir voqealar sabab o'zgartirganligining ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Asarda Syao Shanchun (上唇 ustki lab) ismli qahramon partiyaning don saqlanadigan omboriga qarovchi bo'lib ishlaydi, ombordagi kalamushlarga qarshi vosita o'ylab topganligi uchun uni gazetaga maqtab yozib chiqishadi va o'zini mashhur sanab ismini Shanchun (纯-toza)ga o'zgartiradi. (Oldingi ismidagi chun 唇-lab ma'nosini bildirar edi).

Bu haqida asarda shunday deyiladi: “县政协编的文史资料上也是这样说的。但也有人私下里说大爷爷腰里缠着八颗手榴弹，骑着骡子，一人独闯平度城，想以孤胆英雄的方式去营救妻子。女儿与老母，但不幸误踩了赵家沟民兵的连环累雷。传播这消息的人姓肖名上唇，曾在西海医院当过但架员。此人阴阳怪气，解放后在社粮库当保官员，曾因发明了一种特效灭鼠药而名噪一时，名字中的“唇”字，见报时也改为“纯”字。后来被揭露，他的特效鼠药的主要成份是国家已经严禁使用的剧毒农药。..... ” [1,15]

Aynan mana shu jummalarni rus tiliga tarjimasini ko'ramiz: “Такую же версию можно найти в исторических материалах, выпущенных

уездным Народным политическим консультативным советом. Но некоторые по секрету рассказывают, что с восемью гранатами за поясом прадед верхом на муле в одиночку отправился в Пинду, чтобы, подобно герою-одиночке, спасти жену, дочь и мать. Но, к несчастью, он попал на минное поле, устроенное ополченцами Чжаоцзягоу. Распространял эти сведения человек по имени Сяо Шанчунь (Верхняя губа), который служил в Сихайском госпитале носильщиком. Человек этот был со странностями, после Освобождения работал кладовщиком на зерновом складе коммуны, придумал некое очень действенное средство против крыс, а когда об этом написали в газете, срочно изменил в своем имени «чунь» – «губа» на «чунь» – «чистый». Впоследствии выяснилось, что это его действенное средство в основном состояло из уже запрещенного к применению высокотоксичного пестицида...” [2,21]

Hikoyachining o'zining ismi ham yoshlikda boshqacha, ulg'ayganidan keyin boshqacha ism va laqabi ham bo'lgan. Bu haqida romanda shunday jumlar mavjud: “我的名字也是姑姑起的：学名万足，乳名小跑。对不起，先生，我对您解释一下，万足是我的原名，蝌蚪是我的笔名……” [1,18] Aynan shu jumlaning rus tilidagi tarjimasiga qaraymiz, “Мои имена тоже она предложила: школьное – Вань Цзу (Нога) и детское – Сяо Пао. Извините, сенсей, должен объяснить, что мое настоящее имя – Вань Цзу. Кэдоу – мой псевдоним.” [2,31]

Mo Yanning “Qurbaqa” romanini mutolaa qilib, shunga guvoh bo'lishimiz mumkinki, XX asrning birinchi yarmi Xitoyda murojaat ismlariga bo'lgan munosabat anchayin past, chunki tug'ilgan farzandlariga ota-onalari tomonidan tana a'zolarining ism sifatida qo'yilishi bu o'sha xalq madaniyatining rivojlanmaganligidan, yokida, o'sha jamiyatda ziyoli qatlam, bilimli insonlarning kamligidan dalolat beradi. Romanni mutolaa qilib bilamizki, romanda aks ettirilgan yillarda ham ziyoli oila vakillari farzandlariga bunaqa tana qismlarini atab qo'yish odatiga qarshi chiqishgan va keyinchalik bu qilingan xatoni, ya'ni noto'g'ri ism qo'yilish holatini tuzatishga harakat qilishgan. Farzandlari balog'atga yetgandan keyin ularga boshqacha chiroyliroq ism qo'yishgan yoki ismi tana a'zosi bilan atalgan odamning o'zi ismini o'zgartirishga kirishgan. Bu demakki, o'sha yillardan boshlab farzandlariga ism qo'yishga e'tibor berila

boshlangan. Zero, farzandga chiroyli ism qo'yish har biro ota-ona oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. 莫言“蛙”，北京 2009
2. Мо Янь “Лягушки”，Igor Yegorov tarjiması, Москва 2020
3. Musurmonov E.R. “Nobel mukofoti laureati Mo Yan, yoxud ertak va haqiqat qorishgan adabiyotning muvaffaqiyatli bo'lishi xususida”，ilmiy maqola, 2016.
4. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
5. Shamsieva, B. (2022). The term of transfer in the field translation studies. In развитие науки, технологий, образования в ххi веке: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 99-102).
6. Fatxutdinova, I. A. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 140-149.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDaan IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

INTERNET DISKURSDAGI NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460863>

Shoxida IRGASHEVA,

Toshkent moliya instituti,

Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston.

Tel.: +998909657295; E-mail: azizshahzoda82@gmail.com

Аннотация: *Статья посвящена определению особенностей и направленности перевода английских неологизмов в интернет дискурсе. В статье проясняется роль лексики, анализируются особенности создания неологизмов, выделяются основные способы их передачи на узбекский язык, определяются наиболее частотные переводческие трансформации, использованные при их передаче на узбекский язык.*

Ключевые слова: *неологизмы, дискурс, трансформация, транслитерация, калькирование.*

Abstract: *The article is devoted to determining the features and direction of the translation of English neologisms in the Internet discourse. The article clarifies the role of vocabulary, analyzes the features of the creation of neologisms, highlights the main ways of their transfer to the Uzbek language, determines the most frequent translation transformations used in their transfer to the Uzbek language.*

Keywords: *neologisms, discourse, transformation, transliteration, calque.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Internet diskursidagi ingliz neologizmlar tarjimasining xususiyatlari va yo'nalishini aniqlashga bag'ishlangan. Maqolada lug'atlarda neologizmlarning o'rni aniqlanib, neologizmlarning yaratilish xususiyatlari tahlil qilingan, ularni o'zbek tiliga o'tkazishning asosiy yo'llari yoritilgan bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilishda eng ko'p qo'llaniladigan tarjima transformatsiyalari aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *neologizmlar, diskurs, transformasiya, transliteratsiya, kal'kalash.*

Buyuk tilshunos va tarjimon L.S. Barxudarovning “tarjima”ga taklif qilgan ta’rifidan boshlasak: “Tarjima – bir tildagi nutqiy asarning mazmun rejasini, ya’ni ma’nosini o’zgarmagan holda boshqa tildagi nutqiy asarga aylantirish jarayoni hisoblanadi”[2,6]. L.S. Barxudarov tarjima jarayoni haqida gapirar ekan, “jarayon” atamasi sof lingvistik ma’noda, tarjima bilan

bogʻliq holda, yaʼni matnning bir tildan ikkinchi tilga oʻzgarishi yoki tillararo oʻzgarishi sifatida talqin qilinishini tushuntiradi.

Tarjima, ayniqsa, madaniy masalalarni hal qilishda tarjima nazariyasini qoʻllashni tavsiflash uchun turli xil tadqiqot sohalari bilan bogʻliq. Asl matnlarning madaniy jihatlarini tushunish, matnning asosiy xabarini tushunish va bunday xabarni samarali yetkazish turli madaniyatlar oʻrtasidagi tafovutlarni bartaraf etish uchun zarur hisoblanadi. Shu maʼnoda tarjima sintaktik, semantik strategiyalar hamda ijtimoiy yondashuvlarni qoʻllashda turli madaniyatlarni yetkazishni talab qiluvchi real hayot amaliyotiga asoslanadi.

Tilning ijtimoiylashuvi odatda sosializasiya sifatida tushuniladi, bu orqali til ijtimoiy jihatdan tegishli usullarda qoʻllaniladi. Shu sababli, ijtimoiy koʻnikmalarga eʼtibor qaratilib, tarjimonlar turli xil matnlardagi turli madaniyatlarni tushunish uchun oʻzlarining ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishlari kerak. Tarjima birligi matnning soʻz va jumlar boʻyicha tili boʻlibgina qolmay, balki shu matnning rivojlangan madaniyati ham hisoblanadi. Matn madaniyatini tushunish tarjima vazifasini oʻz ichiga olgan xabarni kodlashtirish jarayonlarini oʻrganishni talab qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va texnikaning jadal, uzluksiz rivojlanishi tufayli ingliz tilida yangi soʻzlar va yangi ob'ektlar, atamalar, hodisalar va tushunchalarni bildiruvchi soʻz birikmalarining paydo boʻlishida ifodalangan oʻzgarishlar roʻy berdi. Internet diskursi alohida eʼtiborga loyiq boʻlgan neologizmlarning boy manbasiga aylandi, chunki ularni talqin qilish koʻpincha katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va kengroq oʻrganishni talab qiladi.

Tarjima jarayonini turli yoʻllar bilan tasvirlash mumkin va ulardan eng yorqini tarjima jarayonini lingvistik transformasiyalar yordamida yetkazish hisoblanadi. Keling, tarjima transformasiyalarining tasniflarini batafsil koʻrib chiqaylik. V.V.Alimov tarjima transformasiyalarining quyidagi taʼrifini shakllantirdi: “Tarjima transformasiyalari tarjimon faoliyatining prosessual tomoniga taalluqli boʻlib, chunki ular birinchi navbatda tarjimon tarjima jarayonida bajaradigan matnni oʻzgartirish operatsiyalari deb izohladi”[1, 16].

Neologiya fanining rivojlanishi bilan ularning leksikografik tavsifi va tarjima xususiyatlariga alohida eʼtibor berilmoqda. Tarjima nazariyasi bilan

shugʻullanadigan tilshunoslarning qiziqishi yangi lugʻatni soʻzlashuv nutqida, ommaviy axborot vositalari matnlarida va badiiy asarlar sahifalarida tez-tez uchrab turishi munosabati bilan boshqa til orqali oʻtkazish muammosi bilan bogʻliq [11, 154].

Neologizmlarni tarjima qilish muammosining global tahlilini oʻtkazishga harakat qilindi. Bu sohada katta muvaffaqiyatlarga V.G.Gak, V.V.Ganin, L.S.Barxudarov, V.N.Komissarov, A.D.Shvayser, M.Ya.Zvilling, L.L.Nelyubinlar erishdilar. Biroq leksik birliklarni yasashning yangi modellarining paydo boʻlishi, ularni tez surʻatda yaratilishi va tarqatilishida yangi soʻzlarni tarjima qilish muammolari yuzasidan kelgusidagi tadqiqotlarni olib borish zaruratini tugʻdirmoqda. Neologizmlarni tarjima qilish tarjimonlar duch keladigan eng qiyin muammolardan biri hisoblanadi. Koʻrinib turibdiki, ingliz tili lugʻatlari har yili lugʻat boyligimizni oʻn minglab yangi soʻzlar bilan toʻldiruvchi barcha yangi soʻzlar, iboralar va okkazonal soʻzlarni darhol roʻyxatdan oʻtkaza olmaydi. Natijada, tarjimon kontekstga tayanishi va neologizmlarning maʼnosini oʻrganilayotgan tilga yetkazishga harakat qilishi va ularni boshqa, unchalik ishonchli boʻlmagan manbalardan, jumladan, onlayn lugʻatlardan qidirmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, tarjimonlar oʻzlari yangi soʻzlarni ixtiro qilishlari, baʼzi soʻz yasash qoidalariga rioya qilishlari yoki ingliz neologizmlarini tavsiflovchi usul yordamida tushuntirishlari kerak.

V.S.Vinogradov neologizmlarni tarjima qilishda quyidagi usullardan foydalanishni taklif qiladi: 1) transkripsiya; 2) gipo-giperonimik tarjima (umumiy almashtirish); 3) assimilyasiya qilish; 4) perifrastik (tavsifiy) tarjima; 5) kalʼkalash [4, 119].

L.L. Nelyubin ekvivalent boʻlmagan lugʻatni tarjima qilishning quyidagi 5 usulini aniqlaydi:

- 1) transliteratsiya yoki transkripsiya;
- 2) kalʼkalash;
- 3) leksik-semantik almashtirish (modulyasiya qilish);
- 4) adekvat almashtirish (antonim tarjima, kompensasiya);
- 5) tarjima sharhi [5, 97].

Neologizmlarni tarjima qilishning umumiy usullari haqida gapirganda, biz V.N. Komissarov tomonidan taklif qilingan tasnifga amal qilamiz va u quyidagi usullarini aniqlaydi:

1) Transkripsiya - aslyatning leksik birligini ko'zda tutilgan til harflari yordamida uning tovush shaklini qayta yaratish orqali tarjima qilish usuli;

2) Transliteratsiya – aslyatning lug'aviy birligini o'rganilayotgan til harflari yordamida uning grafik shaklini qayta yaratish yo'li bilan tarjima qilish usuli;

3) Kal'kalash - aslyatdagi leksik birlikni uning tarkibiy qismlari-morfema yoki so'zlarni (turg'un so'z birikmalarida) TT (tarjima tili) dagi leksik muvofiqlari bilan almashtirish orqali tarjima qilish usuli;

4) Eksplikasiya yoki tavsifiy tarjima - leksik-grammatik transformasiya, bunda ChT(chet tili)ning leksik birligi uning ma'nosini tushuntiruvchi ibora bilan almashtiriladi, ya'ni bu ma'noni TTda ko'p yoki kam tarzda to'liq tushuntirish yoki ta'rif berish usuli [6, 115].

Leksik neologizmlarni tarjima qilishda dastlabki uchta usul yaxshi deb hisoblaymiz, ayniqsa, affiksasiya yo'li bilan yasalgan neologizmlar uchun, chunki ular allaqachon mavjud so'zlardan tuzilgan bo'ladi. U yoki bu affiks ularga faqat ma'lum bir tus beradi. D. Karnedi fikriga ko'ra, ko'pincha eksplikasiya yoki tavsifiy tarjima neologizmni bir tildan boshqa tilga o'tkazishdagi yagona mumkin bo'lgan usul deb hisoblaydi[7, 78].

Ya.A. Olefirning yozishicha, tarjimon ba'zan affiksasiya yo'li bilan yasalgan neologizmlarni tarjima qilganda, agar bu butun matn mavzusiga zid bo'lmasa, u yoki bu affiksni to'liq transkripsiya orqali tarjima qilishi mumkin deb aytadi [8, 23].

N.V Chigina, transkripsiya va transliteratsiya har doim o'zaro bog'liq deb hisoblaydi[10, 68]. Transliteratsiya elementlari ma'lum bir leksik birlikni transkripsiya qilishda ham o'zini his qiladi, bu quyidagida ifodalangan:

- talaffuz qilinmaydigan tovushlarni transliteratsiya qilish
- qisqartirilgan unilarning transliteratsiyasi
- qo'sh undoshlarning uzatilishi
- talaffuzning bir nechta variantlari mavjud bo'lsa, grafikaga eng yaqin variantni tanlash[10, 88].

Ya.A.Olefir, shuningdek, transkripsiya va transliteratsiya kabi tarjima usullari har doim ham maqbul emas, deb hisoblaydi, bu neologizmlarning ichki tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. “Axir, ko‘p komponentli leksik birliklar ba‘zan so‘z o‘yinlari asosida quriladi”[8, 23].

N.I.Vaxniskayaning fikriga ko‘ra, kal'kalash nafaqat neologizmni tarjima qilish usuli, balki so‘z shakllanishi usuli sifatida ham ko‘rib chiqilishi mumkinligini aytadi. U yana o‘zlashtirma so‘zlarning ikki turi mavjudligini: tashqi va ichki, ya’ni kal'kalash. “Shu bilan birga, neologizmlarning aksariyati qo‘shimcha va affiksasiya yo‘li bilan shakllanganligini hisobga olgan holda, tarjimon ko‘pincha yarim kal’kalarga murojaat qilishi odatiy hol emas”ligini ta’kidlaydi [3, 131].

Qabul qilingan neologizmlarni aniq va to‘g‘ri yetkazish uchun manba til lug‘atiga murojaat qilishingiz kerakligini taxmin qilish qiyin emas. Tasviriy tarjima ikkala holatda ham qo‘llanilishi mumkin.

E.Yu.Chibisova tavsiflovchi ekvivalentlarning ikki turini ajratishni taklif qiladi: neologizm tarkibiy qismlarining ma’nosini tushuntirishni nazarda tutuvchi tushuntirish ekvivalenti va tarjima tilida mavjud bo‘lgan so‘zning tavsiflovchi ekvivalenti sifatida foydalanishni o‘z ichiga olgan almashtirish ekvivalenti, uning ma’nosi to‘liq yoki qisman neologizmning ma’nosiga mos keladi[9, 126].

Eng qizig‘i shundaki, semantik neologizmlar ham xuddi leksik kabi o‘rganilayotgan tilning lug‘atini to‘ldirishga hissa qo‘shadi. Qoida tariqasida, bu ko‘p komponentli birliklar hisoblanadi. Ammo, ular tanish bo‘lib tuyulgan so‘zlardan iborat bo‘lishiga qaramay, ularni tarjima qilish uchun siz kontekstga sho‘ng‘ishingiz kerak. Shunday qilib, ko‘p hollarda rasmiy transformasiyalar leksik neologizmlarga taalluqli bo‘lib, ma’noga ta’sir etuvchi transformasiyalar esa semantik leksik birliklarni tarjima qilishda samarali bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Internet diskursdagi ingliz neologizmlarini tarjima qilish usullarini tahlil qilib, zamonaviy ingliz tilida yangi shakllanishlar o‘z aksini topmoqda va neologizmlar boshqa so‘zlar bilan almashtirilib, inson nutqiga tez ravishda kirib bormoqda, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Алимов, В.В. Теория перевода. Перевод в сфере профессиональной коммуникации [Текст] : учеб.пособие / В.В. Алимов. – 3-е изд.,стер. – М.: Едиториал УРСС, 2011. – 160 с
2. Бархударов, Л.С. Язык и перевод [Текст] / Л.С. Бархударов. – М.: «Междунар. отношения», 2009. – 240 с.
3. Вахницкая, Н.И. О роли калькирования при создании неологизмов в современном языке [Текст]/ Н. И. Вахницкая// Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. – 2012. – № 3 – С. 130-139
4. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). М.: Изд-во ин-та общего среднего образования РАО, 2001. 224 с.
5. Нелюбин Л.Л. Введение в технику перевода (когнитивный теоретико-прагматический аспект). М.: Изд-во Флинта: Наука, 2009. 216 с.
6. Комиссаров, В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты) [Текст]/ В.Н. Комиссаров. – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
7. Karnedi, D. The Translation of Neologisms: Challenges for the Creation of New Terms in Indonesian Using a Corpus-based Approach [Электронный ресурс]/ D. Karnedi. – URL: <http://www.ijser.org/paper/The-Translation-of-Neologisms-Challenges-for-the-Creation-of-New-Terms.html>
8. Олефир, Я.А. О переводе неологизмов и окказионализмов на русский язык (на материале телесериалов производства США) [Электронный ресурс]/ Я.А. Олефир. – URL: http://www.rusnauka.com/16_ADEN_2011/Philologia/6_88728.doc.htm
9. Чибисова, Е.Ю. Проблема перевода экономических неологизмов с английского языка на русский [Электронный ресурс]/ Е.Ю. Чибисова. – URL : www.gramota.net/materials/1/2010/11-1/62.html
10. Чигина, Н.В. Перевод неологизмов в английских экономических текстах [Электронный ресурс]/ Е.Г. Бухвалова, Н.В. Чигина. – URL : http://www.rusnauka.com/29_DWS_2011/Philologia/6_94519.doc.htm
11. Шубин В.В. Способы и средства передачи неологизмов постсоветского периода при переводе с русского на немецкий: дис. ... канд. филол. наук. М.: МГЛУ, 2006. 207 с.
12. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
13. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
14. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.

-
15. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
16. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

XITOIY OG‘ZAKI NUTQIDA NOROZICHILIK VA HAQORAT UCHUN FOYDALANILADIGAN TURG‘UN BIRLIKLAR VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460875>

Dilshod BADALBAEV,
TDSHU stajor-o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +99890 929 39 40;
E-mail: dilixiade@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bevosita xitoy og‘zaki tilida norozichilik va haqorat uchun ishlatiladigan birikmalar bilan yaqindan tanishib o‘tamiz. Ushbu maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad og‘zaki nutqda ularning ishlatish usullarini o‘rganishdir. Zero, bu orqali dialoglarda uchragan birikmalarni to‘g‘ri tarjima qilishni o‘rganamiz.*

Kalit so‘zlar: *birikma, konstruksiya, nutq, norozichilik, haqorat*

Аннотация: *В этой статье мы подробно рассмотрим составы, используемые для выражения протеста и оскорбления непосредственно в китайском языке. Основной целью данной статьи является изучение способов их употребления в устной речи. Ведь через это мы учимся правильно переводить сочетания, встречающиеся в диалогах.*

Ключевые слова: *соединение, строительство, речь, протест, оскорбление*

Abstract: *In this article, we will take a closer look at the compounds used for protest and insult directly in the Chinese language. The main goal of this article is to study the methods of their use in oral speech. After all, through this, we learn to correctly translate the combinations encountered in dialogues.*

Keywords: *compound, construction, speech, protest, insult*

Asosiy qism. Ma’lum bir sodda gap ko‘rinishidan tushunarli bo‘ladi-yu, lekin asl ma’nosini chiqarish biroz mushkul sanaladi. Bunday gaplarni, albatta, kerakli kitoblar yordamida tahlil qilgan holda anglab olamiz. Masalan, ma’lum bir gapni yoki dalilni tasdiqlab, odamlar shunga ahamiyat berishlari kerakligini bildirish uchun “你还别说” (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi: “sen gapirma”) iborasini ishlatishadi. Xitoy tilini o‘rganuvchi esa bu gapni eshitib ajablanishi tabiiy, albatta, va u ichida “men nima dedim, nima uchun gapirmasligim kerak” deb o‘ylaydi. Qarshi tomonning

xatti-harakati bizga ma'qul kelmaganda, ularni haqoratlashamiz, norozichilikni ifoda etishimiz mumkin. Ana shu birikmalar xitoy tilida qanday beriladi, ularning o'ziga xos qanday xususiyatlari mavjud. Bularning barini quyida ko'rib chiqamiz. [3,346.]

不像话 bú xiàng huà. *Izoh:* 表示某种言语行动时是不合理的。

Ma'lum bir ish-harakat mos kelmasligini bildiradi. “Bo‘lmagan gap” deb tarjima qilsa bo‘ladi. *Eslatma:* 有批评或不满的语气。

Tanqid yoki norozilik ma'nosida keladi. *Misollar:*

(1)这家五个儿女，谁都不想赡养老人，真不像话！

(2)这个人撞了人，不下来看看，开车就跑，太不像话了！ [7,123.]

不要紧 bú yào jǐn

Izoh: 表示情况不严重，可以应付。

Holatning unchalik jiddiy emasligini ko'rsatadi. “Vahima qilishning hojati yo‘q”, “shoshilma” deb tarjima qilinadi. *Misollar:*

(1)甲：大夫，你看这孩子的病严重吗？

乙：不要紧，只是普通的感冒，吃了药就会好的。

(2)甲：请这么多客人，我一个人可忙不过来。

乙：这不要紧，咱们可以打电话，让饭馆儿送几个菜来。 [7,56.]

得了 dé le. *Izoh:* 1) 用来中止别人的某一言行。2) 表示事情有了结果，或问题得到了解决。

1) Qarshi tomonning gapi yoki harakatini to'xtatishda foydalaniladi. 2) Ishning natijasi allaqachon chiqqanligini yoki muammo yechilganligini bildiradi. *Misollar:*

(1)得了，别磨蹭了，赶快走吧。

(2)甲：我得去问问他到底是什么意思。

乙：得了得了，别问了，你问不出结果来。

(3)甲：我饿了，饭什么时候好哇？

乙：已经得了，拿筷子去吧。

(4)甲：我是不是应该去把这个消息告诉他？

乙：不用去，打个电话不就得了？ [7,93.]

都怪…… dōu guài……

Izoh: 表示某种糟糕情况或后果完全是某人的责任。

Ma'lum bir yomon holatni yoki ishni yakunlagandan keyin butun aybni birovga qo'yishni ko'rsatadi. “Jin ursin……(hammasi ... tufayli, hammasi ... ayb tufayli)” deb tarjima qilinadadi. *Misollar:*

(1)甲：你昨天上班迟到了吧？

乙：都怪你，不早点叫醒我。

(2)啊？你在东门呢？对不起，都怪我，我忘了告诉你在西门集合。

(3)这事都怪那个开车的，红灯亮了还往前闯。

(4)都怪你起晚了，要不，上午就能把作业写完了。[7,135.]

都什么年代了 **dōu shénme niándài le**

Izoh: 强调对方的思想或行为落伍。

Qarshi tomonning fikri yoki harakati zamondan ortda qolganligini bildiradi. “Qaysi zamonda yashayapsan o‘zi”, “qanday zamonlarga qoldik”, “zamondan ortda qolibsan” deb tarjima qilinadi. *Eslatma:* 有抱怨或不满的语气。

Nafratlanish yoki qoniqmaslik ma’nosida keladi. *Misollar:*

(1)都什么年代了，你怎么还想一家三代住一块儿啊。

(2)甲：你是男人，不应该进厨房，那会被人看不起的。

乙：都什么年代了，你的思想还这么保守。[6,98.]

都什么时候了 **dōu shénme shíhòu le**

Izoh: 表示已经不能在耽搁。

Biror-bir ishni yana ham kechiktirib bo‘lmasligini bildiradi. “Allaqachon bo‘ldi-yu” deb tarjima qilamiz. *Eslatma:* 有批评和抱怨的语气。

Tanqid yoki nafrat ma’nosida keladi. *Misollar:*

(1)都什么时候了，你还不起床！

(2)甲：我想这件事还是应该再好好研究研究。

乙：都什么时候了，你还在这儿说这些没用的话！

(3)甲：再等一会儿，饭还没好。

乙：你看看现在都什么时候了，这顿午饭都快成晚饭了。[6,79.]

都是…… **dōu shì……** *Izoh:* 强调责任在于某人。

Biror-bir kimsaning zimmasidagi mas’uliyatiga urg‘u beradi yoki o‘sha ish kimningdir deb amalga oshganligini ko‘rsatadi. “Hammasi……deb bo‘ldi” deb tarjima qilamiz. *Eslatma:*

1) 相当于“都是……的责任”。 2) 多用于第二人称和第三人称。 3) 有抱怨的语气。

1) Odatda “都是……的责任” ko‘rinishida keladi. 2) Ko‘proq ikkinchi va uchinchi shaxslarni ko‘rsatadi. 3) Nafrat ma’nosiga ega.

Misollar: 甲：我听说这种大衣降价了。

乙：都是你，当初非要我马上买。真不该听你的。

(1)甲：你怎么买这种“垃圾股”？别人往买抛都来不及呢。

乙：都是我爱人，他说这种股票看涨。[7,189.]

多管闲事 **duō guǎn xián shì.** *Izoh:* 指责某人不该管责任以外的事。

Biror bir kimsaga mas’uliyatidan boshqa ishlarga aralashmaslikka undash ma’nosini anglatadi. “Har qanday ishga aralashaverish”, “keraksiz ishlar bilan mashg’ul bo’lmoq” deb tarjima qilinadi

Eslatma: 有责怪的语气。

Ayblash ma’nosida keladi. *Misollar:*

(1)我们部门的事由我们部门责任，用你来说三道四吗？**多管闲事！**

(2)甲：这事我觉得太公平了，我的去说说。

乙：你就别**多管闲事**，有领导呢。[6,76.]

该死 **gāisǐ.** *Izoh:* 表示对某人的言行或对某种事物感到气愤或厌恶，或对自己的失误表示自责。

Ma’lum bir odamning xatti-harakati yoki biror predmetga nisbatan jahli chiqishlikni yoki o‘zining aybini tan olib, o‘zini koyishni bildiradi.

Eslatma:

1) 有时可以说成“该死的”，但一般不用于自责。2) 有埋怨或咒骂的语气。3) 女性使用时，有时用于关系亲密的人，带有娇嗔的语气。

1) Ba’zi hollarda “该死的” ko‘rinishida ham keladi. Bu holatda kelganda, o‘zini ko‘yishni bildirmaydi. 2) Norozilik va haqoratlash ma’nosiga ega. 3) Ayollar tomonidan ishlatilganda, ba’zi vaqtda yaqin odamini “chiroyli” koyishini bildiradi. *Misollar:*

(1)真**该死**！你怎么又把我的车撞坏了！

(2)甲：我要的书你给我带来了吗？

乙：哎呀，我忘了。**该死，该死。**

(3)**该死的**！这破电脑又死机了！[7,93.]

给……点儿颜色看看 **gěi……diǎnr yánsè kànkàn**

Izoh: 表示要对某人进行严厉的惩戒。

Ma’lum bir odamga nisbatan jiddiy tanbex (jazo) olib borishni bildiradi. “...ga ko‘rsatib qo‘ymoq” deb tarjima qilinadi. *Misollar:*

(1)他一点儿也不把我放在眼里，我非**给他点儿颜色看看**，让他知道我可不是好惹的！

(2)甲：为什么你扣发我们这个月的奖金？

乙：你们看看，这就是你们干的活儿！再不**给你们点儿颜色看看**，咱们公司就要毁在你们手上了！

够……的了 **gòu……de le.** *Izoh:*

表示已经达到某种程度或要求，不能太过分了。

Allaqachon ma’lum bir darajaga chiqib bo’lganligini bildirib, undan ortig’iga bardosh berolmaslikni ko’rsatadi. “O’zi yetarlicha bo’ldi”, “bo’larimcha bo’ldim” deb tarjima qilinadi. *Eslatma:*

“的”有时可以省略。

“的” ba’zi hollarda tushib qolishi ham mumkin. *Misollar:*

(1)这房子**够**便宜的了，就别挑三拣四，买了吧。

(2)他已经**够**害怕的了，你怎么还吓唬他。

(3)我只批评了他几句，没有开除他，**够**给他面子的了。

(4)甲：你侄子说你对他结婚的事不上心。

乙：我不上心？我钱也给了，东西也买了，**够**对得起他的了。 [7,209.]

够可以的 gòu kěyǐ de. *Izoh:* 表示对某人达到很高的地位或取得很大成就得赞赏。有时用作反话，表示某人的行为糟糕到极点。

Qarshi tomonning erishgan darajali yutug’ini yoki muvaffaqiyatini e’tirof etishni yoki aksincha, qanchalik yomon ishlarga tubanlashganini aytishni bildiradi. *Eslatma:* 表示赞赏时，有惊奇的语气；用作反话的时候，有埋怨和斥责的语气。

Maqtayotgan paytda ajablanish, aksincha bo’lganda esa koyish ma’nosida keladi. *Misollar:*

(1)甲：这是我的名片，上面有我的电话。

乙：哟，几年不见，都当局长了，**够**可以的呀！

(2)甲：昨天事情实在太多，我把咱们一块儿吃饭的事给忘了，真抱歉。

乙：我昨天等了你一个多小时哪！你真**够**可以的！

(3) 他们公司真**够**可以的！这种不讲信用的事不是一次两次了！ [7,153.]

够了 gòule. *Izoh:* 表示不能忍受对方的言行。

Qarshi tomonning gaplariga ortiq chidab tura olmaslikni bildiradi. “Yetar, bas” deb tarjima qilamiz. *Eslatma:* 有不耐烦的语气。

Sabr kosasi to’lganlik ma’nosiga ega. *Misollar:*

(1)甲：记着，爬山的时候注意安全，千万别一个人乱跑，别乱吃东西，别着凉……

乙：**够了**！这点儿事你都说了八遍了。

(2) **够了**，你们打算吵到什么时候！

滚 gǔn. *Izoh:* 让某人走开或离开。

Qarshi tomonni haydashni, ya’ni ketishi kerakligini bildiradi. “Ahmoq, yo’qol”, “tentak” deb tarjima qilinadi. *Eslatma:* 由于骂人。

Haqoratlashda qo’llaniladi. *Misollar:*

(1)滚（吧）！我再也不想见到你了！

(2)你敢偷家里的钱去赌博，我没有你这样的儿子，你给我滚！

真是 zhēnshì

Izoh: 感叹语，对某种情况的发生或某人的说法、做法表示不满。

Ma'lum bir holatning sodir bo'lishidan qoniqmaslikni bildiradi.

Eslatma: 1) 有时也可以说“真是的”。2) 有抱怨的语气。

1) Ba'zida “真是的” ko'rinishida keladi. 2) Norozi bo'lish ohangida keladi. *Misollar:*

(1)想去商店，自行车又坏了，真是！

(2)真是的！他说下午来，可到现在还没来！ [7,84.]

XULOSA. Yuqorida biz xitoy og'zaki nutqida ishlatiladigan bir qancha birikmalarni ko'rib chiqdik. Bu birikmalar asosan, qarshi tomonning nutqi ma'qul kelmaganda ishlatiladi. Norozichilik hamda haqorat ohangiga egadir. Bunday birikmalarni iyeroglifma-iyeroglif tarjima qiladigan bo'lsak, asl ma'noni chiqara olmaymiz. Birikmalar bir bo'lganda, umumiy ma'noni berishini hamda tarjimalarini ko'rib chiqishga muaffaq bo'ldik.

REFERENCES

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2013.
2. Hojiev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
3. Sultanova L.A. Xitoy tili leksikologiya. – Toshkent, 2015. – 102-bet.
4. Hamidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, 4(4), 100-112.
5. Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – Москва: Восток-Запад, 2005.
6. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. 汉俄大辞典，北京语言大学，2008年
8. 刘德联，刘晓雨“汉语口语常用句式例解”北京2009年
9. <http://www.baidu.com/> (XXR maxsus qidiruv sayti)
10. <http://www.cdmd.cnki.com.cn/> (XXR ilmiy tadqiqotlar sayti)
11. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
12. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS.

THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.

13. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.

14. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).

15. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

KOREYS SEHRLI ERTAKLARIDA GUL NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460891>

Muqaddas TAYLANOVA,
TDSHU tayanch doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +998974700093; E-mail: muqaddas_93@mail.ru

Annotatsiya. *Koreys sehrlı ertaklarining aksariyatida o‘simlik nomlarining o‘ziga xos ma‘nolari mavjuddir. Har bir o‘simlikning afsonaviy jihatlari va tarixi bor. Koreyslar qadimdan afsonaviy kuchlarga ishonishadi. Koreyada gul nomlari turli ma‘nolarni anglatib, ertaklarda ham ko‘p uchraydi.*

Kalit so‘zlar: *sehrlı ertak, o‘simlik, leksik-semantik transformatsiya, konkretizatsiya, modulyatsiya.*

Аннотация. *В большинстве корейских волшебных сказок названия растений имеют собственное значение. Каждое растение имеет свои легендарные аспекты и историю. Корейцы издавна верят в мифические силы. В Корее названия цветов имеют разные значения и часто встречаются в сказках.*

Ключевые слова: *волшебная сказка, растение, лексико-семантическая трансформация, конкретизация, модуляция.*

Abstract. *In most of the Korean magic tales, the names of the plants have their own meanings. Each plant has its own legendary aspects and history. Koreans have long believed in mythical powers. In Korea, the names of flowers have different meanings and are often found in fairy tales.*

Key words: *magic fairy tale, plant, lexical-semantic transformation, concretization, modulation.*

Flora olami koreys she‘riyati va nasrining ajralmas qismi hisoblanadi. Gullar, daraxtlar va o‘t-o‘lanlar nafaqat mavsumiy o‘zgarishlarda tabiatning go‘zal tasvirini yaratish, balki mukammal insonning portretini, Koreyada mavjud bo‘lgan an‘naviy tasavvurlar, noto‘g‘ri qarashlar va e‘tiqodlarning aksi sifatida ham ishlaydi.

Hatto ularning turmush tarzi va dunyoqarashining turlichaligi ham tarjima asarlarining ruhida yaqqol seziladi. Sharq adabiyoti rang-barangligi, o‘xshatish va qiyoslash usullarining chiroyli qo‘llanilishi bilan kitobxonni

o‘ziga rom etadi. Bunday asarlarni tarjima qilish asar ruhi bilan yaqindan tanishish va uni his qilishni talab etadi.

Koreyscha sehrli ertaklar ichida “하늘을 나는 민들레 -hanrl nanin mindelle” (Osmon uzra uchgan momoqaymoq) ham tahlilga tortildi: 민들레는 아직 어려서 움직일 수가 없었던 것이었어요. 너무나 겁이 난 민들레는 두 손을 꼭 잡고 기도를 했습니다. “제발 저를 살려주세요. 저를 살려주신다면 그 은혜를 잊지 않고 살아갈게요 [1,36] (mindellenin ajik oryoso umchigilsuga opsotton goshiossoyo. Namuna kobi nan mindellenin tu sonl kok chpgo kidorl hettamnida. “Chebal chorl sallyochuseyo. Chorl sallyochushindamyon ki inherl itji anko sarakalkeyo)”. **Tarjimasi:** Momoqaymoq hali yosh o‘lgani uchun umuman qo‘zg‘ala olmabdi. U shunchalik qo‘rqib ketibdiki ikki qo‘lini mahkam birlashtirib, osmonga qarab iltijo qilibdi:

- Iltimos, meni qutqaring! Agar meni qutqarsangiz, bu yaxshilikni hech qachon unutmay yashayman [1,37].

Yoki: “그리하여 민들레는 땅에다 뿌리를 내리고 살 수 있었답니다. 그 후부터 민들레는 감사하는 마음으로 항상 하늘을 향해 곳곳하게 줄기를 펴고 살아갔답니다. 그리고 씨앗을 멀리멀리 하늘로 날려보냈어요 [1,36] (kirihayo mindellenin ttaengeda ppurirl nerigo sal su isottamnida. Ki huputo mindellenin kamsahanin maimiro hangsang hanrl hyanghe kotkothage chulgirl pyogo sarakattamnida. Krigo shshiasl mollimolli hanllo nallyoponessoyo)”. **Tarjimasi:** Shu kundan boshlab, momoqaymoq ildiz otib, yer bag‘rida yashab qolishga muvaffaq bo‘libdi. Yuz bergan voqea sabab momoqaymoq har doim minnatdor qalb bilan osmonga qarab o‘sar va gul urug‘lari osmon uzra uchib yurar ekan [1,37].

Bu parchalarda ham “민들레 (mindelle)”-momoqaymoq leksik-semantik almashinuvning konkrtezatsiya usuliga kiradi. Bu so‘zning muqobil variant o‘zbek tilida uchraydi.

“할머니꽃 할미꽃 (halmonikot halmikot)” – “Momogul, momojongul” nomli koreys ertagida ham “할미꽃 (halmikot)”-momogul berilgan: “그러자 아들의 눈물이 떨어진 땅에서 새싹이 스르륵 돌아나는 거였어요. 그리고 그 꽃은 아들을 보며 환하게 웃는 것이었어요. 아들은 그 꽃이 자신의 어머니가 변한 꽃이라고 믿으면서 한없이 눈물을 흘리며 용서를 빌었습니다. 사람들은 그 꽃을 보고 할미꽃이라 불렀답니다 [1,36] (Kiroja adre nunmuri torojin ttanggeso sesagi siririk todanin goeyo. Krigo ki kochn adrl pomyo hvanhage unin goshiossoyo. Adrn ki kochi chashine omoniga pyonhan kochirago midimyonso hanopshi nunmurl hllimyo yosorl pirottamnida. Saramdrn ki kochl pogo halmikochira pullottamnida)”. **Tarjimasi:** Keyin o‘g‘ilning ko‘z yoshlari to‘kilgan yerdan nihollar unib chiqibdi. Gul o‘g‘ilga qarab yorqin tabassum qilibdi. O‘g‘il onasi o‘zgartirgan gul ekanligiga ishonib, tinmay yig‘lab, kechirim so‘rab duo

qilibdi. Odamlar gulga qarab uni momogul deb atashibdi. Shu bilan birga, ertak nomi ham “할머니꽃 할미꽃 (halmonikot halmikot)” – “Momogul, momojongul” tarzida tarjima qilindi.

Bu yerda ikki soʻz ham bir maʼnoni anglatadi. Oʻzbekchalashtirish maqsadga muvofiq, deb topilib modulyatsiya usuli orqali tarjimada berildi. “할머니 (halmoni)-buvi degani, 할미 (halmi) qisqartirilgan soʻz. shundan kelib chiqib ertaklak maʼnosidan kelib chiqib, sarlavhani “Momogul, momojongul” tarzida tarjima qilindi.

Maʼlumki, semantika nafaqat mazmuni ifodalash shakli, balki mazmunning oʻzini, vaziyat tasvirlangan belgilarni ham oʻzgartirish hisoblanadi. Modulyatsiya ham chet tilidagi soʻzni almashtirish orqali tarjimada berishdir. Koreys sehrli ertaklari ichida “빨간 백일홍에 얽힌 슬픈 이야기 (palgan pegilhonge olkhin slpin iyagi)” “100 kunda gullaydigan qizil zinniya guli toʻgʻrisidagi gʻamgin hikoya” nomli ertak tahlili: 1. 백일홍은 새색시의 족두리 모양을 한 예쁜 꽃이에요. 백 일 동안 붉은 꽃이 활짝 피어있다고 해서 백일홍이라는 이름이 붙여졌어요. [4] **Tarjimasi:** Zinniya guli koʻzi shaklidagi goʻzal guldir. Zinniya gul yuz kun davomida gullashi sabab shu nom berilgan. “백일홍 (pekilhoʻng)-zinniya guli”, deb tarjimada berildi. Koreys tilida soʻzma-soʻz “yuz kun qizil” deganidir. Ertakda ham bu gul yuz kun davomida gullashi aytiladi. Boshqa tillarda “zinniya guli” deb eʼtirof etiladigan gulning koreyslarda ramziy maʼnoga ega ekanligini kuzatish mumkin. Bu yerda ham leksik-semantik transformatsiyaning konkretizatsiya usuli orqali tarjimada berilishiga qaramay, maʼnosi jihatidan ertak sarlavhasiga qoʻshimcha qilib modulyatsiya usuli orqali “100 kun qizaruvchi gul”, deb bersa ham oʻquvchiga yana ham tushunarli boʻladi.

Shu oʻrinda leksik-semantik transformatsiya almashinuvida terminlar, atamalar tarjimasi ham ahamiyatga ega.

Termonologiya bu lotincha termin+logos-soʻz, taʼlimot degan maʼnoni bildirib, biror ilm, kasb va boshqa sohaga oid terminlar majmuidir. Termin – fan-texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasidir. Terminlar bir maʼnoda boʻlishi, ekspressivlik va emotsionalikka ega boʻlmasligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqlanadi. Maʼlumki, har bir davr lugʻaviy

tarkibining o‘ziga yarasha so‘z, atama, ibora va ma’lum ma’noda terminlari bo‘ladi. Bu terminlar o‘z navbatida boshqa xalqlar tillariga kirib borishi mumkin.[2,22-24] O‘z lug‘at boyligimizga aylanib ketgan o‘zlashma so‘zlar o‘rniga almashtirilayotgan so‘zlar o‘rniga o‘zga tildan so‘zlar olinishi kuzatiladi. Bu yerda ham 백일홍 (pekilho‘ng)- “zinniya guli” tarzida berildi. Zinnia lotinchadan olingan so‘z bo‘lib, Gottingenlik farmasevt Gottfrid Zinn sharafiga qo‘yilgan. Dastlab Meksikaning janubidan kelib chiqqan astrovanlar oilasiga mansub o‘t-o‘lan va butazor o‘simliklar turkumiga mansubdir. Rus tilida “цинния” tarzida transliteratsiya qilinib, o‘zbek tiliga ham “zinniya” deb berilgan. Bu so‘zni botanika sohasiga oid termin sifatida tushunish mumkin. Barcha so‘zlarni ham o‘zbekchalashtirib yuborishning ba’zida imkoniyati yo‘qligi sabab tarjimada transliteratsiya yoki kalkalash orqali berish lozim.

Rus tili orqali tarjima qilingan “Кхончхи и Пхатчхи” nomli sehrli koreys xalq ertagida ham “лотос” guli o‘zbek tiliga “nilufar”, deb berilgan: Разозлилась Пхатчхи, бросила лотос в печь. Стала старуха служанка растапливать печь, а там ожерелье - всеми цветами радуги играет-переливается [5]. **Tarjimasi:** Pхatchxi shartta nilufarni olib o‘choq ichiga tashlabdi. Cho‘ri хотин o‘choqqa o‘t yoqmoqchi bo‘lib qarasa o‘choqning ichida yal-yal tovlanib yotgan ajoyib marjonga ko‘zi tushibdi.[3,124]

Tarjimon koreys xalq ertagini bilvosita rus tili orqali tarjimada bergan. Bu yerda ham gul nomi “nilufar”, deb berilgan. Lekin “nilufar guli” deb berilsa tarjima chiroyli chiqadi.

Пошел как-то Камса прогуляться у озера, смотрит - лотос на воде качается. Сорвал он цветок, принес домой, поставил в кувшин с водой, не налюбуется [5]. **Tarjimasi:** Qishloq hokimi ertalab ko‘l bo‘yida sayr qilib yurib, suvda go‘zal nilufarni ko‘rib qolibdi. U gulni uzib olib uyga keltiribdi, guldonga suv to‘ldirib unga solib qo‘yibdi.[3,124]

Bu yerda ham “nilufar guli” tarzida berish maqsadga muvofiq. Leksik-semantik transformatsiyaga asosan tarjimada generalizatsiya usulida berish mumkin. Bu yerda ham faqat “nilufar” emas, “nilufar guli”, deb berish mumkin. Koreys ertaklarida “nilufar guli” nomi ham faol. Bu gul soflik, tinchlik, yoz fasli, mukammalik ma’nolarini bildiradi. Shuningdek, buddizmning asosiy gulidir. Uning suv ustidagi nafis gullari hayotning kirlaridan forig‘ bo‘lgan poklik ramzidir.[3,45]

Tilning leksikasi nomlash asosida shakllanadi. Leksema predmet, belgi, harakat kabi tushunchalarning tildagi nomi bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, nomlash bilan atash tushunchalari farqlanadi. Bu ko‘proq ot turkumiga loid so‘zlarda uchraydi. Otlar asosan nomlovchi so‘zlardan, qisman atovchi so‘zlardan tarkib topgan. [4,28] Nilufar ham gul nomi nomlovchi so‘z bo‘lsa, atab qo‘yilgan ismni bildirganda esa atovchi so‘zga aylanadi.

XULOSA

Koreys ertaklarida uchraydigan gul nomlari bilan bog‘liq leskik-semantik transformatsiyaga oid tahlillar jarayonida tarjimada uchraydigan ayrim muammolar ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, bir mamlakatda qadrli bo‘lgan gul nomi boshqa mamlakatda uchramaslik holati, ularning muqobil variantini topib tarjimada qilishda sohaga oid ilmiy adabiyotlarga murojaat qilish talab etadi.

REFERENCES

1. Taylanova M. Gullar mamlakatining shahzodasi. Koreys xalq ertaklari. –T.: Fan ziyosi, 2022.
2. Бобохонов А. Жаҳон халқлари эртаклари. –Т.: Шарқ нашриёти, 1991.
3. Филимонова Е. Символика растений в переводных произведениях. Благородные растения (на материале переводов с корейского и китайского языков) . –М.: МАКС Пресс, 2003.
4. Юсупов А.Таржима назарияси ва амалиёти. –Қарши. 2019.
5. Махаматойрова, А. В. Q. (2021). Hozirgi xitoy tili qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya munosabati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 90-102.
6. http://18children.president.pa.go.kr/mobile/our_space/fairy_tales.php?srh%5Bcategory%5D=07&srh%5Bpage%5D=13&srh%5Bview_mode%5D=detail&srh%5Bseq%5D=284
7. <http://lib.ru/TALES/koreja.txt> (Перевод Вадима Пака).
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.

-
10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
 11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
 12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

“TISH” GA OID MAQOLLARNING MAZMUNI XUSUSIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460903>

Dilafruz XALILOVA,

Alisher Navoi nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +99891 9511900; E-mail: dxb981@gmail.com

Annotatsiya. *Maqollar xalqning asrlar osha o‘z ko‘rgan-kechirgan hayotiy tajribalari asosida shakllangan, sayqallangan qisqa shakldagi asar namunalari. Xalq orasidagi biror fikrning maqol bo‘lishi, uning ixcham shaklga kelishi uchun yillar kerak bo‘ladi. Ushbu maqolada tish bilan bog‘liq maqollar tahlilga tortilgan va ularning mazmun mohiyati o‘rganilgan, kerakli xulosalar chiqarilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *xalq og‘zaki ijodi, maqol, stomatologik termin.*

Аннотация. *Пословицы – это образцы кратких произведений, сформированных на основе жизненного опыта народа на протяжении столетий и времён. Нужны годы, чтобы идея стала поговоркой в народе, обрела компактную форму. В данной статье анализируются пословицы, изучается их содержание и делаются необходимые выводы.*

Опорные слова и выражения: *фольклор, пословица, стоматологический термин.*

Abstract. *The proverbs are examples of a brief, polished work that based on the experiences of a nation over many centuries. It would take years for a public opinion to be proverbial, and it would be compact. Because not every single thought, is a proverb. To be proverbial, an event judged and summarized in this article.*

Key words: *folklore, proverb, tooth, stomatology terms.*

Inson qadimdan atrof muhitda ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga o‘z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, extiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg‘ularni so‘zlar, so‘z yig‘indisi, raqslar ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o‘zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o‘simliklar, tog‘lar, suvlarning paydo bo‘lishini izohlovchi to‘qima hikoyalar o‘ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo‘shiqlarini to‘qiydilar. Qabila-urug‘ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g‘aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo‘ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo‘lib yashayotgan aholi o‘rtasida shuhrat topadi.

Bugungi kunda biz ularni “xalq og‘zaki ijodi” deb atashga odatlanganmiz. Bu atamani 1846 yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, uning ma‘nosi “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Inson hayoti davomida son-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod vakili tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanadi. Shuning uchun xalq og‘zaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ular bilan kitobdagi matn vositasida tanishganimizda juda ko‘p yangi fikrlarga duch kelamiz. Masalan, umumiy tarzda bir maqolni olsak, “*Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar, yomonga yaqinlashsang-balosi*” maqolidagi asosiy fikr yomonga yaqinlashgan odamning taqdirida noxush voqealar ko‘payishini ogohlantiradi. Lekin aslini olganda maqolning birinchi qismida ham ehtiyotlik belgisi aniq ko‘rinib turibdi. Ya‘ni xalq yosh va hali turmush tajribasiga ega bo‘lmagan farzandiga qozonga yaqinlashayotganda qora qurum tegishidan ehtiyot bo‘lishni tavsiya qilmoqda. Qo‘shimcha ravishda aytish mumkinki, har bir inson muayyan vaziyatda ish qilar va qaror qilar ekan, ehtiyot choralarini esidan chiqarmaslik lozimligi uqtirilmogda.

Maqol-xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zdir. Maqol o‘zbek tilida maqol, tojik tilida zarbulmasal, rus tilida poslovitsa, ingliz tilida proverb, arablarda naql, turklarda ata so‘zi atamasi bilan yuritiladi. “Maqol” so‘zi asli arabcha (maʼal -) مثل bo‘lib, uning turkcha ekvivalenti “ota so‘zi” deyiladi [5, 250-257.]. Hozirda ushbu atama zamonaviy turk tilida “maqol” so‘zi o‘rnida qo‘llanadi. “Maqol”ni qadimgi turklar ögüt, qumaru söz” degan [4, 11.]. so‘zlar bilan atagan.

Maqollarda so‘z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so‘z qo‘shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi [2, 76.]. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi.

Maqol atamasi umumiy mazmun jihatdan “so‘z” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o‘zaro yaqin janrni uchratish qiyin. Maqollar ahillik, baxt, omad va baxtsizlik, vatan va vatanparvarlik, go‘zallik va xunuklik,

donolik va nodonlik, do‘stlik va dushmanlik, mardlik va nomardlik, mehr-oqibat, odob va odobsizlik, or-nomus, sabr-qanoat, to‘g‘rilik va egrilik, umid va umidsizlik, faqirlik va boylik, yaxshilik va yomonlik kabi fazilatlarni ifodalab keladi. Maqollar xalqning o‘ziga xos milliy qadriyatlarini, kishilarning turmush tarzi va undagi urf-odatlarini, qolaversa, ushbu tillarga xos turli xil naqlarning mavjudligi asosida paydo bo‘ladi.

Ma‘lumki, har bir xalq o‘zining milliy olami bilan boshqa bir xalqdan ajralib turadi. Chunki u yerda keltirib o‘tilgan elementlar aynan shu xalqning o‘zigagina tegishli bo‘ladi. Ba‘zan shunday maqollarga duch kelamizki, ular inson tana a‘zolari bilan tuzilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqollar inson tana a‘zosining bir qismi bo‘lgan tish bilan bog‘liq bo‘lgan maqollarni ko‘rishimiz mumkin. *“Tilingni tiymasang tishsiz qolasan”*. “Tish” so‘zini biz tibbiyotga oid va ilmiy-tibbiy so‘zlar qatoriga kiritamiz. Ammo tish so‘zi xalq og‘zaki ijodida ham aloxida o‘rin egallaydi. Masalan: *“til-balo, tish-qal‘a”, “tilga tish-qal‘a, ko‘zga- qosh”* kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

XI asrda tug‘ilib, yashab ijod etgan Mahmud Koshgariy qoldirgan ming yillik hikmat bor. *“tilin tugmishni tishin yozmas”*, ya‘ni *“tili birni tish ajratolmas”*. Haqiqatan ham, tarix charxpalagi qanday aylanishidan qat‘iy nazar, tili va dili bir xalqlarni bir-biridan ajratish mumkin emas. Ushbu hikmat nafaqat xalqlar o‘rtasidagi jipslik va birdamlikni aks etibgina qolmasdan qarindosh-urug‘lar va do‘stlar o‘rtasidagi jipslik va birdamlikni ham ajratib bo‘lmasligi haqida aytib o‘tadi.

Tibbiyotning stomatologiya sohasiga tegishli bo‘lgan “tish” haqidagi bir nechta maqollarni va ularning izohini keltirib o‘tamiz. Masalan, *“Tekin tomoq tish sindirar”* maqolidagi asosiy fikr tekin yoki osonlik bilan topilgan boylik yoki luqma, kimningdir mehnati evaziga kelganligini va mehnat qilmagan inson qachondir kimningdir mehnati evaziga topilgan boylik kun kelib minnat qilinishi yoki boshini egishi mumkinligi haqida eslatib o‘tadi.

“Ko‘zing og‘risa, qo‘lingni tiy, tishing og‘risa-tilingni” maqolida atrofidagi insonlar bilan kelisha olmaslik, muomala qila olmaslik, kimsalar bilan doimo janjallashib yoki tortishib yuradigan insonlarga nisbatan ishlatilgan. *“Ko‘zing og‘risa”* va *“tishing og‘risa”* iboralari bir biriga nisbatan mos ravishda berilgan ya‘ni janjal natijasida ko‘zi ko‘karib yoki

tishi singan, og‘riganligini bildirib kelayotgan bo‘lsa, ya’ni “*qo‘lingni tiy*” iborasi- “*qo‘l mushti*”, “*tishing og‘risa*” tishing singanligi, og‘riganligi yoki og‘zining qonaganligi haqidagi ma’nolarni izohlab kelmoqda. Ushbu “tilingni tiy tishing sinmasin” maqoli ham insonlar o‘rtasidagi munosabatga qaratilgan bo‘lib, qanchalik kam va so‘z o‘z navbati kelagndagina gapirilsa, hurmat va etiborga ega bo‘lishi, keraksiz gaplarni va so‘zlarni gapirish, nazardan qolishi va shu bilan birga yuzing shuvit bo‘lishi yoki boshing egilishi ma’nolarda kelmoqda.

Navbatdagi tish so‘zi bilan bog‘liq maqolimizda “*olovning tishi yo‘q, ho‘l-quruq bilan ishi yo‘q*” maqolida garchi olovning hech qanday a‘zolari bo‘lmasa-da, yakson qilishi, yo‘q qilish mumkinligi, ya’ni tishlamasa-da, butun borliqni yakson qilish qudratiga ega ekanligi haqida ogohlantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, maqollarning shakllanishi uzoq davrni qamrab olgan, ammo badiiy mukammal va hayot tajribasi aks etgan xalq maqolining umri boqiy bo‘ladi. Maqollar orqali insonlardagi yomon illatlar, xislatlar qoralangan, o‘xshatishlar orqali aytilmoqchi bo‘lgan fikr o‘quvchiga yetkazilgan. Bunday maqollar xalqning estetik jihatidan o‘y-fikrlari yuqori darajadiligini anglatadi.

REFERENCES

1. Азамат Зиё. Тили бирни тиш ажратолмас. Халқ сўзи. 20 сентябрь. 2019.
2. Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Ўқув қўлланма. Т. 2010.
3. Ўзбек халқ мақоллари. - Т.: Фан, 1978.
4. Sodiqov Q. İlk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etno-lingvistik jarayonlar (Ethno-linguistic processes in Central Asia in the early Middle Ages). – Toshkent. Akadernashr. 2018.
5. Ismatullayeva, N. (2021, April). Phraseology with zoonymic components of "dragon" and "tiger" in chinese and korean languages. In Oriental Conferences (pp. 183-189).
6. Xasanova, S. (2021). Rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi: rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(7).
7. Türk dünyası edebiyat kavramları ve terimleri ansiklopedik sözlüğü (Turkish world literature concepts and terms encyclopedic dictionary). Türk dünyası ortak edebiyatı. Cilt 1. - Ankara. Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı. 2001.
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.

-
9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
 10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
 11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
 12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

ОУБЕКНИНГ “НАВОИЙ” РОМАНИ ТАРЖИМАЛАРИДА ТАБИАТ ТАСВИРИНИНГ ҚАЙТА АКС ЕТИШИ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460915>

Kamola RASULOVA,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent. O‘zbekiston.
Tel: +998 93 386 63 05;
E-mail: rasulovakamola0120@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atoqli o‘zbek adibi Oybekning “Navoiy” romani tarjimalarida tabiat tasvirining qayta aks etishi, romanning iste’dodli turk tarjimonlari Ahsan Botur va Shuayip Qoraqosh tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar misolida ko‘rib chiqiladi.*

Tayanch so‘zlar: *roman, badiiy tarjima, peyzaj, tasvir, ko‘chma ma’no.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается отражение образа природы в переводах романа известного узбекского писателя Айбека “Наваи” в турецком языке, которая была переведён талантливыми переводчиками Ахсан Ботур и Шуайип Каракаш.*

Ключевые слова: *роман, художественный перевод, пейзаж, образ, метафорическое значение.*

Abstract. *The present article, the reflection of the image of nature in the translations of the famous Uzbek writer by Aybek’s novel “Navai” in Turkish translations made by talented translators Akhsan Botur and Shuayip Karakash.*

Key words: *novel, literary translation, landscape, image, proverb, metaphorical meaning.*

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki tabiat manzarasi tasvirida ijodkorning so‘z boyligi, uni qo‘llash darajasi, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Yuqoridagi parchada adib atrof-muhitning go‘zalligini xuddi musavvirdek qalamga oladi. Undagi har bir detal muayyan maqsadga qaratiladi. Kitobxon uni o‘qir ekan, vaziyatni aniq-tiniq ko‘z oldiga keltira oladi. Buni boshqa tilga o‘giruvchi tarjimon ham muallif uslubini to‘laqonli qayta yaratish, parchani asliyat ohangini saqlangan holda

o‘g‘irishga harakat qiladi. Turli sifatlash, o‘xshatish va boshqa turli badiiy san’atlarni qo‘llashga urinadi.³⁹

Badiiy asarda muallif o‘z muddaosini ro‘yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg‘uni his etishi, ko‘rish, eshitish mumkin bo‘lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so‘z va iboralarning turli ma’no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo‘llar bilan ifodalash usullari-ifodaviy vositalar sanaladi. Badiiy tarjimada tasvir vositalarining qayta yaratilishi va bunda so‘z tanlash muammosi tarjimondan zo‘r mahorat talab etadi. “Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya’ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o‘ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so‘z tanlaydi, bu so‘zlar ma’nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to‘laroq ifodalash tashvishida yonadi”⁴⁰ – deb yozadi G‘aybulla Salomov.

Yozuvchi asar yaratayotganida har bir hodisa, tabiat manzarasi, umuman, voqelikka o‘z nazari bilan qaraydi. U asar g‘oyasidan kelib chiqib, mos detal tanlaydi va o‘sha tanlangan detal orqali asar mazmunida salmoqli o‘rin tutgan fikrni ifodalaydi. Masalan, badiiy asarlarda tabiat tasviri berilayotganda ijodkorlar tez-tez murojaat qiladigan yomg‘ir tasvirini har kim o‘zgacha, o‘z kayfiyatiga uyg‘un, vaziyatni hisobga olgan holda beradi: “mayin, beg‘ubor yomg‘ir tomchilari”, “hayotbaxsh yoqimli yomg‘ir”, “bahor yomg‘iri” va shunga o‘xshash tabiat hodisalari inson ruhiy holatining ijobiy tomonlari, hayotning go‘zalligi, mazmuni, ko‘klam tarovatini tarannum etsa, “qora bulut”, “chaqmoq”, “sovuq yomg‘ir tomchilari”, “kuchli jala” kabi tasvirlar inson ruhiyatidagi salbiy holatlar, qo‘rquv, ichki g‘alayon, xavf-xatar yoki tushkunliklardan darak beradi. Bunday tasvirlarda san’atkor tabiat hodisasi bo‘lgan yomg‘irni asar ixtiyoriga bo‘ysundiradi, asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki

³⁹ Хамидов. Х. Ойбекнинг “Навой” романида лексик-фразеологик бирликлар турк тилига таржимасининг хусусиятлари. SHARQSHUNOSLIK. (Илмий журнал) № 4, 2020. 50-59 б.

⁴⁰ Salomov G‘. Adabiy an‘ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980. B.11.

kechinmalari, voqelikka munosabatini shu tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san'atkorning o'ziga xos uslubi namoyon bo'ladi⁴¹.

“Navoiy” romanidagi shoir yashagan Hirot shahrining tabiati, atrof-muhit go'zalligi Gavharshod madrasasi fonida bundan sakson yil ilgari sof o'zbek adabiy tilida mahorat bilan aks ettiriladi:

“Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning Gavharshod madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari shu'lalarda jonli, bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutar dam uchib, dam sirpanib qo'nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o'ynashar edi. Bir tomoni xonaqoh, uch tomoni katakcha-hujralar bilan o'ralgan madrasaning keng, tekis, chorburchak sahnidan kecha shovdirab o'tgan yomg'ir ko'zga ilinrilinmas bug' bo'lib havoga ko'tarilmoqda edi” [4, 6].

Yozuvchi tomonidan juda go'zal tarzda ta'riflangan mazkur tabiat tasviri orqali muallifning so'z tanlashda mohir ekanligini, har bir detal muayyan maqsadga qaratilganligini bilishimiz mumkin.

Badiiy asarda muallif o'z muddaosini ro'yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi tabiat manzaralari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg'uni his etishi, ko'rish, eshitish mumkin bo'lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so'z va iboralarning turli ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo'llar bilan ifodalash usullari-ifodaviy vositalar sanaladi. Badiiy tarjimada tasvir vositalarining qayta yatatilishi va bunda so'z tanlash muammosi tarjimondan zo'r mahorat talab etadi. “Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya'ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to'laroq ifodalash tashvishida yonadi”⁴² – deb yozadi G'aybullla Salomov.

Endi yuqoridagi jumlaning turkcha tarjimasini **Ahsan Botur** **tarafidan ag'darilgan qismiga e'tibor qaratamiz:** *Bahar gūneşi, göğün tertemiz maviliğinde Herat'ın Gevherşâd medresesinin heybetli kubbesi*

⁴¹ Hamidov X. Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi // Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to'plami №9). – Toshkent ., 2012 B. 75-77.

⁴² Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980. B.11

üstünde parlıyor; kubbenin muhteşem revaklarının nakışları gün ışığında canlı, havai bir bahçe gibi rengârenk alev renkler saçıyor; güvercinler kâh uçup, kâh süzülerek konup, kubbe çevresinde, neşe içinde oynaşıyorlardı. Bir tarafı hanekâh, üç tarafı küçük hücrelerle çevrili medresenin geniş, pürüzsüz, dört köşe avlusundan gece şakırtıyla geçen yağmur, belli belirsiz bir buğu halinde havaya yükselmektedir [6, 5].

Mazkur parchada tarjimon muallif uslubidan chiqmagan holda turk tiliga tabiat tasvirini shakl va mazmun birligiga rioya qilgan holda o‘giradi. Badiiy asar tarjimasida esa shakl va mazmun birligi katta ahamiyatga ega.

Asar personajlari yoki bosh qahramonning ichki kechinmalari, voqelikka munosabatini shu tasvir vositasida ifodalaydi va bunda san’atkorning o‘ziga xos uslubi namoyon bo‘ladi⁴³.

Shuayip Qoraqosh tarjimasida esa quyidagicha: “BAHAR güneşi, göğün tertemiz maviliğinde Herat’in Gevherşâd medresesinin heybetli kubbesi üstünde parlıyor; kubbenin muhteşem revaklarının nakışları gün ışığında canlı, havaî bir bahçe gibi ren garenk alev renkler saçıyor; güvercinler kâh uçup, kâh süzülerek konup, kubbe çevresinde, neşe içinde oynaşıyorlard Bir tarafı ha nekâh’, üç tarafı küçük hücrelerle çevrili medresenin geniş, pürüz süz, dört köşe avlusundan gece şakırtıyla geçen yağmur, belli belir siz bir buğu hâlinde havaya yükselmekteydi” [7, 31].

“Tabiat tasviri muhim bir voqea yoki hodisaning ro‘y berishidan oldin ko‘rsatilishining asosiy maqsadi kitobxonning aks ettirilayotgan voqeani oldindan o‘z tasavvurida jonlantirishiga ko‘mak berishdir. Tarjimon esa, ana shunday manzarani tarjima tili va uni o‘qiydigan kitobxon yashayotgan mamlakat tabiati tasvirini hisobga olgan holda ish tutishi, tarjima qilinayotgan asarning mazmuni va shakliga zarar yetkazmasdan o‘girihi kerak bo‘ladi”⁴⁴.

Masalan, “Navoiy” romanida muallif tomonidan mohirona tasvirlangan tabiat tasvirini tarjimonlar Ahsan Botur va Shuayip Qoraqosh tomonidan qanday o‘girilganligini kuzatishimiz mumkin:

Asliyat: *Osmonning tiniq zangorisida to‘lin oy nur o‘tovini tikkan. Sanoqsiz yulduzlarning muazzam, ulug‘vor ohangida kecha jimgina*

⁴³ Hamidov X. Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi // Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami №9). – Toshkent ., 2012 B. 75-77.

⁴⁴ Рустамов А. Сўз хуусида сўз. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 86.

pinakka ketgan. Yupqa oy nuriga o‘ralgan bog‘chalar kuzning salqin nafasidan yengil titraydi [4, 56].

Ahsan Botur tarjiması: *Gökyüzünün parlak semasında dolunay nur otağını dikmiş; sayısız yıldızların muazzam ve ulu âhenginde gece sessiz bir uykuya çekilmiş. Hafif ay ışığıyla kucaklaşan bağlar sonbaharın serin nefesiyle inceden titremekte [5, 53].*

Shuayip Qoraqosh tarjiması: *Gökyüzünün tertemiz maviliğinde dolunay nur otağını dikmiş. Sayısız yıldızların muazzam, muhteşem âhenginde gece, sessiz bir uykuya çekilmiş. Şeffaf ay nuruna bürünmüş bahçeler, güz mevsiminin serin nefesinden hafifce titriyordu [6, 73].*

Tarjimada peyzaj tasviri spetsifikasini, muallif kuzatuvchanligini saqlab qolish o‘ta muhim. Zotan “peyzaj qahramonlar tuyg‘ulariga bevosita bog‘liq bo‘lib, kitobxonning darrov tasvirlanayotgan vaziyatga kirishib ketishiga yordam beradi.”⁴⁵

Oybek mazkur tabiat tasvirini shu darajada go‘zal tasvirlaganki yozuvchining mahoratiga qoyil qolmaslikning aslo iloji yo‘q. Asliyatni tarjimada to‘laqonli berish esa mutarjimning ham tasavvuri qay darajada ekanligini belgilab beradi. Asliyatdagi tasvirni to‘la to‘kis aks ettira olgan tarjimon, oldiga qo‘yilgan vazifani uddalay olgan deyishimiz mumkin.

Mazkur mulohazalarimizni dalili sifatida yuqoridagi tabiat tasvirini ikki tarjimon tomonidan ag‘darilgan jumllarini tahlil ostiga olsak, tarjimonlarni asosan so‘zma-so‘z tarjima qilganliklarini inobatga olganda tarjima asliyatdagi ma‘noni bera olgan deyishimiz mumkin.

Peyzaj yozuvchining uslubi bilan bog‘liq ravishda turli vazifalarni o‘taydi. Odatda yozuvchi yaratgan peyzaj va intererining har bir detali asarda turli g‘oyaviy – badiiy vositani bajaradi. Shu sababli, peyzaj – tabiat, joy tasvirlari badiiy asarning tarkibiy qismi sifatida, asar qahramonlarining ruhiyatini, hissiyotlarini to‘laroq ifoda etishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Binobarin, peyzaj qahramonlar dunyosini, ular yashayotgan muhitni tasvirlashning muhim vositasi sanaladi. Bu esa, o‘z o‘rnida insonni har tomonlama kamol toptirish, unda estetik didni

⁴⁵ Владимирова Н., Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. –Т.: Фан, 1957, – 62 с.

shakllantirish, san'atni to'g'ri qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, shaxsni estetik tarbiyalashning muhim omillaridan biri sanaladi.⁴⁶

Romanda tasvirlangan tabiat tasvirini tarjimada ham aynan shunday go'zal so'zlar bilan bera olish juda muhim. Quyida yana bir peyzaj tasvirini tahlil qilsak:

Asliyat: *Bahorning gullagan chog'i... Baland va dilbar qomat sarv og'ochlari, ko'rkam mevazorlar, turli-tuman gullar bilan yashnagan keng chamanzorlar ichida katta-kichik ko'shklar allaqanday xayoliy manzara yasaydi. Quyoshda ko'shklarning naqshlari xuddi jonli chamanlar bilan raqobat qilishgandan, havoni rangli shu'lalar mavji bilan to'ldiradi. Uzoqdan, shabada yengil titratgan daraxtlar orasidan boqqan kishi, ko'shk devorlarini gulzorning davomi deb o'ylaydi... [4]*

Ahsan Botur tarjiması: *Baharın en güzel günleri.. Uzun ve nârin servi ağaçları, görkemli meyvelikler, envâ-i tür güllerle donatılmış geniş çimenlikler içindeki irili ufaklı köşkler insanı romantik bir atmosfere çekip götürüyordu. Köşklerin nakışları güneş altında sanki şu gül bahçeleriyle yarışa girmiş gibi çevreyi renk cümbüşüne boğuyordu. Uzaktan, rüzgârın tesiriyle yal palanan ağaçlar arasından bakan bir kişi köşk duvarlarını gül bahçelerinin bir devamı sanırdı [5].*

Shuayip Qoraqosh tarjiması: *Baharın çiçeklendiği bir zaman... Yüksek ve güzel boylu servi ağaçları, görkemli meyve bahçeleri, çeşitli çiçeklerle daha görkemli bir hal alan geniş çimenlikler içindeki büyük küçük köşkler, sanki hayali bir manzara oluşturuyordu. Güneşte köşklerin nakışları, tipki canlı gül bahçeleri ile rekabet edercesine havayı renkli ışıkların cilveleriyle dolduruyordu. Uzaktan, esintinin hafifçe titrettiği ağaçlar arasından bakan kişi, köşkün duvarlarını gül bahçesinin devamı diye düşünüyordu... [6]*

Yuqoridagi tabiat tasviri muallif tomonidan juda chiroyli tasvirlangan. Asliyatda aks ettirilgan tasvir inson tasavvurini to'laligicha qamrab, o'ylashga chorlaydi. Asarda aks etgan asliyatdagi jumalarga turkchada muqobilini topa olish tarjimondan anchagina tajribani talab qiladi. Masalan, asliyatdagi "turli-tuman gullar bilan yashnagan keng chamanzorlar ichida katta-kichik ko'shklar allaqanday xayoliy manzara

⁴⁶ Ташпулатов Н., Методика изучения пейзажа как средства раскрытия идейного замысла и образов персонажей художественных произведений: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1991, –3 с.

yasaydi” jumlasini tarjimon Ahsan Botur tomonidan “*envâ-i tür güllerle donatılmış geniş çimenlikler içindeki irili ufaklı köşkler insanı romantik bir atmosfere çekip götürüyordu*” deb tarjima qilingan. Asardagi voqea hodisalarda XV asr tasvirlanayotganini inobatga olgan holda “xayoliy manzara” birikmasini “romantik atmosfer” deb tarjima qilish juda noo‘rin va katta xatolikdir. Aslida tarjimon asarni tarjima qilishdan avval e‘tibor qilishi kerak bo‘lgan unsurlardan biri asarda qaysi davr tasvirlanganligidir. Ozgina e‘tiborsizlik ham tarjima asarni o‘qiyotgan kitobxonda tushunmovchilikka sabab bo‘lishi mumkin. Xuddi shu birikmani Shuayip Qoraqosh “*hayali bir manzara*” deb so‘zma-so‘z tarjima qilgan.

Tabiat tasviri aks etmagan mukammal badiiy asar bo‘lmaydi. “Badiiy asar tili inson qalbini butun murakkabliklari bilan yo‘g‘rilgan holda tabiat manzaralariga hamohang tarzda aks ettiradi”⁴⁷.

Shunday qilib, romanda peyzajning asl matni va turkcha tarjimalarini qiyosiy tahlil etish tarjimonlarning qator yutuq va kamchiliklarini alohida ta‘kidlab o‘tishga asos beradi. Mutarjimlarning semantik muvofiqlik, giponimik, moslashtirish va perifrastik usullaridan unumli foydalangani bu yutuqlar omili bo‘lgan. Birinchi tarjimon Ahsan Boturning o‘z ona tili imkoniyatlaridan keng foydalanganligi, so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra mazmunan muvofiq keluvchi muqobil so‘z va birikmalarni ishlatishga intilganligi e‘tiborga molikdir. Ikkinchi tarjimon esa aksincha aksar so‘zma-so‘z tarjimadan foydalanganligi asar tarjimasida ba‘zan ijobiy ayrim xollarda esa salbiy jihatlarni yuzaga keltirmoqda.

REFERENCES

1. Хамидов. Х. Ойбекнинг “Навоий” романида лексик-фразеологик birliklar turk tiliга tarjimasi ning xususiyatlari. SHARQSHUNOSLIK. (Ilmiy jurnal) № 4, 2020.
2. Salomov G‘. Adabiy an‘ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980.
3. Hamidov X. Badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining berilishi // Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami №9). – Toshkent ., 2012.
4. Ойбек. Навоий. Тахрир хайъати: Бобир Алимов ва б. – Т.: “Шарк”, 2004.
5. Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995. – 447 s.
6. Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş, Ötüken Yayınevi. –İstanbul, 2019.

⁴⁷ Хотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати, – Т.: “Ўқитувчи”, 1983, – 375 б.

7. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.-T.: Fan, 1980.
8. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Фан, 1966.
9. Владимирова Н., Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. –Т.: Фан, 1957.
10. Ташпулатов Н., Методика изучения пейзажа как средства раскрытия идейного замысла и образов персонажей художественных произведений: автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Т., 1991.
11. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати, – Т.: “Ўқитувчи”, 1983.
12. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). Issues on translation of character speech (on the example of korean-uzbek literature). Международный журнал искусство слова, 3(4).
13. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
14. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
15. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
16. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
17. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

YASHAR KAMOL ASARLARIDA PEYZAJ TASVIRI VA UNING TARJIMALARDA AKS ETTIRILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460921>

Dilfuza SHODMONOVA,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent. O‘zbekiston.
Tel: +998909056994;
E-mail: dilfuzashodmonova29@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Yashar Kamol asarlari tarjimalaridagi peyzaj tasviriga bag‘ishlangan. Maqolada tarjimonning tabiat manzaralarini qayta yaratish mahorati tadqiq etilgan. Peyzaj tasviri har bir xalqning milliy turmushini nomoyon etish vositasi ekanligi hammaga ma’lum. Maqola yozuvchining “Sevgi afsonasi” va “Ilonni o‘ldirsalar” romanlari tarjimalaridan misollar keltirib o‘tilgan.*

Tayanch so‘zlar: *peyzaj, tarjimon mahorati, ruhiy kechinma, inson va tabiat uyg‘unligi.*

Аннотация: *Статья посвящена мастерству современного турецкого писателя Яшара Камала в описании пейзажа. Отмечается, что мастерство писателя выражается в том, что пейзажные зарисовки глубоко психологичны. Они даны в непосредственном восприятии героя. К анализу привлечены такие произведения автора, как “Убить змею”, “Легенда о горе Агры”.*

Опорные слова: *описание пейзажа, пейзажные зарисовки, гармония человека с природой.*

Abstract: *This paper is devoted to the ability of Turkish writer Yashar Kamol's nature description in his works. The passages from the novels of the writer are represented, such as: "Kill the snake". "Legend of Agri mountain". The writer describes the nature view with poetic words, romantic mood and by using various artistry as: comparison and characterization.*

Keywords: *landscape, emotional senses, harmony of a human and nature.*

Badiiy asarlarda berilgan tabiat manzaralari tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etadigan omillardan biri sanaladi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning o‘zi qalamga olayotgan makonga munosabati, u joyni kanchalik bilishi, qahramonlari dunyosi va ular yashayotgan muhitni nechog‘lik chuqur his qilishi bilinadi. Shu bois tabiat manzaralari tasviri badiiy asarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning soʻz qoʻllash mahorati, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi.⁴⁸ Badiiy asarlarda tabiat tasvirlari ijodkorning badiiy mahoratini, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini koʻrsatib beradi.

Dengiz va togʻlar turk adiblari, jumladan, Yashar Kamol asarlarida peyzajning asosiy obʻekti sifatida keladi. Ularning qahramonlari dengiz va togʻlar bilan tutashib ketgan zaminda yashaydi. Yashar Kamol asarlarida dengiz va togʻlar manzarasi muhim oʻrin tutishi, avvalo, turk zaminining oʻziga xos tabiatidan kelib chiqqan.

“Ilonni oʻldirsalar” qissasi quyidagi tasvir bilan boshlanadi:

“Anavarza kayaliklarinin ustinde kartallar doniuyordu, kanat kanada. Chirishikleri chicheklerini guneşe uzatmişlardı, ak. Uzaklarda bir bulut bu yana savruluyor, gölgesi bataklık yerini yalayıp Dumlu üstüne kayıp gidiyordu. Chirishikleri chicheklerinde arılar, kara, yanardöner arılar, sarıca, bal arıları, boncuklu, mavi arılar... Mavi kengerler dikenlerini kayalikların arasından som mavi çıkarmışlardı” [1,7].

Tabiat manzaralari koʻrinishi kitobxonlarning qahramonlar harakteri, holatini his qilishga imkon berishi jihatidan ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlar yashaydigan joy ham ularning hayoti haqida aniq tasavvurlar uygʻota oladi. Peyzaj yaratish yozuvchidan mahorat talab qilganidek, uning tarjimasini ham tarjimondan alohida yondashishni talab qiladi. Yuqoridagi tasvirning tarjimasini keltirib oʻtamiz:

“Anavarza qoyalari uzra burgutlar qanot kergancha aylanib-aylanib uchishardi. Quyoshga yuz tutgan chirishsiklari deb ataluvchi togʻ gullari oppoq boʻlib ochilgan.

Olisda suzib kelayotgan bulutning soyasi botqoqlikni butunlay qoplab, Dumluga kelganda koʻzdan gʻoyib boʻlardı. Chirishsik gullari atrofida turli xil arilar – asal ari, qovoq ari, sariq arilar gʻujgʻon oʻynashardi. Qoyaliklar orasidan kenger gullarining toʻq zangori tikanlari boʻy choʻzib turibdi” [2,5].

Tarjimon tasvirni ishonchli berish bilan birga jumlada qoʻllanilgan yashirin oʻxshatish va jonlantirish kabi nozik badiiy vositalarni toʻla ilgʻagan holda qayta yaratishga muvaffaq boʻlgan.

⁴⁸ Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2022. – Б. 86

Yashar Kamol asarlarini o‘qiganimizda uning barcha asarlarida tabiat bosh qahramon sifatida ishtirok etishiga guvohi bo‘lamiz. Yozuvchi tabiat va kishilar bir-biriga bog‘liqligini, ular o‘rtasida uzviylik borligini takidlaydi.

“Her yıl karlar eriyip de bahar gözünü açınca, Ağrıdağında bir ulu tazelik patlayınca, gölün kıyıları, ince kar çizgisinin üstü, keskin, kısa, küt çiçeklerle dolar. Çiçeklerin rengi alabildiğine parlaktır. En küçük çiçek bile mavi, kırmızı, sarı, mor kendi renginde çok uzaklardan bir renk pırlıtısı olarak balkır. Ve keskin kokarlar. Gölün mavi suyu, bakır rengi toprağı baş döndürücü keskin kokularla kokar. Ve bu kokular çok uzaklardan duyulur” [3,9].

Tarjimasi quyidagicha:

“Har yili tog‘dagi qorlar erib, bahor ko‘z ochishi bilan, Og‘ritog‘ uzra qandaydir poklik keza boshlaydi, musaffo havodan insonning ko‘ngli yayraydi. Yupqa qor qatlamining yuzasi pakana dala chechaklari bilan qoplanadi. Chechaklarning rangi, porloqligi ko‘zni qamashtiradi. Uzoqdan eng mayda chechaklar moviy, qizil, sariq, binafsha va boshqa ranglarda tovlanib, jilolanadi, atrofga xushbo‘y ifor taratib, dimoqni qitiqlaydi. Ko‘lning moviy tovlangan suvi, yoqasidagi misrang tuproqning xushbo‘y isi boshni aylantiradi. Bu ifor, xushbo‘y hid uzoq-uzoqlarga taraladi.” [4,7].

Asardagi manzaralar huddi mahoratli musavvir tomonidan chizilganday ko‘rinadi. Tarjimon ham asliyatdagi bo‘yoqdorligini, o‘xshatishlarni to‘laligicha aks ettira olgan. Tarjimon tomonidan qo‘llangan *“bahor ko‘z ochishi”*, *“poklik keza boshlaydi”* jummalari o‘quvchini tabiatning tirik ekanligi, unda qandaydir sehr mavjudligiga ishontira oladi.

*“Tabiat manzaralarini yozuvchi o‘z qahramonlarining taqdiriga ta’sir etuvchi faktor sifatida ham tasvirlashi mumkin”*⁴⁹. Yashar Kamol ham barcha yozuvchilar kabi halollik, mardlik g‘oyalarini ifoda etuvchi qahramonlar holatiga asar va undagi manzalarni uyg‘un tarzda ko‘rsatishga urungan. Xasan (*“Ilonni o‘ldirsalar”*) va Ahmadning (*“Sevgi afsonasi”*) adolatsizliklar tufayli kechirgan iztiroblari ham asardagi tanlangan fasl, tabiat bilan uyg‘unlashib, o‘zgacha ruh bag‘ishlagan.

⁴⁹ Аминова Л. Турк ёзувчиси Я.Камол асарларида бадиий маҳорат масалалари. Автореферат. Т., 2003 17-6.

“Ceyhan suyu azalmış, gümüş pırlıtısında akıyordu” [1,11].

Ushbu jumla quyidagicha tarjima qilingan:

“Jayxon daryosining suvi kamayib, kumushday tovlanib oqardi” [2,7].

Bu yerda ham daryo suvining kamayishi Xasanning umidsizligi, tushkun kayfiyati bilan bog‘langan. Yozuvchi asarlaridagi tabiat tasviri qahramonlar bilan uyg‘unlashtirilganligi uchun zerikarli tuyulmaydi, aksincha, asardagi sirlilikni oshiradi.

“Tabiat tasvirini muhim bir voqea yoki hodisaning ro‘y berishdan oldin berilishidan maqsad kitobxonning asardagi voqeani oldindan o‘z tasavvurida jonlantirishga ko‘mak berishdir. Tarjimon esa bunday manzarani tarjimani o‘qiydigan kitobxon yashayotgan mamlakat tabiati tasvirini hisobga olgan holda ish tutishi, tarjima qilinayotgan asarning mazmuni va shakliga zarar yetkazmasdan o‘girishi kerak bo‘ladi”⁵⁰, – deb yozadi G‘.Salomov. Darhaqiqat, tarjima jarayonida asliyat jumllarini tarjima tili muqobillari bilan almashtirish, sintaksis qoidalaridan chetga chiqmaslik, asarning badiiy konsepsiyasiga e‘tibor bermay erkin tarjima yo‘liga o‘tish san‘at namunasining ishonchli qayta ifodalanmay qolishiga olib keladi.

Tabiat tasviri bilan “Ilonni o‘ldirsalar” qissasi yana tabiat tasviri bilan yakunlanganligi Yashar Kamol asarlarini peyzajlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, degan fikrimizga isbot bo‘ladi:

“Baharda portakal çiçekleri öyle bir kokarmuş ki kokularından insan sarhoş olurmuş...” [1,102].

Tarjimasi:

“Bahorda apelsin gullari shunday bo‘y taratarkanki, ifori kishini mast qilar emish...” [2,75].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shunday hulosaga kelish mumkin:

1. Yozuvchilar qahramonlarga munosabatini ham peyzaj tasviridagi ba‘zi detallar orqali ifoda etadilar.

2. Badiiy asarda yozuvchi tabiat tasvirini ma‘lum bir g‘oyani ifodalash uchun qo‘llaydi.

3. Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z qo‘llash

⁵⁰ Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.86.

mahorati, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. Badiiy asarlarda tabiat tasvirlari ijodkorning badiiy mahoratini, uning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ko‘rsatib beradi.

REFERENCES

1. Yaşar Kemal. Yılanı öldürseler. – İstanbul: Yarı Kredi Yayınları, 2011.
2. Яшар Камол. Илонни ўлдирсалар, (Таржима). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.
3. Yaşar Kemal. Yılanı öldürseler. – İstanbul: Yarı Kredi Yayınları, 2021.
4. Яшар Камол. Севги афсонаси, (Таржима). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021.
5. Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2022.
6. Аминова Л. Турк ёзувчиси Я.Камол асарларида бадий маҳорат масалалари. Автореферат. Т., 2003.
7. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966.
8. Namidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, 4(4), 100-112.
9. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
10. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
11. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
12. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
13. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

TASAVVUFIY MATNLARDA REALIYLAR TARJIMASI MASALASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460929>

Shokirjon BAXRAMOV,

TDSHU 2-kurs magistranti,

Toshkent, O‘zbekiston.

Тел: +998909480010;

E-mail: Shokirjonbaxramov30@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tasavvufning o‘ziga xos ta’limot ekani, tasavvuf asarlarning tarjimasining murakkabligi, tasavvufiy matnlar tarjimasida realiyalar masalasi bo‘yicha so‘z yuritilgan. Tasavvuf diniy-irfoniy ta’limot bo‘lishi bilan bir qatorda, u axloq, mantiq hamda estetikaga oid tushunchalarni ham qamrab olgani uchun o‘ziga xos falsafiy ta’limot ham hisoblanadi.*

Kalit so‘z: *Arab tili, Qur’oni karim, tasavvuf, murshid, shayx, Ilmi hol, Ilmi qol, Hakim Termiziy, Shayx Xovandi Tohur.*

Аннотация. *В данной статье речь идет об уникальности суфийского учения, сложности перевода суфийских текстов и переводе реалий. Как известно, суфизм будучи религиозно – мистическим учением, является еще и особым философским учением, включающим в себе такие понятия, как этика, логика и эстетика.*

Ключевые слова: *Арабский язык, Коран, суфизм, мурид, шейх, илми халь, илми кал, Хаким Термизи, Шейх Хованд Тахур.*

Abstract: *This article deals with the uniqueness of Sufi teaching, the complexity of translating Sufi texts and translating realities. As you know, Sufism, being a religious and mystical teaching, is also a special philosophical teaching that includes such concepts as ethics, logic and aesthetics. In the article these features are considered from the point of view of translation studies.*

Key words: *Arabic language, Quran, Sufism, murshid, sheikh, Ilmi Hal, Ilmi Qal, Termiziy, Sheikh Khavand Tahur.*

O‘tmishda yozilgan irfoniy kitoblar, xususan, tasavvuf borasidagi asosiy manbalar arab tilida bo‘lib, bu tadqiqotchidan eng avvalo arab tilini yaxshi bilishlikni taqozo qiladi. Tadqiqotchi arab tili grammatikasi (sarf va nahv)dan tashqari, balog‘at, fasohat, bayon, ma‘oniy, badi‘ kabi qator ilmlardan ham yaxshigina xabardor bo‘lsagina, tasavvufga oid matnlarni, ayniqsa, tasavvufiy atamalarni to‘g‘ri anglab, to‘g‘ri talqin qilishi mumkin.

Biroq shuni ham ta’kidlash lozimki, tasavvufning nima ekanini to’g’ri va mukammal tushunmoq uchun kishi eng avvalo islom dini ta’limoti asoslarini, ya’ni Qur’oni karim va hadisi shariflarni, ularga oid barcha bilimlarni ham puxta o’zlashtirgan bo’lishi kerak.

Tasavvuf qalb ilmidir. Tasavvuf ustozlari o’z shogirdlariga so’zlar bilan emas, aksariyat o’z holatlari bilan ushbu ilmni tushuntiradilar. Shu sababdan ham bu ilm «Ilmi hol» («Holat ilmi») deb ataladi. «Ilmi hol» iborasini («Holat ilmi») deb tarjima qilinsa, aslida u to’liq ma’no kasb etmaydi. Agar «Hol ilmi»ga sharh berilmasa, o’quvchi yoki tinglovchi hech narsa tushunmay qolishi mumkin.

Odatda ilm tasnifiga ko’ra, ikki turga – «ilmiy qol» va «ilmi hol»ga taqsimlanadi. «Ilmi qol» iborasidagi «Qol» so’zi «qavl» o’zagidan, ya’ni, «so’zlamoch»dan yasalgan. «Ilmi qol»ga o’qib, yozib va gapirib o’rganiladigan barcha ilmlar kiradi. «Ilmi hol» esa qalbdagi ilmdir. Faqat tassavvufga nisbatan ayni shu ibora aytiladi⁵¹.

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, tasavvufning spesifikasidan kelib chiqib, bir qator atamalarni tarjima qilmagan va ularga sharh bergan ma’qul. Masalan, taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon I.G’afurov Qur’on tarjimalari tahliliga bag’ishlangan maqolasida realiya⁵²larni tarjima qilmaslik va buning sabablari masalasiga to’xtalgan: «Realialarni o’z asl holicha berish ilohiy matnning yuksak kalorotini saqlashga xizmat qiladi»⁵³. Garchi bu bevosita Qur’on tarjimasida haqida aytilgan fikr bo’lsa ham, tasavvufga oid atamalarning tarjimasida borasida ham xuddi shunday yo’l tutish maqsadga muvofiqdir. Tasavvufga oid atamalarni tarjima qilmasdan, balki ularga alohida sharh va izohlar berio’ lozim. Atama sifatida «tasavvuf» so’zining o’zi ham aslida qolgan bo’lib va bu so’z hammaga tushunarlidir. Quyida biz «tasavvuf» so’zining shakli va o’zagi hamda ma’nolari borasida alohida to’xtalamiz.

«Tasavvuf»ning ma’nosi borasida fikrlar turli-tuman va ixtiloflidir. «Tasavvuf» so’zining o’zagi borasida turli fikrlar aytilgan bo’lsa ham, ammo ma’no-mohiyati bir xildir.

⁵¹ Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Зикр ахлидан сўранг. –Тошкент,2007. -Б. 34.

⁵² Реалилар - моддий маданият объектлари ёки ҳодисаларини, этномиллий хусусиятларни, урф-одатларни, маросимларни, шунингдек тарихий фактлар ёки жараёнларни ифодаловчи лексемалардир ва одатда бошқа тилларда лексик эквивалентларга эга эмас.

⁵³ И.Ғафуров. Қуръон таржималари ва тажрибалар. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси. 2009 йил 17 апрель, № 16 (3999) -Б.4.

«Tasavvuf », «sufiylik » bu insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi muhim ta’limot. «Tasavvuf » so‘zining o‘zagi va mazmuni haqida fikr va taxminlar, haqiqatan, turlicha. Bu haqda Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin, deb e’tirof etilgan. Ibn Xaldun o‘zining «Muqaddima» asarida: «Tasavvuf » kalimasi «suuf», ya’ni «jun», «po‘stin» so‘zidan olingan, qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to‘qilgan kiyim yoki po‘stin kiyib yurishni odat qilganlar va bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o‘zlarida namoyon etganlar », deydi⁵⁴.

Abdurahmon Jomiyga ko‘ra, «Tasavvuf » va «sufiy» so‘zlari IX-asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim Sufiydan boshlab joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o‘rnida «zuhd» (zohidlik, tarkidunyochilik), «taqvodorlik», «parhezkorlik» kabi so‘zlar ishlatilgan.

Sahobalar, tobeinlar va ulardan keyingi davr kishilarida hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi his-tuyg‘ular jamul-jam bo‘lgan. Lekin hijratning ikkinchi asri va undan keyingi davrga kelib, odamlarning ko‘pchiligida mazkur xususiyatlar o‘rnida dunyoparastlik, din ishlariga beparvolik, kibr va riyokorlik, xudbinlik kabi salbiy xususiyatlar paydo bo‘la boshlagan. Ana shundan keyin obidlik va zohidlikni ixtiyor qilgan orif kishilar «mutasavvuf » va «sufiy » nomlari bilan ulardan ajralib chiqqanlar.

O‘tmishda «tasavvuf » turlicha talqin qilingan. Masalan, Ma’ruf al-Karxiy (vaf. 815 y.)ning fikricha, «Tasavvuf — haqiqat sari intilish, odamlardan ta’ma qilmaslik va faqirlikni ixtiyor etishdir».

Zunnun al-Misriy (vaf. 859 y.)ga ko‘ra: «Sufiy boylik istab o‘zini charchatmas va yo‘qotgan boyligiga achinib, bezovta ham bo‘lmas».

Junayd al-Bag‘dodiy (vaf. 909 y.)ning nazdida: «Tasavvuf — qalbni sof tutmoq, noxush axloqlardan forig‘ bo‘lib, hayvoniy va nafsoniy tuyg‘ular ustidan g‘alaba qilmoqdir». Bu so‘ziga qo‘shimcha qilib, Junayd al-Bag‘dodiy: «Tasavvuf bir uy bo‘lsa, shariat unga kiradigan eshikdir», degan ekan.

So‘fi Alloyor bu ta’rifni quvvatlab:

Shariatsiz kishi uchsa havog‘a,

⁵⁴ Комилов Н., Тасаввуф (1-китоб). -Т., 1999. –Б.57.

*Ko'ngil berma, aningdek xudnamog'a,
deb yozgan.*

Misrlik olim Ibrohim Basyuniy «Islomda tasavvufning paydo bo'lishi» kitobida hijriy 3 va 4-asrlarda yashab o'tgan olimlarning tasavvuf haqidagi qirqta ta'rifini keltirgan.

Tasavvuf islom shariati talablarini ham ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi olijanob fazilatlarni o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan iborat.

Tasavvufning o'ziga xos istilohlari mavjud. Masalan, Tasavvuf ilmidan saboq beruvchi zot — «shayx», «murshid», «ahli dil», «ahli hol», «pir», «eshon», «xoja», «mavlo», «mavlon», «maxdum» kabi nomlar bilan tanilgan. Tasavvufdan saboq oluvchi kishi esa «murid», «solik», «darvish» kabi nomlar bilan atalgan⁵⁵.

Tasavvuf bo'yicha oliy maqomlarga erishgan sohib karomat zotlar — «valiy», «avliyo», «qutb», «aqtoq», «avtod», «chilton», «abdol», «abror», «ahror», «nujabo», «nuqabo», «siddiq», «g'av», orif va hokazo deyilgan. Tasavvuf ahli ba'zan «oshiq», «faqir», «zohid», «ahli muhabbat», «ahli suluk», «rijolu-l-g'ayb» kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan. Tasavvuf istilohi asosida ijod etgan shoirlar ko'pincha majoz uslubini tanlaganlar. Shuning uchun «haqiqat», «majoz», «tashbeh», «istiora» kabi mantiqiy qoidalardan bexabar bo'lgan kitobxonning Navoiy, Fuzuliy, Atoiy, Umar Xayyom kabi mumtoz adabiyot namoyandalarining she'rlarini to'la anglashi qiyin kechadi.

O'tmishda ko'pgina olimlar tasavvufga doir so'zlar va ularning izohiga bag'ishlangan maxsus lug'at va qomus kitoblarni yozib qoldirganlar. Ulardan ayrimlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida hozirgacha saqlanmoqda.

Tasavvuf tariqatlarining insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shib kelayotgan benazir hissasi butun dunyo xalqi tomonidan e'tirof etilsa-da, ba'zan islom olamida tasavvufga salbiy nazar bilan qarash, tariqatlar, mashoyixlar va ularning kashf-u karomatlarini inkor etish ko'zga tashlanadi.

⁵⁵ Жузжоний А. Тасаввуф ва инсон. -Т., 2001. –Б.43.

Burhoniddin al-Biqoiyning (1406-1480) «Tasavvuf inqirozi» kitobida, Abdurahmon Damashqiy esa «Naqshbandiya tahlili» kitobida tasavvufning barcha tariqatlarini va mashoyix zotlarning faoliyatlarini qattiq tanqid qilishgan. Vaholanki, al-Biqoiy va Damashqiyning tasavvuf tariqatlari va mashoyix zotlarga qaratilgan tanqidlari noxolis bo‘lib, ilmiy nuqtai nazardan ham, shar’an ham asossizdir⁵⁶.

Tasavvufda ham bir necha tariqatlar shakllangan. Mashhurlari — tayfuriya, junaydiya, hakimiya, qodiriya, yassaviya, malomatiya, rifoia, kubroviya, suhravardiya, chishtiya, akbariya, shoziliya, bektoshiya, mavlaviya, naqshbandiya, sanusiya kabi sunniy tariqatlardir.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda tasavvuf tarixini o‘rganish, tasavvufiy ilmiy-adabiy asarlarni tarjima qilish, atokli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta’mirlashga ahamiyat berildi. Bu xayrli ish hozir ham davom etmoqda. Hakim Termiziy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota, Shayx Xovandi Tohur va boshqa ko‘plab tasavvuf tariqatlariga mansub piri komillarning hayot va ilmiy meroslarini chuqur o‘rganish, ular qoldirgan asarlardan xalqimizni bahramand etish borasida ham qator muayyan ishlar qilindi.

«Tasavvuf» kalimasi arab tilida «تصوف» V bob fe’lning masdari⁵⁷ shaklida berilgan. Ma’nosi esa, «qalb pokligi» demak. «Murshid» kalimasi arab tilidagi «رشد» – («to‘g‘ri yo‘ldan yurmoq») fe’lining IV bobi – «أرشد» – («to‘g‘ri yo‘lga yo‘llamoq») fe’lidan aniq daraja sifatdoshi, ya’ni ish harakatni bajaruvchisi – «مرشد» – («to‘g‘ri yo‘lga yo‘llovchi») ma’nosini beradi.

E’tibor bersangiz, arab tilidagi bitta so‘z o‘zbek tilida uchta so‘z bilan ifodalanmoqda. Shu sababdan ham yuqorida aytganimiz kabi tasavvufiy matn tarjimasida «realiy»larni o‘z holicha qoldirish maqbul va maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA. Tasavvufiy matnlar va atamalarni tarjima qilishda an’anaviy uslublarni saqlab qolish maqsadga muvofiqdir. Bu borada prof.N. Komilov, prof. I. Haqqulov kabi tasavvufshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar doirasida qat’iy bir qarorga kelingan

⁵⁶ Хаққулов И. Тасаввуф сабоқлари. -Бухоро, 2000. –Б. 72.

⁵⁷ Хаққулов И. Тасаввуф сабоқлари. -Бухоро, 2000. Б. 126.

ilmiy xulosalarni boyitib borish, ayniqsa, bugungi globalashuv jarayonida muhim va dolzarb hisoblanadi. Tasavvuf inson e'tiqodi, axloqi, ichki madaniyati bilan bog'liq muhim ilm bo'lgani uchun u haqda ommada to'g'ri fikrni shakllantirish muhimdir. Shuningdek, tasavvufiy matnlar, ulardagi atamalarning tarjimalarida aniqlik va bir xillik rioyasi ham muhim hisoblanadi.

REFERENCES

1. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Зикр аҳлидан сўранг. –Тошкент, 2007.
2. И. Фафуров. Куръон таржималари ва тажрибалар. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси. 2009 йил 17 апрель.
3. Н. КОМИЛОВ. Тасаввуф (1-китоб). -Т., 1999.
4. А. Жузжоний. Тасаввуф ва инсон. -Т., 2001.
5. И. Ҳаққулов Тасаввуф сабоқлари. -Бухоро, 2000.
6. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. Asian journal of multidimensional research, 10(4), 534-543.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

АРАБ РЕАЛИЯЛАРИНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАРЖИМА ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460944>

Умар ФОЗИЛОВ,
ТДШУ 2-курс магистранти,
Тошкент, Ўзбекистон.
Тел: +998998256279;
E-mail: fzilovumar482@gmail.com

Аннотация. Мақолада Араб реалияларининг мавзу таснифи келтирилган ва Араб тилидан ўзбек тилига узатишда уларнинг хусусиятлари аниқланган. Реалия типологиясини ҳисобга олиш таржимани тўғри танлаш имконини беради.

Калит сўзлар: арабча реалия, реалия таснифи, реалия таржимаси, таржима методлари.

Аннотация. В статье представлена предметная классификация арабских реалий и выявлены особенности их передачи с арабского языка на узбекский. Учет типологии реалий позволяет выбрать верный прием перевода.

Ключевые слова: арабские реалии, классификация реалий, перевод реалий, приемы перевода.

Abstract: The article presents a subject classification of Arab realities and reveals the features of their transfer from Arabic to Russian. Considering the typology of realities allows you to choose the right translation technique.

Key words: arabic realities, classification of realities, translation of realities, translation techniques.

Тил – маданиятни узатувчидир, у миллатда сақланган миллий маданият хазиналарини авлоддан авлодга узатади. [1, 15]. Лексик бирликлар орасида миллий-маданий таркибий қисмни ўз ичига олган, энг катта қизиқиш уйғотадигани, реалиялардир. Реалиялар ҳақида миллий ўзига хос элемент сифатида ўтган асрнинг 50-чи йилларида гапира бошлашди "Реалия" тушунчасида турли хил таърифлар мавжуд бўлиб, аммо, бизнинг фикримиз-ча, энг тўлиқ С.Влаховым ва С.Флориным томонидан берилган таърифдир.

"Реалия – бу бир халқга тегишли ва бошқасига бегона бўлган сўзлар (ва иборалар) объектларни номлаш, ҳаётнинг характеристикаси (хаёт, маданият, ижтимоий ва тарихий тараққиёт)

дир. "Реалия"лар, миллий ва / ёки тарихий колоритни тарқатувчидир. Уларда, қоида тариқасида, бошқа тилларда мос (эквивалентлар)и мавжуд эмас, ва шунинг учун умумий асосда таржима қилиб бўлмайди [2, 8].

Реалиялар маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан етарли даражада анча чуқур ўрганилган хусусан, қуйидаги муаллифларнинг асарлари унга бағишланган: Е.М.Верещагина, В.С.Виноградова, С.Влахова, В.Г.Костомарова, В.Н.Крупнова, Н.И.Паморозской, Я.И.Рецкера, Л.Н.Соболева, А.Е.Супруна, Г.Д.Томахина, С.Флорина, С.А.Фридриха, Г.В.Чернова, А.Д.Швейцера. Ушбу асарларда асосан инглиз ва немис реалиялари кўриб чиқилади таркиби ўзбек тилидаги сатрларни ўз ичига олади. Ҳақиқатга келсак Араб тилининг реалиялари ҳозирги кунгача арабшуносликда жуда кам ўрганилган. Тил ва муайян маданият рамкасида реалиялар сони жуда катта, ва улар турли мезонлар бўйича бутун гуруҳларга ва кичик гуруҳларга бўлинади. Бугунги кунга келиб, йўқ реалияларнинг ягона таснифи йўқ. Бироқ, бу қадар реалияларнинг таснифини тартибга солиш бу таржимонга маълум бир реалиянинг аҳамиятини визуал равишда аниқлашга ва унинг таржима қилиш усулини танлашга имкон беради. Тилшуносликдаги реалияларга қуйидагилар киради:

1) Ономастик (атоқли отлар мажмуи) реалиялар, жумладан топонимлар-географик номлар; антропонимлар-тарихий шахсларнинг номлари, бадий адабиёт ва фолклор шахслари; этнонимлар-халқлар ва қабилаларнинг номлари;

2) Этнографик реалиялар, шу жумладан уй-рўзғор буюмлари, меҳнатга оид сўзлар, маданият ва санъат, шунингдек ўлчов бирликлари ва пул бирликлари;

3) Маъмурий-худудий тузилишга оид тушунчаларни ўз ичига олган ижтимоий-сиёсий реалиялар, ҳокимият органлари ва ташувчилари, ижтимоий-сиёсий ҳаёт, шунингдек ҳарбий реалияларлар. Предмет белгиси бўйича синифи энг кўп тарқалган реалиялар. Шундай қилиб, келинг, С.Влаховым и С.Флориним: томонидан таклиф этилган предметлар бўлинишидаги таснифни асос қилиб Араб реалияларини кўриб чиқайлик.

А. географик реалиялар:

1. Табиий география объектларининг номлари:

а) Мамлакатлар: Жазоир, Баҳрайн, Жибути, Миср, Иордания, Яман ва бошқалар.

б) Шаҳарлар: Абу Даби, Адан, Ҳалаб, Байрут, Дамашқ, Доха, Дубай, Триполи, Шаржа, Риёд ва ҳоказо.

В) Географик объектлар: Вади (Водий),

Шаатии (денгиз қирғоқи), Дыфа (Дарё соҳили), Самум

سموم (куруқ, иссиқ шамол), Хомсин (чўл шамоли аниқ эллик кун эсади, у ўзи билан чанг ва қум уюмини олиб келади), азийааб (Хомсин шамоли-бу қизил денгиз устидан ўтадиган намликка тўйинган чидаб бўлмас димлик келтирадиган шамолдир) ва ҳоказо.

г) Юлдузлар: Ат-Тоиру («летящий»), Ал-ғуробу («қарға»), Байтулжавзо («эгизаклар уйи»), Ал-ақробу («чаён»), Ал- арнабу («куён»), Рукбатун («тизза»), Ар-Ромий («оёқ»)

«Ўқчи қавс юлдузлар туркуми»), Рижлун («оёқ») ва ҳоказо.

2. Эндемика (маълум бир жойга хос, маълум бир жойда бўладиган)нинг номлари (ўсимликлар ва ҳайвонларнинг номлари):

а) Ўсимликлар: Ал-хулбату («халба») – туя хашаги, хирваъун («хурмо») – канақунжит дарахти, сидрун («сидр») – нилуфар, жуммайзун («жумайз») – анжир, сантун («сант») – нил акацияси, довмун («дов») – занжабил хурмо, фуллун («фал») – араб яасмини ва ҳоказо. Хурмо араблар ҳаётида алоҳида ўрин тутади, шунинг учун араблар хурмони пишишига қараб турлича атайдилар. Шундай қилиб, масалан, янги, қаттиқ, пишмаган хурмоларни балахун деб атайдилар («балах»), янги, юмшоқ, пишган хурмоларни рутобун деб атайдилар, («рутоб») пишган, қуёшда қуритилган хурмони тамрун деб атайдилар («тамр») ва ҳоказо.

б) Ҳайвонлар: Араб тилида туянинг мингга яқин номи бўлиб, шу сабабдан туялар арабларнинг ҳаётида катта рол ўйнайди. Биз бу номларнинг бир нечасини келтирамиз: Роҳилатун («кадоқ туя»), хольфатун («хольфат»), бакиратун («серсут туя»), баъирун («баъир»), тўрт ёшдан ошган юк ортиш ва минишга яроқли туя («тўрт ёшдан ошган юк ортиш»), лақихатун («лақихат»), бадана-тун («бадана»), хомиладор туя («хомиладор»), қурбонлик учун келтирилган эркак ва урғочи туя («эркак ва урғочи»), жамалун («жамал») (эгасиз саҳрода

юрадиган, сахро кемаси номли туя), ъушарау عَشْرَاء (ўн ойлик ҳомиласи бор туя), залулун ذُلُول (пойгага мўлжалланган туя) ва ҳоказо.

В. Этнографик реалиялар:

1. Турмуш:

а) Егулик: кускусун كُسْكُس (Шимолий Африкада буғдой ёрмасидан қилина-диган тоам хуммусн حُمُّص (Кунжут пастаси аралаштириб майдаланган, лимон ва зайтун ёғи билан ишланган нўхот), куббатун كُبَّة (Ёғда қовурилган, буғдой ва қарағай уруғлари аралаштирилиб тўғралган кўй гўшtidан тайёрланган шарчалар), таббулатун تَبُّلَّة (йирик тортилган буғдой, петрушка, ялпиз ва ли-мон шарбати қўшилган помидор), варақу ъинабин ورق عنب (гуруч ва қийма гў-шт билан тўлдирилган узум барглари), фалафилу فَالْفَل (ёғда қовурилган майдаланган ловия шарикчалари) ва ҳоказо.

б) Либослар: Жилбобун جِلْبَاب (кенг узун, енглари ва бошга ўрайдиган ўран-чиғи бор кўйлак), ниқобун نِقَاب (кўзлар учун тор ёриқли юзни беркитиб тура-диган аёлларни бош кийими), химорун خِمَار (кўкрак, елка ҳамда бошни берки-тиб турадиган аёллар рўмоли), қондуратун قَنْدُورَة (эркакларнинг оқ рангли узун кўйлаги), футотун فُوطَة (Йаманда ошпаз ёки хизматчилар такадиган фар-тук), ьамаматун عَمَامَة (салла), куфиййатун كُوفِيَّة ёки ғутратун غُتْرَة (пахтали оч-қизил ёки оч-қора эркаклар бош кийими), ьиколун عِقَال (ғутра ёки куфиййани ушлаб турадиган қора иккиталик боғич), баабууши بَابُوشِي (теридан қилинган шиппак) ва ҳоказо.

в) Турар-жой, мебель, идишлар: хойматун خَيْمَة (кўчманчи чодир), қуббатун قُبَّة (гуммбаз), саахатун سَاحَة (уй олдидаги ҳовли), харимун حَرِيم (уйнинг аёллар яшайдиган бўлаги), хаммомун حَمَّام (хаммом), хавзун حَوْض (ичимлик суви сақ-ланадиган кудук), таннурун تَنْوُر (нон пиширадиган тандир), жазватун جَزْوَة (арабларнинг кофе қайнатадиган идиши), ибриқун اِبْرِيْق (кўза) ва ҳоказо.

г) Транспорт: довун دَاو (бир мачтали кема), арабатун عَرَبَة (қадимги арава), санбуқатун سَنْبُقَة (елканли кема) ва ҳоказо.

2. Меҳнатга оид: а) Касб-ҳунар: фаллахун فَالْح (деҳқон), соқин سَاقِي (Араб бозорларида сув ташувчи), жаммалун جَمَّال (туяларни ҳайдовчи) ва ҳоказо.

б) Меҳнат иш қуроллари: шаадууфун شَادُوْف (сув тортиб олиш мосламаси), кифрону قِفْرَان (пишган хурмоларни солишга мўлжалланган хурмо барглари-дан ясалган саватча), табалиятун تَبْلِيَّة (хурмо тўплаш учун палма дарахтига чиқиш учун ишлатиладиган қурилма), баатуусун بَاتُوْس (зайтун мойини сиқиб чиқаришда фойдаланиладиган улкан тош) ва ҳоказо.

в) Меҳнат ташкилотлари: никообатун نِقَابَة (профсоюз), мудириятун مُدِيرِيَّة (департамент), мазраъаун مَزْرَعَة (ферма) ва ҳоказо.

3. Фан ва маданият:

а) Муסיқа ва рақслар: анашииду أَنَاثِيْد (Анъанавий равишда ва эркаклар вокаллари билан муסיқа асбобларисиз ижро этиладиган мусулмон ашуласи), дабкатун دَبْكَة (Ливан, Сурия, Иордания ва Фаластинда халқ рақси), холийжий خَلِيْجِي (форс кўрфази мамлакатларида халқ рақси), саъидий سَعِيْدِي (Миср рақси қамиш билан) ва ҳоказо.

б) Муסיқа асбоблари: наайун نَاي (най), рикқун رِقْ (барабан тури), робабатун رِبَابَة (камончали чолғу асбобу), сантурун سَنْطُوْر (цитра га ўхшаш муסיқа асбоби), торун طَار (ноғорага ўхшаш муסיқа асбоби), ьудун عُوْد (ярмига бўлинган нок каби муסיқа асбоби) ва ҳоказо.

в) Фольклор: жиннун جِن (Араб эртақларидаги ёвуз рух), Хожа Насриддин (Араб фольклорининг қахрамони), Али Бобо (Ироқ фольклорининг шахси, у "1001 кеча" тўпламига киритилган) ва ҳоказо.

г) Шоирлик: ғозалун غَزَل (Арабча шеър тузилиши мисраси), қасидатун قَصِيْدَة (узун моноритмик шеър), байтун بَيْت (тўлиқ маъноли икки мисрали шеър) ва ҳоказо.

д) Урф-одатлар, маросимлар: маҳрун مَهْر (тўй муносабати билан куёв томонидан келинга тўланадиган моддий ҳақ), никохун نِكَاح (мусулмон қонунларига кўра никоҳ), солатун صَلَاة (намоз, мусулмон ибодати маросими), сьайун سَعْي (Ас-Сафо ва ал-Марва тепаликлари орасидаги юриш) ва ҳоказо.

е) Диний маросимлар, илоҳиётшунослар ва эргашувчилар: шайхун شَيْخ (Исломда илоҳиётшуноснинг фахрий унвони), имамун إِمَام (масжидни бошқарадиган руҳоний), муаззинун مُؤَذِّن (намоз вақтини баланд овоз билан эълон қиладиган мусулмон) ва ҳоказо.;

Диний маросимлар биноси ва буйумлар: масжидун مَسْجِد , Ал-Куръану الْقُرْآن , қиблатун قِبْلَة (ибодат вақтида юзланиш тарафи Каъба томон) ва ҳоказо.

ж) Календар: сафарун صَفَر (ой тақвимининг иккинчи ой), Рамазону رَمَضَانَ рўза оyi, ой тақвимининг 9 оyi), ذُو الْحِجَّة ذулхижжати (Ой тақвимининг 12-оyi 29 кун.) ва ҳоказо.

4. Этник объектлар:

а) Этнонимлар: кўчманчи بدو бадвун, қибтлар قِبْط қибтун(Миср насро-нийлари), қўл остида бўлган مَمْلُوك мамлукун, (ўрта аср Мисридаги ҳарбий табқа), курайшун قُرَيْش (Мухаммад ғалайҳи ас-саломга тегишли бўлган энг машҳур ва ҳурматли Араб қабилаларидан бири), ат-тавориқу الطَّوَارِق (Бербер гуруҳи Жанубий Жазоир ва Ливияда яшовчи одамлар) ва ҳоказо.

5. Ўлчов бирликлари ва пуллар:

а) Ўлчов бирликлари: зироъун ذِرَاع (узунлик ўлчови тахминан 0,6 м га тенг), қинторун قِنْطَار (44,928 кг га тенг вазн ўлчови), соъун صَاع (2660 г га тенг вазн ўлчови), шибрун شِبْر (узунлиги 22,5 см га тенг ўлчов), фаддану فَدَّان (4600 кв.м.га тенг майдон ўлчови.), ирдаббун اِرْدَبِّب (197,75 литрга тенг ҳажм ўлчови) ва ҳоказо.

б) Пул бирликлари: дирхамун دِرْهَم дирҳам, динарун

دينار динор, лиратун لِيْرَة лира, риялун رِيَال риёл флусун فِلْس , маллимун مَلِيْم маллим. ва ҳоказо.

6. Кун вақти: зуҳо ضَحَى (тонг,тонг отиши билан бошланади ва қуёш зенитдан ўтадиган вақтгача чўзилади), зухрун ظَهْر (пешин вақт, қуёш зенитдан ўтган вақтдан кейин бошланади то аср вақтигача давом этади), асрун عَصْر (асрнинг вақти,объектнинг сояси икки баробар бўлган пайтдан бошлаб қуёш ботгунга қадар давом этади), мағрибун مَغْرِب (шом номозининг вақти қуёш ботганидан бошлаб уфқдаги қизилликни йўқолгунча), ашаун عِشَاء (ҳуфтон номозининг вақти тўлиқ қоронғулик тушганидан кейин то ярим кечагача).

В. Ижтимоий-сиёсий реалиялар:

1. Маъмурий-худудий тузулиш:

Маъмурий-худудий бирликлар:

Мухофазатун مَحَافِظَة (масалан, Сурияда,Иорданияда, Қувайтда), вилоятун وِلايَة (Тунисда,Жазоирда, Суданда), иморатун اِمَارَة амирлик

(Бирлашган Араб Амирлигида), минтақотун *مِنْطَقَة* минтақа (Саудия Арабистонида Жибутида),

жихатун *جِهَة* жихат (Марокашда) ва ҳоказо.

2. Ҳокимият ва ҳокимият эгалари:

а) Ҳокимият органлари: мажлис *مَجْلِس* (Одамлар йиғилиш), шуро *شورى* (Маслаҳат) ва ҳоказо.

б) Ҳокимият эгалари: валийун *وَالِي* (раҳбар), Амирун *أَمِير* Амир (Бирлашган Араб Амирлигида), султону *سُلْطَان* султон, мухафизун *مُحَافِظ* (ҳоким), қози *قَاضِي* (шариат асосида ҳуқум қилувчи судья), вазирун *وَزِير* (вазир) ва ҳоказо.

3. Ижтимоий-сиёсий ҳаёт:

а) Сиёсий ва ижтимоий ҳаракатлар: «Кифая», «Аль-Гад» (Мисрдаги ижтимоий ҳаракатлар), ва ҳоказо.

б) Муассасалар: мадрасаун *مدرسة* мадраса (диний билим юрти), АДЛ (Араб давлатлари лигаси), ИКТ (Ислом конференцияси ташкилоти) ва ҳоказо.

4. Ҳарбий реалиялар:

а) Қуроллар: жамбиятун *جَمْبِيَة* жамбия (қўриқчисиз ханжар ва юқори учдан бирида эгилган пичоқ), хонжарун *خَنْجَر* ханжар (қиска, эгри араб қиличи), сайфун *سَيْف* сайф (ўзига хос зўр учли қилич) ва ҳоказо.

б) Ҳарбий хизматчилар: ʔамидун *عَمِيد* ʔамид (ҳарбий қўшилма генерали), фариқу ʔамидин *فَرِيق عَمِيد* (корпус генерали), фариқул - аввал *فَرِيق الأَوَّل* (армия генерали), ливааун *لواء* ливаа (қўшилма генерали), Ас-савсанатуссавдау *السَّوْدَاء السَّوْسَنَة* «Қора лола» (Иорданиядаги ҳарбий қисм) ва ҳоказо.

Реалияларни таржима қилиш таржимон учун айрим қийинчиликларни келтириб чиқаради. Реалияларни нотўғри талқин қилиш бошқа тилда ўқувчига реалияларнинг тўлиқ ошкор этилмаслигига ҳамда услубий маъноларни тушунмасликка олиб келади. Бундан ташқари, реалияларни таржима қилишда қуйидагилар зарур, нафақат уларнинг маъносини етказиш, балки маданиятнинг бу ўзига хос колоритини акс эттириш лозим бўлади. Шунини таъкидлаш керакки, Араб ва ўзбек тиллари турли хил таркибий тиллар ва турли хил концептуал тизимларга эга, шундай қилиб, етарли таржимани

олиш учун таржима қилинаётган тилнинг ҳақийқилиги ҳақида аниқ билимга эга бўлиши керак. Таржима назариясида бу билимга "фон билими" ("фон") номи берилди, "фон ахборот", "фон маълумот"). Таржимашуносликда реалияларни таржима қилишнинг қуйидаги усуллари асосан қўлланилади: транскрипсия ва транслитерация; тавсифловчи таржима; гипонимик таржима; ўхшатиш таржима; калька таржима. Юқорида келтирилган таснифни таҳлил қилиб шуни айтишимиз мумкин реалияларни таржима қилишда, асосан транскрипсия усули ишлатилади, унда чет эл сўзининг товуш шакли такрорланади ва транслитерация усули, унда чет эл сўзининг график шакли (ҳарф таркиби) кўпайтирилади. Шундай қилиб, Араб мамлакатлари ва шаҳарларининг баъзи номлари транскрипсия орқали таржима қилинган: Баҳрайн, Жибути, Ироқ, Яман, Қатар, Қувайт деб (лекин шуни таъкидлаш керакки, таржимада Баҳрайн, Ироқ, Яман, Қувайт каби мамлакатлар, "ал" аниқ артиклизисиз ёзилди, лекин "ал" аниқ артикли арабча тилида ёзилган, шундай қилиб, бу ерда биз юклаган транскрипсия ҳақида гапирармиз), Ар-Риёд, Абу-Даби, Доҳа, Адан, Байрут, Дубай, Шаржа ва бошқ. Қолган Араб мамлакатлари ва шаҳарларининг номлари, ўзбек тилига юклагансиз келди масалан, Ал-Жазоир ўрнига Жазоир каби шакллар рус тили орқали кириб келган Египет ўрнига Миср, Ал-Урдун ўрнига Иордания Ливан баъзи ўринларда ўз шаклида Ал-Лубнан ўрнига Лубнан бошқа тилдан Ал-Мағриб араб тилида бошқа тилдан келганидаги ҳарф бошқасига ўзгартирилади русларда Марокко ўрнига ўзбекчада Мароқаш, Палестина, ўрнига Фаластин, Сирия ўрнига Сурия, Дамаск ўрнига Дамашқ, Ҳалаб ўзи келган, Триполи ўрнига Таробулис. Уларнинг аксарияти транслитерация орқали ўзбек тилига таржима қилинган, Жазоир, Миср, Иордания, Мароқаш, Фаластин каби, Сурия, Дамашқ, Ҳалаб, Триполи. Юлдузларнинг баъзи Арабча номлари ҳам бор транскрипсия қилинган: Ал-Ғуроб, Ал-Ақроб ва ҳоказо. Аммо Гайид, Гиддан лексемалари шева сабабидан пайдо бўлган бу лексемалар аслида бундай кўринишда Жайид, Жиддан бўлган буларни Гайид, Гиддан шаклида талаффуз қилиниши арабларнинг баъзи шеваларида мисол учун миср шевасида “ЖИМ” ҳарфи ўзбекча “Г” ҳарфи каби талаффуз қилинсада ёзувда “ЖИМ” ҳарфи асл ҳолича

ёзилади, аммо классик араб тилида қандай ёзилса шундай талаффуз қилинади. Худди шу деформациялар (шаклнинг ўзгариши) маҳаллий диалект талаффузи билан боғлиқ ҳолда, бу ерда "каф" ҳарфи "жим" ҳарфи сифатида талаффуз қилинади, Масалан Дубайда аёлларга мурожатда "Исмингиз нима" сўзини шеvasига мувофиқ ишлатилади яъни "Ма-смуж" шаклида аммо классик араб тилида қандай ёзилса шундай талаффуз қилинади "Ма-смук". Аммо баъзи арабча предметларнинг номлари, эҳтимол европаликлар томонидан Араб тилини ўқишни яхши билмаслиги учун "қуёш" ҳарфлари билан "ал" аниқлик артикилини, транслитерация қилишган, масалан, Ал-Таироту ва Ал-Саййароту, бу лексемаларда ҳамма томонлама араб тилининг қоидалари мувофиқ Ат-таироту ва Ас-Саййароту каби янграши керак эди. Дарҳақиқат, транскрипсия ва транслитерация нафақат маънони қисқартириш учун ишлатилади, балки матнга "жонли" колоритни бериш учун ишлатилади, айниқса, бадий асарларда. Шундай, масалан, И. А. Буниннинг сиз ҳақингизда шеърларида араб реалияларини транскрипсияланиши ва транслитерацияланиши шеърга экзотик колорит беради ва айти пайтда, у ёки бу реалиянинг маъносини қўшимча тушунтиришсиз англаш мумкин бўлади: «Зейнаб, свежесть очей! Ты – арабский кувшин: / Чем душнее в палатках пустыни, / Чем стремительней дует палящий хамсин, / Тем вода холоднее в кувшине» [3, 63]. "Зайнаб, тароват кўзларнинг! Сен Араб жувонисан: / чўлнинг чодирларида қанча дим бўлса, / шунча тез ёниб хамсин эсади, / кўзадаги совуқроқ сув" [3, 63].

Ибтидо мекунам ба номи худо, / Аллоҳ номи билан бошлайман

К-аз ду харф офарид арзу само/Икки ҳарф билан арзу самони яратди (Чаҳор китоб)дан.

Аммо баъзи ҳолларда транскрипсия ва транслитерация реалиянинг мазмунини тўлиқ очиб бермайди ва натижада, қабул қилувчида ахборот йўқотиш юзага келади, шунинг учун улар кўпинча масалан, араб ўлчов бирликларини узатишда, транскрипсия ёки транслитерациядан фойдаланиб бирлаштирилган таржимани амалга оширади шархлаш ёки тушунтириш орқали. Масалан, ҳадисларда соъ каби вазн ўлчови бирлиги тез-тез зикр қилинади, ривоят қилинишича, Абу Саъид Ал-Худрий, Аллоҳ ундан рози бўлсин, деди:

"Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам ҳаётлик чоғларида,

Биз фитр садақасини (камбағалларга) егуликлардан бир соъдан берар эдик, [4, 177]. Транслитерация усули билан таржима қилинган мазкур реалия, аниқлаштиришни талаб қилади, аниқлаштиришсиз биз ҳатто бу ерда ўлчов бирлиги ҳақида гапираётганимизни тушуниш ҳам мумкин эмас, Шунинг учун қуйида изоҳда ёки унинг ёнида қавс ичида соъ- 2660 г га тенг вазн ўлчови эканлигини кўрсатиш керак. Кўпинча, релияларни таржима қилишда, чет эл сўзига изоҳ берилаётганда тавсифловчи таржимага мурожаат қилишга тўғри келади. Харбий реалиялар шундай усул ёрдамида таржима қилинган Жамбиятун *جمبية* (қўриқчисиз ханжар ва юқори учдан бири эгилган пичоқ) *فريق عميد* Фариқу Ёамидин (корпус генерали); шунингдек, Араб урф-одатлари ва маросимларини, мусиқий асбобларни, асбобларни, календарларни, озиқ-овқат ва кийим-кечак унвонларини акс эттирувчи реалиялар ҳам юқоридаги усул билан таржима қилинади. Кўпинча, реалияни таржима қилганда, гипонимик (умумлашган-тахминий таржима) ишлатилади, унда манба тилининг маълум бир тушунчани билдирадиган сўзлар (манба тили), таржима тилининг сўзи билан узатилади, Масалан, Қуръон қуйидаги оят

(و هزّي إليك بجدع النخلة تساقط عليك رطباً جنياً)

(19:25) Э.Р.Кулиевым қуйидаги таржимани берган: «Хурмо дарахтининг танасини силкит, сенга янги хурмо туширади» [5, 328]. Бундай ҳолда, *رطب* сўзи "юмшоқ, пишган хурмо" тушунчасига эга бўлган ва хурмо пишиб етилишининг ўзига хос босқичини кўрсатадиган "юмшоқ, пишган хурмо" сўзи "хурмо" сўзининг умумий тушунчаси билан алмаштирилди. Шунингдек реалияни таржима қилганда, ўхшатиш таржимаси ҳам ишлатилади, унда манба тилининг реалиясини таржима тилига узатиш учун, чет эл реалияси билан ўхшашликларга эга бўлган ва реалияни моҳиятини очиб бера оладиган концепция изланади. Масалан, кунда беш марта фарз бўлган "намоз" тушунчаси, бу сўз ўзбек тилига форсча "намоз" сўзи билан кирган. Яна бир мисол: Ҳаммам, Барановнинг Арабча-ўзбекча луғатида қуйидаги таржимаси бор: "баня, ванна, купальня". Бироқ, бу тушунчалар ўзаро сезиларли фарқларга эга. Биринчидан, анъанавий равишда ўзбек ҳаммоми ёғочдан ясалган бино бўлиб, Ҳаммам эса керамик плиткалар ёки мраммардан қурилган, бошқа муҳим нарсалар

ҳақида гапирмаса ҳам бўлади. Баъзида, Арабча реалияларни таржима қилишда таржиманинг калька усули ишлатилади. Калька усули ёрдамида, масалан, Иорданиядаги ҳарбий бирлик. Ас-Савсанату-ссадда (السوسنة السوداء) “қора Ирис” таржима қилинди Шунини таъкидлаш керак-ки, баъзи Араб реалиялари аллақачон ўзбек тилида мустаҳкам ўрнашиб бўлган ва айрим ҳолларда уларни таржима қилиш талаб этилмайди Шайх, Имом, масжид ва ҳоказолар каби. Шундай қилиб, Араб реалияларини ўрганиш учун улкан ва кенг қатламни англатади. Тақдим этилган таснифни асослаб шунини айтиш мумкинки, транскрипсия ва транслитерация усуллари ономастик реалияларни таржима қилиш учун ишлатилади. Этнографик реалияларни узатишда, транскрипсия ва транслитерациядан ташқари, тавсифловчи, гипонимик ёки ўхшатиш таржималари ишлатилади. Бироқ, буни айтиш керак таржима амалиётида бу усулларнинг барчаси бир-бири билан бирлаштирилади, яъни. комбинацияланган таржима қўлланилади, модомики уларнинг ҳар бирини алоҳида камчиликлар бор Масалан, фақат транскрипсия ва транслитерациядан фойдаланиш текстнинг таржимасида ортиқча юкга олиб келиши мумкин “экзотизмлар” билан тавсифловчи таржима матннинг ҳаддан ташқари кенгайишига, гипонимик таржима маънонинг торайишига, ўхшатиш таржимаси эса миллий колоритнинг йўқолишига олиб келади.

ХУЛОСА

Реалиялар тилшуносликнинг қисман янги йўналиши бўлиб, олимлар томонидан чуқур ўрганиб келинаётганига қарамай, таржима соҳасида ҳали кўплаб қирралари очилмаган. Лексик бирликлар орасида миллий-маданий таркибий қисмни ўз ичига олган, энг катта қизиқиш уйғотадигани, реалиялардир. “Реалиялар асар тилининг ажралмас қисми бўлиб, улар ёрдамида муаллиф қаҳрамон образини яратади, халқнинг миллий хусусиятини тасвирлаб беради. Улар бадиий асарнинг миллий колоритини ифода этади, турли услубий вазифаларни бажаради, ҳодиса ва предметларнинг хусусиятини ҳаққоний, тўғри тасвирлашга ёрдам беради”. Шунинг учун ҳам реалиялар бадиий таржиманинг таржимонни қийнаб қўядиган, таржимани мураккаблаштирадиган, кўпинча уни чалғитадиган

жихатларини ташкил этади. Бу мавзуни таржимон ёки шу ишга қўл урган шахс теран англамоғи керак.

REFERENCES

1. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: Учебное пособие. – М.: Слово, 2000. – 259 с.
2. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1986. – 416 с.
3. Бунин И.А. Полное собрание сочинений. Т.3. –Петроград: Издание Т-ва А.Ф.Маркс, 1915. –247 с.
4. Сахих аль-Бухари. (Мухтасар полный вариант) пер. с араб. В.А.Нирша. – М: Умма, 2003. – 522 с.
5. Кулиев Э.Р. Коран: Перевод смыслов. – М.: Умма, 2007. – 688 с.
6. qizi Umarova, M. A. (2021). Uzbek kinship words and their translation into urdu language. *Current research journal of philological sciences (2767-3758)*, 2(05), 113-116.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: *Historiography of Translation. History of Translation in India*, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASI TARJIMASIDA MILLIY XARAKTERNING QAYTA YARATILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460958>

Otabek TO‘LAGANOV,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998977574566;
E-mail: OtabekTo'laganov997@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi tarjimasida milliy xarakterning qayta yaratilishi xususida bo‘lib, tarjimashunoslikda badiiylikning faqat o‘zi emas, balki uning tarjimada qay darajada berilganligi, soddaroq aytganda, yozuvchining mahorati emas, tarjimonning mahorati masalalari ko‘rib chiqiladi. Asar badiiyati va u bevosita bog‘liq bo‘lgan asar tili, ya‘ni yozuvchi uslubining tarjimada to‘laqonli berilishi bilan bog‘liq masalalar tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy xarakter, yozuvchi mahorati, tarjimon mahorati, yozuvchi uslubi.*

Аннотация: *В данной статье будет рассмотрено воссоздание национального характера в переводе рассказа Уткира Хашимова «Произведения мира». Изучается художественность произведения и непосредственно связанный с ним язык произведения, то есть вопросы, связанные с полной передачей стиля писателя в переводе.*

Ключевые слова: *национальный характер, стиль писателя, язык произведения*

Abstract: *This article is about the re-creation of national character in the translation of O'tkir Hashimov's short story "Works of the World". will be considered. The artistry of the work and the language of the work, which is directly related to it, that is, issues related to the full rendering of the writer's style in the translation, are studied.*

Key words: *national character, writer's skill, translator's skill, writer's style.*

O‘zbek kitobxonlarining javonidan munosib o‘rin olgan “Dunyoning ishlari”⁵⁸ qissasi dunyoning bir qancha tillariga, jumladan turk tiliga ham

⁵⁸ Hoshimov O‘., “Dunyoning ishlari” –T.: 2005.- 208 b.

(Mohir Unlu tomonidan) tarjima qilingan⁵⁹. Ushbu asar o‘zbekona milliylik chuqur singdirilgan asar hisoblanadi. “O‘tkir Hoshimovning tili, jonli o‘zbek tili, asar yozish uslubi esa shaharda, qishloqda, fabrikada va dalada mehnat qilayotgan o‘zbek xalqining nutq uslubidir, – deb yozadi asarni turkchaga o‘giran tarjimon Mohir Unlu, – asar mavzusi ham xalq hayotidan olingan, qahramonlari o‘zbeklar, ruslar, lo‘lilar, qisqasi, O‘zbekistonda yashayotgan oddiy insonlardir. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi yozuvchining asarlarini sevib o‘qiydi”⁶⁰.

Tarjimashunos olim E. Ochilov shunday yozadi: “Badiiy asarda tasvirlangan milliy xususiyatlarni tarjimada ham aynan saqlab qolish kerakmi yoki o‘zgartirish – tarjima tili mansub xalq yashayotgan zaminga ko‘chirish kerakmi degan masala hali-hanuz o‘zining uzil-kesil yechimini topmagan. Bunday deyishimizning sababi realistik tarjima nazariyasi u yoki bu xalqning milliy obidasi ekanligi nuqtai nazaridan har qanday asarda o‘z tasvirini topgan milliy xususiyatlar tarjimada ham aks etishi shart deya bu borada qat’iy xulosa chiqarib qo‘ygan bo‘lsa-da, tarjima amaliyotida hanuz o‘zboshimchaliklar, o‘z xohishiga qarab ish tutishlar, allaqachon voz kechilganiga qaramay, milliy lashtirib tarjima qilishlar oz bo‘lsa-da, uchrab turibdi”⁶¹.

Asardan keltirilgan quyidagi parchaga e’tibor qaratamiz: “*Goho-goho osmonda birdan yulduz uchib qolardi. Hozirgina yonib turgan yulduz to‘satdan lop etardi-yu, ingichka, nurli iz qoldirib g‘oyib bo‘lardi*” [1,6]. Ushbu ikki jumla turkchaga chiroyli qilib o‘girilgan. O‘zbek va turk xalqlarining bir tabiat hodisasiga o‘xshash tarzda ishonishi unda aks etgan: “*Arada bir gökyüzünde bir yıldız kayardı. O anda yanıp duran yıldız uzakta bir parlardı da incecik, parlak bir iz bırakarak kaybolurdu*” [2,15].

O‘.Hoshimov asarlarida milliylik ko‘p hollarda realiyalar vositasida aks ettiriladi: “*Atrof jimjit. Faqat olisda it akilaydi. O‘tov keragasidan shom yegan oy mo‘ralaydi*” [1,204]. Bu yerda o‘tov, keraga so‘zlari realiyalardir. Parcha turkchaga quyidagicha o‘girilgan: “*Etraf sessiz. Yalnız, uzakta bir köpek uluyordu. Çadırın kafesli penceresinden akşam doğan ayın nuru içeri süzülüyordu*” [2, 202]. Kelib chiqishiga ko‘ra turkiy

⁵⁹ Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi, İstanbul, Mart 2014, 206 s.

⁶⁰ O‘sha asar, S.13

⁶¹ Ochilov E., Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. –T.: 2014, 105-b.

soʻz hisoblangan “oʻtov” soʻzi hozirgi zamon turk tilida “çadır” deyiladi. Shuning uchun tarjimon uni “çadır” deb toʻgʻri tarjima qilgan.

Original asar badiiyati, milliy oʻziga xosligining tarjimada qayta yaratilishi haqida soʻz borganda, avvalo badiiylik, badiiy adabiyot tili (uslub), asarning badiiy xususiyatlari nima ekanligini aniqlab olish kerak boʻladi. Adabiyotshunoslikda badiiylik atamasiga quyidagicha taʼrif beriladi: “Badiiylik – keng maʼnoda sanʼatning ijtimoiy ong shakllarining boshqa turlaridan farq etishini koʻrsatuvchi tushuncha boʻlib, uning asosida voqelikni obrazlar vositasida aks ettirish yotadi.

Badiiylisiz sanʼat boʻlmaganidek, obrazli aks ettirishsiz badiiylik ham yoʻq. Tor maʼnoda esa estetik jihatdan bir sanʼat asarining yuksak saviyasini ifodalaydi, yaʼni asar mazmuniga mutanosib badiiylik elementlarining mujassamlashishini anglatadi. Shuning uchun ham badiiylik masalasini asarning faqat shakliy jihatlari bilan bogʻlab qoʻyish toʻgʻri emas. Badiiylik asar mazmuniga asardagi barcha badiiy tasviriy vositalarning mos kelishidan iborat. Bunday mutanosiblik ijodkorning mahorati va ijodiy tajribasi, asar mazmunining gʻoyaviy barkamolligi, asardagi badiiy haqiqatning badiiy haqiqat matiqiga mos kelishi va h. bilan bogʻliq”⁶². Tarjimashunoslikda badiiylikning faqat oʻzi emas, balki uning tarjimada qay darajada berilganligi, soddaroq aytganda, yozuvchining mahorati emas, tarjimonning mahorati masalalari koʻrib chiqiladi. Asar badiiyati va u bevosita bogʻliq boʻlgan asar tili, yaʼni yozuvchi uslubining tarjimada toʻlaqonli berilishi bilan bogʻliq masalalar tadqiq etiladi.

Milliylik tabiat tasviri va boshqa turli badiiy vositalar bilan omuxta holda bir olam mazmun ifoda etib, muallifning mahorati, oʻziga xos uslubini namoyon etadi: *“Ertalab yomgʻir yoqqan edi. Darvozaning temir panjaralarida suv tomchilari yaltiraydi. Koʻlmakda quyosh jilolanadi. Muzdek tutqichdan ushlagancha turib qoldim. Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas, bir-birini rad etmas, ikkalasi qoʻshilib bahor nafasiga toʻlgan osmonda, qabriston yoʻlkasidagi kuchala chiqargan teraklar ustida parvoz qilar edi: “Rabbano-o-o, rabbano-o-o...” “Allayo, alla...”*[1,203]. Tarjimon ushbu

⁶² Хотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 353-б.

parchani o‘g‘irar ekan, uning tub-tubida yotgan ichki mazmunni ilg‘aydi: *“Sabahleyin yağmur yağmışti. Mezarlik kapısının demir parmaklıklarında su damlaları parlıyordu. Yerde göllenmiş sular da güneşin parlak ışıkları aksediyordu. Buz gibi kapı kolunu tutup kaldım. Bir tarafta Kur'an-ı Kerim tilaveti, bir tarafta ninni... Hayret, bunlar birbirine zarar vermiyor, birbirini reddetmiyor, ikisi birləşib bahar havasıyla dolan gökyüzünde, mezarlik içindeki patikaların kenarında püskül çıxaran kavakların üstünde kanat çırpıyorlardı: “Rabbena, amenna...” “Ninni, ninni...” [2,201].*

Badiiy til asar mazmunini ro‘yobga chiqaruvchi yagona vosita hisoblanadi. Har qanday asar o‘z mazmuni, tili (uslub), sodda yoki murakkab poetik sintaksisiga ega bo‘lishi, so‘zlarning ko‘chma ma’ noliligi jihatdan turli saviyada yozilgan bo‘lishi mumkin. “Badiiy til ijodkorning g‘oyaviy-badiiy maqsadini to‘la ro‘yobga chiqargandagina, u asarning tili badiiy kamolotga yetgan hisoblanadi”⁶³. Boshqacha aytganda, badiiy til yozuvchining asar yozishda o‘z oldiga qo‘ygan niyatiga yetgan taqdirdagina barkamol hisoblanadi. Bu yerda badiiy til deganda bevosita badiiy uslub nazarda tutiladi. Tarjimada badiiy til xususiyatlarining berilishi deganda ham yozuvchi uslubining tarjimada qayta yaratilishi, undagi muammolar tushuniladi. Yozuvchi chuqur his etgan voqelikning obrazlar vositasida mukammal tarzda aks ettirilishi badiiylikning mohiyatini tashkil etadi.

Tabiat tasviri aks etmagan mukammal badiiy asar bo‘lmaydi. “Badiiy asar tili inson qalbini butun murakkabliklari bilan yo‘g‘rilgan holda tabiat manzaralariga hamohang tarzda aks ettiradi”⁶⁴. Muallif haqiqiy ijodkor bo‘lsa, obrazni ona tabiat bilan birga, doimiy uyg‘unlikda tasvirlay oladi. Yaxshi tarjimon esa muallif uslubiga sodiq qolib, tasvirni adekvat qayta yaratish uchun butun kuchi, bilimi, iste’dodini ishga solishi lozim.

Badiiy asarda tabiat tasviri va interer muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ijodkor insonni u hayotda har doim hamnafas bo‘lgan tabiat bilan birga, doimiy uyg‘unlikda tasvirlaydi. Tabiatga xos barcha xususiyatlar, uning go‘zalligi-yu injiqliklaridan bahra olib, unga shaydo bo‘lib yashash, ilhomlanish faqat insonga xos. Tabiatning betakrorligi insonda, uning ruhiyatida aks etadi. Yozuvchi va shoir badiiy so‘z vositalaridan, rassom

⁶³ O‘sha asar, 353-бет

⁶⁴ Хотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 375-бет.

xilma-xil bo‘yoqlardan foydalangan holda tabiatni o‘z asarlarida aks ettiradi. Shu bois hech bir badiiy asarni tabiat, atrof-muhit tasvirisiz tasavvur qilish mumkin emas. “Agar ilmiy asarlar tili umumlashgan tushunchalarni anglatsa, badiiy asarlar tili tabiat manzaralarini va inson qalbini butun murakkabligi bilan aks ettiradi. ... so‘z san’atkori hayotning hamma qirralarini tasvirleydi. ... badiiy adabiyot mazmunni obrazli til vositasida aks ettiradi”⁶⁵. O‘. Hoshimov asarlarida ham O‘zbekistonning betakror tabiatini badiiy san’atlardan foydalangan holda tasvirlanganini ko‘ramiz. Tabiat manzaralari tasviri ijodkorning badiiy mahoratini namoyish eta oladigan muhim omillardan biri sanaladi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning so‘z boyligi, so‘zlarni qo‘llash darajasi, o‘zi qalamga olayotgan makonga munosabati va boshqa jihatlari ayon ko‘rinadi.

Ma’lumki, ko‘pchilik ijodkorlar asarlarini tabiat tasviri, xususan, voqea sodir bo‘ladigan joyni tasvirlash bilan boshlaydilar. Ba’zi yozuvchilar esa tabiatni tasvirlar ekan yaqinda yuz beradigan voqea haqida oldindan xabar beradilar. Ana shu an’anaga sodiq qolgan o‘zbek yozuvchisi ham asarning ilk sahifalaridanoq ona tabiatga xos manzarani tasvirlash orqali kitobxonni asarga olib kiradi. Masalan, yozuvchi yulduzlar to‘la aksi osmonni obrazlar vositasida quyidagicha tasvirleydi: *“Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to‘lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi...”*[1,6]. Jumlaning obrazli asosini tashkil etgan “yirik-yirik yulduzlar bilan to‘lgan osmon...” birikmasi to‘la badiiy obrazlilik kasb etadi. Bunda yozuvchi voqelikni badiiy aks ettirish, kitobxon ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida badiiy vositalardan foydalangan. Tasvirda bir qarashda milliy o‘ziga xoslik anglashilmasligi mumkin. Chunki, “yirik-yirik yulduzlar bilan to‘lgan osmonga ingichka oyning suzib chiqishi” umumiy tasvir. Faqat oy “tillaqosh” (ayollarning tilladan yasalgan yoki tilla suvi yugurtirilgan, peshonaga taqiladigan bezak buyumi⁶⁶)ga o‘xshatilgani bilan milliylik kasb etadi. Turk tarjimoni bu nozik o‘xshatishni so‘zma-so‘z o‘giradi (altin bir kaş gibi). Holbuki, turk kitobxonni bundan muayyan bir tasavvur olsa-da, “o‘zbek ayollari taqadigan tilladan yasalgan yoki tilla

⁶⁵ O‘sha asar, 375-б.

⁶⁶ ЎТИЛ, 2-жилд, 177-б.

suvi yugurtirilgan, peshonaga taqiladigan bezak buyumi”ni xayoliga keltirmaydi: “*Sonra pırl pırl yıldızlarla dolan gökyüzünde incecik altın bir kaş gibi ay görünürdü. Annem ayakta, aya bakarak yavaşça fısıldardı...*”[2,15]

Xulosa shuki, har qanday mukammal badiiy asar milliylikka yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Tarjimada ana shu milliylikning adekvat bera olinganligi esa tarjimaning sifati va saviyasini belgilaydi. Tabiat tasviri ijodkor badiiy mahoratini namoyon etuvchi muhim omillardan sanaladi. Chunki manzaralar tasvirida ijodkorning so‘z boyligi, uni qo‘llash darajasi, qalamga olingan makonga munosabati yuzaga chiqadi. “Dunyoning ishlari” qissasida O‘zbekiston tabiatini qanchalik san’atkorona tasvirlagan bo‘lsa, tarjimon ham buni ishonchli qayta yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1] – Hoshimov O‘., “Dunyoning ishlari” –T.: 2005.- 208 b.
- [2] – Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü, Bilgeoğuz Yayınevi, İstanbul, Mart 2014, 206 s.
- [3] – Ochilov E., Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. –T.: 2014, 105-b.
- [4] – Хотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 353-б.
- [5] – Akhmedova, D. R. (2016). Some stylistic features of persian adjectives in a metaphorical meaning in newspaper texts. *Paradigmata poznani*, (4), 27-29.
12. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
13. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
14. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
15. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
16. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

MAHALLIY O‘ZIGA XOS SO‘ZLARNI IFODALASH VA ULARNI TARJIMADA QAYTA YARATISH MUAMMOLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460977>

Abdulaziz DJUMANOV,
TDSHU 2-kurs magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998909656363;
E-mail: abdulaziz030589@icloud.com

Annotatsiya: *Necha asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan tarjima va tarjimonlik qadim ijodiy faoliyat sohalaridan biri sanaladi. Dunyoning turli qit‘alari va mintaqalarida bir necha asrlardan buyon xalqlar o‘rtasida aloqa vositasiga aylantib ulgurdi. Tarjimonning asosiy vazifasi asliyat tilda ijodkor tomonidan tasvirlangan milliy ma‘naviyat vat til madaniyatini qaytadan shakllantirish sanaladi. Buning aksi bo‘lganda esa tarjima qilinayotgan tilga mansub xalq tiliga va madaniyatiga nisbatan hurmatsizlik qilgan bo‘ladi va noto‘g‘ri talqinga sababchi bo‘ladi. Shu bois tarjimon nafaqat tilni balki shu tilga aloqador barcha jihatlarni yaxshi bilgan holda va ularni nazarda tutgan holda tarjima ishiga kirishishi lozim.*

Kalit so‘zlar: *til, tarjima, madaniyat, milliy ma‘naviyat*

Аннотация: *Переводческий и устный перевод, формировавшийся в истории и культуре народов мира на протяжении веков, считается одной из древнейших творческих сфер. Он стал средством общения между народами разных континентов и регионов мира на несколько столетий. Основная задача переводчика – воссоздать на языке оригинала национальную духовность и языковую культуру, описанные создателем. Если наоборот, то это будет проявлением неуважения к языку и культуре людей, принадлежащих к переводимому языку, и вызовет неправильное толкование. Поэтому переводчик должен начинать работу по переводу с хорошим знанием не только языка, но и всех аспектов, связанных с этим языком.*

Ключевые слова: *язык, перевод, культура, национальная духовность.*

Abstract: *Translation and interpretation, which has been forming in the history and culture of the peoples of the world for centuries, is considered one of the ancient creative fields. It has become a means of communication between peoples in different continents and regions of the world for several centuries. The main task of the translator is to recreate the national spirituality and language culture described by the creator in the original language. If it is the opposite, it will be disrespectful to the language and culture of the people belonging to the language being translated and*

will cause misinterpretation. Therefore, the translator should start the work of translation with a good knowledge not only of the language, but also of all the aspects related to this language.

Key words: *language, translation, culture, national spirituality*

O‘zbekiston dunyo maydoniga rivojlanayotgan mustaqil davlat sifatida kirib borar ekan, xorijiy mamlakatlar tilini o‘zlashtirib, olib borayotgan siyosati, iqtisodiy masalalari kabi jabhalarni chuqur bilish bilan bir qatorda, ularning tajribasi, taraqqiyotga yetaklovchi qirralari, ko‘nikmalaridan o‘rganishni ham muhim olmil sifatida qaramoqda. Shu jihatdan mamlakatimizda xorijiy tilni ham ona tili darajasida mukammal biladigan, yetuk va bilimli tarjimonlarga talab bormoqda. Sharq davlatlari bilan mamlakatimiz orasida yo‘lga qo‘yilayotgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorliklarimiz istiqbolida sharq tillaridan o‘zbek tiliga va ona tilimizdan sharq tillariga tarjima qiladigan yosh tarjimonlarni yetishtirish vos kechib bo‘lmaydigan hayotiy ehtiyojlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois milliy ma’naviyatimiz va til madaniyatimizni mukammal biladigan avlodni yetishtirish ham ulkan ma’suliyatdir. Chunki tarjimondan chet tilidan o‘z ona tiliga yoki aksincha ona tilidan boshqa tilga tarjima qilish asnosida milliy ma’naviyatini ham asliga monand tarzda yetkazib berish talab etiladi.

Arab tili boshqa tillar kabi o‘z xususiyatlariga ega bo‘lgan til xisoblanadi. Arab tili tarjimonlari ikki turga, arab tili ona tili bo‘lgan tarjimonlar va arab tili ikkinchi til sifatida o‘rgangan tarjimonlarga bo‘linadi. Arab tilining qulayliklari fanetik va marfalagik tarafdin boshqa dunyodagi yetakchi tillar bilan chog‘ishtra olinadigan til bo‘lib. Misol uchun Ingiliz, Rus, Fransuz tillari ham marfalagik jihatdan (so‘z/gap tuzilishiz) deyarli birxil. Fanetik tarafdin yondoshsak Arab tili ham tovushlilar oilasiga mansub til hisoblanadi. Arab tili sinxron tarjimasi xozirgi paytda keng targ‘ibot qilinayotgan yonalishlardan biri sanaladi.

Tilning mohiyati va vazifasi haqida gap ketganda eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Lekin bu tilning juda ko‘plab vazifalaridan biridir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda til ruhiy, estetik hodisa hamdir. Til xalq, millat ruhining ajoyib, betakror oynasidir. Tarjima orqali xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan xos suzlar ma’no va

shakllaridan kura kuprok ularning muayyan kontskstlarda utab keladigan vazifalarini kayta yaratish masalasi mashgul kilmogi darkor. Bu san'atkorni asl nusxadagi xos suzlarni beasos tarjima matniga kuchirish yoki mumkin bulmagan takdirida xam ularni tarjima tilidagi xos suzlar bilan almashtirib kuyish xavfidan saklab koladi. Tarjima amaliyotiga vazifaviy uygunlik nuktai nazaridan yondashish asliyatdagi bunday ifoda vositalarining xajm, vazn, mikdor, xislat, xususiyat va vazifa anikligini kayta yaratadi, shu bilan birga tarjimaning keng kitobxon ommasiga yaxshi tushunarli bulishiga erishish imkoniyatini beradi.

Xorijiy tildan tarjimada madaniyatini ko'rsatish xos so'zlarni o'g'irishda avvalo ularning muayyan kontekstlarda uslubiy vazifalarini aniqlash va tarjima tilida ularga mos, ayni paytda shu til me'yor va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurdir.

Misol uchun arab tilidan o'zbek tiliga fraziyalogiyalarni tarjimasida ikki xalqqa mansub madaniyat va ma'naviyatni ifodalaydigan iboralarni qo'llagan holda tarjima qilish zarur.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, xalqning madaniyati frazeologik brikmalarda yorqin o'zini ko'rsatadi. Frazeologik birliklarni tarjimonlar "tarjima qilishi oson" yoki "tarjima qilinishi qiyin" gruhlarga bo'lishadi. Albatta tarjimon bu birliklarni to'g'ri tarjima qilishida arab madaniyatini ham bilishi zarur hisoblanadi.

Masalan *أُمُّ الْفَرَى* – ("shaharlar onasi") Makka shahri haqida gap ketyabdi. Yoki *نُو الْأَيْدِ* – ("qoli bor") esa "kuchli, qudratli" ma'nosida keladi.

Hikmatli so'zlar, maqollar tajimasida ham tarjimondan mahorat talab etiladi. Masalan quyidagi maqolni olib qaraydigan bo'lsak:

(من شاب علي شيء شاب عليه)

Agar tarjimon bir vaqtning o'zida arab tilini va madaniyatini mukammal bilmasa, maqolini g'aliz tarjima qiladi.

(كيفما يكون الانسان في السابعة من عمره سيكون في السبعين ايضاً)

Shu bois bu maqolni o'zbek tiliga *Yetti yoshda inson qanday bolsa yetmish yoshda ham shundaydir* maqoli yordami bilan tarjima qilish mumkin.

Bazan tarjimonlardan ma'lum ko'nikma va tajribaning yetishmasligi tarjima jarayonida namoyon bo'ladi. Notiqning tez gapirishi yoki

ovozi ham past eshinishi ham tarjima sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Jumladan, tarjimada milliy koloritni namoyon etuvchi omillar sifatida nafaqat so'z (umumiy iste'moldagi so'zlar, terminlar, poetik so'zlar, varvarizmlar, xorijdan o'zlashgan so'zlar, neologizmlar, arxaizmlar, tarixiy so'zlar, slenglar, jargonlar, professional so'zlar, sheva so'zlari, vulgar so'zlar), balki frazeologizmlar (turg'un birikmalar, idiomalar, paremiyalarni (aforizm, maqol va matallar) ham ahamiyatli rol o'ynaydi. [6, 12]

Tarjimon asosan xalqlarning turmush tarzini anglatadigan xos so'zlar ma'nosi va shakllaridan ko'ra bu so'zlarning kontekstlarda bajarayotgan vazifalarini qayta yaratish masalasini yoritishi zarur. Bu o'z navbatida asl matndagi xos so'zlarni asossiz tarjima qilishdan saqlaydi va tarjimani sifatli hamda tushunarli bo'lishini ta'minlaydi [6, 14]

Tarjima sifatiga ba'zi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bulardan biri ko'nikma va ma'lumotning yetishmasligi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tarjimashunoslikning asosiy vazifalaridan biri sifatida milliylik va uni tarjimada namoyon bo'lishi asosiy muammo sifatida qaraladi. Asliyat va tarjima tillari egalaridagi ekstralingvistik ma'lumotlar mos kelmasligi tabiiy hodisadir, ya'ni asliyat va tarjima tillarida so'zlashuvchi kishilarning dunyo qarashi va fikirlashi bir-biridan farq qiladi. Shu bois asliyat tili egalariga mutloq tushunarli bo'lgan tushunchalar tarjima tili egalari uchun tushunarsizroq, yoki umuman, tushunarsiz bo'lishi mumkin. Tarjimon tarjima tiliga ham mos hamda tarjima tili egalari uchun tushunarli bo'lishini ta'minlashi zarur.

REFERENCES

1. Musaev. Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – T.: 1983.
3. Fayzullayeva R. Yo'llar yiroq, ko'ngillar yaqin // Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). – Toshkent, 1973. 257-bet.
4. Suprun A.E. Ekzoticheskaya leksika // Filologicheskie nauki. — 1958. — № 2. — S. 50—54.
5. Tyureva L.S. Arabskiy yazyk. Lingvostranovedenie. Istoriya i kul'tura islama. — M.: Vostochnaya kniga, 2013.
6. Mubarakova D., Yunusova N. A study of translation science initiating gender bias index and gender quotas asian journal of multidimensional research: 2021, Volume : 10, Issue : 5

7. Kayumova, M. (2022). Methodological Commonality in Uzbek and Turkish Drama. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(3), 230-238.
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (12), 374-377.
10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

ПЕРЕВОД И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ НА ПЕРЕКРЕСТКЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460985>

Мадина ТУЛЕПОВА,

докторант PhD, Казахского национального
университета имени аль-Фараби, Казахстан.
Тел: +7 777 885 49 11; E-mail: m.tulepova@list.ru

Аннотация. *Tarjimashunoslik ko'p tarmoqli fan bo'lib, ta'rifi ko'ra boshqa fanlar va tadqiqot usullari uchun ochiq. Dunyo globallashtirish bo'lsa, u muloqot tarzimidagi tez o'zgarishlarni aks ettiradi. Muloqotdagi bu o'zgarishlar kundalik, muntazam ish jarayonlarida ko'rinadi, ammo ular hozirgi o'zgarishlarning ma'nosi va chuqurligini yaxshiroq tushunish uchun fan doirasida ishlab chiqilgan yondashuvlarga ta'sir qiladi.*

Kalit so'zlar: *audiovizual tarjima, globallashtirish, tarjima avtomatlashtirish, kraudsorsing, media tarjimasini.*

Аннотация. *Переводоведение – это полидисциплина, по определению открытая для других дисциплин и методов исследования. По мере всемирной глобализации в ней отражаются стремительные изменения в способах коммуникации. Эти изменения в коммуникации заметны в повседневных, рутинных рабочих процессах, но также они влияют на подходы, развиваемые в рамках дисциплины для того, чтобы лучше понять значение и глубину текущих преобразований.*

Ключевые слова: *аудиовизуальный перевод, глобализация, автоматизация перевода, краудсорсинг, перевод СМИ.*

Abstract. *Translation Studies is a poly-discipline that is necessarily open to other disciplines and methods of research. It bears witness to the rapid metamorphoses of ways to communicate as the world continues to globalize. These communication changes are noticeable in daily, routine professional workflows, but also in the approaches the discipline is developing in order to better grasp the significance and depth of transformation.*

Keywords: *audiovisual translation, globalization, computer-assisted translation, crowdsourcing, translation in mass media.*

В своем общем смысле перевод — это деятельность, которой веками уделяли недостаточно внимания как с точки зрения ее

необходимости, так и с точки зрения требующихся для ее выполнения усилий и профессионального статуса. Тем не менее о единообразии говорить нельзя: языки и общества хранили молчание по-разному и в разной степени, и к тому же в разное время. Хотя к обобщениям стоит подходить с осторожностью — во многих исторических традициях и в различные эпохи перевод зачастую стоял на службе власти предрержащих (как королевских, так и церковных властей), пусть даже неявно и скрыто, и использовался для повседневных контактов, будь то торговых, научных или философских среди прочих [Delisle & Woodsworth]. Действительно, многие заказчики, дилетанты и лица, переводящие собственные труды (включая ученых, переводящих свои статьи), а также другие технические специалисты, работающие в языковой индустрии, продолжают считать перевод механическим процессом, пословной заменой, проблемой словарей или просто деятельностью, лишенной особого престижа, которую можно в любой момент поручить родственнику или коллеге, владеющим иностранным языком. Долгое время остававшийся на втором плане, перевод не вызывает такого же энтузиазма и не пользуется таким же престижем в Интернете, как музыка, фотография, журнализм и кино. Тем не менее можно провести некоторые параллели между переводчиками и журналистами, в свою очередь столкнувшимися с компьютеризацией и наплывом любителей. Они работают с письменными и устными текстами, и на них лежит социокультурная ответственность, превосходящая сиюминутность сделанного заявления [Gambier, 1994]. Они должны уметь надлежащим образом документироваться и проводить терминологический поиск. Им требуется устанавливать контакты с другими экспертами. Коммуникативные навыки работников средств массовой информации могли бы послужить полезным уроком переводчикам, а нацеленность переводчиков на качество и точность могли бы пригодиться специалистам СМИ, которым все чаще приходится переводить с листа, качественнее резюмировать свой текст. В обоих случаях приобретение навыков важнее, чем получение быстро устаревающих знаний, а принятие самостоятельных решений и способность к самооценке имеют

ключевое значение. Наконец, представители обеих профессий сталкиваются с ИКТ и изменениями, которые они за собой влекут в сфере производственных процессов и каналов распространения информации. Как и в журналистике, средства и инструменты, имеющиеся сегодня в распоряжении у пользователей, делают перевод желательным и осуществимым.

Журналисты и переводчики, похоже, разделяют страхи, порождаемые ИКТ и меняющимися условиями работы. Представители обеих профессий, как представляется, вынуждены задуматься о нормах и этике своей работы. Непрофессионалы и любители, к которым в профессиональных кругах издавна относились с пренебрежением, кажется, получили реванш. Любители, зачастую изображаемые карикатурно и оставляемые без внимания, сейчас расширяют границы отдельных профессий и вносят изменения в их параметры и задачи. Им либо дают отпор под прикрытием (замаскированного?) либерализма, либо хвалят за поддержание определенных практик, но в любом случае действия любителей олицетворяют глубокие преобразования, вызванные развитием ИКТ. И все же остается определенный налет тайны, когда речь идет о таких словах, как сообщество, как будто все его члены одинаково компетентны и обладают необходимыми стратегиями и одинаковой способностью к интерпретации. Идеология неограниченных возможностей заставляет верить, что все любители одинаково автономны, обладают быстрой реакцией, действуют продуманно и достигли совершенства в своих областях.

Перевод и новости. Относительно недавно начавшая развиваться и растущая область исследований в переводоведении посвящена переводу и новостям. От новостных агентств до редакций новостей в прямом эфире новости всегда проходили через языковой фильтр; судя по всему, так было уже с самого появления журналистики [Valdeon, 2012]. От местных репортеров до национальных и международных новостных агентств (Ассошиэйтед пресс, Рейтер, Франс-Пресс), от специальных корреспондентов до различных газет и телеканалов, от блоггеров до онлайн редакторов, информация переходит из устной в письменную форму, переводится с одного

регионального языка на лингва франка и снова на национальные языки. Читатели редко отдают себе отчет, что имел место перевод с идеологической манипуляцией или без нее. Интеграция иноязычных источников в новостные сводки, задачи комплексных средств массовой информации в условиях многоязычного медиаландшафта, а также появление новых ценностей в языковом и культурном разнообразии редакций — все это потенциальные области для исследования. Переводоведы задумались над проблемами, связанными с переводом новостей, на конференции, прошедшей в Уорике (Соединенное Королевство) в 2006 г. Эта конференция была одной из серии исследовательских семинаров, профинансированных Британским советом по искусству и гуманитарным наукам в рамках трехгодичного проекта (2004-2007) по изучению политических и экономических аспектов перевода в глобальных СМИ [Bielsa & Bassnett; Conway & Bassnett].

Для изучения и обсуждения создания и восприятия новостей, полученных при помощи перевода с пересечением лингвокультурных границ, необходимо использовать понятную и всеми принимаемую терминологию и тщательно подобранную методологию. Это касается и транслируемых новостей (см. [Conway]), и периодических изданий [Hernandez Guerrero]. Такие журналы, продающиеся по всему миру, как Elle, Newsweek, Cosmopolitan, Scientific American, National Geographic или Times, также могут послужить примером адаптации и локализации, так как модифицируются одновременно лингвистические и экстралингвистические составляющие этих журналов, чтобы добиться их максимальной привлекательности для местных читателей. Интересно отметить, что трансформации происходят, когда местная информация переводится в разряд глобальной для более широкой читательской аудитории, когда глобальные новости локализуются (например, когда официальные дипломатические телеграммы США, опубликованные WikiLeaks и снабженные надлежащими пояснениями для испанских читателей, распространяются в Испании), или когда местная информация появляется в ответ на сообщения другой местной газеты (например, греческие слоганы против кампаний в Германии в 2015 г. во время

переговоров о греческом долге с представителями еврозоны). В таком случае аллюзии, клише и национальные стереотипы могут стать камнем преткновения для переводчиков [van Doorslaer, 2012; van Doorslaer, Flynn & Leerssen, в печати]. По-прежнему остаются неразрешенными основные вопросы переводоведения: кто решает, какую информацию переводить? каковы стратегии перевода? кто проверяет, принимает, санкционирует и подтверждает конечный результат? как реакция аудитории влияет на принятие решений? Отбор, перевод, выбор ракурса и редактирование новостей (сообщение о событиях, прогнозы, заголовки, цитаты) — все эти действия подразумевают больше, чем просто лингвистический процесс; скорее стоит говорить о сложной смеси соотношений сил на уровне континентов, государств, языков, политики и идеологии («a complex mixture of power relationships (continental, national, linguistic, political and ideological)» [van Doorslaer, 2010, p. 180]), где журналисты выступают как часть более крупной социальной системы [Bielsa; Schaffner & Bassnett; Valdбон, 2009; 2010; 2012a; 2012b; 2014].

И наконец, говоря о переводе и СМИ, следует упомянуть один из последних терминов, который сейчас обсуждается в переводоведении, — творческая адаптация. Число тех, кто предоставляет услуги по творческой адаптации [Ray & Kelly], значительно возросло за последние несколько лет. Выходит ли творческая адаптация за пределы перевода, является ли она особым видом перевода или же она находится в оппозиции к переводу? [Katan; Mukherjee; Pedersen]. Это понятие граничит с адаптацией и локализацией (перевод выполняется для конкретной аудитории или местного рынка с использованием технологий). Нужны ли разные ярлыки для разных типов текстов? Действительно ли термин «локализация» больше подходит для ПО, мобильных устройств и компьютерных игр, а «творческая адаптация» для маркетинговых материалов, брошюр и рекламы, в то время как для веб-сайтов подходят оба термина? Например, в случае рекламы творческая адаптация объединяет перевод, творчество и копирайтинг. С одной стороны, переводчики (или творческие адаптаторы?) принимают активное и творческое участие в процессе коммуникации; с другой стороны, они работают с

различными семиотическими ресурсами и, как в АВП, отвечают за весь текст (т. е. вербальный уровень, макет, картинки и анимацию) и за передачу смысла посредством межкультурной коммуникации на глобальном рынке. Таким образом, мы можем отметить значительную степень совпадения между локализацией, адаптацией, переводом-редактированием, творческим переписыванием и творческой адаптацией. Все эти концепты одинаково дистанцируются от исходного текста и от собственно перевода (слишком долго ограничивавшегося вербальными текстами и лингвистической эквивалентностью), наделяя переводчиков более ответственной и позитивной ролью. Тем не менее, пожалуй, слишком рано отказываться от всех этих ярлыков как не имеющих ценности для переводоведения и оставлять только термин «перевод», поскольку смена парадигмы явно еще не закончилась.

Заключение. Платформам, техническим протоколам, СМИ, социотехническим контекстам и цифровому пространству, в рамках которых сейчас существует перевод, свойственно смешение структурированных и структурирующих динамик, мотивирующих производство и потребление мультимедийного и мультимодального контента.

Желание переводить и общаться с помощью перевода усиливается за счет компьютерных и информационно-коммуникационных технологий. Парадигме эквивалентности, аналитически пригодной для статических текстов и ограниченных областей применения, где переводчик является единственным действующим лицом, противостоит динамический и меняющийся контент, легко переходящий от одного сценария производства-потребления к другому, трансформируемый в лингвистические версии, культурно адаптированные и релевантные для пользователей, все свободнее владеющих языком технологий. Появление большого количества терминов, обозначающих лингвокультурные трансформации, для которых ранее хватало термина «перевод», свидетельствует не только о концептуальном разрыве, но и о важности коммуникации для разрастающейся глобальной сети.

REFERENCES

1. Appadurai A. Disjuncture and difference in the global cultural economy. *Global culture: Nationalism, globalization and modernity*. Ed. by M. Featherston. London, SAGE Publ., 1990, pp. 295-310.
2. Baumann G., Gillespie M., Sreberny A. Transcultural journalism and the politics of translation: Interrogating the BBC World Service. *Journalism*, 2011, vol. 12, issue 2, pp. 135-142.
3. Bielsa E. Translation in global news agencies. *Target*, 2007, vol. 19, issue 1, pp. 135-155.
4. Bielsa E., Bassnett S. *Translation in global news*. London, Routledge Publ., 2009. 162 p.
5. Conway K. *Everyone says no: Public service broadcasting and the failure of translation*. Montreal, McGill- Queen's Univ. Press, 2011. 232 p.
6. Davier L. The paradoxical invisibility of translation in the highly multilingual context of news agencies. *Global Media and Communication*, 2014, vol. 10, issue 1, pp. 53-72.
7. Esselink B. The evolution of localization. *Localization: The guide from Multilingual Computing and Technology*, 2003, vol. 57 (Suppl.), pp. 4-7.
8. Folaron D. A discipline coming of age in the digital age. *Perspectives on localization*. Ed. by K. J. Dunne. Amsterdam, Philadelphia, John Benjamins Publ., 2006, pp. 195-219.
9. Folaron D. Digitalizing translation. *Translation Spaces*, 2012, vol. 1, pp. 5-31.
10. Shamsieva, B. (2022). The term of transfer in the field translation studies. In *развитие науки, технологий, образования в xxi веке: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 99-102).
11. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
12. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
13. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
14. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
15. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

O‘QUV METODIK TERMINLARNING INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOSI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460991>

Manzura BEGIMOVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +99891 244717;
E-mail: manzurabegim.0776@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ilmiy matnlarda o‘quv metodik terminlarining ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima muammosiga bag‘ishlangan. Muallif termin tushunchasini va terminologiya tasnifi orqali bir necha misollarda ochib berishga harakat qiladi. Termin tarjimasining asosiy muammolari - omonimiya, polisemiya, sinonimiya va antonimiya hodisalarning mavjudligda ko‘rilishini keltiradi. Maqolada o‘quv-metodik so‘z birikmalarini tarjima qilishda qo‘llanadigan usullar va tarjima o‘zgarishlari tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: terminologiya, ilmiy va texnik tarjima, termin, o‘quv-metodik, tarjima transformatsiyasi.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам перевода терминов с английского языка на узбекский в научных текстах. Обсуждаются понятие термина и классификация терминологических единиц. Основными проблемами перевода терминов являются наличие таких явлений, как омонимия, полисемия, синонимия и антонимия. В статье описаны приемы и переводческие изменения, используемые при переводе учебно-методической лексики.

Ключевые слова: терминология, научно-технический перевод, термин, учебно-методической, трансформация перевода.

Abstract: This article is devoted to the problems of translating teaching methodological terms from the English into Uzbek language in scientific texts. The discussed issues are the concept of the term and the classification of terminological units. The main problems of translation of terms are existence of the phenomena as homonymy, polysemy, synonymy and antonymy. The article describes the methods and translation changes used in translation of educational and methodical vocabulary.

Key words: terminology, scientific and technical translation, term, educational-methodical, translation transformation.

Dunyo mamlakatlari o‘rtasida fan va texnikaning rivojlanishi bilan ingliz tili o‘qitish va o‘rganishga talab orta boshladi. Til o‘qitishda yangi

yondashuvlar va metodlar kirib kelgani sari o‘qituvchilar ko‘pgina ilmiy maqolalar, metodik kitoblar va xalqaro ilmiy anjumanlarda qatnashishlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu talablardan kelib chiqib xorijiy til o‘qituvchilari o‘z o‘zidan ilmiy terminlarga duch keladilar va bunday terminlarning tarjima qilinishi juda dolzarb tarjima vazifasidir. O‘quv metodik terminlar - bu aniq tuzilishiga va ko‘plab so‘z birliklariga ega bo‘lib ko‘plab ilmiy matnlarda qo‘llaniladi, lekin ularning tarjimasi ko‘pincha asosiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada biz ingliz tili o‘qitishda o‘quv metodik terminologik lug‘atini adekvat tarjima qilishga erishish uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni ko‘rib chiqamiz.

S.V Grinev-Grinevich tomonidan ushbu terminga berilgan quyidagi ta’rifga e’tibor qarataylik: “*Termin - bu tushunchalarni aniq nomlash uchun ishlatiladigan nominativ maxsus leksik birlik (so‘z yoki ibora)*”. Muallifning fikricha, terminning asosiy xususiyati uning mazmuni, aniqligi, ya’ni maxsus tushuncha ilmiy ta’riflar yordamida o‘rnatilgan aniq chegaralarga egaligidir [3, p. 27-30].

V.M. Leychik esa ushbu atamaning ta’rifini “ma’lum bir maxsus bilim yoki faoliyat sohasi nazariyasining konkret yoki mavhum tushunchasini bildiruvchi maxsus maqsadlar uchun ma’lum bir tilning leksik birligi” sifatida shakllantirdi [5, p. 31-32].

Tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik sohasidagi taniqli mutaxassis V.N.Komissarov terminlarni “fan yoki texnikaning ma’lum bir sohasidagi mutaxassislar tomonidan qo‘llaniladigan aniq obyektlar va tushunchalarni bildiruvchi so‘z va iboralar” deb hisoblaydi [4, p. 27-30]. Olimlarning qarashlarida umumiylik shundan iboratki, terminlar muayyan faoliyat sohasiga xos bo‘lgan tushunchalarni bildirish uchun qo‘llaniladigan maxsus terminologik birliklardir. Bundan kelib chiqadiki, quyidagi: Termin – bu ma’lum bir maqsadda ilmiy va texnikaviy sohada tushunchalarni aniq va tiniq ifodalash uchun ishlatiladigan so‘zlar va iboralardir, – degan ta’rifni berish maqsadga muvofiqdir. Terminlar aniq ma’no ifodalashi bilan birgalikda doimo bir ma’noni bildiradi. To‘liqroq tushunish uchun S.V Grinev-Grinevich tomonidan taqdim etilgan terminlarning tasnifiga e’tibor qarataylik. Tasniflash uchun asos terminlar belgilaridir: *mazmunli, rasmiy, funksional, ichki va ekstralingvistik*. Muallif atamalarning quyidagi turlarini aniqlagan [3, p. 90]:

Terminlarning katigoriya bo'yicha tasnifi			
umumiy ilmiy	umumiy texnik	fanlararo	maxsus
Terminlarning mazmuni bo'yicha tasnifi			
real ob'ektlarni tavsiflovchi kuzatish terminlari		ma'lum tushuncha hamda nazariyalarga bog'liq bo'lgan mavhum tushunchalar bilan ifodalangan nazariy terminlar	
Terminlarni til bo'yicha maxsus maqsadlarda taqsimlash			
Fan sohasiga oid ilmiy terminlar guruhi	Ishlab chiqarish va texnologiya sohasiga oid texnik terminlar guruhi	ma'muriy-siyosiy sohaga oid boshqaruv terminlari guruhi	
Tushunchaning termin bilan ifodalanadigan mantiqiy kategoriyasiga ko'ra tasnifi			
obyektlar	xususiyatlar	jarayonlar	miqdorlar

Lingvistik tasniflar bizning tadqiqotimiz uchun eng katta qiziqish uyg'otadi. Shunday qilib, terminlar yuqoridagi tasniflardan tashqari, yani bir qancha tasniflarga ajratilgan, xususan, terminlarning tuzilishiga ko'ra tasniflanishi bizning tadqiqotimiz uchun muhim sanaladi. Terminlar rasmiy tuzilishiga ko'ra, bir komponentli va ko'p komponentli terminlarga ajratiladi. Bir komponentli terminlar yoki termin-so'zlar morfemik tarkibiga ko'ra tasniflanadi: hosila bo'lmagan (tub so'z): hosilalar (yasama) [7, p.8, 15].

Ko'p komponentli terminlar bir nechta so'z orqali tuzilgan terminologik iboralardir: kommunikativ kompetensiya. [7, p. 12, 63, 85]. Bulardan tashqari terminlar tarkibiga ko'ra bir va ko'p qiymatlilarga bo'linadi. Frazaning terminlari semantik nuqtai nazardan - erkin iboralar va turg'un (frazologik) iboralarga bo'linadi.

Tilshunoslik tasnifi terminlarni to'liq asosli, to'liq motivatsiyasiz, qisman motivatsiyali va yolg'on motivlarga bo'lishni o'z ichiga oladi. Voqea manbasiga ko'ra terminlar mahalliy, o'zlashtirilgan, xalqaro va internatsionallarga bo'linadi. Lingvistik tasnif stilistik xususiyatlarga

asoslanadi, shuning uchun terminologik lug'at me'yoriy terminlar, professionalizm va jargonlarga tabaqalanadi [3, p. 94].

Matnlarda terminlarning qo'llanilishini tahlil qilish natijasida yuqori chastotali, o'rta chastotali va past chastotali terminlar kabi farqlanadi. Terminologik lug'atni tarjima qilish muammolari taniqli olimlar: J.P. Sharob va J. Dalbernet, Ya.I. Retsker, V.N. Komissarov tomonidan chuqur o'rganilgan.

J.-P.Vinet va J.Dalbernet terminlarni tarjima qilishning ikki usulini ajratib ko'rsatadi: to'g'ridan-to'g'ri tarjima (so'zma-so'z) va bilvosita tarjima (bilvosita) qilinadi. Mualliflarning fikricha, to'g'ridan-to'g'ri tarjima so'zma-so'z tarjima, iz va qarz olish kabi usullarni o'z ichiga oladi. Agar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qabul qilinishi mumkin bo'lmasa, tarjimon ekvivalentlik, transpozitsiya, moslashish va modulyatsiya kabi usullarni o'z ichiga olgan holda bilvosita tarjimaga murojaat qiladi [1, p. 123]. Y.I.Retsker terminlarni tarjima qilishning quyidagi turlarini ajratadi [6, p. 80]:

- 1) • ekvivalent yordamida tarjima qilish, ya'ni. tarjima qilingan birlikka ma'no jihatdan to'liq mos keladigan leksik birlik;
- 2) • har biri ma'lum sharoitlarda tarjima qilingan birlikka mos kelishi mumkin bo'lgan ba'zi leksik birliklardan biri bilan ifodalangan analogni izlash orqali;
- 3) • tasviriy tarjima yordamida.

V.N. Komissarovning kontseptsiyasiga ko'ra, terminologik lug'atni tarjima qilish usullari uchta tarjima o'zgarishlariga bo'linadi[4, p. 58]:

- 1) leksik (transliteratsiya, tarjima transkripsiyasi, tracing, ba'zi leksik-semantik almashtirishlar);
- 2) grammatik (so'z shakllarini, gap qismlarini almashtirish);
- 3) murakkab leksik-grammatik (tasviriy tarjima, antonimik tarjima va kompensatsiya).

V.N. Komissarov tomonidan taklif etilgan tarjima usullari bizga eng yaxshirogi bo‘lib ko‘rinadi va shuning uchun bizning ishimizda tadqiqot materialini tahlil qilishda asosiylari sifatida qabul qilindi.

Ma'lumotnomalar va lug'atlarda tegishli ekvivalentlar mavjud bo'lsa, terminlarni tarjima qilish qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq, tarjima qilingan matnning o'ziga xosligi muhimligini hisobga olish kerak. Bu termin qo'llanilayotgan kontekst va sohaga qarab butunlay boshqacha ma'no kasb etishi mumkin. Bu hodisa omonimiya deb ataladi, ya'ni. turli ma'nodagi ikki yoki undan ortiq til birliklarining tovushi mos kelishidir [2, p. 51]. Bundan tashqari, mutaxassislar o'rtasidagi muloqot jarayoniga to'sqinlik qiladigan jarayonlarga quyidagilar kiradi: polisemiya, sinonimiya va antonimiya.

Terminologik birlik ushbu so'zning asl ma'nosining o'zgarishi va rivojlanishi natijasida bir nechta ma'noga ega bo'lganida terminning ko'p ma'noli yoki noaniqligi kuzatiladi [2, p. 48]. Asosiy ma'noda so'z, morfema, konstruksiya va frazeologik birliklarning o'zaro mos kelishi bilan bog'liq bo'lgan leksik-semantik jarayon sinonimiya deyiladi. Antonimiya so'zlarning semantik qarama-qarshiligi sifatida, antonimlar esa qarama-qarshi ma'noli so'zlar sifatida tavsiflanadi [2, p. 53]. Biroq, aksariyat hollarda, atamalarni tarjima qilishda tarjimon leksik ekvivalentning yetishmasligi kabi muammoga duch keladi. Ushbu muammoni yechish usuli - tarjima o'zgarishlaridan foydalanishdir.

S.I. Simanovski y izlanishlari orqali terminlarning asosiy qismi iboralar bilan ifodalanganligi aniqlandi[7]. Shuningdek, matnlarida terminologik tushunchalarni ifodalash uchun qisqartmalar keng qo'llaniladi. Ingliz tili o'quv metodikasiga tegishli ilmiy matnlardagi terminlarni tarjima qilishning asosiy usuli tavsifiy tarjima yoki tushuntirishdir, bunda o'quv metodik terminlarning ma'nosining o'zgarishsiz ya'ni adekvatligiga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillarining tuzilishidagi farqlar tufayli ushbu uslub eng maqbul hisoblanadi. Masalan:

Copyright - mualliflik huquqi. Adabiy, intellektual yoki badiiy asarni takrorlash yoki nusxalashga bo'lgan mutlaq huquq [7, p. 24].

O'quv metodik terminlarni tarjima qilish leksik ekvivalentlarni tanlash yo'li bilan amalga oshiriladi, masalan: *task based learning-kommunikativ* mashqlar metodi.[7, p. 11, 36].

Asl leksik birlikning tuzilishi maqsadli tilda saqlanib qolganda, tarjima transformatsiyasini kuzatishdan foydalangan holda matndagi terminlarni tarjima qilish misoli: affective principles – hissiy psixologik prinsiplar, *course design*-kurs dasturi [7, p. 9,53].

Transliteratsiya va transkripsiya yordamida tarjima soʻzning tovush yoki grafik shaklini manba tilidan maʼnoga ega boʻlgan holda olish bilan tavsiflanadi. Bu usul oʻquv metodik terminlarni tegishli nomlar bilan tarjima qilish uchun ishlatiladi: *Humanistic approach*-gumanistik yondashuv, *Bloom's taxonomy*-Blum taksonomiyasi [7, p. 46, 50]. Oʻquv metodik terminlarni tarjima qilish jarayonida, shuningdek, har qanday terminologik tizimning ajralmas qismi sohta xalqaro va xalqaro atamalarning mavjudligini hisobga olish kerak. Xavf shundaki, tarjimon oʻzbek tiliga tarjima qilishda ingliz tili shakliga mos keladigan termini ishlatishi mumkin. Tarjimada ular bu borada “*tarjimonning sohta doʻstlari*” (ложные друзья переводчика) deb ataladi, har doim maʼno va maʼnolarni tekshirish zarur.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillarga koʻra, atamalarni tarjima qilishda asosiy muammolar omonimiya, polisemiya, sinonimiya va antonimiya kabi hodisalarning mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin. Shu munosabat bilan tarjimon tarjima matnining maʼnosini buzish va qoʻpol xatolarga yoʻl qoʻymaslik uchun har doim atamalarning tarjimasi amalga oshirilayotgan sohaga eʼtiborini qaratishi lozim.

REFERENCES

1. Вине Ж.-П., Дарбельне Ж. Технические способы перевода // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. М., 1978. 475 с.
2. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах: Учеб.пособие для филол. спец. вузов. // М.: Высш.шк., 1987. 104 с.
3. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: Учеб.пособие для высш.учеб. заведений. // М.: Издат.центр «Академия», 2008. 304 с.
4. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). // М.: Высшая школа, 2001. 253 с.
5. Лейчик В.М. Термины-синонимы, дублиеты, эквиваленты, варианты Актуальные проблемы лексикологии и словообразования. // Н., 1973. 413 с.
6. Рецкер Я.И. Курс лекций по теории перевода. // М., 2005. 141 с.
7. Симановский С.И. Тетради новых терминов. № 6. Англо-русские патентные термины: 2 изд. М., 1975. 125 с.

8. Khodjaeva, N. B. (2021). Premchand's vardaan in uzbekistan: translation issues of some cultural specific words. Theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
9. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
10. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
11. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
12. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
13. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

SINXRON TARJIMANING ISHLASH MEXANIZIMI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461005>

Azamat KUDRATOV,
TDSHU tayanch doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +99897 156 90 03;
E-mail: Azeem7997@gmail.com

Annotatsiya: *Sinxron tarjima – bu og‘zaki tarjima turlari orasida eng murakkabi bo‘lib, mazkur turdagi tarjimada maxsus jihozdan foydalanib tarjima amalga oshiriladi. Bu notiq nutq so‘zlayotgan chog‘ida tarjimonning uni bo‘lmasdan, uzluksiz nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berishning og‘zaki tarjima usulidir.*

Kalit so‘zlar: *Sinxron tarjima, kommunikativ vosita, pragmalingvistik kompetensiya, sotsiopragmatik kompetensiya.*

Аннотация: *Синхронный перевод является одним из самых сложных видов устного перевода, и этот вид перевода выполняется с использованием специального оборудования. Это метод устного перевода при котором говорящий передает содержание речи аудитории без помощи переводчика.*

Ключевые слова: *Синхронный перевод, коммуникативные средства, прагмалингвистическая компетенция, социопрагматическая компетенция.*

Abstract: *Simultaneous translation is one of the most complex types of interpreting, and this type of translation is performed using special equipment. It is a method of oral translation in which the speaker conveys the content of the speech to the audience without the help of an interpreter.*

Keywords: *Simultaneous Translation, Communicative Media, Pragmalinguistic Competence, Sociopragmatic Competence.*

Tarjima inson munosabatlari kabi qadimiy bo‘lib, turli xalqlar o‘rtasida ifodalash vositasidir yaqinlashish va ular orasidagi bo‘shliqni bartaraf etish, keyin esa bu aloqa va sivilizatsiya o‘zaro bog‘lash uchun vositadir, ha Butun dunyoda insoniyatni bog‘laydigan mustahkam arqon va ko‘prikdir.

Yigirmanchi yillarning oxirigacha ketma-ket tarjima xalqaro kongresslar, konferentsiyalar va yig‘ilishlarda qo‘llanilgan bo‘lib ma‘ruzachining nutqi tinglangandan so‘ng boshqa ishchi tillarga tarjima qilingan. Ko‘p tilli delegatlar yig‘ilishida qabul qilingan maxsus tillar soniga qarab, har bir nutq minbardan ketma-ket bir necha marta

takrorlandi, bu katta vaqt yo‘qotilishiga olib keldi. Yigirmanchi yillarning oxiridan boshlab nutqlarni tarjima qilish epizodik ravishda ularni tinglash bilan bir vaqtda amalga oshirila boshlandi va shu munosabat bilan sinxron tarjima nomini oldi.

Balki bizni bu borada qiziqtirgan va biz uning yo‘l-yo‘lariga batafsilroq to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lganimiz konferensiyalarning tarjimasidir, chunki bu ikki mehmon o‘rtasida mos va yaqqol ko‘rinish bo‘lib, ular orasida sinxron yoki og‘zaki tarjima orqali aloqada bolinadi. Tillarni chuqur bilish - tarjimonning tayyorgarligi va malakasini hisobga olmaganda, tarjimon amaliyoti uchun mutlaq shartdir, agar u xalqaro forumlardagi rasmiy nutqlarini tarjima qilish orqali oliy maqsadga erishmoqchi bo‘lsa, ular bilan tanish bo‘lishi kerak. Sinxron tarjimon yozma matn bilan kurashayotgan tarjimondan farqli ravishda nutqni qayta uzatadi. Shuning uchun u buni eshitadi, ongiga taqlid qiladi, uni boshqa tilda hofizasiga joylab va boshqa tilda qayta shakllantiradi, boshqa tilda yangi ma‘no hosil qilish uchun oson bo‘lmagan va noyob qobilyat bilan ishlaydi va unga zukkolik yondoshib ma‘noni tinglovchiga yetkazadi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz ushbu maqolamizda Sinxron tarjimaning kelib chiqishi va uning rivojlanishi va sinxron tarjimaning boshqa tarjimalardan farqlari, sinxron tarjimaning xalqaro kongresslar, konferentsiyalar va yig‘ilishlarda bo‘ladigan sinxron tarjimonga kerakli bo‘lgan ko‘rsatmalar berib va xato kamchiliklarini yaqindan talqin qilmoqchi bo‘ldik va notiqning nutq so‘zlashidan tinglovchigacha tarjima bilan birga kelgan eng muhim qoidalariga rioya qilgan holda talqin qilishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Sinxron tarjimaning kelib chiqishi va uning rivojlanishi: Tarjima madaniyatlar atrofidagi boshqa jamiyatlarga hech qanday ruxsatsiz o‘tadigan ko‘prik sifatida ko‘rilgan bo‘lib va hozir ham shundaydir. U turli madaniyatlar o‘rtasida muloqotni yo‘lga qo‘yish, turli sivilizatsiya va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartirish, yo‘qotish va umumiy global fikrni yaratish uchun shart-sharoit yaratishda katta rol o‘ynaydi. Tarjima masalasi ham bizni muallif va tarjimon o‘rtasidagi munosabatlar darajasiga, tarjimoni ijodiy jarayon sifatida gapirishga olib keladi. Tarjima elementlari va usullarini o‘rganib chiqqach, mualliflik va tarjima o‘rtasida juda katta farq yo‘qligini ko‘ramiz. Har ikkisi ham ijodiy ish, chunki

tarjimon odatda tarjima qilingan matnni birdaniga yaratmaydi, aksincha, soʻz va talaffuzni atama sifatida, uslub va maʼnoni xos bir shaklda tanlab olib zukkolik bilan qoʻllashi kerak. Shu oʻrinda shuni taʼkidlash kerakki, birinchi talqin qilishga urinishlar Andre Kaminker tomonidan 1934-yilda Gitlerning fransuz radiosidagi nutqini tarjima qilganida boʻlgan [1, 17]. Shundan soʻng 2-Jahon Urushidan soʻng 1945-1946 yillari Germaniyada uyushtirilgan Nyurnberg Xalqaro harbiy sud fashistlar jinoyatini sudlash jarayonida ilk marotaba sinxron tarjimadan foydalanilgan [2, 134]. Sinxron tarjima taklifi dastlab tarjima faoliyati va tarjimashunoslik bilan shugʻullanuvchilarning koʻpchiligini sarosimaga soldi.

Rus tarjimashunosligida sinxron tarjima masalalari XX asrning 70-80-yillaridan keyin jiddiy tarzda koʻrib chiqishga kirishilgan. Bunga A.D.Shveyser, G.V.Chernov, V.M.Ilyuxin kabi tadqiqotchilarning ishlari misol boʻla oladi. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, oʻzbek tarjimashunosligida sinxron tarjima masalalari yaxshi ishlanmagan. Faqat tarjimashunos Gʻ. Salomovning “Tarjima nazariyasiga kirish” nomli oʻquv qoʻllanmasida “Imo-ishoralar «tili»ni, ayniqsa, sinxron tarjima va kinofilmlar oʻgirmasi bilan shugʻullanuvchi tarjimon-mutaxassislar aniq farqlamoqlari darkor”ligi taʼkidlab oʻtilganligi bizga maʼlum [5]. Hozirgi paytda xorijiy tillarni oʻrganish keng tarqalgan, koʻpchilik mutaxassislar ikki yoki undan ortiq tilni bilish darajasiga yetgan boʻlsa-da, sinxron tarjimaga boʻlgan ehtiyoj baribir ortib bormoqda.

Hozirgi kunga kelib tarjimaning koʻplab turlari qoʻllanilib kelinmoqda, jumladan sinxron tarjima ham mavjud boʻlib, bugungi kunda koʻplab muassasalarda sinxron tarjimaning ahamiyati koʻp odamlar orasida odatiy holga aylanganini koʻrib turibmiz. Boshqa tarjimalar kabi sinxron tarjimaning ham oʻziga xos turlari boʻlib, bu tarjimaning ham qonun qoidalari va shart-sharoit va ijro usullari mavjuddir. Aslida sinxron tarjimaning maʼnosi vazifa va vositalariga koʻra bir nechta maʼnolarni oʻzida mujassam etgan. Biz ushbu qoidlarni va usullarini barchasini muhokama qilamiz va imkon qadar yoritib beramiz. Sinxron tarjimaning ahamiyati: Tarjima degani, bu asliy tildan ikkinchi tilga bir xil maʼnoni saqlab qolgan holda eshitiladigan nutq yoki yozma matnlarni tarjima qilishni bildiradi. Shuningdek, sinxron soʻzni olsak, bu bir lahzada sodir boʻlish maʼnosini bildiradi, Xuddi shunday, agar siz sinxron soʻzini

olsangiz, bu bir lahzali hodisani anglatadi, ya'ni sinxron so'zi darhol va oniy tezlik xususiyatini oladi. Aytishimiz mumkinki, sinxron tarjima nutq yoki matnlarni asliy tilda aytilgan to'liq ma'noni saqlab qolgan holda asliy tildan boshqa tilga tarjima qilishdir. Ushbu ta'rif haqida ba'zi eslatmalar sanab o'tishimiz kerak:

1. Sinxron tarjima bu tarjima turining bajarilish vaqtiga ko'ra tarjima turlariga kiradi. Bu turdan tashqari, qisqacha tarjima, kengaytirilgan tarjima turlari ham mavjud.

2. Ushbu turdagi tarjimada shuni aytish mumkinki, tezlik jarayonning asosiy belgilovchisi hisoblanadi, lekin ishlash tezligi u tarjima qilayotgan ikki til o'rtasidagi matni bir xil ma'noda tarjima qilib uni tinglovchiga yetkazib berish zaruriyatini e'tiborsiz qoldirishni anglatmaydi.

3. Ushbu tariflar orasida shuni aytib o'tilishi kerakki. Ushbu sinxron tarjima tushunchasi bizni matnlarni real vaqtda tarjima qiladigan ba'zi tadbiquotlarga olib borishi mumkin [6, 87].

Sinxron tarjima qo'llaniladigan eng muhim sohalar: Sinxron tarjimadan foydalanish zarur va ajralmas bo'lgan ko'plab yeg'ilishlar va xalqaro konferensiyalar mavjud va bu tarjima diplomatlar va deligatsiyalar o'rtasidagi suhbatdir, bu intervyular to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bo'ladimi, intervyu bir joyda bo'ladimi yoki efir yoki Internetdan foydalaniladimi uning farqi yoq bo'lib quyida ushbu xolatlarning eng muhimlari keltirilgan:

1. Konferensiyalar: Ko'plab millat vakillari ishtirok etadigan ko'plab xalqaro konferensiyalar mavjud va bu konfirensiyalarda tarjimonlar bir necha tillarda so'zlashadilar va bu erda konferensiya rahbariyati konferensiyada nutqni etkazish uchun tarjimonlarni ajratadi, masalan, biz ko'pincha konferensiyalarni ko'ramiz. ishtirokchilar quloqchinlar kiyishadi, chunki bu quloqchinlar tarjimoni ularga uzatish vositasidir. Seminarlar, uchrashuvlar, xalqaro forumlar va boshqa ko'plab uchrashuvlar va konferensiyalar kiradi.

2. OAV materiallari: Voqea faktlarining jonli efiri uzatilayotganda, masalan (Birlashgan Millatlar Tashkiloti sessiyasi), ayrim ommaviy axborot vositalari ushbu sessiyadagi barcha chiqishlarni sinxron tarjima qilish uchun Sinxron tarjimon ajratishga kerak bo'ladi.

3. Uchrashuvlar yoki intervyular: Xorijiy deligatsiya arab davlatiga kelganida, biz bu deligatsiyaning ba'zilariga tarjimon hamrohlik qilganini ko'ramiz, shuning uchun ular aeroportda, restoranda yoki boshqa joylarda bo'ladimi, suhbatlar sinxron tarjima qilish jarayoni xisoblanadi. Bunda tarjimon mehmonlar va boshqa tomon o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi [7].

Ushbu turdagi tarjimada bajarilishi kerak bo'lgan shartlar: Interpretatsiya uning harakat mexanizmini boshqaradigan ko'plab shartlar bilan boshqariladi. Ushbu shartlar, asosan, tarjima jarayonida tarjimaning to'g'ri natijalarini olishni ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu shartlar sinxron tarjimaning har bir turini hisobga oladi. Buning sababi, har bir turning qo'llanilishi va ishlashi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari bor. Quyida biz ushbu shartlarning eng muhimlarini umumlashtiramiz:

1. Tarjimon vaqtga nisbatan sezgir bo'lishi kerak, ya'ni bu tarjimon so'zlovchining so'zlashi va so'z birikmalarini tugatishi bilanoq tarjimoni boshlashi kerak bo'ladi va shunda tarjima qilingan gap og'zaki yoki yozilib ulgurmoq kerak.

2. Sinxron tarjima ommaviy axborot vositalariga tarjima qilish paytida montajning ovozga yoki matnga mos kelishi kerak, shuningdek sinxronlashtirishni hisobga olish kerak, bu esa bir vaqtning o'zida tarjimaning chiqarilishi hisoblanib ibora so'zlovchi tomonidan talaffuz qilinadi.

3. Sinxron tarjimon ma'noni qanday bo'lsa, shundayligicha to'g'ri yetkazishga intilmog'i kerak va bu yerda e'tibor sustligi yoki yo'qligi natijasida uzatilgan ma'nolarning noto'g'riligi sinxron tarjimada ko'plab xatolar bo'lishiga olib keladi [8].

Sinxron tarjimaning turlari: Sinxron tarjimaning mohiyatiga to'g'ri keladigan ko'plab tarjima turlari va tasniflari mavjud va bu tasniflarning aksariyati tarjimada qo'llaniladigan tarjima turidir. Shuningdek tarjimoni taqdim etish usuliga ko'ra tarjimaning bazi tasniflari umuman tarjima turlarining asosiy turlari sifatida sanaladi.

Birinchi: Sinxron media tarjimasi: Bu tarjimaning eng keng tarqalgan turi, chunki biz ko'pincha tarjimaning to'g'ridan-to'g'ri ma'ruzachi nutqi bilan ommaviy axborot vositalarida paydo bo'lishini ko'ramiz va boshqa ko'plab bo'limlar ushbu turga kiradi, xususan:

1. Matn orqali uzatiladigan tarjima: Bu biz televizor ekranining pastki satrida ko'rgan narsadir. Ma'ruzachi gapirayotgan joy va yozma tarjimasi ekranning pastki qismida ko'rinadi.

2. Gapirish orqali uzatiladigan tarjima: Bu yerda ommaviy axborot vositalariga mas'ullar so'zlovchining ovozi pasaytirib, eshitgan har bir so'zini tezda tarjima qiladigan tarjimonning ovozi ajratib ko'rsatishadi va tinglovchiga eshittirishadi.

3. Radio va televideniya tarjimasi: Sinxron tarjima yozma ommaviy axborot vositalariga kiritilmaydi. To'g'rirog'i, u faqat radio va televideniya bilan chegaralanib, agar tarjima radiodan olingan kontent uchun bo'lsa, radio, televizion kontent uchun bo'lsa, televideniya deyiladi.

Ikkinchisi: Elektron tarjima: bu yerda tarjimani amalga oshiradigan haqiqiy tarjimon yo'q, aksincha, bu turdagi tarjimani darhol yuklab oladigan elektron dastur bo'lib, bu ilova yozma matnlar yoki og'zaki so'zlar uchun mo'ljallangan [9, 65].

Sinxron tarjimaning bir nechta tarjima usullari, Tarjimaning ushbu turida tarjima to'liq va komil bolishi uchun va tarjimon o'z vazifasini bajarish uchun ko'plab usullardan foydalanadi va bu usullar tarjima jarayonida qo'llaniladigan vositalarning mohiyatiga yoki ushbu tarjimada taqdim etiladigan vositalarning shakliga qarab turlicha bo'ladi. Bu usullarning har biri ushbu turdagi tarjimani amalga oshirishda tarjimon bajarishi kerak bo'lgan bosqichlarni belgilovchi omilni ko'rsatib beradi. Biz ushbu usullarni qo'ldan kelgancha tushuntirishlar va sharhlar bilan taqdim etamiz:

Birinchisi: Tinglash va yetkazib berish usuli: Bu usulda tarjimada ikki tomon ishlaydi, ya'ni notiq va tarjimon, bu yerda notiq tarjimonga matnni asl tilda yetkazib beradi va tarjimon eshitgan nutqini darhol tarjima qiladi. Shu bilan birgalikda bu usul transmitter bo'lgan uchinchi tomonni ham o'z ichiga olishi mumkin, bu transmitter tarjimon tarjima qilingan matnni tezda yozadigan va yuboradigan kompyuter bo'lishi yoki bu tarjimani kerakli joyga yozma shaklda yetkazadigan tarjimon shaxs bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan: Og'zaki tarjima usuli: Bu yerda tarjimon nutqni eshitadi va darhol tarjima qiladi va boshqalar eshitishi uchun matnni dialog shaklida talaffuz qiladi.

Uchinchidan: Miqdoriy tarjima usuli: bunda tarjimon ma'lum miqdordagi iboralar, paragraflar yoki so'zlarni tarjima qiladi va keyin ularni talaffuz qiladi, masalan, tarjimon beshta jumlani tinglaydi yoki tomosha qiladi, so'ngra darhol ularni tarjima qiladi so'ngra boshqa beshta jumlani tarjima qiladi... va hokazo.

To'rtinchidan: Muvofiq tarjima: Tarjimaning bu usulida so'zlovchi va tarjimon o'rtasida kelishuv mavjudligini ifodalaydi, masalan, ma'ruzachi ma'lum bir mavzuda ikki daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt davomida gapiradi, keyin u sukut saqlaydi va tarjimon tarjimani boshlaydi va auditoriyaga yetkazadi [10, 19].

Ushbu turdagi tarjima qanday amalga oshiriladi? Ushbu turdagi tarjimani amalga oshirish mexanizimi hali hamon aniq qonun qoidalar asosida tasdiqlanmagan. Chunki bu turdagi tarjiman tarjimonning ikkala tildagi lug'aviy boyligi va zukkolik qobiliyatiga bog'liq (asliy tildan tarjima qilinayotgan tilga tarjima qilish). Ushbu tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon uchun zarur bo'lgan eng muhim qobiliyatlar va ko'nikmalar:

1) lingvistik, lisoniy kompetensiya. Bu pragmatik kompetensiyani o'z ichiga oladi. Pragmatik kompetensiya esa o'z o'rnida 2 ga bo'linadi:

a) pragmalingvistik kompetensiya - bu R.Settonning fikriga ko'ra, muayyan bir so'z yoki iboralarning «ma'nosining xususiy ottenkalari»ni bilish demak;

b) sotsiopragmatik kompetensiya – bu o'z ichiga etiket, funksional uslub va x.k.larni bilish kabi keng tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

2) sinxronistning umumiy va maxsus lug'atini qura oluvchi, yetarlicha asos beruvchi umumiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu oldindan berilgan hujjat va ma'ruzalarning berilishi sharoitida konkret tematika yuzasidan tushunchaga ega bo'lish va tarjima qilish uchun zarur.

3) sinxron tarjimonning xabarga ishlov berish ko'nikmasi yoki strategiyalari yoki qobiliyatlariga ega bo'lish [11, 58].

Tarjimon xalqaro konferentsiyalarda gapiraladigan va aytib o'tishi kutilayotgan asosiy ilmiy atamalarni yaxshi bilishi kerak. Sinxron tarjima jarayonida kichik-kichik unsurlarni ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Tarjima kabinkasidagi mikrofon o'ta ta'sirchan bo'lganligi sababli kabinkadagi harakatlar tovushi juda ohista bo'lishi darkor. Hatto, kitobni sahifalash, ayol tarjimonning taqib olgan katta sirg'alarining sekin tovushi ham tinglovchilarning qulog'iga katta shovqin bo'lib boradi [12].

Xulosa: Demak, sinxron tarjima – bu ogʻzaki tarjima turlari orasida eng murakkabi boʻlib, mazkur turdagi tarjimada maxsus jihozdan foydalanib tarjima amalga oshiriladi. Bu notiq nutq soʻzlayotgan chogʻida tarjimonning uni boʻlmasdan uzluksiz nutq mazmunini tinglovchilarga yetkazib berishning ogʻzaki tarjima usulidir. Sinxron tarjimada soxasida va bu mavzuga oid bugungi kungacha koʻplab tarjimashunos olimlar, tadqiqotchilar va magistrilar oʻzlarining bir qancha ilmiy-nazariy maqolalari, monografiyalarida oʻzlashmalarga taalluqli boʻlgan fikr va mulohazalarini keltirib oʻtishgan, biz ularni koʻrib, oʻzlashtirib olishimiz kerak.

REFERENCES

1. Hamidov X, Ismatullayeva N, Ergasheva S. Sinxron Tarjima. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2020.
2. Чернов Г.Ч.. Теория и практика синхронного перевода: Международные отношения, М., 1978.
3. «...et en 1934 André Kaminker avait inventé le système de la traduction simultanée en interprétant endirect. discours de Hitler » // cf.Widlund Fantni Anne-Marie, L'interprétation de conférence, www.aiic.net. 2020.
4. Kilian G. Seeber. Modes of interpreting: University of Geneva, 2017.
5. Rozan L.-F. La prise de notes en interpretation consecutive. Geneva: Georg., 1956;
6. Herbert J. Manuel de l'interprete. Geneva: Georg, 1965.
7. Собрание Восточных рукописей Академии наук. Том 1.
8. Simon, Thomas. "Exploring difficulties in simultaneous interpreting Insights from the English-French Louvain Corpus of Simultaneous Interpretations" Année académique 2018-2019.
9. Швейцер А. Д., Перевод и лингвистика. Уч. для институтов и факультетов ин.яз. -М., Воениздат, 1973.
10. Lederer M. La tradaction simultanee. -Paris: Minard Lettres Modernes, 1981.
11. Колосов С.А, Бабаева Ю.А. Стратегии, тактики и приёмы в синхронном переводе. – г. Тверь – 2020.
12. <https://www.spa.gov.sa/viewfullstory.php?lang=ar&newsid=2309528>
13. Usmanova, S. Altay dillerindeki bazi ev gereç adlari üzerine. Manas Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 10(19), 123-128.
14. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.

-
15. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
16. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
17. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
18. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

SIYOSIY DISKURSDA KIRISH SO‘ZLARNING OG‘ZAKI TARJIMASI

(Xitoy - o‘zbek tillari misolida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461011>

Farzona NOROVA,
TDSHU o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998972650456;
Email: farzona.norova@gmail.com

Annotatsiya. *Kirish so‘zlar nutqda juda muhim o‘ringa ega bo‘lib, so‘zlovchining his-tuyg‘ularini va muloqotchilar orasidagi munosabatni ifoda etishdan tortib nutqning mantiqan bog‘liqligi va yaxlitligi ta‘minlash kabi vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar siyosiy diskursda ayniqsa ahamiyatga ega. Ushbu maqolada kirish so‘zlarning xitoy va o‘zbek tillarida qo‘llanilishi hamda tarjimasi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kirish so‘zlar, siyosiy diskurs, tarjima.*

Аннотация. *Вводные слова занимают очень важное место в речи, выполняя такие задачи, как выражение чувств говорящего и отношения между собеседниками, обеспечение логической связи и целостности речи. Эти задачи особенно важны в политическом дискурсе. В этой статье представлена информация об их использовании и перевод в китайском и узбекском языках.*

Ключевые слова: *вводные слова, политический дискурс, перевод.*

Abstract. *Introductory words play a significant role in the speech, performing tasks like expressing the feelings of the speaker and the relationship between the interlocutors, as well as ensuring the logical connection and integrity of the speech. These tasks are especially vital in political discourse. This article provides information on the use and translation of introductory words in Chinese and Uzbek languages.*

Key words: *introductory words, political discourse, translation.*

O‘zbek va xitoy tillarida kiritmalar so‘z, so‘z birikmasi hamda gap ko‘rinishida kelishi mumkin. So‘z va so‘z birikma ko‘rinishidagi kiritmalar, asosan, so‘zlovchining subyektiv munosabatini bildirish, ma‘lumotning kimga tegishli ekanini hamda nutqning uyg‘unligini ta‘minlash uchun foydalanilsa, gap ko‘rinishidagi kiritmalar ko‘proq

qo‘shimcha ma‘lumot kiritish uchun qo‘llaniladi. Shu bilan bir qatorda, kirish so‘zlar gapda ma‘lum bir joyga ega bo‘lmagan holda, so‘zlovchining qo‘llashidan kelib chiqqan holda gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin. Ular ma‘lum grammatik ma‘noga ega bo‘lmasa ham, muhim pragmatik vazifalarni bajarishi bilan nutqning muhim bo‘lagi hisoblanadi.

Grammatika nuqtai nazaridan, o‘zbek tilida kiritmalar gap bo‘laklari bilan hech qanday grammatik aloqaga kirishmaydigan bo‘lak hisoblanib, ular ko‘proq pragmatik birlik hisoblanishi mumkin. Kirish so‘zlar gap bo‘lagi sanalmasa ham, gapda ma‘lum ma‘noni ifodalaydi, ya‘ni so‘zlovchining ifoda etayotgan fikriga shaxsiy munosabatini (“baxtinga”), bahosini (“ehtimol”) ifoda etish va ma‘lumotning kimga qarashli ekanligini (“menimcha”) bildiradi. Kirish so‘zlar nutqdagi fikr yoki ma‘lumotning oldin kelgan fikr yoki ma‘lumot bilan aloqasini (“xullas”, “nihoyat”) hamda fikrlarning tartibini ifodalashda ham ishlatiladi.

Xitoy tilida esa kiritmalar haqida ikki xil qarash mavjud. Birinchi oqim kirish so‘zlarni gapning boshqa bo‘laklariga bog‘lanmagan alohida mustaqil bo‘lakligini ta‘kidlashadi. Ding Wangdao fikriga ko‘ra, “kirish so‘zlar tushirib qoldirilgan taqdirda gapning grammatik tuzilishiga hech qanday zarar yetmaydigan butun bir bo‘lakdir” [1, 48]. Liang Wenyang ham bu fikrga qo‘shiladi [2, 206]. Ikkinchi oqimdagi olimlar esa kirish so‘zlarning mustaqil bo‘lakligini rad etishadi. Djang Daodjen fikricha, kirish so‘zlar “hol va mustaqil gap bo‘lagi orasida mavjud bo‘lgan” yoki “holga yaqin bo‘lib, hol deyilsa xato bo‘lmaydigan” [3, 495] so‘zlardir. Djao Yong va Vang Fangning fikricha, kirish so‘zlar mustaqil bo‘lak emas, balki mavjud bo‘lgan ma‘lumotga qo‘shimcha, tushuntirish yoki baho kiritish uchun ishlatiluvchi gap bo‘lagi hisoblanadi [4, 92].

Xitoy tilida kirish so‘zlarning boshqa gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga ega emasligi haqida har xil fikrlar bo‘lganligi bilan o‘zbek tilidagi kirish so‘zlar haqidagi fikrdan farq qiladi. Lekin o‘zbek va xitoy tillarida kirish so‘zlar modal so‘zlar, fe‘l, olmosh, ravishdan tashkil topgan so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, ikki tilda ham kirish so‘zlarning joyi gapda aniq belgilanmagan bo‘lib, gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin. Lyang Venyang fikricha, “kiritmalar maxsus bo‘lakligi sabab o‘zi qatnashgan gap bilan aniq

grammatik aloqaga ega emas; uning joylashuvi moslashuvchan bo‘lib, gapning boshi, o‘rtasi va oxirida bo‘lishi mumkin” [5, 206]. Demak, ikki tildagi kirish so‘zlarning asosiy farqi o‘zbek tilida kirish so‘z gap bo‘lagi hisoblanmasligi, xitoy tilida kirish so‘zlarning mustaqil bo‘lakligi haqida yakdilikka erishilmaganidir.

Kirish so‘zlar, asosan, nutqning o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligini ta’minlashda hamda so‘zlovchining subyektiv munosabati va his-tuyg‘ularini ifoda etishda qo‘llaniladi. Har bir nutqdagi fikr va mulohazalar o‘zaro aloqaga ega bo‘lib, bu aloqalar nutq vositalari yordamida ifoda etiladi. Ular nutq o‘rtasidagi jummalarni o‘zaro bog‘lab, nutqning yaxlitligini va mantiqan uyg‘unligini ifodalaydi. Kirish so‘zlar jumlar va fikrlar o‘zaro mantiqan bog‘liqligini ta’minlab, ketma-ketlik, misol va isbot keltirish, qo‘shimcha ma’lumot berish, xulosa qilish, manbaani ko‘rsatish kabilar orqali nutqda mavjud bo‘lgan mantiqiy munosabatlarini aks ettiradi. Shuningdek, kirish so‘zlar jumlar tartibini ko‘rsatish va jummalarni o‘zaro bog‘lash vazifasini ham bajaradi. Bunday kirish so‘zlarni “bog‘lovchi kirish so‘zlar” deb nomlash mumkin. Ular nutqda kontekstning mantiqan o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligini ta’minlab, diskursiv vazifani o‘taydi. Misol uchun:

- 同时我们看到，个别国家打着多边主义旗号，搞拉帮结派的“小圈子”；

(qo‘shimcha kiritish)

- **Shu nuqtai nazardan**, mavjud transport yo‘laklari va infratuzilmalaridan, jumladan, Kaspiy dengizi portlari, yirik transchegaraviy logistika markazlaridan to‘liq foydalanish tarafdorimiz .
(aniqlik kiritish)

Muloqot davomida muloqot ishtirokchilarining shaxsi, o‘rni, munosabati, xohish-istagi hamda voqea-hodisaga bo‘lgan fikrini ifodalash insonlararo funksiya hisoblanib, kirish so‘zlar ham nutqda insonlararo jihatdan ham vazifalar bajaradi. Bunday kirish so‘zlarni “modal kirish so‘zlar” deb nomlash mumkin. Feng Xiaoyaning fikriga ko‘ra, ularni ifoda turiga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin [6, 11]. Ta’kid, ishonch, taxmin kabi so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifodalagan kirish so‘zlarni subyektivlikni ifodalovchi kirish so‘zlarga tasniflash mumkin bo‘lsa, xursandchilik, afsus, ikkilanish kabi so‘zlovchining kayfiyati va ohangini aks ettirgan kirish so‘zlar his-tuyg‘uni ifodalovchi kirish so‘zlarga

birlashtirish mumkin. Subyektivlikni ifodalagan modal kirish soʻzlarga quyidagilar misol boʻladi:

- Bugun koʻrib chiqish uchun tayyorlangan hujjatlar, **shubhasiz**, Tashkilotimizning roli va xalqaro nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi .

- Va **albatta**, yaxshi niyat qilamizki, navbatdagi Sammitda, Ashxobod shahrida koʻrishish hammamizga nasib qilsin .

Yuqoridagi misollarda “shubhasiz” va “albatta” kirish soʻzlari soʻzlovchining bildirilayotgan fikrga boʻlgan subyektiv munosabati (tasdiq va ishonch) ifoda etilgan.

- Afsuski, koronavirus pandemiyasi xalqaro iqtisodiyotga salbiy taʼsir koʻrsatdi .

“Afsuski” kirish soʻzi soʻzlovchining afsus hissini ifodalab, his-tugʻuni ifodalovchi modal kirish soʻzga misol boʻla oladi. Ushbu kirish soʻz tinglovchiga soʻzlovchining shaxsiy munosabati haqida xabar beradi.

Modal kirish soʻzlar tinglovchi uchun oldindan xabar berish vazifasini ham bajaradi. Yaʼni, subyektiv munosabat va his-tuygʻuni ifodalagan modal soʻzlar soʻzlovchining ifodalanayotgan fikr yoki xabar haqida qanday oʻylashini ifodalaydi. Masalan, oxirgi misolda soʻzlovchi jumlasini “afsuski” kirish soʻzi bilan boshlab, uning ketidan salbiy maʼnoga ega xabarni ifodalagan. Kirish soʻzni eshitgan tinglovchi ham shunday turdagi xabar yoki fikrni eshitishga tayyor turgan. Bu nutqning oson tushunilishiga, muloqotning yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

Siyosiy diskursda soʻzlovchilar har bir soʻzni tanlab ishlatadi hamda nutqdagi maʼlumot va xabar oʻzi koʻzlagan maqsadga muvofiq ifoda etilishiga harakat qiladi. Siyosiy diskurs soʻzlovchilari baʼzan aniq va qatʼiylik bilan soʻzlashi, baʼzan esa oʻz munosabatini ehtiyotkorlik bilan yetkazishi kerak. Shuningdek, ularning nutqi rasmiy uslubga muvofiq holda ifoda etilishi kerak. Bundan tashqari, ularning nutqi mantiqan bogʻliq va yaxlit boʻlishi kerak. Kirish soʻzlar siyosatchilarning nutqi ushbu talablarga javob berishini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Kirish soʻzlarni real siyosiy vaziyatda oʻrganish maqsadida, Xitoy va Oʻzbekiston siyosatchilari, jumladan, ikki davlar rahbari va XXR siyosatchilarining ikki tildagi umumiy hisobda 20 ta nutqi asos qilib olindi.

Ushbu manbaalarda soʻzlovchilar qoʻllagan kirish soʻzlar pragmatik jihatdan tahlil qilinib quyidagi natijalar kuzatildi:

1-jadval. Oʻzbek va xitoy nutqlarida kirish soʻzlarning qoʻllanilishi

	Oʻzbek tilidagi nutqlar	Xitoy tilidagi nutqlar	Umumiy
Kirish soʻzlar	86	50	136
Bogʻlovchi	76	50	126
Modal	10	0	10

Koʻrsatkichlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek siyosiy nutqlarida kirish soʻzlar koʻproq qoʻllanilib, ularning soni xitoy nutqlaridagi kirish soʻzlarning umumiy sonidan yarim baravar koʻp. Shu bilan bir qatorda, oʻzbek nutqlarida kirish soʻzlarning ikki turi ham foydalangan boʻlsa, xitoy siyosatchilarining nutqlarida modal kirish soʻzlarning foydalanishi kuzatilmadi. Ular subyektivlik va his-tuygʻuni ifoda etishda kirish birikmalardan (我相信) foydalangani kuzatildi. Bundan tashqari, oʻzbek nutqlarida kirish soʻzlarining ikki turidan ham foydalanilgan boʻlsa ham, ularning qoʻllanilish soni oʻrtasidagi tafovut katta: bogʻlovchi kirish soʻzlar 76 marta qoʻllanilgan holda, modal kirish soʻzlardan faqatgina 10 marta foydalanilgan.

Yuqoridagi jadval shuni koʻrsatadiki, siyosiy nutqlarda siyosatchilar koʻproq nutqning yaxlitligi va mantiqan bogʻliqligini taʼminlash uchun bogʻlovchi kirish soʻzlardan foydalanib, tinglovchilarning nutqni oson va tez anglab yetishiga zamin yaratishgan. Demak, siyosiy nutqlarda kirish soʻzlar, asosan, nutqning uygʻunligini mantiqiy munosabatini ifodalashda foydalaniladi deyish mumkin. Siyosiy diskurs rasmiy uslub qoidalariga amal qilgani sabab unda nutqning mantiqiy bogʻliqligi va uygʻunligi katta ahamiyatga ega.

2-jadval. Oʻzbek tilidagi kirish soʻzlarning xitoy tiliga tarjimasi

	Kirish soʻzlar	Tarjima
Bogʻlovchi kirish soʻzlar	avvalambor	首先
	birinchi, ikkinchi, birinchidan, ikkinchidan, ...	第一, 第二, ...
	ayniqsa	尤其是 ..., 特别是 ...

	xususan	1) 尤其是 ..., 特别是 ... (ayniqsa ma'nosida) 2) 主要是 ... (asosan ma'nosida)
	jumladan	包括 ..., 包括 ... 在内
	shuningdek	同时, 还有, 再者, 更有甚者, 此外, 另外, 况且
Modal kirish soʻzlar	afsuski	很可惜 ..., 可惜的是 ..., 让人遗憾的是 ...
	albatta	当然, 不用说, 毋庸置疑, 一定会 ..., 必会 ...
	shubhasiz	无疑, 的确, 确实, 毫无疑问, 毋庸置疑, 千真万确
	ishonamanki, aminmanki	我相信
	oʻylaymanki	我认为, 我相信, 依我看, 依我之见
	maʼlumki	众所周知, 人所共知, 家喻户晓, 无人不晓, 我们知道, 大家都知道

Ushbu jadvalda oʻzbek tilidagi kirish soʻzlar xitoy tilidagi bir nechta tarjimasini taklif etilgan boʻlib, ular rasmiy uslubga mos ravishda tanlandi. Oʻzbek tilidagi kirish soʻzlarning xitoy tiliga tarjimasini haqida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Oʻzbek tilidagi kirish soʻzlar xitoy tiliga tarjima qilinganda, soʻz (无疑, 当然), soʻz birikma (尤其是) va gap (我相信, 我认为) koʻrinishida boʻlishi mumkin.

2. Kirish soʻzlar xitoy tilida sifat (可惜), ravish (当然), feʼl (包括), son (第一), bogʻlovchi (首先), frazeologizmlar (众所周知) kabilar bilan ifodalanishi mumkin.

3. His-tuygʻu ifodasi uchun kirish soʻzlarni 3 turda tarjima qilish mumkin:

1) 很 + tuygʻuni ifodalovchi soʻz: 很可惜 ..., 很高兴 ...;

2) Tuygʻuni ifodalovchi soʻz + 的是: 可惜的是 ...;

3) 让人 + tuyg‘uni ifodalovchi so‘z + 的是: 让人遗憾的是.

4. Xitoy tilida frazeologizmlarning foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘lib, ular siyosiy diskurda nutqqa rasmiylik tusini beradi.

Quyidagi jadvalda esa xitoy tilidagi nutqlarda uchragan kirish so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasi taklif etilgan:

3-jadval. Xitoy tilidagi kirish so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasi

	Kirish so‘zlar	Tarjima
Bog‘lovchi kirish so‘zlar	首先	Avvalambor, birinchi navbatda
	最后	Oxirida, so‘zimning oxirida
	第一, 第二, ...	Birinchi, ikkinchi, uchinchidan, to‘rtinchidan
	同时	shuningdek, shu bilan bir qatorda, shu bilan birga
	包括	jumladan, shu jumladan, ...ni ichiga olgan holda
	相反	aksincha

Bundan tashqari, xitoy so‘zlovchilari modal kirish so‘zlar ifoda etgan ma‘noni kirish so‘z bilan emas, kirish birikma yoki gap bilan ifoda etgani kuzatildi:

•在中国人民欢度新春佳节的喜庆日子里，同各位新老朋友在北京相聚，我感到十分高兴。

•中方认为，各种倡议好不好，关键要看是否坚持发展优先、是否坚持开放包容、是否坚持互利共赢、是否坚持行动导向。

Ikki tildagi kirish so‘zlarning taklif qilingan tarjimalari tarjimonlar tomonidan ishlatilib, to‘g‘ri tarjima amalga oshirishiga xizmat qiladi. Kirish so‘zlarni tarjima tiliga tarjima qilinishida kuzatilgan xususiyatlarni bilish tarjimon va til o‘quvchilariga ikki til orasidagi lingvistik va madaniy xususiyatlarni aniq tushunishiga yordam beradi hamda ularda keyinchalik o‘xshash kirish so‘zlar uchraganida, taklif etilgan tarjimaga asoslanib tarjima qilish ko‘nikmasini yetishtiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. 丁往道. 英语插入语的修饰作用. // 外语教学与研究. – 北京, 1962. – № 1. – 页 48.
2. 梁文阳. 国内插入语研究情况调查. // 长沙铁道学院学报. – 长沙, 2010. – № 11 (3). – 页 206.
3. 张道真. 实用英语语法. – 北京: 商务印书馆, 1980. – 页 495.
4. 赵勇, 王芳. 英语“插入语”的认知语法研究. // 文山学院学报. – 文山, 2014. – № 2 (27). – 页 92.
5. 梁文阳. 国内插入语研究情况调查. // 长沙铁道学院学报. – 长沙, 2010. – № 11 (3). – 页 206.
6. 封小雅. 插入成分汉英对比分析: 学士论文. 本科. – 武汉: 华中科技大学, 2004. – 页 11.
7. Насирова, С. А. (2022). Неологизмы–идеологемы в качестве проводников межкультурной коммуникации (на примере общественно-политической терминологии современного китайского языка. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 27), 6-15.
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

TERMINOLOGIYA VA UNING ISLOM HUQUQIDA RIVOJLANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461017>

Saloxiddin QURBONOV,
TDSHU stajyor-o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998932583201;
E-mail: gurbansalah@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada terminologiya va uning islom huquqida rivojiga bag‘ishlangan bo‘lib, avvalo termin tushunchasi va uning ko‘lami, terminlarning shakllanishining davriy, simpoetik jihatlari, islom huquqiga oid terminlarning shakllanishi jarayoni va bosqichlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *fiqh, istiloh, nikoh, masala, shar‘iy hukm, ahkom, shari‘at.*

Аннотация: *Данная статья посвящена терминологии и ее развитию в исламском праве, в первую очередь, понятию термина и его объему, периодическим, симпоэтическим аспектам образования терминов, процессу и этапам образования терминов, относящихся к исламскому праву. изучаются права.*

Ключевые слова: *юриспруденция, истилах, брак, спор, шариятское постановление, ахком, шарият.*

Abstract: *This article is devoted to terminology and its development in Islamic law, first of all, the concept of the term and its scope, periodic, sympoetic aspects of the formation of terms, the process and stages of the formation of terms related to Islamic law are studied.*

Key words: *jurisprudence, istilah, marriage, issue, Shariah ruling, ahkom, shari‘at.*

Hozirgi taraqqiy etgan adabiy tillarda terminologiya masalasi muhim rol o‘ynaydi. Terminologiya odatda “ilmiy til” deb ataluvchi muhim qatlamni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun tilshunoslikda terminning til tizimidagi o‘rni, uning umumiy til xususiyatlari, terminning ilm-fan taraqqiyotiga ta’siri, texnika ishlab chiqarish, ta’lim, boshqaruv sistemalaridagi ahamiyati, yangi terminlarning hosil bo‘lishi kabi masalalar doim o‘rganib kelinadi. Bu sohani sharhlashdan avval termin o‘zi nima degan savolga javob topish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu

savolga ko‘plab aniq va uncha aniq bo‘lmagan javoblar berilgan. Termin so‘ziga berilgan ta’riflar ichida quyidagi ta’riflar haqiqatga yaqinroqdir.

Termin – bu kasbiy (professional) ahamiyatga ega bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, kasbiy tushunchani anglatadi, shakllantiradi va ma’lum bir ob’ektlar, ular orasidagi munosabatlarni, ma’lum bir soha nuqtai nazaridan bilish jarayonida ishlatiladi [1,105.].

2-ta’rif: Ilm-fan, texnika, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarga oid tushunchalarning aniq ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasiga termin, deyiladi [2,12]. Har bir fan, soha yoki kasb o‘z terminlariga, shu terminlar jamidan iborat leksikaga ega bo‘ladi. Bunday maxsus leksika fanda terminologiya, deb ham yuritiladi. Ular huquq terminologiyasi, lingvistik terminologiya va boshqalar. Shu o‘rinda termin va atama so‘zlariga izoh berish bilan, ularning farqlari xususida ham to‘xtalib o‘tmoqchiman. Ma’lumki, “termin” so‘zi rus leksikasiga oid so‘z bo‘lib, uning muqobili sifatida o‘zbek leksikasiga oid bo‘lgan “atama” so‘zini olish yoki olmaslik xususida tilshunos olimlar o‘rtasida ko‘plab bahs-munozaralar bo‘lib o‘tgan va termin so‘zini atama so‘ziga almashtirishni ma’qullab bo‘lmaydi, degan xulosaga kelingan. Chunki, birinchidan, atama umuman “narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so‘z” degan ma’noga ega. Masalan: olma, katta, kelmoq so‘zlari narsa, belgi va harakatning atovchisi (atamasi) hisoblanadi [3,23]. Termin so‘ziga nisbatan bunday deya olmaymiz. Yuqorida aytib o‘tganimizdek termin bu biror sohaga oid tushunchaning aniq va barqaror ifodasidir. Atama so‘zi termin haqida aytilgan ta’rif va xususiyatga ega emas. Xuddi shuning uchun ham “termin” ma’nosida ilgari qo‘llangan istiloh va atama so‘zlari, vaqti kelib, terminga qo‘yiladigan talablarga to‘la javob bera oladigan shu so‘z (termin so‘zi) bilan almashtirilgan edi. Bundan tashqari, dunyoning deyarli barcha tillarida, jumladan turkiy tillarda terminga xos yuqorida keltirilgan ma’noda shu so‘z (termin so‘zi) qo‘llanadi, ya’ni u haqiqiy ma’noda baynalminal so‘z hisoblanadi. Atama so‘zi umuman nom ma’nosini bildiradi. Yuqoridagi dalillarga tayanib bu ilmiy ishimni yozishda ham termin so‘zidan foydalanamiz. Terminlarning hosil bo‘lishi nazariy bilimlarning o‘sishi, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq deb o‘ylash xatodir. O‘tmishda ham, hozirgi vaqtda ham har qanday soha o‘z terminologiyasiga ega bo‘lgan. Ko‘pgina odatiy nutqda ishlatiladigan

soʻzlar kasbiy nutqda termin boʻlishi mumkin. Terminlar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni aniq ifoda etuvchi soʻzlar boʻlsada, lekin bu soʻzlarning qoʻllanilishi shu soha kishilari doirasi bilan chegaralangan boʻlishi shart emas. Bunda ikki xil holatni kuzatish mumkin.

1. Ayrim terminlarning maʼnosi shu sohaga aloqasi boʻlmagan kishilar uchun ham tushunarli boʻladi va koʻpchilik tomonidan foydalanilaveradi. Masalan, botanikaga oid terminlar: gʻoʻza, bugʻdoy, oʻrik; sanʼatshunoslikka oid terminlar: sahna, afisha, aktyor, nikoh masalasiga oid terminlar: boligʻ, boligʻa, nikoh; meditsinaga oid: ukol, narkoz va boshqalar.

2. Ayrim terminlar faqat shu sohaga oid kishilar uchungina tushunarli boʻladi va shu soha kishilari nutqidagina qoʻllaniladi. Masalan, tilshunoslikka oid: fonema, morfema, oʻzak, urgʻu; kimyoga oid: oksid, indikator; islom huquqi nikoh masalasiga oid: kafoat, ishgʻor nikoh, mutʼa nikoh. Shuni aytish kerakki, umumisteʼmoldagi soʻzlar maʼlum bir sohaga oid tushunchani ifodalaydigan soʻz sifatida qoʻllanilib, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u dastlabki maʼnosi bilan umumisteʼmoldagi leksikaga, maxsus (terminologik) maʼnosi bilan esa terminologik leksikaga oid boʻladi. Masalan, kundalik nutqda ishlatiladigan “tom”, “devor”, “shift” kabi oddiy soʻzlar quruvchilar va arxitektorlar nutqida termin hisoblanadi. Bir soha odamlari orasida ishlatiladigan terminlar oʻzaro faoliyat jarayonida munosabat-aloqani taʼminlab beradi va oʻsha ishning samaradorligiga taʼsir etadi. Shunday qilib lugʻat tarkibidagi maʼlum bir soʻz umumisteʼmoldagi soʻz ham, termin ham boʻlishi mumkin ekan [2,12]. Terminologiya masalasining shu kunga qadar murakkabligi va hal qilinmagan tomonlari mavjudligiga qaramay shuni taʼkidlash mumkinki, termin bu kasbiy tafakkurning quroli va natijasidir. Shuning uchun ham bu soha mutaxassislari termin soʻz yoki soʻz birikmasi bilan ifodalangan boʻlishidan qatʼiy nazar, u ochiq oydin maʼnoga ega boʻlishi va yagona tushunchani ifodalashi kerakligini taʼkidlaydilar. Termin bu til birligini belgilab va nomlab beruvchi leksik birlikdir. Termining maʼnosi umumiy ishlatiladigan soʻzlar maʼnosiga qaraganda, oʻta aniq boʻladi, unda qoʻshimcha maʼnolar boʻlmaydi. Maʼlum bir sohaga oid terminlar oʻzaro soʻz yasovchilik va tushuncha munosabatlari jihatidan bogʻliq boʻladi. Masalan, “grammatika”, “morfologiya”, “sintaksis” kabi tilshunoslik

terminlari o‘zaro so‘z yasovchilik jihatidan bir-biriga tobe, bog‘liq bo‘lmasada, ma’no, tushuncha jihatidan o‘zaro bog‘liqdir. Lekin buning aksi, ya’ni so‘z yasaliş jihatidan bog‘lanish bo‘lib, tushuncha bog‘liqligi yo‘q bo‘lishi mumkin emas. “Morfema”, “morfologiya”, “morf” kabi terminlar so‘z yasaliş nuqtai nazaridan bog‘liq bo‘lsalarda, ularda tushuncha bog‘liqligi ham mavjud [4, 92.]. Terminlar qo‘llaniliş sohasiga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘linadi:

1. Ilmiy terminlar – ilm-fanga oid terminlardir.

a) Tilshunoslikka oid: fonema, fonetika, leksika semantika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis va hokazo.

b) Adabiyotshunoslikka oid: sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a, tajnis, talmeh, roman, hikoya.

v) Tarixga oid: kapitalizm, feodalizm, kommunizm.

Shu va shu kabi boshqa ko‘plab ilm-fan sohalariga oid terminlar ilmiy terminlar deb ataladi.

2. Professional terminlar. Ma’lum kasb-hunarga va mutaxassislikka oid monosemantik so‘zlar professional terminlardir.

a) kulolchilik kasbiga oid: angob, taqsir (sopol idishlarning yuziga beriladigan bo‘yoq), gulbo‘ta (tog‘dan chiqadigan ko‘kimtir oq tusli loy);

b) Poyabzaldo‘zlik kasbiga oid: bigiz, qolip, beshlik, dastak, giocho‘p;

v) Tikuvchilikka oid: igna, mato, bichim, andoza, chok, ip.

Endi fiqhiy terminologiya haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, u tarixan rivojlanishning ikki bosqichini o‘z ichiga oladi.

1. Klassik davr;

2. Zamonaviy davr.

O‘rta asrlarda diniy ilm hisoblangan islom huquqi, arab tilshunosligi, tarix, adabiyot, falsafa va boshqa fanlarga oid manbalar an‘naviy arab tilida yozilgan. Ularda o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lgan terminlarning ko‘pligi shu davrda arab tilshunosligida terminologiya sohasi ancha taraqqiy etganligini ko‘rsatadi [3, 75.].

Islom huquqi (fiqh)ga oid terminlar va ularni tarjima qilish masalasi: Shariat – eng avvalo, Qur‘on va Sunnatda mustahkamlanib qo‘yilgan, musulmonlarning e‘tiqodini belgilaydigan, ularning ma’naviy qadriyatlarini shakllantiradigan, shuningdek ularning xulq-atvorini tartibga soluvchi muayyan normalar manbai sifatida amal qiladigan qoidalar

majmuidir. Shariat, deganda ko‘pchilik insonlar musulmoncha turmush tarzini, shu turmushning barcha normalarini, ya’ni diniy, axloqiy, yuridik, maishiy va boshqa odatlarni o‘z ichiga olgan xulq-atvor qoidalari sifatidagi ma’lum normalarni tushunadilar. Lekin Qur’on va Sunnatda musulmonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilovchi muayyan qoidalar ko‘p emas. Shu sabab ko‘plab ijtimoiy va huquqiy normalarni diniy aqidalarga moslashtirish va yangi rivojlanib borayotgan jamiyatdagi munosabatlarni islom ta’limoti qoidalari asosida tartibga solish ehtiyoji fiqh ilmining shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. VIII asr oxiri IX asrning birinchi yarmiga kelib, huquqshunoslikning o‘z tushunchalari, o‘ziga xos tili va uslubi shakllandi [12, 124.].

Bu fanning alohida fan sifatida shakllanishiga islom olamining kengayishi, fath etilgan o‘lkalar sonining jadal sur’atda o‘sishi, turli millatlarning islom dinini qabul qilishi kabi omillar sabab bo‘lgan. Taxminan X asrlarga kelib fiqh-huquqshunoslik fani diniy ilmlar sirasiga kiruvchi mustaqil fan sifatida uzil-kesil tarkib topdi [12, 124.]. VII asrda boshlangan fath yurishlari natijasida arab xalqlari zabt etilgan mamlakatlarning madaniyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu davrda islom madaniyatining keng ommaga tarqalishi qanchalik shiddat bilan amalga oshgan bo‘lsa, yangi terminlarga bo‘lgan ehtiyoj shu qadar kuchaydi. Shu fan sohalari ichida dinshunoslik tarkibiga kiruvchi huquqshunoslik “fiqh ilmi” nomi bilan mustaqil fan sifatida shakllandi. Turgan gapki, fiqh ilmining rivojlanishi unga oid yangi terminlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Bizga ma’lumki, arab tilida bir so‘z bir necha ma’nolarda qo‘llaniladi, shu sabab islom huquqiga oid terminlarga ta’rif berilayotganda, mana shu so‘z asli qaysi o‘zakdan olingan, u lug‘atda qanday ma’noni angladi-yu, istilohda qanday ishlatiladi va hatto, bu termin nima sababdan shu ma’noda qo‘llanilayotganligiga ham sharh berib ketiladi. Masalan, “fiqh” terminining o‘zini oladigan bo‘lsak, unga shunday ta’rif berilgan: “Fiqh” so‘zi **الفقه** o‘zagidan olingan bo‘lib, lug‘atda “anglamoq”, “tushunmoq”, “fahmlamoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Shariat istilohida esa, ya’ni termin sifatida **الفقه** “al-fiqh” “islom huquqi” deb yuritiladi [13,51-52].

Fiqh ilmi musulmon shaxsi butun umri davomida va kundalik hayotida to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardagi ixtilofli masalalar, har bir vaziyatga doir xos hukmlarni o‘rganadi.

Islom huquqiga oid fiqhiy masalalar, ya’ni zamonaviy termin bilan aytadigan bo‘lsak islom huquqi institutlaridir. Mazkur umum mazmunga ega mavzulashtirilgan terminlarni tahlil qilsak, ular odatda izofiy birikma shaklida beriladi. Endi “fiqhiy masala” terminining o‘ziga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, o‘zbek tiliga o‘girilgan ba’zi manbalarda ular asl arab tilidagi kabi “masala” tarzida, transliteratsiya usulida berilsa, ba’zilarida “fiqhiy institut” deb “masala” terminini o‘rnini bosuvchi “institut” termini orqali berilgan. Masalan: “Nikoh, ajralish, qarindoshlik, savdo-sotiq, oilani moddiy ta’minlash, bolalar tarbiyasi bo‘yicha majburiyatlar, qonun bo‘yicha vorislik, huquqiy layoqatlikni cheklash, vasiylik va homiylik va hokazolar mazkur huquqning institutlaridir” [16, 584.]. Yuqorida keltirilgan parchadan shuni aytishimiz mumkinki, bu yerda fiqhiy masalalar nomlarini o‘zbek tilida berishda “nikoh”, “vasiylik” kabi ham transliteratsiya usulidan foydalangan holda, ham ona tilimizda mavjud, “ajralish” (taloq so‘zining tarjimasini), “qarindoshlik” (vala’un so‘zining tarjimasini), “savdo-sotiq” (kitobu-l-bay’ so‘zining tarjimasini) kabi bu so‘zlarning tarjimasini orqali berilganining guvohi bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Кодуков М. Общее языкознание. –М., 1974. – Б..105.
2. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б.12.
3. Хожиев А. Термин танлаш мезонлари. –Т.: Фан, 1996. – Б.23.
4. Мусаев Қ. Таржима назарияси. –Т.: Фан, 2005. – Б.92.
5. Абдужабборов А. Араб тили. –Т.: Тошкент ислом унив-ти, 2007.
6. Абдурахмонов Ғ.А., Шоабдурахмонов Ш.Ш., Хожиев А.П. Ўзбек тили грамматикаси. -Т.: Фан, 1976.
7. Абдурахмонов Х. ва бошқалар. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992.
8. Асқарова М., Шоабдурахмонова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1980.
9. Бурхониддин Марғинович. Ҳидоя. I жилд (Салоҳиддин Муҳиддин раҳбарлигидаги таржимонлар гуруҳи). –Т.: Адолат, 2000.
10. Жўзжоний А.Ш. Ислом ҳуқуқшунослиги. –Т.: ТИУ, 2002.

11. Каримов А., Гаффоров З. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
12. Раҳмонов А. Ислом ҳуқуқи. –Т.: Адолат, 2007. – Б.124.
13. Бегматова Б. Шарқшунослик масалалари илмий мақолалар тўплами. Ислом ҳуқуқига оид терминларнинг луғавий ва истилоҳий маънолари. –Т., 2009. – Б.51-52.
14. Бурҳониддин Ал-Марғиноний. Ҳидоя. I жилд. (Салоҳиддин Муҳиддин раҳ.даги таржимонлар гуруҳи). –Т.: Адолат, 2000. – Б.24/
15. Бурҳониддин Ал-Марғиноний. Ҳидоя. I жилд. (Салоҳиддин Муҳиддин раҳ.даги таржимонлар гуруҳи). –Т.: Адолат, 2000. – Б.24.
16. О.Каримов, З.Гаффоров. Давлат ва ҳуқуқ асослари: Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б .584.
17. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
18. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
19. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
20. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
21. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.

SIMULTANEOUS INTERPRETING AND STRUCTURAL DIFFERENCES IN ARRANGING INFORMATION



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461035>

Шин Чи Сон,
ТДШУ, магистрант 2-го года обучения
Ташкент, Узбекистан.
Tel: +99894 6092308;
E-mail: kykylove1208@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola koreys va rus tillarida og‘zaki tarjima va strukturaviy farqlar masalalariga bag‘ishlangan. O‘rganilayotgan ikki tilning grammatik tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, xatolar ko‘pincha tarkibiy xususiyatlarni yetarli darajada bilmaslik va jumla komponentlarining harakatchanligini o‘zgartirish qobiliyati tufayli tarjimada uchraydi. Koreys tili va rus tili o‘rtasidagi tarkibiy farq, ayniqsa ma‘lumotni tarjima qilishda nafaqat oxirida, balki bayonotning boshida ham bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *koreys tili, rus tili, tarjima, talqin, tilshunoslik*

Аннотация: *Настоящая статья посвящена вопросам устного перевода и структурных различий в корейском и русском языках. Особенности грамматического строя двух исследуемых языков показывает, что в переводе чаще всего происходят ошибки из-за недостаточно знаний структурных особенностей и возможности варьировать подвижностью компонентов предложения. Структурное различие между корейским и русским языками, в особенности, при переводе информация может содержаться не только в конце, но и в начале высказывания.*

Ключевые слова: *корейский язык, русский язык, перевод, устный перевод, лингвистика*

Annotation: *This article focuses on the effect of structural differences between Korean and Russian language in simultaneous interpretation. The peculiarities of the grammatical structure of the two languages show that translation errors most often occur due to insufficient knowledge of structural features and the ability to vary the mobility of the components of the sentences. The structural differences between two languages are directly related to the process of arranging information in simultaneous interpretation.*

Key words: *Korean language, Russian language, translation, interpretation, linguistics*

In linguistics, branching refers to the shape of the parse trees that represent the structure of sentences.

Assuming that the language is being written or transcribed from left to right, parse tree that grow to the right is right-branching, and parse tree that grow to the left are left-branching [1, 390].

The structural difference between Korean and Russian and the corresponding information arrangement comes from the difference of branching direction. Russian language is a right-branching language whereas Korean language is a left-branching language that extends to the left.

Due to this difference, from the translator's point of view, in Russian language, the main information is obtained first, but in Korean language, it is encountered last.

Мы приняли и последовательно реализуем «дорожные карты» по укреплению промкооперации с Россией, Казахстаном, Беларусью и Кыргызстаном [2].

우리는 러시아, 카자흐스탄, 벨라루시, 키르기스스탄과의 산업 협력을 강화하기 위한 로드맵을 채택하고 지속적으로 구현하고 있습니다.

If we look at the verb phrase in the above Russian sentence, the main element of the sentence is the verb ‘приняли’ and ‘реализуем’.

From these verbs other elements of the words extend to the right. From the interpreter's point of view, we can hear the first part of the whole sentence ‘Мы приняли и последовательно реализуем’, and the last content can be inferred from the words ‘приняли и последовательно реализуем о том, что’.

That is, information processing that can compose a frame is first obtained, and then the specific content is filled in the frame.

Conversely, in Korean language, the following object sentence ‘러시아, 카자흐스탄, 벨라루시, 키르기스스탄과의 산업 협력을 강화하기 위한 로드맵을(road maps to strengthen industrial cooperation with Russia, Kazakhstan, Belarus and Kyrgyzstan)’ which has the specific meanings comes before the verb ‘채택하고 구현하고 있습니다.(adopted and are implementing)’.

Therefore the interpreter holds these specific contents in his memory, and based on this, information processing takes place in such a way that the frame given at the end of the sentence is gradually constructed.

The structural difference between Korean and Russian also appears in relative clause [3, 359].

In the case of relational clauses, as shown in the example below, the direction of information arrangement is also opposite between Russian language and Korean language.

Последовательная реализация этого основополагающего документа, который в полной мере отражает глубокие исторические традиции дружбы и взаимопонимания между российским и китайским народами, позволила вывести наши отношения на беспрецедентно высокий уровень [4].

러시아와 중국 인민 간의 우호와 상호 이해의 깊은 역사적 전통을 충분히 반영하는 이 기본 문서의 일관된 이행으로 양국의 관계는 전례 없는 높은 수준으로 발전하였습니다.

In the example above, the most important part in the Korean relative clause and Russian relative clause are ‘реализация этого основополагающего документа (문서의 이행, implementation of this basic document)’. The fact that the branching directions of relative clauses are completely opposite is clearly understood.

From the interpreter's point of view, in the case of Russian language, the core content is given first, so the structure can be easily grasped [5, 13].

In the Russian example above, the relative pronoun 'который' is placed at the beginning of the relative clause. We can understand the linguistic structure and its core by listening to only the first part of the entire information.

Tajribali harbiy jurnalist, olim A.Safarov tadqiqotida boy o‘tmishga, ulkan davlatchilikka ega yurtimizda harbiy jurnalistlar bo‘lganmi, degan savolni qo‘yadi. Unga javob sifatida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining katta ilmiy xodimi G‘ulom Karimiyning Muiniddin Natanziyning «Muntaxab ut-tavorixi Muiniy» kitobi tarjimasining kirish qismidagi «Muntaxab ut-tavorixi Muiniy»da Amir Temur davri tarixining yoritilishi» sarlavhali materialiga tayanib, olis o‘tmishda ham harbiy jurnalistlar bo‘lgan, degan xulosaga keladi⁷⁴. Fikrimizcha, qadimda qo‘shinlar tarkibida qo‘mondonlar yonida yurgan va uning jangovar harakatlari, jasorati, urush voqealari haqida yozib borgan o‘qimishli shaxslar (ulamo yoki a‘yonlar)ni ko‘proq zamonaviy terminologiya va xizmat vazifasi nuqtai nazaridan matbuot kotiblariga o‘xshatish mumkin. Chunki ular voqelikni qayd etayotganda keng jamoatchilikni xabardor qilishni maqsad qilishmaydi. Bu jarayonda saroy mulozimi sifatida sohada olib borilgan tadbirlar, erishilgan natijalar hisobotini yuritib, qog‘ozga tushiradi.

Ikkinchidan, bu davrda harbiy yurishlar haqida jarchilardan boshqa ommaviy xabarlarni tezkor uzatish kanallari mavjud bo‘lmagan. Axborot taqchilligi esa aholi orasida turli mish-mishlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Uchinchidan, navkarlar, qo‘shinlar hayoti, zafarlari haqidagi axborot faqat bir yoqlama, ya‘ni saroy munshiysi nuqtai nazari bilan

⁷³ [Сафаров А. Харбий журналистика – жанговар сўз масъулияти // Ихтисослашган журналистика. IX жилд. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. – Б. 384.](#)

⁷⁴ Ўша манба. – Б. 385.

ifodalangan. Ayni omillar bitikchilar tomonidan omma o'rtasida kommunikativ integratsiya ta'minlanmaganini anglatadi.

Turkiy uluslar hukmdori sifatida mamlakatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Amir Temurning «Temur tuzuklari»da Sohibqiron saltanat holidan voqif bo'lish tizginini qay yo'sinda tutgani bayon qilingan. Xususan, «Mulk-u mamlakat, sipohu raiyat ahvolidan xabardor va ogoh bo'lib turish tuzugi»da o'sha davrda Amir Temur amri bilan tayinlangan xabarnavislarning asosan qanday axborot uzatgani haqida qimmatli ma'lumotlar bor⁷⁵: «Amr qildimki, har yerda, viloyat-u shahar va lashkar o'rdusida kundalik voqealarni yozuvchi (matnda xabarnavis)larni tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh o'z lashkari va yot lashkarning xatti-hakarati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo'shni podshohlar, ularning gaplari, ishlari haqidagi xabarlar va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. Agar bunga xilof ish tutgudek bo'lsalar, (bo'lib o'tgan) voqealarni yozmasalar, yozuvchining xabar yozgan barmoqlari kesilsin. Agar xabar yozuvchi biror sipohiyning xizmatini yashirsa yoxud xabarni boshqa libosga kiyintirib (yolg'on) yozgan bo'lsa, u holda uning qo'lini kessinlar. Agar yolg'on xabarni tuhmat yoki g'araz bilan yozgan bo'lsa, uni qatl etsinlar va yana amr etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar»⁷⁶. Oradan necha asrlar o'tsa hamki, caltanat humkdorining ushbu talabi hozirgi davlatimiz rahbarining jurnalistlarga qo'yayotgan talablardan o'zgargani yo'q.

Harbiy jurnalistika uzoq tarixga ega bo'lgan jurnalistikaning bir bo'lagidir. Ushbu media tarmog'i harbiylar hayoti, faoliyati bilan bir qatorda harbiy mojarolarni to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita yoritishi kerak. Urushlar, diniy va etnik to'qnashuvlar, terrorizmga qarshi operatsiyalar haqida o'z auditoriyasini muntazam xabardor qilib borishi lozim. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari harbiy harakatlar davrida davlat siyosatini ilgari surish imkonini beradi.

⁷⁵ [Сафаров А. Харбий журналистика – жанговар сўз масъулияти // Ихтисослашган журналистика. IX жилд. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. – Б. 388.](#)

⁷⁶ [Қаранг: Темур тузуклари, – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. – Б. 139.](#)

Shoʻrolar hukmronligi davrida mamlakatimizda chop etilgan harbiy nashrlardagi axborot integratsiyasiga doir ilmiy maʼlumotlar tarix fanlari nomzodi, dotsent P.V. Agapovning «Военная печать Туркестана в годы гражданской войны (1918-1920 гг.)» mavzusidagi dissertatsiyasidan topildi⁷⁷. P.Agapovning yozishicha, XX asr boshlarida butun harbiy matbuotning faoliyati sovet hokimiyatiga qarshi tashqi va ichki qurolli kurashni yengish, Sharqda inqilobiy qalʼa boʻlgan yosh Turkiston respublikalarini himoya qilishdek asosiy vazifani hal etishga qaratilgan. Barcha harbiy gazeta-jurnallardagi axborot integratsiyasi esa quyidagi vazifalarga yoʻnaltirilgan:

- 1) respublika qurolli kuchlarini mustahkamlash, ularda kommunistlar, harbiy komissarlar, partiya siyosiy apparatining rolini oshirish;
- 2) qoʻshinlarning harbiy intizomini va jangovar tayyorgarligini oshirish, front ortida birlikni mustahkamlash;
- 3) amerika-ingliz imperialistlari, Antanta tarafdorlari Kolchak va Denikin, oq polyaklarning agressiv siyosatini fosh qilish;
- 4) mahalliy tub aholi vakillarini qizil armiya safiga yollash kampaniyasini olib borish.

Turkiston harbiy matbuoti qizil armiya matbuotining ajralmas qismi boʻlib, asosan V.I. Lenin tomonidan butun sovet matbuoti uchun ishlab chiqilgan umumiy tamoyil va vazifalarga boʻysundirilgan. Turkistonda sovet harbiy matbuotining shakllanishida RKP (b) MK Turk byurosi, Turkkommissiya, mahalliy partiya, sovet va harbiy tashkilotlarning gʻoyaviy-tashkiliy faoliyati muhim rol oʻynagan⁷⁸. Binobarin, Turkiston harbiy matbuoti fuqarolar urushi yillarida qizil armiyada partiya siyosatining faol targʻibotchisi, Turkiston qurolli kuchlarini mustahkamlash, uning dushmanlari ustidan gʻalaba qozonishi yoʻlida tinimsiz kurashuvchi boʻlgan.

Turkistonning Markazdan uzoq vaqt izolyatsiya qilingani sababli harbiy matbuot katta iqtisodiy va siyosiy yordamga muhtoj boʻlgan. Buning oqibatida tahririyatlarning rivojlanish jarayoni sustlashgan. Tahririyatlarni milliy masala va xalqaro muammolarni hal qilish vositasi

⁷⁷ *Агапов П.В.* Военная печать Туркестана в годы гражданской войны (1918-1920 гг.). Дисс. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент: Наука, 1967.

⁷⁸ Первая советская военная газета в Туркестана // *Общественные науки в Узбекистане.* – Ташкент, 1965, № 5. – Стр. 55-56.

sifatida rivojlantirish shartlilikidan kelib chiqib, Turkiston armiyasida rus tili bilan bir qatorda mahalliy xalqlar, qo'shni mamlakatlar xalqlari va xorijiy tillarda gazeta va jurnallar paydo bo'ldi. Tarixchi olim P.Agapov 1918-1920 yillarda chop etilgan o'sha Turkiston sovet harbiy gazetalari va jurnallarini quyidagicha turkumlagan:

markaziy nashrlar – «Krasnoarmeets», «Krasniy front», «Borets za kommunizm» va boshqalar;

front gazetalari – «Gornist», «Nasha frontovaya jizn'», «Boy za kommunizm», «Kommunar» va boshqalar;

armiya gazetasi – «Nabat revolyutsii»;

divizion (brigada) gazetalari – «Pravda» (Verniy), «Proletarskaya misl'», «Luch Vostoka»;

milliy nashrlar – «Kzil yul» jurnali, «Ishtakiyun», «Djanga urs», «Kzil yulduz», «Sadoi fukaro», «Yangi shark», «Shefor» gazetalari;

askar-internatsionalistlar uchun – «III Internatsional» jurnali, «Vsemirnaya revolyutsiya», «Krasnoe znamya», «Krasnaya gazeta» va boshqa gazetalari⁷⁹.

«Proletarskaya misl'» va «Yangi shark» gazetalari bosmachilar harakati va ularga qarshi qizil armiya tomonidan olib borilgan kurash taktikasi o'z aksini topgan. Bunday materiallar «Kommunisticheskaya misl'», «Yejenedelnik politrabotnika», «Voennaya misl'», «Kizil yul» jurnallarida ham chop etilgan. Jurnallar sahifalarida Turkfront qo'shinlaridagi partiyaviy-siyosiy hamda madaniy-ma'rifiy muassasalar ishlariga alohida o'rin ajratilgan.

Harbiy matbuotni amaliy boshqarishda M.V. Frunze, V.V. Kuybishev, D.A. Furmanov katta hissa qo'shgan. Davriy harbiy matbuot nashrlarida mahalliy hamda Markazdan kelganlar mutaxassislar A.F. Solkin, N.To'raqulov, P.I. Voitik; yozuvchi va jurnalistlar S.Ayniy, Xamza Hakimzoda, B.Lavrenev, A.Kolosov, P.Drujinin, A.Zonin, V.Kapel'nitskiy, A.Donskiy, G.Sviling, K.Hakimov, V.Karpich, I.Baskakov, K.Troyanovskiy, D.Stratulenko, V.Ulyanovskaya, A.Savin va boshqalarning xabar va maqolalari muntazam bosilgan.

⁷⁹ *Agapov P.B.* Военная печать Туркестана в годы гражданской войны (1918-1920 гг.). Дисс. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент: Наука, 1967. – С. 25-26.

Turkiston mahalliy harbiy jurnalistlari ushbu davrning o‘ziga xos sharoitlarida mehnatsevarlik va tezkorlik namunalari ko‘rsatib, qisqa, ammo keng qamrovli tahliliy maqolalar, siyosiy sharhlar va harbiy sharhlar yozish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Ular markaziy «Pravda», «Izvestiya», «Bednota» gazetalarida bosilgan materiallarni taqdim etish usullaridan ijodiy foydalandilar, xalq ommasiga mahalliy va xalqaro axborot uzatishning eng samarali vositasi sifatida murojaatlar, shiorlar shakllarini keng qo‘lladilar.

Inqilobdan keyingi dastlabki yillarda sovet harbiy matbuoti bosib o‘tgan yo‘lni tahlil qilar ekan, uning faol namoyandalaridan biri Boris Lavrenev 1922-yilda: «Inqilobning o‘ta kuydiruvchi va tozalovchi alangasi timsolida bizning matbuotimiz dunyoga keldi. Ishchilar va dehqonlar qizil armiyasining yuragi, miyasi va ovozi bo‘lgan matbuotimiz o‘sib, mustahkamlandi»⁸⁰, deb yozgani ayni haqiqatdir. Ilk milliy harbiy matbuot nashrlaridan keyin chiqqan boshlagan «Krasnoarmeyskaya gazeta» (1921-1922 y.), «Krasnaya zvezda» (1922-1938-y.), «Frunzevets» (1938) gazetalarini ham targ‘ibot apparati vazifasini o‘tagan. Harbiy jurnalist va olim A.Safarovning yozishicha, sho‘rolar davrida O‘zbekistonda chop etilgan harbiy nashrlar boshqa davriy matbuot singari shakllana borgan bo‘lsa-da, mustabid tuzum ko‘zlagan siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilishi bilan, avtoritar matbuotga xos jihati bilan xarakterlanadi»⁸¹.

Keyinchalik mamlakatimizda chop etilgan «Turkiston viloyatining gazetasi», «Sadoi Turkiston», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat» kabi gazetalarda harbiy jurnalistikaga yaqin maqolalar chiqib turgan. XX asr boshlarida o‘zbek tilida chop etilgan gazeta-jurnallarda harbiy hayotning juz‘iy tasviri uchrasa-da, O‘zbekistonda harbiy jurnalistikaning navbatdagi faol evolyutsion fazasi Ikkinchi jahon urushi yillariga borib taqaladi. O‘zbek harbiy jurnalistikasi tarixiy ildizlari asosini bir qo‘lda qurol-u bir qo‘lda qalam bilan bitib qoldirgan o‘zbek jurnalistlarining ijod namunalari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, front gazetalarida

⁸⁰ Лавренев Б. Рожденная в суровых боях. В помощь работникам местной печати. – Т., 1963, № 1-2.

⁸¹ Сафаров А. Ҳарбий нашрларда мустабид тuzum кўзлаган мақсад ифодаси (Ўзбекистонда шўролар давридаги ҳарбий нашрлар мисолида) // Ўзбекистонда хорижий тиллар. 2020. – № 1 (30) – С. 166–181. <https://doi.org/10.36078/1585596433>.

ishlagan Mirzakalon Ismoiliy, Nazir Safarov, Zinnat Fatxullin, Ibrohim Rahim, Mumtoz Muhammedov, Nazarmat, Adham Rahmat, Meli Jo‘ra, Adham Hamdam va boshqalar o‘zbek jangchi-bahodirlarining mardlik fazilatlarini yoritishda yosh qalamkashlarga namuna bo‘lganlar. Ular shiddatli janglar borayotgan joylarda, qorli okoplarda, qalin o‘rmonlarda, botqoqliklarda razvedka so‘qmoqlarida, otishmalar avjiga chiqqan vayrona shahar va qishloqlarda, jang taqdiri hal bo‘layotgan maydonlarda jangchilarimiz bilan birga bo‘lgan, ularning jasorati, fidoyiliklarini yozgan⁸².

Ikkinchi jahon urushi yillarida fotograflar, kino tasvirchilar ham Ittifoq xalqlari zobitlarining o‘lmas jasoratini tasmalarga muhrlab, g‘alabaning o‘ziga xos syujeti va obrazini namoyish etgan holda axborot integratsiyasi jarayonlari tarkibida muhim rol o‘ynagan. Bunday mutaxassislar soni 250 nafardan ortiq bo‘lib, ular orasida taniqli o‘zbek kinohujjatchisi Malik Qayumov, foto va xronikal tasvirchilar Mamatqul Arabov, Olim Rahimov, Ergash Hamroyev, Nishon Otaxonov Kalinin frontidagi ijodiy guruh safida ishlagan. Rjevsk g‘arbida polkovnik M.Busarevning jangga tayyorgarlik ko‘rishi, so‘ng hujumga o‘tishi, vayron bo‘lgan tanklar, yonayotgan uylar, yaradorlar, xullas, dahshatli urush manzaralarini Malik Qayumov shundoqqina yonidan turib, tasvirga olgan. G‘izillab o‘tayotgan daydi o‘qlar go‘yoki tasvirga olishda bir tomondan jiddiy xavf tug‘dirib, xalaqit qilsa, boshqa tomondan kadrning tabiiy chiqishini ta‘minlagan. Shuningdek, ular 1-Belorussiya frontida bo‘lib o‘tgan barcha hodisalar, ko‘plab askarlarning chekinishi, mag‘lubiyat alami, qayg‘usi, o‘zlarini yo‘qotib qo‘ygan og‘ir ahvoli, azoblanayotgan yaradorlarning jon berishini tasvirga olgan. Biroq bu materiallarning hammasi ham ommaviy syujetlarga kiritilmasdi. Sababi fotosurat va hujjatli film oldiga qo‘yilgan talablardan biri uning haqqoniyligi bilan birga targ‘ibot xarakteri aks etishi, askarlar va xalqning ruhini ko‘taradigan, g‘alabaga ishonchini oshiradigan bo‘lishi shart edi⁸³.

Harbiy matbuot tizimi deganda, nafaqat barcha harbiy nashrlarning yig‘indisi va ular orasidagi bog‘liqlikni, balki barcha turdagi davriy nashrlarning harbiy xarakterdagi axborot-kommunikatsiya vazifalarini

⁸² Шамсутдинов Р. Сўз Ватан учун жангга чорлайди // Водийнома, 2019. № 3 (14). – Б. 5.

⁸³ Ўша манба.

bajarishdagi aniq, yakdil maqsadini tushunamiz. Uning ishlash imkoniyatlarini belgilovchi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, sobiq Ittifoq tarkibida turli davrlarda kuchli harbiy ma'muriy-hududiy birliklar, respublikalar uzoq vaqt faoliyat yuritib, barcha harbiy tuzilmalar o'z bosma nashrlariga ega edi, ular vaqtga qarab o'zlariga yuklangan vazifalarni bajargan. Ushbu gazetalar siyosiylashganiga qaramay, Markaziy Osiyoda harbiy davriy nashrlarning asoschisi edi, chunki ular birinchi navbatda jangovar tayyorgarlik va davlat mudofaasining samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalarini bajargan⁸⁴.

Harbiy sohaga ixtisoslashtirilgan ommaviy axborot vositalarining xabarlari ma'lum bir davlat himoyasini ta'minlash bilan bir qatorda jangchilarning aniq, tezkor va kerakli axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish zarurligini tasdiqlaydi. Armiyada tarqatish uchun mo'ljallangan bosma materiallarning funktsional xususiyatlarini hisobga olgan holda, jangovar tayyorgarlikdan tashqari, ofitserlar va askarlarning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, foydali va qiziqarli ma'lumotlar ham uzatilishi kerak. Bunday yondashuv armiya yangiliklariga qiziqadigan oddiy fuqarolar e'tiborini ham harbiy OAVga jalb etish imkonini beradi.

Harbiy sohadagi axborotlarni shu yo'nalishga ixtisoslashgan jurnalistlar yozadilar. Ushbu jiddiy, siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan yo'nalishni yaxshi bilmay, qalam tebratish turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli eng avvalo, harbiy jurnalist kimligi hamda qanday ishlarni amalga oshirishi kerakligi haqida to'liq bilib olish zarur.

Tadqiqotchilarning «harbiy jurnalistika» tushunchasiga berilgan ta'rif va ilmiy qarashlari urush, nizo va olovli nuqtalardan axborot berish, uni yoritish motividan kelib chiqqan. Hozirgi kungacha harbiy jurnalist bu harbiy harakatlar paytida harbiy qo'shin, aviatsiya va dengiz floti bilan birgalikda harakatlanadigan va ommaviy axborot vositalarida harbiy to'qnashuv, urush jarayonlarini yoritadigan jurnalist deb izohlanadi⁸⁵.

Harbiy jurnalistikaning tinchlik davrida, mustaqillik yillarida rivojlanishini tadqiq etish jarayonida «tinchlik jurnalistikasi» («peace

⁸⁴ Рожков А. Тенденции развития военной печати Республики Казахстан. Алматы, 1998. – С. 10.

⁸⁵ <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Мурожаат вақти: 20.11.2021.

journalism») atamasiga duch keldik. Harbiy jurnalistikaning G'arb olimlari tomonidan ilgari surilgan bu atama mamlakat osoyishtaligini targ'ib qiladigan, ehtimoliy ziddiyatlarni bartaraf etish, tinch yo'l bilan hal etishga hissa qo'shadigan, matbuotning ijtimoiy mas'uliyat nazariyasiga asoslangan maxsus uslubi sanaladi. Ommaviy kommunikatsiya nuqtai nazaridan ilgari surilgan bu kontseptsiya realizmdan kelib chiqib, kuchli, barqaror chiziqli media effektlarga asoslanadi⁸⁶. Avtonom tizimdan farqli o'laroq, urushni tinch yo'l bilan hal etishda yetakchi ishtirokchi bo'lib emas, faol targ'ibotchi sifatida qatnashish tinchlik jurnalistikasining vazifasi hisoblanadi. Chunki mamlakatning tashqi siyosati yoki mudofaa salohiyati bilan shug'ullanuvchi vazirlik va idoralardan ko'ra, medianing potentsial ta'siri nisbatan cheklangan. Shunday bo'lsa-da, qurolli mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga munosib hissa qo'shadi. Boshqa ommaviy axborot vositalariga qaraganda, urush va mojarolar haqida ko'proq fikr yuritsa-da, tinchlik jurnalistikasini barqaror va yanada muvozanatli nuqtai nazarni ilgari suradigan jurnalistika deb ta'riflash mumkin.

Chunki u tinchlik davrida harbiy sohani har tomonlama qamrab, urush va zo'ravonlikning oldini olish, ehtimoliy sabablari va oqibatlarini aniqlash, tahlil qilishga intiladi. Ammo bunda media muhiti harbiy hayot haqida jozibali xabarlar va ma'lumotlar bilan to'ldiriladi, degani emas. Aks holda tinchlik targ'iboti ishontirish spektrini shakllantiribgina qolmay, uning teatrlashtirilishi, voqelikning aktyorlar, tayyor ssenariy, rekvizit va kostyumlar bilan bajarilishiga olib keladi. Natijada harbiy ma'muriyatning jamoatchilik bilan aloqalari ritorik tamoyillarga asoslanib, harbiy OAV «ishontirish jurnalistikasi» vazifasi bilan shug'ullanadi, tizimdagi jamoatchilik nazorati turli ommaviy ko'ngilochar tadbirlar hamda hisobot uchun ishlaydi.

Zamonaviy harbiy jurnalistika mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosati doirasida ish ko'radi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasiga ko'ra, mamlakat mudofaasi – O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi, aholisining tinch hayoti va xavfsizligi himoya qilinishini ta'minlovchi

⁸⁶ [Thomas H.](#) Journalists as peacekeeping force? Peace journalism and mass communication theory. Journalism studies. Oxford Bibliographies, 2010. – P. 183.

nafaqat siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, tashkiliy tusdagi, balki **axborotga** oid chora-tadbirlar tizimini ham o‘z ichiga qamrab oladi⁸⁷. Shu bois zamonaviy harbiy jurnalist Mudofaa doktrinasida belgilangan asosiy strategiya va tayanch tushunchalar mohiyatini bilishi kerak. Misol uchun, qurolli mojaro va harbiy mojaroni ko‘pchilik bir xil sinonim tushuncha deb hisoblaydi. Ammo qurolli mojaro davlatlar o‘rtasidagi (xalqaro qurolli mojaro) yoki bir davlat hududi doirasidagi (ichki qurolli mojaro) qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, milliy, etnik, diniy va boshqa ziddiyatlarni hal etish maqsadidagi miqyosi cheklangan qurolli to‘qnashuv (harakat, janjal) bo‘lib, bunda urush holati e‘lon qilinmaydi. Harbiy mojaro esa davlatlar o‘rtasidagi yoki davlatning ichki qarama-qarshiliklarini harbiy kuch qo‘llagan holda hal etish shaklidir. Bu qurolli kurash olib borishning barcha turlari, jumladan, urushlar va qurolli mojarolarni qamrab oladi⁸⁸. Harbiy tajovuz deganda esa, respublika suvereniteti, hududiy yaxlitligi va davlat mustaqilligiga qarshi harbiy kuchni qo‘llash tushuniladi.

Harbiy jurnalistika Qurolli Kuchlarning rivojlanish jarayoniga hamnafas, hatto bir qadam oldinda bo‘lishi kerak. Gazeta va jurnallar nafaqat sohada amalga oshirilgan ishlar va bosib o‘tilgan yo‘lni ko‘rsatadi, shuningdek, bu yo‘lda harbiy xizmatchilarning manfaatlarini ifodalaydi. Buning uchun O‘zbekiston hamda jahonning harbiy salohiyati, jangovar holatini o‘rganish, hisobga olish juda muhim. Bundan tashqari, u alohida ixtisoslashgan ijodiy faoliyat shakli bo‘lib, vazifalari, tamoyillari va samaradorligi nuqtayi nazaridan muammolar, qarama-qarshiliklar yo‘q emas. Mamlakat Qurolli Kuchlari va mudofaasini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning jismoniy, axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni hal etish harbiy axborotga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Салиева, М. К. (2020). ПРИНЦИПЫ ИНФОРМАЦИОННО-ПРАВОВОЙ СВЯЗИ И ШКОЛЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (4), 10-18.

⁸⁷ Ўзбекистон Республикасининг «Мудофаа доктринаси тўғрисида»ги қонуни. Электрон ресурс: www.lex.uz/doc/3495885. Мурожаат вақти: 21.11.2021.

⁸⁸ О‘sha manba. – Б. 3.

2. Artikova, M. (2015). Los problemas culturales de aprender: La lengua española por los estudiantes uzbekos. In *La enseñanza del español en el contexto de las artes y la cultura: actas del XLIX Congreso Internacional de la Asociación Europea de Profesores de Español (AEPE), celebrado en Ávila (España), del 21 al 25 de julio de 2014* (pp. 127-132). Asociación Europea de Profesores de Español (AEPE).
3. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
4. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
5. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
6. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
7. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

YANGILIKLAR TARJIMALARINING TARJIMADAN KEYINGI TAHRIRLASH USULLARI BO‘YICHA TADQIQOTLAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461204>

Sayyora QUROLOVA,

TDSHU o‘qituvchisi,

Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +99890 013 40 19;

E-mail: snow64795@gmail.com

Annotatsiya. *Mashina tarjimasining tarjimadan keyingi tahrir usuli tarjimonlarning ish samaradorligini samarali oshiradi, shu qatorda umum jahon tillarining hizmatida keng qo‘llaniladi. Ushbu maqola tarjimadan keyingi tahrirlashning, yangiliklar tarjimasida ishlatilishini qisqacha yoritib berib, ko‘p qo‘llaniladigan tarjimadan oldingi va keyingi tahrirlash usullarini umumlashtiradi.*

Kalit so‘zlar: *yangiliklar tarjimasi; mashina tarjimasi; post-tahrirlash;*

Аннотация. *Метод постпереводческого редактирования машинного перевода эффективно повышает эффективность работы переводчиков и широко используется в обслуживании всех языков мира. В этой статье кратко рассматривается использование редактирования после перевода при переводе новостей и обобщаются наиболее часто используемые методы редактирования до и после перевода.*

Ключевые слова: *Перевод новостей; машинный перевод; постпереводческое редактирование;*

Abstract. *The post-translation editing method of machine translation effectively increase the work efficiency of translators, and is widely used in the service of all world languages. This article briefly covers the use of post-translation editing in news translation and summarize the most commonly used pre- and post-translation editing techniques.*

Key words: *News translation; machine translation; post-editing;*

Yangiliklarni tarjima qilishning har qanday usulidan qat’i nazar, dolzarbligi asosiy talabidir, tarjima tezligi esa yangiliklarning dolzarbligiga erishishning muhim vositasi bo‘lib keladi. Masalan Biels&Bassnett (2011:91) aytib o‘tganidek, “Tezlik sifat kabi juda muhimdir, u sifatning bir qismidir [32,115]. Yangiliklar matnining chiqishi biroz noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, balkim mukammal ham bo‘lmasligi mumkin, lekin tezlik bo‘lishi kerak. Tezlik yangiliklarni tarjima qilish

jarayonining ajralmas qismidir.” Tezlikka urg‘u berish, yangiliklar tarjimasining umumiy tarjimadan farq qiladigan xususiyatlaridan biri bo‘lishi mumkin. Albatta, tezlikni ta’kidlar ekanmiz, aniqlikni ham unitmasligimiz lozim. Asl matnning mazmuniga, keltirilgan faktlariga sodiq bo‘lishimiz, asl matnning ma’lumotlarini o‘z xohishimiz bilan buzmasligimiz kerak. Hattoki tahrir qilishda ham uni kontekstdan olib tashlash yoki qisqartirib tashlash mumkin emas. Bu yangiliklar tarjimonlari uchun asosiy talab hisoblanadi. Professional yangiliklar tarjimonlari qanday qilib yangiliklarni tez va to‘g‘ri turli xil tillararo va madaniyatlararo tarqatishi mumkin? Mashina tarjimasining tarjimadan keyingi tahrirlash usuli bunga samarali natija bera oladi.

Tarjimadan keyingi tahrir. Mashina tarjimasining (PE) tarjimadan keyingi tahrirlashi dunyo tillari xizmati sohasida katta qo‘llanishga erishgan. Shu sababli ko‘pgina yirik kompaniyalar va muassasalar o‘zining tarjimadan keyingi tahrirlash guruhidan foydalanishadi, bularga: Microsoft, SDL, international, TAUS (tarjima avtomatizatsiyasi foydalanuvchisi Society) va boshqalar. Common Sense Adversary firmasi tomonidan taqdim etilgan “2016-yilda til xizmati imperiyasi” hisobotiga ko‘ra, 2016-yilda mashina tarjimasidan keyingi tahrirlash til xizmatlari bozorining 3,94 foizini tashkil qilgan va til xizmatlarini ko‘rsatuvchi provayderlarning 25,39 foizi til xizmati tarjimadan keyingi tahrir xizmatini taqdim etadi.⁸⁹ Bundan tashqari ushbu aytib o‘tilgan xizmatning porloq kelajagi bor deb hisoblashgan, shu orqali “Post-tahrirlash asosiy oqimga aylanadi” nomli mavzuda tadqiqot hisobotini e‘lon qiladi.

Barcha tarjimadan keyingi tahrir ma’lum bir maqsadlarga ko‘ra mashina tarjimasining asl nusxasini qayta ishlash va o‘zgartirish jarayonini bildiradi. Shu jumladan u tarjima (til) xatolarini tuzatish, mashina tarjimasining aniqligi va o‘qilishini yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Ular orasida tahrirlash va qayta ishlash darajasi turli omillar bilan belgilanadi, jumladan, o‘quvchining taklifi, o‘quvchining talabi, hujjat turi, mashina tarjimasini chiqishi sifati, hujjatning xizmat qilish muddati va boshqalar. Tahrirlash darajasiga ko‘ra, tarjimadan keyingi tahrirni yengil post-tahrirlash va to‘liq tahrirlashga bo‘lish mumkin [10,110]. Birinchisi

⁸⁹ Anonymous. The accept project [DB/OL]. Retrieved from <http://www/accept-project/eu/,2012-05>.

odatda ma'lumotni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan, shu bilan birga ichki tarjimaga tegishli bo'ladi, ikkinchisi odatda ma'lumot tarqatish uchun va tashqari tarjima turiga kiradi. Tatsumi shunday nuqtai nazarni ifodalaydi, ya'ni asl matnning ma'nosi to'g'ri yetkazilganligi, tarjima tili grammatikasiga mos kelishi, tarjima estetikasi va uslubidan qat'i nazar, o'quvchiga tushunarli bo'lishi kerak [8,104]. Post-tahrirlashning asosiy tamoyillarini, shuningdek, eng kam tahrirlash kuchini ishlatish, tushunarli bo'lgan tilda mashina tarjima qilingan ma'zmunli va to'g'ri matnni o'z ichiga oladi. Tarjimadan keyingi tahrirning o'ziga xosligi bu uning muayyan bir vaziyati orqali belgilanadi, masalan tarjimadan keyingi tahrirlashning maqsadi va darajasi, til turi va mashina tarjimasi tizimlarining ishlashi va o'ziga hos xususiyatlari. Xitoyning xorijiy tarjimadan keyingi tahriring tadqiqotlari 30 yildan ortiq tarixga ega.⁹⁰So'ngi o'n yil ichida Xitoy davlati ichida tarjimadan keyingi tahrirlarga katta e'tibor bera boshlashdi, ba'zi maqolalar birin-ketin nashr etila boshladi, lekin ularning aksariyati umumiydir. Masalan: Vey Changhong, Chan Chunbo va boshqalar tarjimadan keyingi tahrirning o'ziga xos qo'llanilishini va uning tahrirlarini tayyorlashni o'rgandilar. Tarjimadan keyingi tahrir tarjimonlarning ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi va loyiha siklini qisqartirishi mumkinligini hisobga oladigan bo'lsak, u yangiliklarni, ayniqsa, ma'lumotlarni yetkazadigan yangiliklarni tarjima qilish sohasida ham juda foyda keltiradi. Elmin & Carl (2014) professional tarjimonlarning 90 soatlik tarjimadan keyingi tahriri va tarjimoni taqqoslab, ularning ma'lumotlarini o'rganib chiqdi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, tarjimadan keyingi tahrirlash to'liq qo'lda tarjima qilishdan 25% samaraliroqdir. Bu ham ma'lum darajada Tarjimadan keyingi tahrirni professional yangiliklar tarjima qilish sohasidan to'liq foydalanishi, inson va mashina birgalikdagi afzalliklaridan ham to'liq foydalana olishi, va shu orqali yangiliklar tarjimonlarining ish tartibini yangilashi mumkinligini ko'rsatib keldi.

⁹⁰ LDC (Linguistic Data Consortium). Post Editing Guidelines for BOLT Machine Translation Evaluation [DB/OL]. Retrieved from <https://www.lde.upenn.edu/sites/www.lde.upenn.edu/files/bolt-pl-post-editing-guidelines-c1.2.pdf>, 2012.

Yangiliklar tarjimasini tahrirlashdan keyingi amaliyot.

Tarjimadan keyingi tahrirlash tarjimadan oldingi tahrirni istisno etmaydi. Tarjimadan oldin tahrirlashning asosiy maqsadi mashinalarga aniqroq tarjima qilish imkonini berish va shu orqali tarjimadan keyingi tahrirlovchilarning ish kuchini kamaytirishdir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tarjimadan oldingi tahrirlash tarjimadan keyingi tahrir uchun xizmat qiladi yoki tarjimadan oldingi tahrir keng ma’noda, ayniqsa, to‘liq tahrirlash uchun tarjimadan keyingi tahrirning ajralmas qismidir.

Tarjimadan oldin tahrirlash. Tarjimadan oldin tahrirlash mashina tarjimasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni kamaytirish va mashina tarjimasining aniqligini oshirishga yordam beradi. Tarjimadan oldin tahrirlash vositalariga asosan quyidagilar kiradi: boshqariladigan tildan foydalanish (Controlled Language), uzun gaplarni segmentatsiyalash, gap tartibini sozlash, olmoshlarni almashtirish, noaniqlikni hal qilish, jumla komponentlarini qo‘shish va o‘chirish, sinonimlarni almashtirish va boshqalar. Agar bir necha tillardagi yangiliklar bir vaqtning o‘zida nashr etilsa, yangiliklar yozish uchun boshqariladigan tillardan foydalanish, shubhasiz, mashina tarjimasini va tarjimadan keyingi tahrirga ko‘proq yordam beradi. Biroq, yangiliklar tarjimonlari ko‘pincha nashr etilgan yangiliklarga duch kelishadi va boshqariladigan tarjimani amalga oshira olmaydilar. Ular faqat tarjimadan oldin tahrirlash uchun boshqariladigan tillardan foydalanishlari mumkin. Tarjima oldidan tahrirlashning boshqa usullarining aksariyati boshqariladigan tilda yozishning asosiy talablarini ham aks ettiradi. Shu bilan birga ingliz tilidagi uzun va murakkab jumlar uchun asosiy jumlaning to‘liq va uzluksiz ifodalanishini amalga oshirish, ushbu jumlaning grammatik darajasini va qiyinligini kamaytirish uchun tarjimadan oldin tahrirlash paytida interjentsiyalar kabi o‘rnatilgan komponentlar ham o‘chirilishi mumkin. Agar tarjimon o‘chirilgan qo‘shimchani muhimroq deb hisoblasa, uni alohida tarjima qilish ham mumkin. Yangiliklar tarjimasini asosan kompilyatsiya shaklida amalga oshirilganligi sababli o‘chirish usullari, jumladan, ayrim ikkinchi darajali iboralar, paragraflar va jumladan ko‘proq foydalaniladi. Bu o‘chirish vazifalari tarjimadan oldingi tahrir bosqichida ham bajarilishi mumkin.

Tarjimadan keyingi tahrir. Tarjimadan keyin tahrirlash doirasi asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kishilar, joy va atamalarning nomlari

to'g'ri va izchil qo'llanilganligini tekshirish; So'zlarning tarjimasini to'g'ri va bir ma'noli bo'lishi, aniq kontekstga mos kelishi, mo'ljallangan sintaksis va ifoda odatlariga mos kelishi; Madaniy yoki mafkuraviy nizolar bor yo'qligi va hokazo; Yangilik tarjimasining tarjimadan keyingi muharrir birinchi navbatda tarjimaning ishonchliligi, ob'ektivligini ta'minlashi, mashina tarjimasini natijasida kelib chiqqan manba matnining noto'g'ri talqin qilinishini bartaraf etish choralarini ko'rish, va tarjima qilingan matnni o'quvchilarga grammatik jihatdan to'g'ri tarjimasini yetqazib berilishini ta'minlashi kerak. Bular esa tarjimaning o'qilishi yoki nafisligini oshirishdan ko'ra muhimroqdir. Yangiliklar tarjimalari qaysidir kanal orqali ommaga e'lon qilinishi kerakligini inobatga olsak, umuman olganda, ular to'liq tahrirdan keyin amalga oshiriladi. Biroq, yangiliklarning dolzarbligi cheklanganligi sababli, ma'lumotlarning maqbulligi va ishonchli uzatilishi sharti bilan tarjimaning grammatikasiga, uslubiga, uyg'unligi va yozuv odatlariga qo'yiladigan sifat talablariga nisbatan erkinroq bo'lib, yangiliklar tarjimasining samaradorligi va uning tarqatish tezligini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Anonymous. The accept project [DB/OL]. Retrieved from <http://www/accept-project/eu/2012-05>.
2. Bielsa, E. & S. Bassnett. Translation in Global News [M]. Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2011.
3. Elming, J. & M. Carl. Investigating user behavior in post-editing and translation using the CASMACAT workbench [A]. In O'Brien, S. (ed.). Post-editing of Machine Translation: Processes and Applications [C]. Newcastle: Cambridge Scholars Publishing, 2014.
4. LDC (Linguistic Data Consortium). Post Editing Guidelines for BOLT Machine Translation Evaluation [DB/OL]. Retrieved from <https://www.lde.upenn.edu/sites/www.lde.upenn.edu/files/bolt-pl-post-editing-guidelines-c1.2.pdf>, 2012.
5. Tastumi, M. Post-Editing Machine Translated Text in a Commercial Setting: Observation and Statistical Analysis [D]. Dublin: mDublin City University, 2010.
6. 魏长宏, 张春柏. 机器翻译的译后编辑[J]. 中国科技翻译, 2007 (3).
7. Hamidov, X., & Abduraximova, D. (2019). Приведение фразеологизмов в переводе с японского на узбекский. *Sharqshunoslik*, 4(4), 100-112.

-
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
 9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
 10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
 11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
 12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

HINDISTON MATBUOTI HAQIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461214>

Gulnoza NAZRULLAYEVA, TDSHU tayanch doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston. Tel: +99899 828 53 46;
E-mail: gulnoza90@list.ru

Jayrona NOMOZOVA, TDSHU 3-kurs talabasi,
Toshkent, O‘zbekiston. Tel: +998 95007 20 37;
E-mail: jayronanomozova76@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Hindistonning yetakchi gazeta-jurnal assotsiatsiyalarining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari, Hindiston matbuotida kapital markazlashuvining xususiyatlari ko‘rib chiqilib, Hindiston media sanoatining hozirgi bosqichdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *matbuot, gazeta, jurnal, media, OAV.*

Аннотация. *В статье рассматриваются процессы формирования и развития ведущих газетно-журнальных объединений Индии в первые годы независимости, особенности централизации капитала в индийской прессе, дан анализ положения индийской медиаиндустрии на современном этапе.*

Ключевые слова: *Пресс, газета, журнал, СМИ.*

Abstract. *The article examines the processes of formation and development of the leading newspaper and magazine associations of India in the first years of independence, the features of the centralization of capital in the Indian press, and analyzes the position of the Indian media industry at the present stage.*

Key words: *Press, newspaper, magazine, mass media.*

*Jurnalist erkin bo‘lishi uchun u
axborot tashkilotini boshqarishi va
unga egalik qilishi kerak.*

Arnab Goswami

Asosiy qism: Vaqtli matbuot nashrlari sonining o‘sib borishi bo‘yicha Hindiston duyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Mamlakat hududida 49 ming 145 nomda gazeta va jurnallar chop etiladi. Chunonchi, o‘tgan asrning oxirgi yillarida ularning soni 46 ming 655 tani tashkil qilgan bo‘lsa, bugunga kelib, qisqa vaqt ichida ular soni 5,34 foizga ko‘paygan. Hindiston matbuoti uchun ko‘p tillilik xos bo‘lib, mamlakat hududidagi matbuot nashrlari 100dan ziyodroq tillarda chop etiladi.



Vaqtli nashrlarning eng ko‘pi – 19.865 tasi hindiy tilida, 7.715 tasi ingliz tilida, 2.848 tasi urdu tilida chiqariladi. Kundalik gazetalar kashmir tilidan tashqari Hindistonning qariyb barcha tillari (dialektlari)da nashr qilinadi. Vaqtli matbuot mamlakatning barcha shtat va hududlarida chiqadi. Kundalik gazetalarni chiqarish bo‘yicha Uttar Pradesh shtati yetakchilik qiladi. XXI asrning dastlabki yillarida hind gazetalarining umumiy adadi 12 milliardni tashkil qilgan [1].

Mamlakatda hozirga qadar OAV orasida matbuot o‘z yetakchiligini qo‘ldan bermay kelmoqda. Matbuot nashrlarining xarakteri turlicha bo‘lib, ular har xil ijtimoiy, milliy, iqtisodiy kompaniyalar bilan bir qatorda aynan matbuot uchun ixtisoslashgan yirik tashkilotlar yordamida ham chiqadi. Jumladan, “Indian Newspaper Society” (INS - “Hind gazetalari jamiyati”) tomonidan mamlakat miqyosida 733 ta matbuot nashri chop etiladi. Ulardan 338 tasi kundalik, 105 tasi haftalik, 56 tasi haftada 2 marotaba, 54 ta oylik nashrlar va yana boshqa turdagi nashrlar. Uning gazetalari orasida eng yirigi va mashhuri “Indian Today” (“Bugungi Hindiston”) 410,055 adadga ega [5,640].

Hindistondagi eng yirik matbuot nashrlariga quyidagilarni kiritish mumkin (adadlar 1996-yil ma’lumoti):

“Molyanan Monashara” - 811.639 nusxa

“Gujarot Samachar” - 680.517 nusxa

“Tayms of India” - 988.676 nusxa

“Sandin” - 537.083 nusxa

“Sandi Tayms” - 1.090.453 nusxa.

“Hindu” - 536.438 nusxa.

“Ananda Bazar Patrike” - 503.604 nusxa [2, 4].

Hindiston qariyb 70 % aholisi savodsiz bo‘lgan mamlakat va bu albatta mamlakatda radio va televideniyaning rolini pasaytirmaydi. Hindistonda 48 tadan ortiq radiostansiyalar mavjud bo‘lib, ular turli mahalliy hududlar sharoitidan kelib chiqib, o‘sha hududlar uchun nisbatan asosiy bo‘lgan 80 dan ortiq dialektda o‘z dasturlarini uzatadi. Umum Hindiston radiosi yangiliklar, turli mavzudagi suhbatlar, qishloq aholisi uchun maxsus



eshittirishlar, munozaralar, musiqiy, adabiy hamda bolalarga bagʻishlangan eshittirish dasturlari bilan mamlakatda mashhur. Kalkutta, Bombay, Madras va Dehli kabi markaziy shaharlarda bir qator tijoriy radiokanallar ham faoliyat koʻrsatishadi. Ular dasturlarining asosini reklamalar hamda xorijiy auditoriyaga moʻljallangan dasturlar muhim oʻrin egallaydi [3].

Hindistonda ilk telestansiya 1959-yilning 15-sentyabrida ochilgan. 1960-70 yillarda Dehli va Bombayda, 1974-yilga kelib Madras, Kalkutta va Kanpurda telemarkazlar birin-ketin ishga tushdi. Televideniye nodavlat tashkilot maqomini ola boshladi. 1976-yilning aprelidan davlat televideniyesi umumhindiston radiosidan ajralib chiqdi va “Durdarshan” deb nomlana boshladi.

Soʻnggi yillarda mamlakatdagi mavjud ommaviy savodsizlikni kamaytirish va bu yoʻlda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan axborot taqchilligining oldini olish maqsadida 1980-90 yillarda televideniye sohasida jiddiy ijobiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga erishildi. Mazkur oʻzgarishlar televideniye sohasiga davlat mablagʻi bilan birga xususiy sarmoyalarni jalb etishni yoʻlga qoʻyish va provard natijada yangi texnik-texnologiya va kadrlar malakasini oshirish masalalarining oson hal boʻlgani bilan izohlanadi [4].

Hindiston televideniyesi faoliyati va dasturlarini mamlakat boʻylab tez tarqalishiga bir qator jiddiy toʻsiqlar mavjud. Bulardan biri aqolining qariyb 70 foizi qishloq joylarida yashaydi va koʻpchilik qishloqlar elektrlashtirilmagan yoki elektr taʼminoti borasida qali ham jiddiy kamchiliklar bartaraf etilmagan.

Hozirgi vaqtda Hindiston televideniyeidagi dasturlarning uchdan bir qismi dam olish, 20-25 %i maʼrifiy, 20 %i axborot va qolgani ijtimoiy va boshqa jiddiy masalalarga bagʻishlangan [6].

HINDISTON GAZETALARI VA ULARNING ASOSCHILARI

Hindistonning ilk gazetolari	
Gazeta nomi	Asoschisi

Bengal Gazette	J.K.Hickey
Kesari	B.G.Tilak
Maratha	B.G.Tilak
Sudharak	G.K.Gokhale
Amrita Bazar Patrika	Sisir Kumar Ghosh and Motilal Ghosh
Vande Mataram	Aurobindo Ghosh
Native Opinion	V.N.Mandalik
Kavivachan Sudha	Bhartendu Harishchandra
Gujarotdagi ilk gazetalar	
Rast Goftar	Dadabhai Naoroji
New India (Weekly)	Bipin Chandra Pal
Statesman	Robert Knight
Hindu	Vir Raghavacharya and G.S.Aiyar
Sandhya	B.B.Upadhyaya
Vichar	Lahiri Krishnashastry Chiplunkar
Hindu Patriot	Girish Chandra Ghosh
Som Prakash	Ishwar Chandra Vidyasagar
Jugantar Patrika (Bengali)	Bhupendranath Datta, Barinder Kumar Ghosh, Abhinash Bhattacharya

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 10. Журналистика. 2006. №5
2. Vidura, New Delhi. 2005. N 3. P. 4
3. The Hindu, New Delhi. 2005. 9 June.
4. The Hindu. 2005. 22 Aug.; The Asian Age, New Delhi. 2005. 24 Sept.
5. India 2004, New Delhi. P. 532; India 2005. P. 540-542; India 2006. P. 640.
6. History of journalism in India. *School of Distance Education*. New Delhi. 2011.
7. Fatxutdinova, I. A. (2021). TARJIMADA EKVIVALENTLIKNING MULOQOT MAQSADINI IFODALASH VOSITALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 140-149.

-
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
 9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (12), 374-377.
 10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
 11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
 12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.

YANGI O‘ZBEKISTONDA “UCHINCHI RENNESANS” POYDEVORINI YARATISHDA OAVNING AHAMIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461230>

Ruxsora ELMURATOVA,
TDSHU tadqiqotchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998 94 625 88 29;
E-mail: ruxsora@internet.ru

Annatatsiya. XXI asr – shiddatkor, tezkorlik, axborot va axborot texnologiyalari asri, intellektual resurslar yuksak texnologiya hamda zamonaviy bilimlar insoniyat taraqqiyotining asosiy hal qiluvchi omillariga aylanayotgan davr bo‘lib turibdi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy O‘zbekiston, prinsip, kommunikatsiya, islohot, huquq, globallashuv, ijtimoiy siyosat.

Аннотация. XXI век – век стремительности, скорости, информации и информационных технологий, интеллектуальных ресурсов, высоких технологий и современных знаний становящая главными решающими факторами развития человечества.

Ключевые слова. Современный Узбекистан, принцип, коммуникация, реформа, глобализация, социальная политика.

Summary: The 21st century is the century of swiftness, speed, information and information technologies, intellectual resources, high technologies and modern knowledge, becoming the main decisive factors in the development of mankind.

Keywords. Modern Uzbekistan, principle, communication, reform, globalization, social policy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Hech shubhasiz, o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt, katta sharafdir” – deyiladi [1]. Bu yerda ilg‘or qarashlarning keng rivoj topgan huquqiy axborot kommunikatsiyasini o‘zida aks ettiradi. Tajribali tarixiy davr

muammolari, asarlarda kengroq ta'riflanadi, ular hayotda tanish bo'lgan va odatiy bo'lgan kundalik va nafaqat kundalik aloqada bo'ysunadilar. Ushbu o'zgarishlar huquqiy tartibga solish sohasidagi eski va yangilari, uning qonuniyligi, samaradorligi, shuningdek, huquq siyosatining mumkin bo'lgan istiqbollari to'g'risida bizning muammolarimiz va fikrlarimizning tuzilishida sezilarli darajada o'z aksini topgan.

Xo'sh axborot globallashuvi jadal davom etayotgan hozirgi davrda davlat va jamiyat boshqaruvida axborot huquqiy kommunikatsiya qanday o'rin tutadi? Ta'bir joiz bo'lsa, axborotlashgan jamiyatning u yoki bu unsurlari amalda qo'llanilayaptimi? Qo'llanilgan bo'lsa, ular qanday shakllarda hayotga joriy etilmoqda?

Bugungi ijtimoiy zarurat asrimiz kishilari, jumladan, soha mutaxassisleri oldiga shu singari savollarni qo'ymoqda. Zero, bugungi kunda davlatimiz jamiyatni boshqarishda o'ziga xos tajribalar to'plagan tabiiy. Qolaversa hech bir jamiyatni ijtimoiy, huquqiy axborot kommunikatsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar va yuksalishlar davrida xuquqiy axborot kommunikatsiyasini xalqimiz ma'naviyatining bir ko'rinishi, zamonaviy axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos ildizlari sifatida o'rganish dolzarb vazifa sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Albatta biz rejalashtirayotgan barcha o'zgarishlarning nihoyatda ko'p qirrali va o'ta muhim ekanini men chuqur tushunaman, biroq yo'limizda qanday to'siq va qiyinchiliklar, keskin va dolzarb muammolarga duch kelsak ham, shoshma-shosharlik bilan, pala-partish qarorlar qabul qilishga, yaxshi o'ylab ko'rilmagan hatti-harakatlarga yo'l qo'yishga haqqimiz yo'q" [2.54].

Jahon siyosatida axborot kommunikatsiyasining davlat boshqaruvidagi ahamiyati davlat tashqi siyosatidagi roli bilan bog'liq hokimiyatning demokratik tamoyillariga doir muammolarni davlat va jamiyat boshqaruvidagi ahamiyati sathida o'rganish hamda uni anglash zarurati filologiya sohasida ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'ymoqda. Jahon madaniyatining yuksak namunalari joriy asrga kelib, global ilmiy muammo doirasida o'rganilayotgani sir emas. Jarayonda gumanitar sohalarda mazmunan mukammal, sifat jihatidan o'ta yangi

ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyatlar yetarli. Bundan unumli foydalanayotgan jurnalistika ilmi ham o‘z ob’ektiga yangi nigoh bilan qarash, axboriy-huquqiy kommunikatsiyaga oid muammolarni chuqurroq anglash yo‘lidan bordi.

Ijtimoiy muhit hamisha adabiy-ma’naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq holda bo‘ladi. Bugungi davr kishilari ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilik va o‘zgarishlar birlamchi holatda, huquqiy, madaniy, ma’naviy, axborot kommunikatsiyasi tarmoqlarida o‘z aksini topadi. Ayniqsa, davlat va jamiyat boshqaruvida ancha murakkab hamda sinchkov yondashuvni talab etadigan huquqiy axborot kommunikatsiyasi, uni keng ko‘lamli tadqiq etish masalasi jurnalistika oldida turgan dolzarb muammodir.

Jurnalistikada bu sohadagi eng muhim vazifa axborot olish to‘g‘risidagi huquq va jamiyat boshqaruvida huquqiy axborotning ahamiyati bilan bog‘liq. Shu o‘rinda ta‘kidlash zarurki, axborot huquqi – axborotni (axborot resurslarini) yaratish, undan foydalanish, harakatlanishi va muhofaza qilish sohasidagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarning vujudga kelayotgan tarmoqlararo tizim bo‘lib, Qonun hujjatlarining umumiy majmuasidan zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish jarayonlarining kuchayishi va alohida kompleks tartibga solishni talab qiluvchi axborot munosabatlarining ahamiyati ortib borishi bilan bog‘liq tushuncha, kompyuter texnologiyalari, kengroq aytadigan bo‘lsak zamonaviy rivojlangan texnologiyalar, sohada ma‘lumotlarni nafaqat elektron shaklda, balki har qanday shaklda mavjuddir.

Axborot huquqi - bu huquq sohasidagi jurnalistik tekshiruvlarni ham o‘z ichiga oladigan tarmoq bo‘lib, axborotni xavfsiz qondirishni ta‘minlash maqsadida axborot aylanishi, axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish, axborot tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq axborot sohasidagi jamoat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisidir.

Dastlab "axborot" - odamlar tomonidan og‘zaki, yozma yoki boshqa usulda (odatiy signallar, olov, bayroq, mayoq va ranglar tarzida paydo bo‘lganligi va keyinchalik, texnik vositalar va boshqa usullar yordamida) uzatiladigan axborot, XX-asr o‘rtalaridan boshlab “axborot” atamasi

odamlar, inson va mashina, mashina va mashina o'rtasidagi axborot almashinuvini o'z ichiga olgan umumiy ilmiy tushunchaga aylandi, hayvon va o'simlik dunyosida signallar almashinuvi, belgilarning hujayradan hujayraga, organizmdan organizmga o'tishi (masalan, genetik ma'lumotlar); kibernetikaning asosiy tushunchalaridan biri (Axborot – so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, informatsiya, bu tarjimada ma'lumot, aniqlik, tanishtirish ma'nolarini bildiradi). Zamonaviy dunyoda axborot eng muhim manbalardan biri va shu bilan birga, insoniyat jamiyati rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir.

XX-asr o'rtalarida fan sifatida vujudga kelgan informatika kibernetikadan ajralib chiqib, semantik axborotni olish, saqlash, uzatish va qayta ishlash usullari sohasida tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Ushbu tadqiqotlarni hayotga joriy etishda asosan huquqiy axborot kommunikatsiyasining ahamiyati nihoyatda katta hisoblanadi.

